REGARDING THE POSSIBLE RESULTS OF AMIR TEMUR'S CHINESE MILITARY CAMPAIGN...

*Orziyev Mahmud Zainiyevich,
Turon Zarmed University «History» department, Ph.D. (PhD)*

*Kenjayev Sardor Nurmurad,
teacher of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical
Institute*

Abstract: In this article, Amir Temur's relationship with the Chinese (Ming) dynasty escalated to the possibility of a military conflict, Amir Temur's preparations for the Chinese military campaign, the beginning of the military campaign, information about the number of Amir Temur's army during the military campaign, Amir Temur's possible relationship with China Mongolians in the north of China who claim the heritage of the former Yuan (Mongol) dynasty, who could be allied with him during the war, relations with Tibet, in addition, Mongols who lived in the territories of the Chinese Ming dynasty, the armament of Amir Temur's army, methods of tactical warfare, cannons and their use, the advantages of cavalry in mobile movement, the number of soldiers in China during the Chinese Ming Dynasty, their use of defensive tactics in battle, firearms, their firing distance, their role in battle, the fact that the princely states in China were not always subservient to the central authority, the presence of former imperial supporters dligi, when the news of the start of Amir Temur's military campaign reached the palace of the Min dynasty, opinions related to the measures taken by the Min dynasty were analyzed based on historical sources and literature.

Key words: Ming dynasty, military campaign, possibility of conflict, firearms, gunpowder, Tibet, Star Oasis, merchants, mobility, army size, Ashpara fortress, horse trade.

Kirish. Amir Temur saltanatining kuch-qudratga to'lgan vaqtida dunyoning yana bir yirik va qudratli davlati bo'lgan Xitoyda tashkil topgan Min saltanati ham o'z qudratining cho'qqisiga chiqqan edi. Xitoydan boshlangan buyuk ipak yo'lining ahamiyati bu davrdagi iqtisodiy munosabatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda katta rol o'ynagan. Amir Temur va Min saltanatlari o'rtasidagi munosabatlar yomonlashuvi 1397 yilda Min saltanati elchilarining Amir Temurdan o'zini Xitoy vassali deb tan olishi va o'lpon to'lashni talab qilib kelganligi sabab bo'lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[9, 73]. Bu kabi talab Amir Temurdek sarkarda va davlat rahbarini g'azablantirishi tabiiy bo'lib, shu vaqtdan boshlab Amir Temur Xitoy harbiy yurishiga tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan.

Adabiyotlar sharhi. O'rganilayotgan mavzuni biz asosan Amir Temur va temuriylar davri tarixini yorituvchi manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" va Boburning "Boburnoma" asarida Amir Temurning qo'shini tuzilishi, qurollanishi va harbiy harakatlarda ularni qo'llanilishiga oid ma'lumotlar berilgan. T. Dj. Barfild, A.A. Bokshanin, V.O. Zootov asarlarida Xitoyning o'sha davrdagi qo'shni davlatlar bilan munosabatlariga to'xtalgan. Bundan tashqari Amir Temurning mo'g'ullar bilan ittifoqi, ular bilan hamkorlikda Xitoyga hujum qilish ehtimollari, mo'g'ulistonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid masalalar Ch.Dalay S.I. Mshaneskiy, S.Lidskiylarning asarlarida to'xtalib o'tilgan. Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishni boshlash sabalari, bahonasi, harbiy yurishga tayyorgarlik masalalari H.Dadaboyev, B.A. Dosova, E.L. Dreyer, Z.T. Rajkai va

boshqalarning asarlarida keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin.

Natijalar va Munozara. Xitoy (Min) harbiy tayyorgarlik ishlari yetti yilga yaqin vaqtni o'z ichiga olib, qator ishlarni amalga oshirgan. 1397/98 yilda Ashparaga nabirasi Muhammad Sul-ton boshchiligida 40 ming kishilik qo'shinlarni yuborish bilan tayyorgarlik ishlari boshlanib, qo'shinlarni kichik guruhlar shaklida sharqqa tomon siljitishni boshlab yuborgan. Shuningdek, Ashparadan o'n kunlik masofadagi vayronaga aylangan Bosh Xumra nomli qal'asini tiklash, qo'shinni ozuqa bilan ta'minlash uchun dehqonchilik ishlariga rahbarlik qilish kabi ishlar ham bajarilgan[8, 316-317]. Qamariddin mag'lubiyatg uchratilgandan so'ng, Amir Temur uchun qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan Jung'or darvozasi, Tyanshan o'tish yo'laklari, Yulduz vohasi hududlaridan foydalanish imkoni tug'ilgan edi[15, 75]. Harbiy yurish boshlangan vaqtda Buyuk ipak yo'lining aynan shu yo'nalishdan foydalanishga urinilgan.

Xitoy harbiy yurishi davrida Amir Temur qo'shini xususidagi ma'lumotlar ham turlicha ekanligini ko'rish mumkin. Tarixiy adabiyotlarda Amir Temurning qo'shinlari umumiy soni 200 ming ekanligi tilga olib o'tilgan. Qo'shinning chap qanoti Sauronda (hozirda vayrona holatda), o'ng qanoti Sharaqiya (Shohruxiya-S.K., hozirda Sirdaryo bo'yidagi Buqa qishlog'i yaqinida), markazda Amir Temur O'rtorda to'xtagan[12, 52-53]. Ammo, ayrim adabiyotlarda qo'shin soni 200 mingdan 800 mingga bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, A.Sh. Kadyrbayev ma'lumotlariga qaraganda, Xitoyga qarshi 800 ming kishilik Movarounnahr saltanatidan qo'shin yo'lga chiqqan[9, 77]. Cho'qon Chingiz Valixonov Amir Temurning Xitoyga 600 ming kishilik qo'shin bilan chiqqan va askarlarga yetti yillik ulufa (maosh)larini oldindan berganligini, shuningdek, harbiy yurish boshlanishi jarayonida har bir askar ehtiyoji uchun ikki sigir va ikki echki olishni buyurganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tgan[4, 23]. Mirxond o'zining "Ravzat us-safo" asarida temuriy Sul-ton Ahmad (1469-1494 yy) saroyidagi o'sha davr devonxona hujjatlariga asoslanib, Xitoy harbiy yurishi oldidan 272 612 kishiga maosh berilganligi haqida yozgan[5, 85]. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur Ashpara tomon dastlab Muhammad Sul-ton, keyin Alloh-dod va boshqa sarkardalar orqali kichikroq harbiy otryadlarni Sharqqa siljitganligi evaziga Xitoy harbiy yurishida 200 mingdan ortiq qo'shin bilan harakatni boshlagan deb xulosaga kelish mumkin. Xitoy harbiy yurishi davrida havo sovuq bo'lganligi uchun Amir Temur otlar uchun jul (otlarning yopin-chig'i)lar jubba (odamlar uchun chakmonga o'xshash ustki kiyim)lar, o'ta sovuq vaqtlarda kiyiladigan mubattana (ostarlik ustki kiyimning bir turi), darak (teridan ishlangan qalqon), Zorat (sovut) kabilarni hozirlatgan[8, 319]. Harbiy yurishga har tomonlama tayyorgarlik ko'rilganligi ushbu harakatlardan ham anglash mumkin.

Urush va jang harakatlari taqdirini hal qilishda o'sha davr strategik nuqtai-nazaridan otliq askarlarni mohirona qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Amir Temur qo'shinini asosini otliq askarlar tashkil etgan bo'lib, ular ham ikki qismga bo'lingan. Birinchi qism yoy, sadoq va qilich bilan qurollangan askarlar asosan razvedka, soqchilik ishlari bilan shug'ullangan bo'lsa, ikkinchi asosiy qism dubulg'a, zirh (sovut), yoy, sadoq, qalqon, nayza bilan qurollangan og'ir qurolli suvoriylardan iborat bo'lib jang taqdirini asosan ular hal qilgan[5, 12-13]. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilib, amir Temur qo'shinlarida o'qotar qurollar, ra'dandozlar, to'pchilar ham bo'lgan deb aytishga to'la asoslar mavjud. Amir Temur qo'shinidagi ra'dandozlar soni 10 mingga yaqin bo'lib, ilk bora 1379 yil Urganch qamali davrida ularni qo'llagan[5, 20]. Amir Temurning Xitoy harbiy yurishida ra'dandoz va naftandozlarning katta qismi jalb qilinganligi shubhasizdir. Bundan tashqari Amir Temur qo'shinida artileriya ham mavjud bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Chunki, Zahriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma"sida to'p quyilishi va uni ishlatish bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, qozon (to'pning stvoli) va doru (porox, tosh snaryad) solib otilishi, Aliquli nomli to'pchi faoliyati keltirilgan. Birinchi

kun sakkiz va ikkinchi kun o'n olti marta otish bilan bog'liq ma'lumot, shuningdek, yasalgan yirik to'pning yorilib ketishi kabilar hali artileriya janglarda asosiy mavqeni egallamaganligini ko'rsatib beradi[2, 408-409]. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur Xitoyga harshi harbiy yurishida katta harbiy taktik-strategik tayyorgarlik ko'rgan. Buning ustiga Xitoyni XIII asrda istilo qilishga qatnashgan mo'g'ullar 40 tuman, mo'g'ullarning oyirat qabilalari 4 tumandan iborat bo'lib, umumiy 44 ming oilani tashkil qilganlar. Yuan sulolasi Xitoydan quvilgach, 40 tuman mo'g'uldan 6 tuman mo'g'ullar, 4 tuman oyiratlar Ulug' yurtga qaytgan. 34 tuman mo'g'ullar oilasi Xitoyda qolib ketgan[14, 55]. Xitoyning bir qator ichki o'lkalarida mo'g'ullar diasporasi salmog'i yuqori bo'lgan. Misol tariqasida Yunnanda 10 ming mo'g'ul oilasi yashaganligini keltirib o'tish mumkin. Imperator Chji Yuanchjan buyruq chiqarib, Xitoyda qolib ketgan mo'g'ullarni o'z vataniga qaytishga ruxsat bermagan. Shuningdek, ularni xitoyliklar bilan aralashib ketishlari uchun xitoyliklar bilan oila qurishga majburlagan. Buyruqni buzgan va o'z etnosi vakili bilan oila qurganlarni eri va xotini ham qullikka tortilgan. Ko'rilgan bu kabi choralarga qaramay Xitoy hududida Amir Temur va mo'g'ullar hujumini qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lgan 2 mln 500 ming mo'g'ullar mavjud bo'lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[14, 56-57]. Bundan tashqari Min sulolasidan norozi bo'lgan feodallar, sobiq imperator Chju Yunven tarafdorlari ham Xitoydagi siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan.

Min sulolasi dastlabki davrida Chju Yuanchjan hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng, butun Xitoy ikki qismga xalq-Min va armiya-szyunga bo'lingan. harbiylar va ularning oilalari harbiy xizmat uchun yer uchastkasi olganlar. bu ularni moddiy ta'minlashga xizmat qilgan. Mamlakatda urush davrida aholi sonining qisqarishi natijasida bu harbiy tizim birmuncha vaqt o'zini oqlagan[13, 23]. Ammo, ko'rilgan oralarga qaramay, taniqli xitoyshunos olim Bokshanin fikriga ko'ra, Xitoyning 1404-1405 yillarda tashqi siyosiy ahvoli og'irlashgan. Amir Temur tomondan bo'ladigan harbiy yurish xavfi kuchayish bilan birga, mo'g'ullarning bostirib kirish xavfi ham saqlanib qolingani[3, 81]. Bundan tashqari Yuan sulolasi qulashi bilan Tibetda ham siyosiy vaziyat o'zgargan. Mo'g'ullar tomonidan hokimiyat tepasiga qo'yilgan Sakya sektasi vakillarining ta'siri pasayib, Pxagmodu hokimi Changchub Djalsan hokimiyatni qo'lga kiritgan. Bir qator ijobiy islohotlarni amalga oshirib, yirik shaharlarga gornizonlar, Xitoy bilan yaqin chegaralarga qo'shin joylashtirgan[9, 122]. Amir Temurning ehtimoliy harbiy yurishida Tibet ham uning ittifoqchisiga aylanishi mumkin bo'lgan. Chunki, Min sulolasi Yuan sulolasi merosiga da'vo qilayotgandi. Bu esa Tibetni ham Min sulolasiga vassalligini tan olishni anglatgan.

Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishida tarixiy manbalarda keltirilgan askarlar soniga oid raqamlar Xitoyning ikki mlnli qo'shinidan ko'ra kam bo'lsada, yuqorida keltirilgan Xitoy shimolidagi mo'g'ullar, Xitoy ichki hududlaridagi mo'g'ullar, Tibetning Amir Temur siyosatiga xayrixohligi urushda Amir Temur qo'shinlari muvofaqiyati uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan. Amir Temurning Xitoy Min davlatiga qarshi harbiy yurishni boshlagani to'g'risida Xitoy tarixiy yilnomasi "Min shi"da Yun Le hukumronligining uchinchi yili (1405 y)da hali g'arbga ketgan Fu An va boshqa elchilar qaytmagan bo'lsalarda, imperator saroyiga Temurning Beshbaliq orqali Sharqqa qo'shin tortganligi ma'lum bo'ldi. Oliy hukumdor Gansu o'lkasi szunbinguan (qo'mondoni)i Sun Shenuga ehtiyot choralarini ko'rishni buyurdi mazmunidagi so'zlar yozilgan[10, 221]. Manbalarda poytaxtga arbiy yurish haqidagi xabarni Dao U nomi bilan tilga olingan musulmon savdogari yetkazgan[17, 53].

Min sulolasi tarixiga oid tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili sulola vakillari hukumronligi dastlabki davrida Xitoyda Amir Temurning harbiy qudratiga yetarlicha baho berilmaganligiga oid xulosalarga kelish mumkin. Bu ayniqsa, o'z g'alabalaridan ruhlangan Xun'u davri uchun xos xususiyat bo'lib hisoblanadi. Lekin, xitoyliklar armiyasining Amir Temur qo'shinlariga nisbatan o'z jihatlarini ko'proq edi.

Eng avvalo, Xitoy armiyasi uzoq vaqt davom etadigan harbiy yurishlarga bardosh berolmas edi. Ularda katta va suvsiz sahrolar, baland cho'qqili tog'larni oshib o'tish tajribasi bo'lmagan. Qo'shinda jangovar otlar yetishmagan, Xitoyda otlarning kamligi sababli xitoylik suvoriylar esa otda erkin o'tira olmagan[15, 75]. Bu esa strategik va taktik jihatdan Amir Temur qo'shinlarida ustunlik bergan. Xun'u davrida Xitoy armiyasi soni 2 mln kishiga yetgan bo'lib, qo'shin rekrutlikka olish tartibi asosida to'plangan[7, 61]. Shuningdek, Min sulolasi davri Xitoy harbiy san'ati qadimgi sarkardalar tomonidan ishlab chiqilgan taktik va strategik qarashlarga asoslangan va zamonaviy harbiy tashkilot, shuningdek, davlat iqtisodiyoti ehtiyojlariga javob bermagan. ko'pdan-ko'p harbiy qismlar va armiya sonining ko'pligi sarkardalarni jang vaqtida qo'shimmi boshqarishini qiyinlashtirgan[13]. Xitoy armiyasi o'ng, so'l, old, orqa va markaziy qismlarga bo'lingan holda joylashgan. Shuningdek, poytaxt Nankin (keyinchalik Pekin)da 400 mingga yaqin qo'shin joylashtirilgan. Imperator xonadonining van (knyaz) unvonli vakillari 3 mingdan 19 minggaacha qo'shin saqlash huquqiga ega bo'lgan. Bundan tashqari mo'g'ullar bilan chegara hududlarda tashkil etilgan okruglarda ham quyidagicha qo'shin joylashgan. Masalan, Lyaodun 87402 ming, Szichjou 50371 ming, Syuanfu 54909 ming, Datun 59909 ming, Sanguan 22093 ming piyoda, 11702 otiqlar, Yuylin 30 ming, Ninsya 70263 ming, Gansu 79945 ming, Guyuan 67294 ming jami; 533888 ming qo'shin joylashtirilgan[11, 59]. Ushbu qo'shinlarni markaziy hokimiyatga bo'yunsunishi katta qiyinchiliklar bilan amalga oshgan. Bundan tashqari Xitoy Min imperiyasi udel boshqaruviga asoslangan bo'lib, udel knyazlari hamisha ham markaziy hokimiyatga so'zsiz bo'yunsunmagan[6, 63]. Bu katta urush kelib chiqqan taqdirda udel knyazlar sadoqatini shubha ostiga qoldirgan deb xulosa qilish mumkin.

Dasht ko'chmanchi turmush tarzida o'sgan Amir Temur va uning ittifoqchisi bo'lgan mo'g'ul askarlari mobil va tez harakat qilishga odatlangan otliq qo'shinlariga Xitoy imperatori Yun-Le aniq tezda mudofa tashkil qila olmasligini yaxshi anglagan. Min sulolasi an'anaviy pozision himoya taktikasiga o'tgan[1, 187]. Ushbu an'anaviy himoya taktikasi qal'alar mudofasini kuchaytirish, Buyuk Xitoy devorida xavfdan ogohlantiruvchi signallarni ko'paytirish, choparlar va razvedkachilarni ko'paytirish kabilar bo'lgan. Amir Temurning ehtimoliy hujumidan mudofaani kuchaytirish maqsadida, hukumat mamlakatning shimoliy-g'arbiy chegara hududi hisoblangan Gansu va Ninsya o'lkasidagi qo'riqchi askarlarning hushyorligi oshirilgan, poroxli qurollar, qo'shimcha askarlar yuborganlar[3, 85]. Bu ehtimoliy urush harakatlari davrida mudofa qobiliyatini yetarlicha kuchaytira olmagan.

Min sulolasi ham Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishi ehtimollarini ham o'rganib chiqqan deb tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga tayanib xulosa qilish mumkin. Urushga tayyorgarlik ko'rishning birinchi vazifasi sifatida jang harakatlari olib boriladigan hududlarni nazorat qilishga imkon beruvchi birinchi vosita Imperator Yun-Le tomonidan poytaxtni Nankindan shimolga Pekin shahriga ko'chirilishi bo'lgan. Bu Xitoydan shimoldagi mo'g'ullar hatti-harakatlarini nazoratga olish imkonini bergan[16, 65]. Bundan tashqari Xitoyda harbiy texnika sohasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilgan va rmiyada qo'llanila boshlangan. Jumladan, Min sulolasi hukumronligi boshlarida o'q-yoylarning jamlanmasi otish mashinasi va reaktivni birlashtirgan qurilma ixtiro qilingan va u o'q otish masofasini ma'lum ma'noda uzayishiga va muntazam o'q uzishni ta'minlashga xizmat qilgan[6, 250]. Xoch deb nomlangan bu reaktiv o't ochish qurilmasi asosan psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lib, unda raketalar shovqin va tutin bilan ommaviy ravishda otilgan. Uchish masofasi 80-120 metr masofagacha yetib, aniq nishonga tegmasada shovqin, tutin ko'targan bu asosan dushman otlarini qo'rqitishga xizmat qilgan[11, 54]. Bu qurilma orqali aniq nishonga olish qiyin bo'lib raqib askarlari zich nuqtaga yo'naltirish orqali ularga zarar keltirishga harakat qilingan.

Bundan tashqari Xitoy qo'shinida mudofa janglarida to'plardan ham keng

qo'llanila boshlangan edi. Odatda Xitoy to'plari quviri cho'yan va temirdan bo'lib, tosh va metal snaryad otishga mo'ljallangan. Bugungi kunda Xitoyda saqlanib qolingani o'q otar to'plarining eng qadimgi 1351 yilga ta'luqli bo'lib hisoblanadi [6, 249]. Ammo, bu davrda to'plarining muntazam otib turishining imkoni mavjud bo'lmagan. Ularning quviri tez qizib ketishi ortidan otilmay qolishi kuzatilgan. Bu esa ularni jang vaqtida qo'shinga yetarli darajada yordam bera olmaganini bildiradi. Yuqorida keltirilgan fakt va mulohazalarga tayanib, Amir Temurning Xitoy harbiy yurishi uzoqqa cho'ziladigan amaliyot bo'lsada, unda g'alaba qozonish imkoniyatlari mavjud bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Amir Temur vafotidan so'ng Xizrxo'ja o'g'lonning 1407 yili temuriylar davlatiga qarshi Xitoy bilan harbiy ittifoq tuzishi ham amaldagi vaziyatga biror o'zgartirish olib kelmaganligini ko'rishimiz mumkin [10, 227]. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili Min sulolasi bu ittifoqqa e'tiborsiz bo'lgan degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temurning O'tror shahrida bevaqt olamdan o'tishi Xitoy harbiy yurishining barbod bo'lishiga, temuriylar o'rtasida taxt uchu kurashlarning avj olishiga sabab bo'lgan edi. Xitoy Min sulolasining katta sahrolar va tog'lar oshib uzoq masofada harbiy harakatlar olib borish tajribasining bo'lmaganligi sababli ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar tinch rivojlanish yo'lidan ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Барфилд Т. Дж. Опасная граница: кочевые империи и Китай (221 г. до н. э. - 1757 г. н. э.) / Пер. Д.В. Рухлядева, В.Б. Кузнецова; науч. ред. и пред. Д.В. Рухлядева. – Санкт-Петербург, 2009. – 248 с.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960. – 513 b.
3. Бокшанин А.А. Императорский Китай в начале XV века (внутренняя политика). – М.: Наука, 1976. – 202 с.
4. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том 4. – Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – 461 с.
5. Dadaboyev N. Amir Temurning harbiy mahorati / Mas'ul muharrir A.Qayumov /. – T.: Yozuvchi, 1996. – 96 b.
6. Досова Б.А. Страны Восточной и Юго-Восточной Азии в системе международных отношений (древняя и средневековая история Китая): учеб. пособие / Б.А. Досова. – Караганда:, 2020. – 266 с.
7. Зоотов О.В. Китай и Восточный Туркестан в XV-XVIII вв. Межгосударственные отношения. – М.: Наука, 1991. – 168 с.
8. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari / Arab tilidan tarjima va izohlarni, so'z boshini U.Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir A.O'rinboyev. K.1. – T.: Mehnat, 1992. – 326 b.
9. Кадырбаев А.Ш. Монголы, Китайцы и Европейцы в Китае в Тибете. (1368-1644 гг). // Вестник института востоковедения РАН, № 1. 2018. – С. 121-126.
10. Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV – XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – 272 с.
11. Китайская армия при династии Мин (вторая половина XIV-первая половина XV века).. Батыр, (N. 6.) – М.: 2015. – С. 46-65.
12. Лидский С. Великие завоеватели Средней Азии: Александр двурогий и Тимур Хромой. // Туркестанский сборник. Том. 462. – С. 52-63.
13. Мшанецкий С.И. История военного костюма стран Восточной Азии XVII-XX вв.: автореферат дис. ... доктора исторических наук: 07.00.03 / Ин-т истории, археологии и этнографии народов Дальнего Востока. - Владивосток, 1999. – 49 с.
14. Чулууны Далай. Монголия в XIII-XIV веках. – М.: Наука, 1983. – 230 с.
15. Shirinov T., Orziyev M. Ikki hukmdor munosabatlari tarixidan // Fan va turmush, 2014. № 1-2. – B. 74-76.
16. Dreyer, E.L. Early Ming China: A Political History 1355-1435. By Edward L. Dreyer. [Stanford: Stanford University Press, 1982. – R. 65. - 303 pp.
17. Rajkai Z.T. The Timurid empire and the Ming China: Theories and approaches concerning the relations of the two empires (Doktori Disszertáció). – Budapest, 2007. – 212 p.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SADRIDDIN AYNIY ILMIIY-ADABIY MEROSINING O'RGANILISHI

Temirov Farrux Umedovich,
BuxDU, t.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tarixnavis adib, yirik so'z san'atkori va adabiyotshunos olim Sadridin Ayniyning mustaqillik yillarida hayot yo'li, ilmiy-adabiy merosi shoir, tarjimon, tarixshunos, manbashunos, sharqshunos, romannavis, olim sifatidagi ilmiy-ijodiy faoliyatining o'rganilishi. Adibning zamondoshlari va yaqin qalam ahllari tomonidan uning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy merosiga, jadidchilik va taraqqiyparvarlik faoliyatiga o'z asarlarida, u haqdagi bildirgan fikr-mulohazalarini va xotiralari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Ulkan sanatkor Sadridin Ayniy ijodi va faoliyatini yangicha mezonlarda o'rganish, u qoldirgan bebaho ilmiy va adabiy merosni har tomonlama tadqiq etish, uni nashr qilish bilan bog'liq yana ko'plab muammolar borki, bugungi kunda qilinayotgan, tadqiq etilayotgan va o'rganilayotgan ilmiy ishlar, nashr qilinayotgan kitoblar, monografiyalar, maqolalar, ularning yechimiga bag'ishlangan dastlabki qadamlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ilmiy, adabiy, jamoat arbobi, fan, madaniyat, marifat, olim, yozuvchi, akademik, jadidchilik, iste'dod

ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ САДРИДДИНА АЙНИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Темиров Фаррух Умедович,
д.ф.и.н. (Phd), доцент, Бухарский государственный университет

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы изучения жизненный путь, научное и литературное наследие историка, писателя, литературоведа Садриддина Айни в годы независимости, научная и творческая деятельность как поэта, переводчика, историка, источникововеда, востоковеда, прозаик, ученый, сведения современников и близких родственников писателя о его научной и творческой деятельности, научном наследии, модернизме и прогрессивной активности в его произведениях, мнениях и воспоминаниях, высказанных о нем, а также о великом искусствоведе Садриддине Айни. А также научно проанализированы проблемы, связанные с изучением его творчества и деятельности в новых критериях, сведения об изучении его бесценного научно-художественного наследия, ряд научные работы, посвященные на творчество Садриддина Айни.

Ключевые слова: Ключевые слова: научный, литературный, общественный деятель, наука, культура, просвещение, ученый, писатель, академик, джадидизм, талант.

EXPLORATION OF SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF SADRIDDIN AINI IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Temirov Farrukh Umedovich,
Doctor of philosophy (Phd), Bukhara State University

Abstract: This article examines the study of life, scientific and literary heritage of the historian, writer, literary scholar Sadridin Aini in the years of independence, scientific and creative activities as a poet, translator, historian, source researcher, orientalist, prose writer, scientist, information of the writer's contemporaries and close relatives about his scientific and creative activities, scientific heritage, modernism and progressive activity in his works, opinions and memories expressed about him, as well as about the great art historian Sadridin Aini. And also scientifically analyzed the

problems associated with the study of his creativity and activity in the new criteria, information on the study of his invaluable scientific and artistic heritage, a number of scientific works devoted to the works of Sadriiddin Aini.

Key words: scientific, literary, public figure, science, culture, enlightenment, scientist, writer, academician, jadidism, talent.

KIRISH. Sadriiddin Ayniy XX asrning buyuk va takrorlanmas yozuvchisidir. Uning hayot va ijod yo'li XIX asrning oxirgi choragi va XX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy jarayonlarning g'oyatda murakkab davrida, sharoitda kechdi. Yigirma yilga yaqin madrasa ta'limini olgan, amirlik tuzumini hamda keyingi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni ich-ichidan bilgan, ba'zan qatag'onliklar va kamsitishlarga uchragan bu ulkan adib o'z asarlarida xalq hayotini butun murakkabliklari bilan badiiy tasvirlash orqali tarix va davrni o'ziga xos ravishda birlashtirib, XX asrning avvalida shakllana boshlagan yangi adabiyotning asoschilaridan biri, yirik adabiy siymo sifatida bo'y ko'rsata oldi. Shuning uchun ham uning g'oyatda murakkab ijodi va faoliyatiga bir nuqtadan bir xilda baho berish mumkin emas.

NATIJAR VA MUHOKAMA. O'tgan asrning 90-yillariga qadar ayniyshunoslikda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga bir qator ishlarda o'tgan tuzum mafkurasining nuqtai nazari, adabiy-tanqidiy qarashlarining ruhi yetakchilik qildi, ularda asarlari poetikasini o'rganishdan ko'ra yozuvchining u yo bu tuzumga munosabati masalalariga urg'u beriladi. Demokratiya va oshkoralik atalgan yillarda ko'plab ijodkorlar qatori S.Ayniy ijodiga ham noxolisona munosabatda bo'lindi, okibatda bir necha yillar davomida uy meziya e'tiborsiz qoldi, asarlari chop etilmay kelindi, mavjudlari darsliklardan chiqarildi. Yu. Fuchik, L.Aragon, K.Fedin, L.Leonovlar e'tirof etgan, qolaversa, davrimizning buyuk adibi Ch.Aytmotov ustoz sanagan adib har kuni tug'ulavermaydi. Shunday ekan, endilikda badiiy so'z shukuhini chuqur his qilib asarga yaxlit estetik hodisa sifatida qarab, jahon adabiyotshunosligining yutuqlari asosida S.Ayniy ijodini xolisona o'rganishga kirishsak, ulkan adibimizning ruhini yod va shod etgan bo'lardik.

O'zbekiston va Tojikistonda Sadriiddin Ayniyning ilmiy-adabiy merosini o'rganishda jiddiy natijalarga erishildi. Adabiyotshunoslikning o'ziga xos ayniyshunoslik yo'nalishi yuzaga keldi. Shunga qaramay, adib ijodining hamma jihatlarini har tomonlama o'rganilgan deya olmaymiz. Hatto alloma adibning sakkiz jildlik "Asarlar" to'plami nashr etilganidan (Toshkent: 1963-1968 yillar) keyingi ellik-oltmish yil davomida birorta ham jiddiyroq tadqiqot yaratilmadi. Hozirgi kunda tarixshunoslik, manbashunoslik va adabiyotshunoslikning tekshirish ufqlari yanada kengaygan, ilmiy-adabiy hodisalarga yangicha ilmiy metodologiya asosida munosabatlar va ilmiy yondashuvlar qaror topgan bugungi kunda olimlik, tarixchilik, yozuvchilik va fan-madaniyatga bo'lgan fidoiylik iste'dodini o'zida to'la ravishda mujassamlashtira olgan bu ulkan san'atkor ijodini chuqur va har tomonlama tadqiq etish, ilgari tadqiqotchilarining diqqatidan chetda qolgan yoki o'rganish imkoniyati bo'lmagan jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ma'lumki, Sadriiddin Ayniy ijodi amirlik tuzumi davrida Buxoro ilmiy-adabiy muhitida shakllandi. Bu davrda o'zbek va fors-tojik tillarida, hatto arab tilida o'nlab ijodkorlar ijod qilayotgan, adabiyotga u bilan birga va undan keyinroq yana bir guruh iste'dodli yoshlar kirib kelgan edi. Bu ijodkorlarning muayyan qismi sho'rolar davrida qat'on qilinganligi (bular orasida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Muso Saidjonov singari mashhurlari ham bor edi) yoki ularning ijodi mafkuraviy jihatdan noloyiqligi sababli Sadriiddin Ayniy ijodi ana shu adabiy muhitdan ajratib olinib, bir tomonlama talqin qilindi yoki uning qariyb yirma-yigirma besh yillik adabiy faoliyati deyarli o'rganilmadi va yashirib kelindi.

Sadriiddin Ayniy nafaqat mashhur yozuvchi, adabiyotshunos va tarixchi olim, balki fan tashkilotchisi va yirik jamoat arbobi sifatida ham tanilgan shaxsdir. Mamlakatda

yetuk, iste'dodli va salohiyatli kadrlarni tayyorlash, ularni o'qitish, ta'lim-tarbiya berish, yangi o'quv darsliklarni yozish, nashr ettirishda faollik ko'rsatgan. U Buxoro, Samarqand, Toshkent va umuman o'lkamizning turli hududlarida yangi tipdagi maktablar ochish, ularni o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash va ta'limni rivojlantirish ishlarida ham samarali faoliyat olib borgan

Anglash mumkinki, o'zining fuqarolik pozitsiyasi nuqtai nazaridan Ayniy xalq orasida ma'rifat, ma'naviyat, adabiyotga oshnolik orqali ziyo tarqatish, jamiyatdagi ijtimoiy illatlardan hisoblangan isrofgarchilik, maishatparastlik va boshka nojo'ya urf-odatlariga qarshi kurash va umuminsoniy qadriyatlarni rad etmagan holda ma'naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga oid ko'plab makola, felyetonlar bilan davriy matbuotga chiqish qilgan.

Sadriddin Ayniyning tojik adabiyoti, tarixi va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi va xizmatlari uchun 1997 yilda Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon tomonidan "Tojikiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Adib S.Ayniyning ilmiy merosi va barkamol asarlari insoniyat ma'naviy xazinasidan munosib joy olgan.

Ma'rifatparvar adib, yirik olim va jamoat arbobi, o'z ijodi bilan maktab yaratgan Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e'tirof etilgan. Buxorodagi jadidchilik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan Sadriddin Ayniyning tarix fani taraqqiyoti hamda badiiy adabiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va kelajak avlodlarga o'rnatilgan bo'lavchi xizmatlari inobatga olinib, u 2001 yilda O'zbekistonning "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

2003 yilda Sadriddin Ayniy tavalludining 125 yilligi munosabati bilan "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida Sadriddin Ayniyga bag'ishlab, taniqli adabiyotshunos olimlar T.Mirzayev, B.Valixojayev, R.Orzubekov, A.Hayitmetovlar o'z maqolalarini chop ettirdilar. 2018 yilda esa Sadriddin Ayniy tavalludining 140 yilligiga bag'ishlangan xorij olimlari ishtirokida Samarqand va Buxoroda ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi, unda yetmishdan ortiq olimlar, yozuvchi va tarixchilarning maqolalari e'lon qilindi.

2004-yilda ayniyshunoslik tarixida o'ziga xos ahamiyatga ega ikki tadbir tashkil qilindi. Bu sohada professor R.J.Vohidov tashabbuskor bo'lganini alohida qayd etish o'rindir. Buxoro davlat universitetida "Sadriddin Ayniy she'riyatida anana, ijodiylik va badiiylik" mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Ilmiy anjumanda tojikistonlik akademiklar N.Salimov, Kamol Ayniy, professorlar A.Kucharov, X.Shodiqulov, Sh.Raxmonov, uzbekistonlik akademik B.Vapixojayev, professorlar N.Komilov, Q.Jurayev, R.Orzibekov, B.Yo'ldoshev, H. Abdullayev, M.Jurayev, I.Xaqqulov, shuningdek buxorolik R.Vohidov, O.Safarov, M.Maxmudov kabi taniqli adabiyotshunoslar ustod Ayniy she'riyatining xilma-xil muammolariga oid ma'lumotlar bilan qatnashdilar. Anjuman materiallari "Barxayot she'riyat" nomi ostida alohida majmua sifatida nashr etildi.

Xuddi shu yilning o'zida professorlar R.J.Vohidov va M.Maxmudov hamkorlikda "Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari" nomli adabiy, axloqiy-an'anaviy o'ylardan tarkib topgan kitoblari bosilib chiqdi. Kitob muqaddima, uch fasl va xulosadan iborat. Professor R.J.Vohidov ayniyshunoslikdagi tadqiqotlari bilan o'zbek adabiyotshunosligida ustod Ayniy ijodiy me'rosini istiqbol manfaatlariga mos o'rganishni boslab bergan olimdir.

Mustaqillik yillarida yaratilgan kollektiv monografiyalarda Sadriddin Ayniyning shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodi va boy ilmiy merosi, uning Buxorodagi jadidchilik faoliyati, tarixnavuslik iste'dodi haqida anchagina ma'lumotlar jamlangan. Jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda F.Qosimov, D.Alimova, S.A'zamxo'jayev, Q.Rajabov, H.To'rayev, U.Rashidov, B.Hasanov, Sh.Hayitov, L.Muhammadjonova, G.Ostonova, N.Mahkamova, K.Raxmonov, R.Tursunov, F.Bobojonova, D.Jamolova kabi tarixchi olimlar hamda B.Valixojayev, S.Aliyev, B.Qosimov, O.Safarov, R.Vohidov, I.Haqqulov, U.Dolimov, N.Naimov singari adabiyotshunoslarning asarlarini sanab o'tish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil Buxoroga tashrifida «Darhaqiqat, o‘tmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin, Buxoroi sharifning ilm-ma’rifat, madaniyat va san’at daryosi hech qachon to‘xtagan emas. Bu ko‘hna yurtida tug‘ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadridin Ayniy singari ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, mamlakatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag‘ishlab kelmoqda» deb, aytgan ibratli fikrlari bugungi kunda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosatlari sabab qo‘shni mamlakatlar, jumladan Tojikiston bilan o‘zaro do‘stlik va hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. O‘zaro qo‘llab-quvvatlash, birgalikdagi sa’y-harakatlar tufayli mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik rishtalari, umumiy tarix, ma’naviy va madaniy qadriyatlarga asoslangan an’anaviy yaqin va yaxshi qo‘shnichilik aloqalari mustahkamlanayotgani mamnuniyat va shukronalik hissini uyg‘otadi. Buning amaliy isbotini boshqa ko‘plab samarali ishlar qatori hukumatning qarori bilan Sadridin Ayniy uy-muzeyining ta’miranishida ham ko‘rish mumkinki, aynan shu e’tibor adabiy aloqalar va hamkorlik munosabatlarining yanada yaxshilangani barobarida, yurtimizda o‘zaro do‘stlik va bag‘rikenglikning ustuvor ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Aynan Sadridin Ayniy singari buyuk ijodkorlar ikki davlat xalqlari birlashishida o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ortda qolgan yillar davomida S.Ayniy to‘umrining oxirigacha Buxoro, Samarqand, Toshkent, Dushanbedagi turli o‘zbek, tojik, rus va boshqa qardosh xalqlar adabiyoti va matbuoti xodimlari, shoir va tarjimonlar, yozuvchilar bilan o‘zaro yozishmalar, aloqalarini yil sayin kengaytirib, mustahkamlab bordi.

2018 yil 15 aprel kuni uy-muzeyda ustoz Sadridin Ayniyning 140 yillik yubileyi katta tantana tarzida nishonlangan. «Mana shu yubiley munosabati bilan uy-muzeyda qo‘shimcha ekspozitsiyalar ochildi, mana bu qo‘lyozma, kitoblar, adibga tegishli shaxsiy hujjatlar qayta tashkil etildi. Ayniy uy-muzeyini ta’mirlash uchun O‘zbekiston hukumati tomonidan 300 million so‘m (37 ming dollar) mablag‘ ajratiladi. «Muzey to‘liq ta’mirdan chiqariladi, tartibga keltiriladi, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Konsepsiya ishlab chiqilgan. Yodgorlik majmui tanib bo‘lmas darajada o‘zgaradi, chiroy ochadi. Muzeyga tashrif buyuradigan odam o‘tmishga qaytgandek, hayratda qolishi tabiiy. Axir dunyo tan olgan olim hayot ijodi va o‘tmishdagi voqealar bilan yaqindan tanishish imkoniyati har doim bo‘lavermaydi.

Umumiy hisobda, adib Sadridin Ayniy ushbu uyda qariyb 35 yil, Sadridin Ayniy ushbu uyda 1954 yil may oyigacha yashab, ijod qilgan. Shundan so‘ng og‘ir xastalikka chalinib, davolanish uchun Tojikistonga borishga majbur bo‘lgan. Dushanbeda ikki oy yashab, 15 iyulda vafot etgan. Sadridin Ayniy Dushanbeda, Ayniy nomidagi bog‘da dafn etilgan. Darhaqiqat, Sadridin Ayniy uy-muzeyi azaldan do‘stu qardosh bo‘lgan o‘zbek va tojik xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ularni hamisha bog‘lab turuvchi muqaddas maskandir. Ushbu boy merosning asosini do‘stligu birodarlik, xayrxohlik, yaxshilik va boshqa oliy insoniy fazilatlar tashkil etadi. Buyuk ajdodlarimizning vorisi bo‘lish esa bugungi avlod zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Ulug‘ allomalarimizning bebaho merosini chuqur o‘rganishimiz, ayniqsa, yoshlarga o‘rgatishimiz lozim. Zero, bu bizning umumiy tariximiz. Bu bilan nafaqat faxrlanishimiz, balki unga munosib bo‘lishimiz kerak. Bu an‘analarning bari ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

2019 yilda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi, Xalq deputatlari viloyat Kengashi va viloyat hokimligining “Ovozi Samarqand” gazetasi hamrohligida mashhur yozuvchi va jamoat arbobi Sadridin Ayniy tavalludining 141 yilligi keng nishonlandi va alohida ikki tilda, ham o‘zbek ham tojik tilida adib ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag‘ishlab kitob nashr qilindi.

Ulkan sanatkor Sadriddin Ayniy ijodi va faoliyatini yangicha mezonlarda o'rganish, u qoldirgan bebaho ilmiy va adabiy merosni har tomonlama tadqiq etish, uni nashr qilish bilan bog'liq yana ko'plab muammolar borki, bugungi kunda qilinayotgan, tadqiq etilayotgan va o'rganilayotgan ilmiy ishlar, nashr qilinayotgan kitoblar, monografiyalar, maqolalar, ularning yechimiga bag'ishlangan dastlabki qadamlardir.

Adib Ayniynng hayoti, faoliyati va merosining ahamiyati haqida turli tillarda ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari yoqlangan. Amalga oshirilgan ishlarni inkor etmagan holda, mustaqillik davrida bu alloma-adibning ko'p qirrali ilmiy-adabiy merosini milliy istislo g'oyasi mezonlari asosida qaytadan kashf etish lozimligini ta'kidlab o'tish joiz. Zero, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi va birinchi Prezi-denti, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Sadriddin Saidmurodxo'ja Ayniynng o'zbek va tojik tillarida yaratgan boy ilmiy-adabiy mero-si shu tillarla so'zlashuvchi xalqlarning mushtarak boyligi sifatida yangi mezonlar asosida kashf etishga tamomila haqlidir.

Sadriddin Ayniyning boqiy merosi, jonajon Vatanimiz, azaldan bir havodan nafas olib, bir irmoqdan suv ichib, g'am-tashvish va shodliklarini baham ko'rib kelgan, shoirlar «bir baytning ikki satri», «bir daryoning ikki irmog'i», «bir kitobning ikki sahifasi», «bodomning ikki mag'zi» deya ta'riflagan xalqlarimiz uchun komillik va do'stlik manbalaridan biri sifatida, yoshlarimizning barkamol voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston Fanlar akademiyasining akademigi va birinchi prezidenti, Tojikiston Qahramoni, O'zbekiston va Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, Vatanimizning ulkan mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori, professor Sadriddin Ayniyning o'zbek va tojik tillarida yaratgan boy ilmiy-ma'naviy va tarixiy merosi shu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning mushtarak boyligi sifatida yangicha metodologiya asosida o'rganishga tamomila haqlidir.

Tavsiyalar. Mashhur adib va akademik Sadriddin Ayniy tavalludiga 2028 yili 150 yil to'lishi munosabati bilan uning ilmiy-ma'naviy merosiga, tarix, manbashunoslik va tarixshunoslik sohalariga qo'shgan hissasiga bag'ishlab O'zbekiston va Tojikiston davlatlari hamkorligida Buxoro va Samarqand shaharlarida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. – Москва : СССР халқлари марказий нашриёти, 1926.

2. Айний С. Куллар. / Асарлар. 8 жилдлик. 1-жилд. Т: Ўздавнашр, 1963.

3. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. / Асарлар. 8 жилдлик. 1-жилд. Т: Ўздавнашр, 1963.

4. Садриддин Айний. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.

5. Айний С. Муқанна исёни. Т: Фан, 1994.

6. Мирзаев Т. Садриддин Айний ижодини ўрганишнинг айрим масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. № 5. – Б. 3-4

7. Валихўжаев Б. Устод Айний мероси // Ўзбек тили ва адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. № 5. – Б. 13-17;

8. Ҳайитметов А. Забардаст навоийшунос // Ўзбек тили ва адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. № 5. – Б. 18-21;

9. Орзибеков Р. Садриддин Айний ва XX аср ўзбек адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. № 5. – Б. 26-29.

10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000;

11. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Раджапова. – Тошкент: Шарқ, 2000;

12. Самарқандда Айнийшунослик / Айнийшиносӣ дар Самарқанд. Устод Садриддин Айнийнинг 141 йиллигига бағишланади. – Тошкент: VNESHINVESTROM, 2019. 232

КАРАКАЛПАКИ В ИСТОЧНИКАХ ПОСЛЕДНЕЙ ЧЕТВЕРТИ XIX – ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XX ВВ

*Сейдаметова Гулнара Утарбаевна,
PhD, доц., Каракалпакский государственный университет, Нукус*

*Шамуратова Бахтигул,
магистрант, Каракалпакский государственный университет, Нукус*

Аннотация: Статья посвящена обзору трудов авторов последней четверти XIX- первой четверти XX веков, содержащих сведения о каракалпаках. Эти труды внесли существенный вклад в изучение территории расселения, населения, истории, культуры каракалпакского народа. Большая часть этих трудов остается актуальной и в нынешнее время, широко используется в исследованиях.

Ключевые слова: каракалпаки, источник, население, культура, хозяйство.

QORAQALPOQLAR 19-ASRNING OXIRGI CHORAGI — 20-ASRNING BIRINCHI CHORAGI MANBALARIDA

*Seydametova Gulnora Utarbaevna,
PhD, Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, Nukus*

*Shamuratova Baxtigul,
Qoraqalpoq davlat universiteti bakalavriat bosqichi, Nukus*

Annotatsiya. Maqola XIX asrning so'nggi choragi - XX asrning birinchi choragi mualliflarining qoraqalpoq haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asarlarini ko'rib chiqishga bag'irlangan. Ushbu asarlar qoraqalpoq xalqining yashash joyi, aholisi, tarixi, madaniyatini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Ushbu asarlarning aksariyati hozirgi paytda dolzarb bo'lib qolmoqda, tadqiqotlarda keng qo'llaniladi.

Калит сўзлар: qoraqalpoqlar, manba, aholi, madaniyat, iqtisodiyot.

KARAKALPAKS IN THE SOURCES OF THE LAST QUARTER OF THE 19TH - THE FIRST QUARTER OF THE 20TH CENTURIES

*Seydametova Gulnora Utarbaevna,
PhD, Associate Professor, Karakalpak State University, Nukus.*

*Shamuratova Bakhtigul,
undergraduate, Karakalpak State University, Nukus.*

Abstract. The article is devoted to the review of the works of the authors of the last quarter of the XIX - first quarter of the XX centuries, containing information about the Karakalpaks. These works have made a significant contribution to the study of the settlement territory, population, history, culture of the Karakalpak people. Most of these works remain relevant today and are widely used in research.

Keywords: karakalpaks, source, population, culture, economy

Введение. Последняя четверть XIX века в истории каракалпакского народа ознаменовалась событиями, в корне изменившими все сферы общественной жизни народа. Завоевание Российской империей Хивинского ханства в 1873 году привело не только к политической и экономической зависимости ханства от России, но также к потере значительной территории по правобережью Амударьи, основное население которой составляли каракалпаки.

На завоеванные территории снаряжаются экспедиции для исследования края. Отдельные экспедиции были организованы параллельно с завоевательными

походами. Как отмечал С.А. Токарев эти экспедиции снаряжались «буквально по следам военных походов или даже сливались с ними: либо офицеры производили научные наблюдения»[18,56].

Из научных экспедиций последней четверти XIX века необходимо отметить исследования Хивинского похода (1873), а также Амударьинской ученой экспедиции (1874).

Участники Хивинского похода оставили богатое научное наследие. Были собраны сведения о природе, населении, хозяйственной жизни населения левобережья и правобережья Амударьи. Особенно продуктивными оказались исследования М.Н. Богданова, И.И. Краузе, А.Л. Куна.

Богданову удалось собрать сведения о скотоводстве у разных народов ханства, описывая особенности скотоводческого хозяйства каракалпаков он сообщает, что крупный рогатый скот, «... разведение его составляет их специальность, их скот лучше, чем в других частях оазиса»[3,55].

Краузе удалось собрать сведения о различных лекарственных растениях, а также растениях, применявшихся для получения красок. Результатом его исследования стала ботаническая коллекция и статья о хивинском земледелии, с классификацией выращиваемых растений[8,42].

Самым плодотворным был А.Л. Кун. Ему удалось собрать около 300 книг восточных авторов, среди которых были исторические сочинения, в том числе исторические хроники Муниса и Агехи. Эти исторические хроники стали одним из главных первоисточников новой истории Хивинского ханства периода XVIII-XIX веков[5,10].

В отличие от других участников экспедиции, А.Л. Кун занимался историко-этнографическим изучением края[9,259]. Сведения, собранные им о населении, численности, географическом размещении, истории расселения, о городах и населенных пунктах, исторических памятниках впоследствии подверглись анализу Ю.Э. Брегелем и Б.В. Луниным.

Большой вклад в изучение каракалпаков внес участник Хивинского похода А.В. Каульбарс. Им велись обследования дельты Амударьи и ее протоков, определена их судоходность[8,89]. Исследования начались по Улькендарье, впадавшей в море и составлявшей в тот период главный западный проток Амударьи. Один из маршрутов походил по каналу Кегейли.

В 1874 году начинается Амударьинская ученой экспедиция, исследования которой ограничилась территориями, занятыми русскими войсками. В составе экспедиции были организованы геодезистко-топографический отряд под руководством Н.Г. Столетова, метеоролого-гидрологический под руководством Ф.Б. Доранта, естественно-исторический, куда вошли Н.А. Северцов, М.Н. Богданов и этнографо-статистический под руководством полковника Л.Н. Соболева. В составе последнего находился Н.Н. Каразин и Риза Кули Мирза, оставившие интересные сведения о каракалпаках[6,68].

Участник Амударьинской ученой экспедиции ИРГО 1874 г., полковник Л.Н. Соболев большое внимание уделял каракалпакам. Сделанные им наблюдения вошли в статью, посвященную работе экспедиции[17,216].

Много сведений этнографического характера содержится в работе исследователя А.Е. Россиковой. В ее сочинении можно найти данные, характеризующие каракалпакскую одежду того периода[15].

Еще одна работа, начала XX века, содержащая сведения о каракалпаках – «Военно-статистическое описание Хивинского ханства». В исследовании дана численность каракалпаков в конце XIX века в Хивинском ханстве, которая составляла 19995 человек. Приводится численность каракалпаков крупных родовых подразделений. Так, например, в левобережье арыс Кобырат насчитывал 15 тыс. человек и около 5 тыс. в составе арыса Он торт уруу. В Аму-Дарьинском

отделе, преобладали Онторт уруу – его численность достигала около 67 тыс., а Конарыт насчитывал 27 тыс. человек[4,65].

Сведения статистического характера о расселении, численности, хозяйстве дают материалы статистико-экономического обследования населения Амударьинского отдела, проведенного Переселенческим управлением в 1912-1913 гг. Наиболее ценными для нашего исследования явились сопровождающие сборник фотоиллюстрации[13].

С установлением на территории Каракалпакстана нового строя, правительством стали предприниматься меры по переустройству хозяйства, быта и культуры народа, всего уклада жизни, что требовало серьезного и всестороннего изучения расселения и численности народа, особенностей социального строя, быта. Эти обстоятельства повлекли за собой создание качественно новой для условий Каракалпакстана советской системы научно-исследовательских учреждений, что стало существенным моментом, показывающим серьезный сдвиг в исследовании каракалпаков, изучение которых приобретает более целенаправленный характер[10,15].

С конца 1920-х годов в Каракалпакию организован ряд экспедиций. В 1926 г. в Чимбайском и Кунградском округах Каракалпакской Автономной области работала этнографическая экспедиция по исследованию быта коренного населения, организованная этнографо-археологическим музеем 1-го Московского государственного университета. В ней принимали участие студенты Дэвлет Арташир, Баскаков Николай и Иванов Алексей, с интересом изучавшие каракалпакскую этнографию. Основной задачей экспедиции был сбор материалов по вопросам хозяйства, а также широкое изучение культуры и быта каракалпакского народа[10].

Подробное описание санитарно-эпидемиологической обстановки, быта, некоторых аспектов экономической жизни нашли отражение в работе И. Авдакушина. Кроме того, им приведены сведения о городе Петро-Александровск, контактах солдат русского гарнизона с каракалпаками, сведения о торговле[1,15].

Различные аспекты жизни каракалпаков, в том числе о местных промыслах, роли фабрично-заводского производства в жизни населения, торговых операциях на базарах, приведены в работе В. Лобачевского. Характеризуя особенности местного базара, он отмечал, что обмен продукцией производится на базарах, торг на которых происходил один или два раза в неделю в строго определенные дни: узак базар(дальний базар) собирался каждую пятницу, къска базар (ближний базар) – в понедельник[12,91].

Базар в жизни каракалпаков играл большую роль не только в экономическом отношении, но и в культурном[16,55].

Подробное описание Петро-Александровска, который был основан в 1874 г. на правом берегу Аму-Дарьи, на границе с Хивой, дано М.В. Лавровым: «по типу почти русский город, так как туземцы живут в кишлаках. В слободке при городе поселены уральцы, сохранившие еще все черты русской национальности, вплоть до стариной русской песни и богатых национальных костюмов»[11,198].

Заключение. Сведения о хозяйственных занятиях, зарождающейся промышленности, развитии торговли имеются в работе Архипова Н.Б. В частности, он отмечает, что основная особенность среднеазиатского дехканского хозяйства, состояла в его высокой товарности, превышающей нередко в 6-7 раз товарность хозяйства русского крестьянина, что делало торговлю одним из важнейших элементов в хозяйстве Средней Азии. Торговая сеть широко захватывает даже небольшие кишлаки, не говоря уже о городах; благодаря этому у незнакомого с местными производительными отношениями наблюдателя иногда легко создается впечатление, что ничем, кроме торговли, население края не занимается[2].

Рассмотренные источники последней четверти XIX- первой четверти XX веков позволяют говорить о том, что в этот период был собран обширный материал по истории и этнографии каракалпакского народа. Эти сведения стали огромным толчком для изучения каракалпаков в последующие годы.

Список использованной литературы:

1. Авдакушин И. Санитарный обзор Аму-Дарьинского отдела с 1887 по 1891 г. // Сборник материалов для статистики Сыр-дарьинской области. Ташкент: Типо-Литография наследников С. И. Лахтина, 1892. С. 1-200.
2. Архипов Н.Б. СССР по районам. Средне-Азиатские республики. Москва-Ленинград: Государственное издательство, 1927. – 138 с.
3. Богданов М.Н. Очерки природы Хивинского оазиса и пустыни Кызыл-Кум. Ташкент, 1882.
4. Гиршфельд и Галкин. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ч. II. Ташкент, 1903. – 39 с.
5. Жданко Т.А. Каракалпаки в научных исследованиях периода их присоединения к России //Среднеазиатский этнографический сборник. Вып. IV. М., 2001. С. 5-34.
6. Каразин Н.Н. В низовьях Аму. Путевые очерки //Вестник Европы. Санкт-Петербург, 1875. Т. II. С.186-229.
7. Каульбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи описанные по собственным исследованиям в 1873 г.// Записки русского географического общества СПб., Т. IX. 1881 – 320 с.
8. Краузе И.И. О хивинском земледелии // Известия ИРГО. СПб., 1874. Т. X, № 1. С.41- 46.
9. Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-дарьи //Материалы для статистики Туркестанского края. С-Петербург: типография и хромофотография А.Траншеля. Вып. IV.1876. С. 223-259.
10. Курбанова З.И. Этнографическая наука Каракалпакстана: этапы становления, современное состояние. Нукус: Илим, 2020. – 122 с.
11. Лавров М.В. Туркестан. География и история края. Москва: издание торгового дома Думнов, Клочков, Луковников и К0 , 1914. -198 с.
12. Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Ташкент: типография штаба военного округа, 1912. – 117 с.
13. Материалы по обследованию кочевого и оседлого туземного хозяйства и землепользования в Амударьинском отделе Сырдарьинской области. Вып. 1. Ташкент, 1915.
14. Риза-Кули-Мирза. Краткий очерк Амударьинской области. СПб., 1875.
15. Россикова А.Е. По Амударье от Петроалександровска до Нукуса // Русский вестник. 1902. № 8.
16. Сейдаметова Г.У. Ходжейли- центр торговли каракалпаков (XIX-начало XX вв.) // Торговля в этнокультурном измерении. Материалы Четырнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений. Санкт-Петербург, 2015. С. 212-215.
17. Соболев Л.Н. Письма об Амударьинской экспедиции // Русский инвалид. 1874. № 213, 216.
18. Токарев С.А. История русской этнографии (дооктябрьский период). М., 1966.

“XORAZMLIK” ASKARLARINING YAQIN SHARQ MUSULMON DAVLATLARI FAOLIYATI TARIXIDAN

*Orziyev Mahmud Zayniyevich,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro davlat universiteti, Jahon
tarixi kafedrasida dosenti.*

*Mahmudova Shoxida Tohirovna,
Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida I-bosqich magistranti*

Аннотация: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining vatidan keyin yetakchisiz qolgan “Xorazimliklar” (Jaloliddin askarlari) o'zlariga dastlab Xusamiddin Kirxon, so'ngra Muhammad Barokatxon kabi oliy sarkardalar saylaganliklari, shuningdek, Yilang Bug'u, Sarixon, Xonberdi, Sayfuddin Sodiqxon, Atlasxon, Nosiriddin Kushluxon kabi yetakchilar boshchiligida yashab qolish, o'z manzil makonlariga ega bo'lish uchun kurashlari, Yaqin Sharqda o'sha vaqtlarda mavjud bo'lgan musulmon davlatlari bilan o'zaro munosabatlari, dastlab Koniya sultonligi, so'ng, Ayubiylar, Mosul hukumdori Badridin Lu'lu, Mayofiriqidin hokimi al-Malik al-Muzaffar va boshqalar bilan munosabatlari, Yaqin Sharqdagi hukumdorlar xizmatida bo'lishlari, “Xorazimliklar”ga nisbatan xiyonatlar qilinishi, “Xorazimliklar” tomonidan Yaqin Sharqdagi shaharlar va o'lkalarning talanishi, ularni yollanma askarlik faoliyatlari, ularning qahramonona kurashlari, mag'lubiyatga uchrashlari aniq bo'lsada o'z ahdlariga sodiq qolishlari, Yaqin Sharqdagi hukumdorlarning o'zaro kurashlarida “Xorazimliklar”ning tutgan o'rni va roli, “Xorazimliklar”ning talonchiligi va ularga qarshi Yaqin Sharq hukumdorlari tomonidan ittifoqning tuzilishi, “Xorazimliklar”ning tor-mor keltirilishi va ularni turli hududlarga tarqalib ketish masalasi xususidagi fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. maqolani mazmunan yoritishda tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar qiyosiy, tarixiy, tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

Калим сўзлар: “Хоразмликлар”, Яқин Шарқ, ўзаро урушлар, талончилик, Кониya султонлиги, аюбийлар, Мосул ҳукумдори, ҳарбий иттифоқ, Хомс вилояти, Сурия ҳудуди, Ефрат дарёси, ёлланма жангчилар

ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ «ХАРЕЗМСКИХ» ВОИНОВ В МУСУЛЬМАНСКИХ СТРАНАХ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

*Орзиев Махмуд Зайниевич,
доктор философии (PhD) исторических наук, Бухарский государственный
университет, доцент кафедры мировой истории*

*Махмудова Шахида Тохировна,
Бухарский государственный университет, кафедра мировой истории,
аспирант I курса*

Аннотация: В данной статье после смерти Джалалуддина Мангуберди «хоразимлики» (воины Джалалуддина), оставшиеся без вождя, сначала избирали верховных командиров, таких как Хусамиддин Кирхан, затем Мухаммад Барокатхан, а также жили под предводительством таких лидеров, как как Йиланг Бугу, Сарихон, Ханберди, Сайфуддин Садикхан, Атласхан, Насириддин Кушлухан. их борьба за то, чтобы остаться, иметь свои места жительства, их отношения с мусульманскими государствами, существовавшими в то время на Ближнем Востоке, в первую очередь Султанатом Конья, затем Айюбиды, наместник Мосула Бадриддин Лу'лу, наместник Майофирикидина ал-Малик ал-Музаффар и др., на Ближнем Востоке находясь на службе у правителей, предательство по отношению к «хоразимам», грабежи городов и земель

Ближнего Востока «хоразмцами», их наемнической деятельностью, их героической борьбой, их верностью своим заветам даже тогда, когда ясно, что они потерпят поражение, «хоразимы» во взаимной борьбе правителей в Ближний Восток.

Ключевые слова: «хорезмийцы», Ближний Восток, междоусобицы, грабежи, Конийский султанат, Айюбиды, правитель Мосула, военный союз, область Хомса, территория Сири, река Евфрат, наемники

FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF» FROM KHORAZM « SOLDIERS IN THE MUSLIM COUNTRIES OF THE MIDDLE EAST

Orziev Makhmud Zaynievich,
doctor of philosophy (PhD) istoricheskikh nauk, Bukhara State University,
associate professor of the department of general history

Mahmudova Shakhida Tohirovna,
Bukhara State University, Department of World History, 1st stage graduate
student

Abstract: In this article, after the death of Jalaluddin Manguberdi, the «Khorazimlik» (Jalaluddin's soldiers) who were left without a leader, first elected high commanders such as Khusamiddin Kirkhan, then Muhammad Barokat Khan, and also lived under the leadership of leaders such as Yilang Bugu, Sarikhon, Khanberdi, Saifuddin Sadiq Khan, Atlaskhan, Nasiriddin Kushlukhan. their struggles to stay, to have their own places of residence, their relations with the Muslim states that existed in the Middle East at that time, firstly the Sultanate of Konya, then the Ayyubids, the governor of Mosul, Badriddin Lu'lu, the governor of Mayofiriqidin, al-Malik al-Muzaffar, and others, in the Middle East being in the service of the rulers, treachery towards the «Khorazims», looting of the cities and lands in the Middle East by the «Khorazims», their mercenary activities, their heroic struggles, their loyalty to their covenants even when it is clear that they will be defeated, «Khorazims» in the mutual struggles of the rulers in the Middle East The position and role of the «Khorazims», the robbery of the «Khorazims» and the formation of an alliance against them by the rulers of the Middle East, the defeat of the «Khorazims» and their dispersion to different regions were discussed. historical sources and information in the literature were analyzed from a comparative, historical, and critical point of view.

Key words: Khorezmiytsy, Middle East, Mejdousobitsy, Grabeji, Konysky sultanate, Ayyubid, Pravitel Mosula, military alliance, Homsa region, Syria territory, Euphrates river, Naemniki

Kirish. 1231 yil Jaloliddin Manguberdi vafot etgandan so'ng, uning askarlari yetakchisiz va maqsadsiz qiyin vaziyatga tushib qolgan. Yetakchisiz qolgan qo'shin sarkardalari tezda o'zlari uchun yangi sarkarda saylaganlar. Dastlab Xusamiddin Kirxon, uning vafotidan keyin Muhammad Barokatxonlar oliy sarkarda sifatida tanlangan bo'lsa, Yilang Bug'u, Sarixon, Xonberdi, Sayfuddin Sodiqxon, Atlasxon, Nosiriddin Kushluxonlar bo'linmalar yetakchilari sifatida saylaganlar. "Xorazmliklar"ning bundan keyingi taqdiri, mavjud bo'lib turish manbai urush bo'lib xizmat qilgan. Dastlabki davrda "Xorazmliklar" Yaqin Sharqdagi Nisibin, Mo'sul, Sinjor, Irbil va boshqa shaharlarga o'lja topish, tirikchilik maqsadida bosqinlar qilganlar. Bu davrda ularning markazi Xarron shahri bo'lgan [1, 188-189]. Bu "Xorazmliklar" bosqinchilik bilan kun ko'radigan guruh bo'lib qolganlarini ko'rsatadi. Mazkur maqolada ularning islom davlatlari bilan faoliyati xususida to'xtalib o'tiladi.

Adabiyotlar sharhi. Maqolani yozishda manbaviy hamiyatga ega bo'lgan Ibn al-

Asirning Al-Kamil fi-t-Ta'rix asarida "Xorazmliklar"ning Sharq hukumdorlari bilan munosabatlari xususida yoritilgan bo'lsa, Z.M. Bunyatov, K.Xillenbrand asarlarida Yaqin Sharqdagi o'zaro urushlarda "Xorazmliklar" ishtiroki ko'proq yoritilgan. Shuningdek, P.K. Hitti, C.F. Petry, P.M. Holt kabi xorij olimlari asarlarida o'sha davr G'arbiy Yevropa manbalarida "Xorazmliklar" to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'proq to'xtalib o'tilganini ko'rish mumkin.

Natija va muhokamalar. Bu davrda Yaqin Sharq xalqlari G'arbiy Yevropa feodallari tomonidan uyushtirilayotgan salb yurishlarini ham boshdan kechirayotgan bo'lib, tashqi va ichki xavfga qarshi kurashda ishonchli ittifoqchiga ega bo'lish maqsadida 1231 yildayoq Koniya sultoni Qayqubod I "Xorazmliklar"ni o'z xizmatiga taklif qilgan. Ularning harbiy xizmatlari uchun Arzinjon o'lkasi iq'to qilib berilgan. 1233 yilda "Xorazmliklar" yordamida Ayubiylarga qarshi urush boshlab, Ayubiy Malik al-Ashrafdan Xilot viloyati tortib olingan. Ko'rsatgan jasratlari uchun Kushluxonga-la-Renda shahrini, Yagan Togdixonga-Nigd shahrini, Muhammad Barokotxonga-Amasiya hududlarini iq'to sifatida bergan. Ayubiylardan bo'lgan Misr sultoni al-Komil Koniya sultonligiga qarshi ayubiylarning birlashgan qo'shinlarini tortib kelsada, janglarda biror amaliy natijaga erisha olmagan[2, 232]. Ushbu jang harakatlarida "Xorazmliklar" asosiy rolni o'ynaganlar. Natijada, Ufa, Sivereka, Rakka Ayubiylar ta'siridan chiqarib olingan. Koniya sultoni Qayqubod I ayubiylarga qarshi harbiy yurish boshash vaqtida to'satdan vafot etgan. Taxtga o'tirgan o'g'li Kayxusrav "Xorazmliklar" yetakchisi Kirxon Malikni Zamontu qal'asida hibsga qoldirgan. Kirxon Malik qal'ada kassalanib vafot etishi Koniya va "Xorazmliklar" o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga sabab bo'lgan[3, 64]. "Xorazmliklar" Koniya yerlarini tark etishga kelishishgan.

Ayubiylar sulolasidan bo'lgan va Jazira yerlari hukumdori sanalgan Malik as-Solih "Xorazmliklar"ga harbiy xizmat evaziga iq'to taklif qilgan. "Xorazmliklar"ni qo'ldan chiqarishni istamagan Kayxusrav ularga qarshi katta qo'shin yuborsada, ular mag'lu etilib, "Xorazmliklar" katta o'lja bilan Malik as-Solih xizmatiga borganlar. Ularga iq'to sifatida Saruja, Xarron, Rakka shaharlarini berilgan[4, 219]. Jazira hokimi Malik as-Solih o'z singlisini "Xorazmliklar"ning oliy sarkardasi Muhammad Barokotxonga turmushga bergan[3, 64]. Ikki o'rtadagi munosabatlar nikoh bilan mustahkamlangan.

1237 yilda ayubiylardan bo'lgan Damashq hukumdori al-Ashraf vafot etgan. Ayubiylarning har biri ushbu shaharga egalik qilishni istaganlar. "Xorazmliklar" yordamida g'alaba qozongan as-Solih ularga o'ljadan munosib ulush ajratmaganligi sababli munosabatlar yomonlashgan. Ikki o'rtadagi jangda "Xorazmliklar" as-Solih qo'shinlarini ham mag'lub etganlar. As-Solih qochib Sinjar shahriga yashirinishga muvoffaq bo'lgan. Bu yerda "Xorazmliklar"ga qarshi Mosul hokimi Badriddin Lu'lu bilan ittifoq tuzish maqsadida elchi yuborgan[5, 377]. Mosul hokimi sulhni rad etibgina qolmay as-Solihga qarshi urush boshlab, Sinjar shahrini ham qamal qilgan. Chorasiz qolgan as-Solih xorazmliklarga maktub yo'llab, o'zaro adovatni to'xtatish, qamaldan ozod bo'lishda ko'maklashishlari evaziga ularga iqto sifatida Sinjar, Xarron, Rux viloyatlarini va'da qilgan. Xorazmlik askarlar as-Solih taklifiga ko'nib, Badriddin Lu'lu qo'shinini tor-mor keltirganlar. Badriddin Lu'lu shoshlinch chekinish oqibatida o'ljalar uning xazinasini g'oliblar qo'lga tushgan[1, 188]. Xorazmliklar bilan bo'lgan to'qnashuvdan as-Solih ham o'ziga yetarli darajada xulosa chiqarib olgan.

Xorazm askarlari yordamida as-Solih avval o'ziga qarashli bo'lgan hududlarni qayta qo'lga kiritgan. Dastlab iqtisodiy muhim ahamiyat kasb etgan Suriya hududlarini qo'lga kiritishga uringan. Bu yerda ham ayubiylar sulolasi hukumronlik qilsada, sulola vakillari ichida o'zaro kurashlar to'xtamagan. Nihoyat, 1239 yilda Suriyadagi muhim iqtisodiy va madaniy markaz bo'lgan Damashq "Xorazmliklar" yordamida istilo qilingan[2, 231]. As-Solih shundan so'ng Xoms viloyatiga hujum qilishga buyruq bergan. "Xorazmliklar" yordamida o'lpon to'lovchi viloyatga aylantirilgan.

Aniqrog'i, 1239 yilda Xoms hukumdori Asaddindin Shirkux hujumidan qutilish, varonagarchilik va qirg'inbarotdan saqlanib qolish evaziga xorazimliklarga katta o'lpon to'lagan[1, 189]. "Xorazimliklar" endilikda Yaqin Sharqdagi yirik siyosiy kuchga aylangan edi.

1240 yilda as-Solih o'z akasi Misr hukumdori al-Odil Ayubiyga qarshi ko'shingan. Misr istilosi uchun "Xorazimliklar" emas, arman, kurd, osetin, gruzinlar va boshqa etnik guruhlardan iborat mamluklarni jalb qilgan. 1240 yilning iyun oyida Qohira egallanib, akasi al-Odil qamoqqa olingan [4, 627]. Misr yurishi vaqtida Suriyadagi shaharlar talanishi bahonasida "Xorazimliklar" bilan munosabat yomonlashgan. Natijada, "Xorazimliklar" tomonidan Babar va Balis shaharlari vayronaga aylantirilgan. Vaziyatdan foydalangan Mosul hokimi Badriddin Lu'lu "Xorazimliklar" ittifoqchisiga aylangan va birlashgan qo'shinlar 1240 yil Sinjar hududini egallagan. Badriddin Lu'luning o'limi (1279 y)ga qadar shahar uning nazoratida bo'lgan[1, 190]. "Xorazimliklar"ning yangi xo'jayinga xizmat qilish jarayoni boshlangan.

Shu o'rinda "Xorazimliklar" nega Yaqin Sharqda o'z davlatlarini tuzmaganlar degan savol tug'ilishi mumkin. Bizningcha, "Xorazimliklar" asosan harbiylardan iborat bo'lib, ularning davlat tuzish va boshqarish tajribalari bo'lmagan, ikkinchidan, "Xorazimliklar" bu o'lkalar uchun kelgindi, bosqinchi hisoblangan. Uchinchidan, tinimsiz talonchiliklar ularni oddiy aholi qo'llab-quvvatlashidan mahrum etgan. Tarixchi olimlar yana bir sabab mahalliy aholi tomonidan "Xorazimliklar"ni chin musulmon dinida emaslar, ular nomigagina islom diniga e'tiqod qilardilar degan fikr-mulohazalarni ham keltirib o'tilganlar[4, 210]. Ammo, bu munozarali masala bo'lib hisoblanadi.

Mosul hokimi Badriddin Lu'lu Suriya hududlarini ayubiylardan "Xorazimliklar" yordamida tortib olishga intilib, 12 minglik "Xorazimliklar" yordamida Xalabga hujum qilgan. Shaharni istilo qilishning imkoni bo'lmasada, atrof qishloqlar talanib boy o'ljalar qo'lga kiritilgan. Shundan so'ng, xorazimliklar Manbij shahrini talab, vayron qiladilar va aholisini qirg'in qiladilar. Xorazimliklar ushbu qirg'indan so'ng qisqa muddat nafas rostdash maqsadida Xarron shahriga o'zlarining doimiy qo'nimgohlariga qaytadilar[2, 239]. Yaqin Sharqdagi shaharlar talon-taroji avj olib borib, "Xorazimliklar"dan noroziliklarni kuchayishiga sabab bo'lgan.

Xarrondan so'ng "Xorazimliklar" Suriyaning Rakka shahri yaqinida Yefrat daryosini kechib o'tib, Jibul, Tell E'zoz, Surmin va Ma'arra shaharlarini talganlar. Endilikda "Xorazimliklar"ga qarshi harbiy kaolisiya ham tuzilgan. Xoms hokimi al-Malik al-Mansur va as-Solihning Damashqdagi noibi as-Solih Ismoilarning birlashgan qo'shinlari "Xorazimliklar"ni 1241 yilda mag'lub etadilar. Qisqa vaqt ichida Dar, Rakka, Rux, Saruj, Ra's al-Ayn kabi shaharlarni bosib olganlar[6, 211]. Ittifoqchilar bu g'alabalar bilan cheklanib qolmasdan "Xorazimliklar"ning asosiy rezidensiyasi bo'lgan va oilalari joylashgan Xarron shahrini ham istilo qilishga muvoffaq bo'lganlar. Xorazimliklar endilikda o'zlari uchun yangi joy va yashash manzili izlashga majbur bo'lganliklar va tez orada o'zlari uchun yangi hukumdor topishga muvoffaq bo'ladilar[1, 191].

"Xorazimliklar" endilikda harbiy xizmat zarur bo'lgan Mayofiriqidin hokimi xizmatiga kiradilar. Bu paytda Mayofiriqidin Koniya sultonligi tazyiqiga uchragan bo'lib, sulton Kayxusrav bir necha bora Mayofiriqidin talonchilik yurishlari uyushtirgandi. 1241 yilgi Mayofiriqidin hokimi al-Malik al-Muzaffar bilan kelishuvga ko'ra, "Xorazimliklar" Mayofiriqidin yerlarini Koniya sultoni Alouddin Kayxusravning hujumlaridan muhofaza qilishlari lozim edi. Birlashgan kuchlari shu yili Amid shahriga hujum qiladilar. Koniya sultonligi hududiga qilingan bu hujum vaqtida, xorazimliklarning yana harbiy va siyosiy kuch sifatida yuksalishini istamagan ayubiylar ularning o'zlari orqa tomondan hujumi qilib, Koniya sultonligiga amaliy yordam bergan. Ayubiylar Mayofiriqidin yerlarini talab, boy o'ljalar bilan Xalab

shahriga qaytganlar[7, 136]. Ushbu mag'lubiyatdan so'ng, xorazimliklarning Yaqin Sharqda biror-bir yaqin ittifoqchisi qolmagan. Ayubiylar birlashgan davlatga aylangan, buning ustiga Koniya sultonligi bilan birgalikdagi ittifoq ancha qudratga ega bo'lib, "Xorazimliklar" uchun Mosul va Mayofiriqidin hokimlari ham endilikda ushbu ittifoq oldida o'z homiyliklarini taklif etmagan. Shunday bo'lsada, Mayofiriqidin bilan boshlangan kurashda xorazimliklar o'z xo'jayinlarini tashlab ketmaganlar. Ular al-Malik al-Muzaffar xizmatini uning mag'lubiyatga uchrashi aniq bo'lgan vaqtda ham davom ettirganlar. 1242 yil avgustida xorazimliklar va ayubiylar o'rtasida shiddatli jang bo'lib, son jihatidan ozchilikni tashkil etgan "Xorazimliklar" garchi qahramonona qurash olib borgan bo'lsalarda, mag'lubiyatga uchraganlar[8, 243]. Chekinish vaqtida ularning chodirlari, boyliklari raqiblari qo'lga o'lja sifatida tushgan.

"Xorazimliklar" shundan so'ng, bir necha bora yana ichki nizolardagi harbiy harakatlarda ishtirok etganlar. Shunday bo'lsada, keyingi ikki yil xorazimliklarning siyosiy hayotdagi ishtirokiga oid ma'lumotlar juda kam. 1242-1244 yillarda Koniya sultoni G'iyosiddin Kayxusrav "Xorazimliklar"ga o'z chegaralarida iq'to yerlari va'da qilib, adovatni unitishni, ularga boy o'ljalar va'da qilish kabi va'dalar orqali o'ziga xizmat qilishlarini so'ragan. O'z navbatida xorazimliklar Koniya sultonining bosh sarkardalari Kirxon Malikni qamoqqa olgani va uning qamoqda kasallanib o'limiga sabab bo'lishi bilan boshlangan adovat sababli, uning taklifini butunlay rad etganlar. Keyingi ikki (1242-1244 yillar) yil mobaynida ular Suriya shimolida asosan ko'chmanchi hayot tarzida yashaganlar[1, 191].

Xulosa, qilib aytganda, "Xorazimliklar" Jaloliddin Manguberdi vafotidan so'ng ham o'zlarining Yaqin Sharqdagi qudratli kuch ekanliklarini yaxshi anglagan holda mintaqadagi siyosiy vaziyatni o'zgartira oladigan kuch ekanliklarini bir necha bora ko'rsata olganlar. O'zlarining kam sonli ekanligiga qaramay "Xorazimliklar" hatto, ashaddiy dushmanlarini ham o'zlariga hurmat bilan qarashga majbur eta olganlar. Xorazimliklarning islom olami uchun qilgan eng ulug' ishlaridan biri bu Quddus shahridan salibchilarni to'liq quvib chiqarishlari edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu voqeyilikka alohida to'xtalib o'tish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Бунятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов. 1097 – 1231. – М.: Наука, 1986. – С. 188-189.

2.Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Та'рих ("Полный свод истории") Избранные отрывки. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П. Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш. С. Камолитдина. – Ташкент – Цюрих, 2005. – С. 232.

3.Orziyev M.Z., Latipov J.L. Salib yurishlari va unga qarshi kurashda-"Xorazmliklar" faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining-Iste'dod jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tomonidan o'tkazilgan "XXI asr-intelektual avlod asri" hududiy ilmiy-amaliy anjumani to'plami (2015 yil 5-6 iyun) – Buxoro. 2015. – B. 64.

4.Хилленбранд К. Крестовые походы. Взгляд с Востока: мусулманская перспектива/пер. с англ. – СПб.: "Издательство "ДИЛЯ", 2008. – С. 219.

5.Shahobiddin Muhammad an-Nasafiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti/Matyoqubov tarj./ - T.: O'zbekiston, 2006. – B. 377.

6.Hitti P. K. History of the Arabs. London, 1940. – p. 211.

7.Petry C. F. The Cambridge History of Egypt. Vol. 1, Islamic Egypt, 640 – 1517. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – p. 136; 394.

8.Holt P. M. Lambton A. K. S. Lewis B. The Cambridge history of islam. Vol. 1A, The Central islamik lands from pre – islamik Times to the first world war. - Cambridge. Cambridge University press, 1970. – p. 243.

ИЛК ЎРТА АСРЛАР МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД ТОПОНИМИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ҲАҚИДА АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР

Махмудов Дилишод Абдихалил ўгли,
Шаҳрисабз Давлат Педагогика институт
Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Самарқанд шаҳрининг қадим ва илк ўрта асрлар тарихини ёритишда ўзига хос ҳисса қўшадиган бир тарихий омилга тўхталиб ўтсак. Бу омил шаҳарнинг номи ва у билан боғлиқ турли талқинлардир. Қарийб уч минг йилдан бери ўз номини сақлаб келаётган шаҳарлардан бири бўлган Самарқанд шаҳрининг қадим ўтмишига тегишли кўплаб маълумотлар сақланиб қолган. Уларда айниқса “Самарқанд” сўзининг маъноси бўйича ўнлаб қараешлар билдирилган бир қанча олимлар самарқанд топонимига оид қадим ва илк ўрта асрларга тегишли турли тиллардаги ёзма манба маълумотларини ҳам келтириб ўтилади.

Калит сўзлар: Самарқанд, Девону луготит турк, Сугд, Панжикент, Маймуург, Кабудон, Маъмунийлар, Мовароуннахр, Сомонийлар.

НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ПРОИСХОЖДЕНИИ НАЗВАНИЯ САМАРКАНД В РАННЕСРЕДНЕВЕКОВЫХ ИСТОЧНИКАХ

Махмудов Дилишод Абдихалил ўгли,
Шаҳрисабзский государственный педагогический институт
преподаватель кафедры социальных наук

Аннотация. Остановимся на одном историческом факторе, который вносит уникальный вклад в освещение истории древнего и раннесредневекового города Самарканда. Этим фактором является название города и различные толкования, связанные с ним. Сохранилось много сведений о древнем прошлом города Самарканда, который является одним из городов, сохраняющих свое название почти три тысячи лет. В них ряд ученых, выразивших десятки взглядов на значение слова «Самарканд», включают сведения письменных источников на разных языках, связанных с топонимией Самарканда с древнего и раннего средневековья.

Ключевые слова: Самарканд, Согд, Пенджикент, Маймуург, Кабудон, Мамунис, Мовароуннахр, Соманис.

SOME INFORMATION ON THE ORIGIN OF THE NAME OF SAMARKAND IN EARLY MEDIEVAL SOURCES

Makhmudov Dilshad Abdikhalil ugli
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Social Sciences

Abstract. Let us dwell on one historical factor that makes a unique contribution to the illumination of the history of the ancient and early medieval city of Samarkand. This factor is the name of the city and the various interpretations associated with it. A lot of information about the ancient past of the city of Samarkand, which is one of the cities that has kept its name for almost three thousand years, has been preserved. In them, a number of scientists, who expressed dozens of views on the meaning of the word «Samarkand», include the information of written sources in different languages related to the toponymy of Samarkand from the ancient and early Middle Ages.

Key words: Samarkand, Sughd, Panjikent, Maimurg, Kabudon, Ma'munis, Movarounnahr, Somanis.

Кириш. Самарқанд тарихий жиҳатдан энг қадимги навқирон шаҳарлардан бири бўлиб ўзининг меъморий маданий ёдгорлигилари билан алоҳида ажралиб туради. Самарқандда илк давлатчилик шаклланиши катта аҳамият эга бўлиб, мавжуд урф одатлари миллий қадриятлар билан ҳам ўз тарихийлигига эга. Бу ерда ўрта асрларда яшаб ижод қилган олимлар ўз асарларида, Самарқанд топонимининг келиб чиқиши ҳақида араб ва форс тилларида тури хил маълумотлар ёзиб қолдирганлар.

Асосий қисм. Самарқанд шаҳрининг қадим ва илк ўрта асрлар тарихини ёритишда ўзига хос ҳисса қўшадиган бир тарихий омилга тўхталиб ўтсак. Бу омил шаҳарнинг номи ва у билан боғлиқ турли талқинлардир. Қарийб уч минг йилдан бери ўз номини сақлаб келаётган шаҳарлардан бири бўлган Самарқанд шаҳрининг қадим ўтмишига тегишли кўплаб маълумотлар сақланиб қолган. Уларда айниқса “Самарқанд” сўзининг маъноси бўйича ўнлаб қарашлар билдирилган бўлиб, улар орасида бу сўзни туркий негизда очиқлаган ўрта осиелик буюк алломалар Абу Райҳон Беруний (973-1048) ва Маҳмуд Кошғарий (1008-1105) ёндашувлари айрича ўрин тутади. Уларнинг қарашлари бундан деярли минг йил олдин билдирилган бўлиб, шунга ўхшаш ёндашувлар фақатгина ўрта асрлар мусулмон манбаларида эмас, балки узоқ чет эл манбаларида ҳам тилга олиниши диққатни тортади. Улар орасида Самарқанд номи асл туркий сўз эканига эътибор қаратган испан элчиси Руи де Клавихо, хитой элчилари ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур ёзиб қолдирган маълумотлар алоҳида ажралиб туради.[1]

“Самарқанд” топонимининг маъносига деярли ҳар бир ўрта аср муаллифи тўхталиб ўтган бўлиб, улар орасида Истаҳрий, Ибн Ҳавқал ва бошқа араб-форс географлари, шунингдек, улардан анча кейин ўз асарини ёзган маҳаллий форс ва туркий тарихчи ҳамда адибларнинг бу борада билдирган фикрлари ҳам диққатга сазовордир. Ўрта аср муаллифларининг бир қисми бу топонимни форсий тил билан боғласа, айримлари эса туркий негизда асослашга уринганлар. Ҳатто, Самарқанд номини сомий тиллари, хусусан, араб ва яҳудий тиллари негизда талқин қилган муаллифлар ҳам учрайди. Ҳар учала тил негизда Самарқанд номини кўриб чиққан муаллифлар ушбу шаҳарнинг жуда қадимийлигини таъкидлаш билан бирга, “Самарқанд” сўзини “Самар” ва “қанд” сўзлари билан боғлашга ҳаракат қилганликлари кўзга ташланади. Уларнинг кўпчилиги Самар сўзини бирор афсонавий шахс билан боғлаб, шаҳарга у асос солгани учун шундай ном олганини таъкидласалар-да, унинг келиб чиқишини олд осиелик (сомий), форс ёки туркий эканлиги масаласида бир-биридан фарқли маълумотларни далил сифатида келтириб ўтишади.[2]

Шу ўринда Самарқанд номи бўйича бирмунча фарқли талқин берган Абу Райҳон Беруний ва Маҳмуд Кошғарий ёзиб қолдирган маълумотларга батафсилроқ тўхталиб ўтсак. Абу Райҳон Беруний ўзининг “Қонуни Масъудий” асарида “Самарқанд – туркчаси эса Семизкенд, яъни “семиз, бўлик/унумдор” шаҳар маъносидадир” деб ёзса[3], Маҳмуд Кошғарий “Девону луғотит турк” (“Туркий сўзлар девони”) номли асарида “Кенд – ўғузлар ва улар билан яқин турувчилар тилида қишлоқ. Кўпчилк турклар наздида вилоятдир. Шунинг учун Фарғонани Ўзкенд – ўз шаҳримиз дейдилар. Самарқандни катталиги учун Семизкенд – семиз шаҳар дейдилар. Буни форсийлар Самарқанд тарзида қўллайдилар”[4] деб ёзади. Ҳар иккала алломанинг ушбу қайдлари бир-бирини тўлдириб, “Самарқанд” атамаси тўғрисида билдирилган қарашларни бойитибгина қолмай, балки айрим масалаларга аниқлик ҳам киритади. Чамаси, бу маълумотлар ушбу шаҳар номининг илк даврларига тўғридан-тўғри тегишли бўлмаслиги ҳам мумкин. Бироқ, шундай маълумотларнинг учраши айнан улар яшаган кезларда шаҳар номи ҳақида шундай тушунчалар борлигини кўрсатади. Шу билан бирга, ўша чоғларда Самарқанд аҳолисининг сезиларди бир қисмини

туркий аҳоли ташкил этганини кўрсатади. Айрим ўрта аср муаллифлари шаҳар номини “Самар” ва “Қанд” киши исмлари билан боғлаган ва шу тарихи Самарқанд атамаси бўйича бир қатор ривоятларнинг ёйилишига олиб келган эди.

Бугунги кунда ҳам бундай тушунчалар ўз илмий аҳамиятини йўқотмаган. Шунини айтиб ўтиш керакки, уларнинг ҳар иккаласи ўрта асрларда яшаган кўпчилик олим-уламолардан фарқ қилган ҳолда, ҳар бир масалага теран синчковлик билан қараб, келтираётган маълумотларини “етти ўлчаб бир кесиб” ёзишган. Нафақат бугунги изланувчилар, балки ўз даври билимдонлари ҳам урғу берганидек, Беруний бирор масалага тўхталар экан, у ҳақда ўзидан олдин билдирилган фикрларга шубҳа билан қараб, мушоҳада юритган энциклопедист олим сифатида машҳур бўлса, Кошғарий эса нимаики ёзмасин, ҳоҳ у бирор атама ёки сўз, ҳоҳ бирор элат ёки жой номи бўлсин, бевосита ўзи бориб кўриб, ишонч ҳосил қилгач, ўз асаридеда жой берган элшунос олим сифатида билинади.

Самарқанд топонимида тўхталган тарихчи олим Ғ. Бобоёровнинг ёзишича, “Девону луғатит турк”да тўғридан-тўғри маълумотлар учрамаса-да, кўпчилик изланувчилар Маҳмуд Кошғарий келтирган маълумотларни ўзидан қарийб ўттиз беш ёш катта бўлиб, асарларини ундан анча олдин ёзган Берунийдан олгани тўғрисида ҳамфикрдирлар [5]. Бу фикрда жон борлигини таъкидлаган ҳолда айтиб ўтиш керакки, ҳар иккала олим ўз асарини ёзар экан, маълумотларни ўша кезлардаги аниқ воқеликлардан олган бўлишлари керак. Маълумки, Беруний яшаб ижод қилган давр дастлаб Хоразмда маъмунийлар, Мовароуннаҳрда сомонийлар сулоласи ҳукмронлиги даври – IX – X асрларга тўғри келган бўлса, кейинчалик ушбу сулолалардан биринчиси ўрнини ғазнавийлар, иккинчисининг ўрнини эса қорахонийлар сулоласи эгаллаган бир палла – X – XI асрларга тўғри келади. Айниқса, Берунийнинг асарлари Ғазнавийлар муҳитида дунё юзини кўради. Ўша кезларда минтақа аҳолисининг турли-туман бўлганини ҳам кўзда тутадиган бўлсак, алломанинг туркий атама ва жой номларига диққат қаратгани аҳамиятлидир. Маҳмуд Кошғарий бўлса, қорахонийлар сулоласи ҳукмронлик қилаётган ҳудудда туғилиб, вояга етган бўлса-да, ўз асарини Бағдодда, яна бир туркий сулола бўлмиш салжукийлар муҳитида ёзган эди.

Беруний ва Кошғарийдан деярли беш юз йил кейин яшаган Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) ўзининг “Бобурнома” асаридеда Самарқандга таъриф берар экан “Самарқандни Искандар бино қилгондур. Мўғул ва турк улуси Семирқанд (Семизқанд) дерлар. Темурбек пойтахт қилиб эди. Темурбекдин бурун Темурбекдек улуғ подшоҳ Самарқандни пойтахт қилгон эмастур” деб ёзади [6]. Бундан кўринадики, теурийлар даврида ҳам қарийб беш йилдан бери давом этиб келаётган бу халқона талқин ўз аҳамиятини йўқотмаган эди.

Демак, “Самарқанд” бошланғичда қайси тил негизидеда аталиб, маъноси қандай бўлишига қарамай, унга туркийча деб қараш анъанаси узок ўтмишга бориб тақалади ва бу фикр асрлар оша нафақат оғиздан-оғизга, балки асардан-асарга ҳам кўчиб ўтаверган. Шунингдек, бу қадим шаҳар турли тилларда сўзлашувчи аҳолига эга бўлиши билан бирга ерли аҳолининг сезиларли бир бўлаги туркийлардан иборат бўлиб, бу эса бундай қарашларнинг узок йиллар давом этишига олиб келган [7].

Юқорида кўриб чиқилган маълумотлардан аён бўладики, Самарқанд ёки “Самарқанд Суғди” Марказий Суғднинг энг ўзак қисми – асосий маркази бўлиб, бу ҳолат унинг минг йиллар давомида Суғд воҳасининг сиёсий, иқтисодий, маданий ва мафкуравий маркази бўлиб келганида ўз тасдиғига эга. Шаҳар ва унинг атрофидаги йирик аҳоли масканлари – русток (туман) ва қишлоқлар ўз географик жойлашувига кўра воҳанинг ўрта қисми – чорраҳада жойлашганлиги, деҳқончилик ва боғдорчиликка мос унумдор ерлари ва ҳоказо каби табиий қулайликлар асрлар давомида Самарқанднинг Суғд воҳасида етакчи бўлишини

таъминлаган ва унинг бу мақоми нафақат воҳадаги кичик ҳукмдорликлар, балки узок ўлкаларда ҳам тан олинишига олиб келган.

Хулоса. Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш керак, Самарқанднинг Суғд воҳасидаги сиёсий мақоми бошқа ҳукмдорликлардан анча устун бўлганлиги атрофдаги бир қатор мулклик – ҳукмдорликларда Самарқанд ихшидийлар сулоласига тегишли алоҳида махсус жойларнинг бўлганида ҳам кўринади. Масалан, юқорида кўриб ўтилганидек, Маймурғ ҳукмдорлиги ҳудудида жойлашган Ривдод рустоғида Самарқанд Ихшидларининг қасрлари жойлашган бўлса, Панжикент, Маймурғ, Кабудон каби бир муддат алоҳида ҳукмдорлик бўлган сиёсий-маъмурий тузилмалар ҳам Самарқанднинг муайян бир рустоқлари ҳисобланган.

Самарқанд топонимида оид қадим ва илк ўрта асрларга тегишли турли тиллардаги ёзма манба маълумотларини археологик материаллар ҳам тасдиқлайди. Қарийб юз эллик йилдан бери Самарқанд ва унинг атрофидаги қадимий шаҳар харобаларида олиб борилаётган археологик изланишлар натижаси ҳам бундан дарак бериб турибди.

Адбиётлар рўйхати

1. Бобоёров Ғ. Абу Райхон Беруний ва Маҳмуд Кошғарийга кўра “Самарқанд” атамаси // Маънавий мерос ва ҳозирги замон цивилизацияси масалалари. – Тошкент: “Fan ziyosi, 2021. – Б. 32-35.

2. Aydınli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar (93 – 389 / 711-999). ..., S. 88-95.

3. Абу Райхан Беруни. Канон Мас`уда // Избранные произведения, V, Часть первая. Перевод и примечания Б.А. Розенфельда и А. Ахмедова. Ташкент, 1973. С. 471.

4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. I том. Тошкент: Фан, 1960. 330- бет.

5. Ҳасанов Ҳ. “Беруний ва Кошғарий” // Маҳмуд Кошғарий (ҳаёти ва географик мероси). Тошкент, 1963. Б. 70-74 бетлар.

6. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Тошкент: Юлдузча, 1989. 43- бет.

7. Бобоёров Ғ. Абу Райхон Беруний ва Маҳмуд Кошғарийга кўра “Самарқанд” атамаси ..., б. 32-35.

BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA YANGICHA QARASHLARINING VUJUDGA KELISHI

Qudratov Sh. Yo. ,

Археология ва Бухоро kafedrası katta o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish borasida yangicha qarashlarning vujudga kela boshlanganligi, jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar bo'lishini istagan taraqqiyparvar jadidlarning amirlik iqtisodiy hayotidagi muammolarni tanqid qilib, ularga yechim izlay boshlaganliklari hamda sohani rivojlantirish bo'yicha o'zlarining g'oyaviy dasturlarini ishlab chiqqanliklari to'g'risidagi ma'lumotlar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, tijorat, jadidlar, banklar, kredit, paxtachilik, qorako'lchilik, sanoat, tashqi bozor, eksport, ziroatchilik, xom-ashyo, sarmoya.

ПОЯВЛЕНИЕ НОВЫХ ВЗГЛЯДОВ ДЖАДИДОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Кудратов Ш. Ё.,

старший преподаватель кафедры Археологии и истории Бухары

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается сведения о возникновении новых взглядов по развитию предпринимательства и коммерческого дела в Бухарском эмирате в конце XIX и начале XX века, критике проблем в экономической сферы эмирата прогрессивными джадидами мечтавших осуществления изменений во всех сферах общества, что они начали искать их решения, разработывание ими идеологических программ по развитию сферы.

Ключевые слова: предпринимательство, торговля, джадиды, банки, кредит, хлопководство, каракулеводство, промышленность, внешняя торговля, экспорт, земледелие, сырьё, капитал

THE EMERGENCE OF NEW VIEWS OF THE JADIDS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE EMIRATE OF BUKHARA

Qudratov Sh. Yo.,

Senior teacher of the Department of history of the Bukhara

Abstract: In the following article the detailed information about the emergence of new views on the development of entrepreneurship and commercial affairs in the Bukhara Emirate at the end of the 19th and early 20th century, criticism of problems in the economic sphere of the emirate by progressive Jadids who dreamed of implementing changes in all spheres of society, that they began to look for their solutions, their development of ideological programs for the development of the sphere is examined.

Keywords: entrepreneurship, trade, jadids, banks, credit, cotton growing, karakul growing, industry, foreign trade, export, agriculture, raw materials, capital

Kirish. Buxoro amirligida XIX asr oxiri- XX asr boshlarida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish haqida yangicha qarashlar vujudga kela boshladi. Jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar bo'lishini istagan taraqqiyparvar ulamolalar va jadidlar iqtisodiy hayotdagi muammolarni tanqid qilib ularga yechim izlay boshladilar hamda sohani rivojlantirish bo'yicha o'zlarining g'oyaviy dasturlarini ishlab chiqdilar. Ularning iqtisodiy g'oyalari markazda iqtisod ilmini o'rganish zarurligi, dunyo

davlatlarida bo'lgani kabi ilg'or texnika va texnologiyalarni amirlik hududiga jalb etish, savdo-tijorat ishlarini ilmiy qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutgan. Millat oydinlari tomonidan ilgari surilgan islohotchilik g'oyalarining asosiy maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat olib borish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat edi. Ular Rossiyaga yarim mustamlaka bo'lgan Buxoro amirligining umumjahon taraqqiyotidan tobora orqada qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirish sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada balki diniy va ma'naviy sohada ham yuzaga kelgan turg'unlikni chuqur anglagan holda jamiyatni isloh etish g'oyalarini maydonga tashladilar.

Buxorodagi taraqqiyparvarlik harakatining g'oyaviy asoschisi Ahmad Donish (1827-1897) mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, Buxoroni obod o'lkaga aylantirish borasida muhim fikrlar bildirgan. Ahmad Donish o'zining siyosiy risolasida iqtisodiy-ijtimoiy sohaga oid, jumladan, banklar tashkil etish bo'yicha o'z takliflarini berdi. Davlat hukmdori soliqlardan yig'ilgan mablag'lar hisobiga banklar tashkil etishni, hunarmandlar va savdogarlarga belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan past foizli kreditlar berish kerakligini tavsiya qildi [1].

Ahmad Donishning fikricha, davlatning eng birinchi vazifasi – xalq haqida g'amxo'rlik qilish bo'lib, buning uchun hokimlar davlat iqtisodiyotining yuksalishi, kanallar qazish, suv omborlari, yo'l, ko'priklar qurish, yerlarni o'zlashtirish, yer osti boyliklarini qayta ishlash, xalqni ma'rifatli qilish, fan va texnikani rivojlantirish, maktab, maxsus o'quv yurtlari ochish haqida qayg'urishlari lozim bo'lgan. Bu bilan Donish davlat manfaatlarining xalq xohishlariga bo'ysunishini ko'rsatgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) o'z maqolalarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy muammolarga to'xtalib, ularni bartaraf etishga oid o'z tavsiyalarini taqdim etadi.

Behbudiyning Oyna jurnalida chop etilgan "Buxoro imorati" [2] nomli maqolasida Buxoro amirligining ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy hayoti xususida to'xtalib o'tib maktab va madrasalarda dunyoviy fanlar o'qitilmasligi oqibatida savdo, sanoat va tijorat rivojlanmaganligini tanqid qiladi. Buxoroning iqtisodiy imkoniyatlari xususida o'z fikr-mulohozalarini taqdim etib, amirlikda paxtachilik va qorako'lchilikning rivojlanganligini qayd etadi. Ammo Buxoroda sanoat texnikaning taraqqiy ettirish uchun hech qanday amaliy harakatlar bo'lmayotganini kuyunib yozadi. Behbudiy Turkistonning tashqi eksport operatsiyalarini asosan chet ellik savdogarlar bajarishayotganligi mahalliy aholidan mahsulotni arzon garovga olgan holda tashqi bozorda qimmat narxda sotganligi, shu sababdan ham yetishtirilgan mahsulotdan olinadigan foydaning asosiy qismi ularning cho'ntagiga tushganligi haqida kuyunib yozgan.

Behbudiyning guvohlik berishicha, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining sifati ham juda past bo'lib, buning asosiy sababi texnologiyalarning eskirganligidir. Ulardan qutulishning muhim yo'lini ishlab chiqarish tijorat va boshqa sohalar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mahalliy mutaxassislarini tayyorlash va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni qo'llash ekanligini qayd etadi. Buning uchun esa barcha mahalliy boylar birlashib zarur mutaxassislar tayyorlash uchun ketadigan sarf xarajatlarga mablag' ajratish kerak bo'lgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda qadimdan milliy hunarmandchiligimiz mavjud bo'lib, shohi, adras, beqasam, alacha, boffliklar to'qilar edi. Biroq bular eskicha uslubda, eski texnikalar bilan to'qilganligi sababli biroz talab darajasida bo'lmaganlar. Chunki, Yevropa xalqlari yangi asboblarni, texnika texnologiyalarni qo'llab, bulardan yaxshiroq materiallar ishlab chiqaradi, natijada bizning mollarimiz bozorlarda o'tmay qoladi deb ta'kidlaydi.

Behbudiyning zamondoshi bo'lgan, yirik savdogar tabib va taraqqiyparvar

Mirza Sirojiddin Hakim Buxoriy Boku, Botumi, Istanbul, Vena, Sofiya, Sarayevo, Budapesht, Berlin, Belgrad, Parij, London, Syurix, Marsel, Varshava, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bo'lib, sanoat korxonalari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan hamda u yerdagi taraqqiyotni o'z yurtida ko'rishni hohlagan[4].

Mirza Sirojiddin Buxoroning Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishiga birinchi sabab qilib ilm-fanning oqsayotganini ko'rsatsa, ikkinchi sabab qilib iqtisodiy qaramlikni ko'rsatadi va uning salbiy oqibatlari haqida Butun yer yuzini ular (ovrupo mustamlakachilari) o'z tasarrufiga olganlar. Biz ularning qo'l ostiga qolganmiz. Biz iflos ko'cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh issig'ida ziroat bilan shug'ullanishimiz kerak va qo'lga kiritilgan boyligimizni ularning san'atlari evaziga berib, o'zimizni gadoy qilishimiz kerak.... Bolalarimiz libosidan boshlab to o'liklarimizning kafanigacha Ovrupodan keladi... Endi biz muhtoj bo'lmay, kim muhtoj bo'lsin. Ular biz Osiyoliklarning boyligini olib ketar ekanlar boy bo'lmay kim boy bo'lsin... Axir biz hai ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz[5].

Buxoroning Yevropa mamlakatlaridan taraqqiyot jihatidan orqada qolganidan afsuslanib: "Hozir ovrupoliklarning ishi shu darajaga borganki, temir yo'l mashinalaridan tortib to kemalari va osmon tayyoralarigacha zlekrik nurini bera oladilar. Biz hanuzgacha eshak minib yuribmiz" [6] deydi, Mirza Sirojiddin bundan tushkunlikka tushmaydi, u Buxoroning kelajagiga ishonadi va taraqqiyot asosini ilm, hunar va tarbiyaga bog'laydi.

Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta'kidlab: "Biz, Osiyo xalqi, ovro'poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo'lsak ham, hali vaqt bor, qo'limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo'lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo'lini to'sadigan biror narsa ko'rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo'q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog'liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta'lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak", - deb yozadi.

Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat ham o'z asarlarida Buxoro amirligi iqtisodiyotiga oid muammolarni keskin tanqid qilib, ularning islohotlarga muhtoj ekanligini ta'kidlaydi. Fitrat Buxoro amirligini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif etadi va bu g'oyani amalga oshirish yo'lida sobitqadamlik bilan kurash olib boradi. Mustaqillikka erishishning birinchi yo'li millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uningbarcha qatlamlariga ziyo tarqatish tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini unga singdirish dunyo xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyatidan, ilmiy texnik taraqqiyotidan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, mamlakatni xom-ashyo yetkazib beruvchi hudud bo'lib qolmaslikga chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish deb bildi. Ikkinchi yo'l esa Buxoroning milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon iqtisodiyoti bilan iqtisodiy tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlik va integratsiyaga kirishishdir, deb ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat o'z vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga va xalqni farovon hayot tarziga olib chiqishning asosiy yo'li Turkistonga Yevropa fani, madaniyati, texnika, texnologiyasi, sarmoya va ilg'or tajribasini keng miqyosda va tez sur'atlar bilan kiritishda, deb bildi. Bu yo'lda ikkilanish, g'ayridin ilmi va texnikasini kiritishdan cho'chimaslik, sarosimaga tushmaslik, oriyat qilmaslik kerak, deb ta'lim berdi. Chunki, -deydi olim, - Yevropa xalqlari ham bir vaqtlar g'oyat qoloq va qashshoq bo'lishgan bir davrda Sharq fani, madaniyati, tajriba va amaliyotini qo'llash orqali yuksak taraqqiyotga chiqib olganlar. Zero, bundan 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy qoloq bo'lgan davrlarda Sharq xalqlari

insoniyat sivilizasiyasining ancha yuqori darajasida bo'lganlar.

Fitrat o'zining "Hind sayyohi bayonoti" asarida iqtisodiy g'oyani ishlab chiqib, unda amirlikning tabiiy xom-ashyo manbalarga juda boy ekanligi, ular hozircha yashirilib yotganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan texnika yutuqlarini milliy iqtisodiyotni yaratishga dadil jalbetishga oid qarashlar ilgari surilgan [7]. U yoshlarni tadbirkorlik tijorat va savdo ishlariga o'qitish lozimligiga da'vat qilib, vatandoshlariga "Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ilmini o'qitingiz, chunki begonalar, ya'ni xorijiy sarmoyadorlar tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz" [8] deb yozadi. Abdurauf Fitrat tijoratning o'ziga xos madaniyatlari borligi va ularga amal qilish kerakligi to'g'risida " Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birortasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e'tibor berishga arziydi " deb ta'kidlaydi [9].

Fitrat savdo va tijorat ishining o'ziga xos qoidalari mavjudligiga e'tibor qaratib, savdo va tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlari hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib, o'zaro ittifoq bo'lib faoliyat ko'rsatish lozimligini, savdo va tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurilishiga yordam ko'rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berish kerakligi: savdo va tijorat ahli "Savdo ilmini zo'r berib o'qishlari va bilishlari lozimligini yevropaliklarning savdo va tijoratdan foyda olishlari zaminida madaniy savdo qilish ilmi bilishlaridan ekanligini" uqtiradi [10].

Jadidlar tomonidan jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni islohotchilik tamoyillari asosida hal etib ishlab chiqilganligi, institusional o'zgarishlarni mustamlaka tuzumini tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llaridan tanlay bilganliklari, shubhasiz ularning tarixiy xizmatlaridir. Ular Buxoro amirligi iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lgan savdo va tijorat faoliyatini yaxshi tushunganlar.

XIX asr oxirlariga kelib Yevropa davlatlarida texnika sohasining rivojlanishi xalq xo'jaligining barcha jabxalariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xalqlar endi nafaqat dehqonchilik chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, balki sanoat sohasida ham yirik tadbirkorlik sub'yektlarini vujudga keltira boshladilar. Ilm-fan va texnika sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lgan millat oydinlari Ahmad Donish, Mirza Siroj Hakim Buxoriy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayevlar tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarni targ'ib qildilar.

Xulosa va takliflar. Xullas, jadidlar Buxoro amirligining yer osti boyliklarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini tashkil etish lozimligini, paxta, ipak, qorako'l teri xom ashyolarini qayta ishlovchi korxonalar qurish hamda to'qimachilik fabrikalariga asos solish zarurligini aytib xalqni, Yevropa va rivojlangan musulmon davlatlaridan o'rnatilgan olishga chaqirdilar. Zamonaviy bilimga ega kadrlar tayyorlash hamda tadbirkorlik va savdo-sotiqni rivojlantirish muhim vazifa bo'lishi lozimligini uqtirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoye. -B-49.
2. M. Behbudiy. Buxoro imorati. // Oyna 1915 yil 2 may №14-B 375-381
3. M. Behbudiy. Ehtiyoji millat. Samarqand. 1915 yil 12 iyul.
4. Rajabov. Q. Siroj Hakim O'zbek milliy ensiklopediyasi. 7-jild. Toshkent, 2004. -B 650.
5. Mirzo Siroj. Tuxfai ahli Buxoro. Dushanbe. Adib. 1992. - S-76.
6. Mirzo Siroj. Oinai ibrat ya'ni asri madaniyat. Buxoro sharif. 1912 yil, 24 aprel
7. Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent. Ma'naviyat 2000. -B. 110-167.
8. Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent. Ma'naviyat 2000. - B-167.
9. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent. Ma'naviyat 2000. -B.-140.
10. Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent. Ma'naviyat 2000. - B.151.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

NONSTANDARD LANGUAGE UNITS IN ENGLISH

Xusanova Sharofatxon Isroilovna,

*Master's student of Andijan Institute of Foreign Languages, Academic lyceum
under Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

Abstract: The article deals with the significance of using nonstandard language units in English. The practical usage and role of these units are discussed in this article. The article describes general characteristics of language units; such as colloquialisms, vulgarisms, argot, slang and jargon and specific priorities in language. It indicates the importance of utilizing them and their meaning and shows the limit of them according to some particular reasons. The purpose of article is to learn the ideas of great scholars around the world and define the difference between standard and nonstandard language units.

Key words: situational requirements, non-standard lexicon, special manuals, common slang words, certain situations, diversification, scientific, public, journalistic, artistic, oral, correspondent style, newspaper style, poetry, professional-technical, official-departmental, contemporary fiction, news media, translation, and conversation.

НЕСТАНДАРТНЫЕ ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Хусанова Шарофатхон Исроиловна,

*магистрант Андижанского института иностранных языков,
Академический лицей при Андижанском институте
сельского хозяйства и агротехники.*

8. Малакали эркин курашчиларнинг куч чидамлик қобилиятларини ривожлантириш самарадорлигини оширишга йўналтирилган технология

мусобақа фаолиятида ютукларни белгилайдиган восита сифатида ўз исботини топди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004.

Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности / дис. канд. пед. наук. / 2009.

Холмухамедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев на этапах годового цикла: Автореф. дис. д-ра пед. наук.- Тошкент-2009.-

С 16-17.

Баязитов К.Ф. Оптимизация тренировочного процесса тяжелоатлетов высокой квалификации в годовом цикле / дис. канд. пед. наук. 2009.- ст 31-36.

Баязитов К.Ф. Повышение спортивно педагогического мастерства в тяжелой атлетике. Типография УзГИФК. Ташкент, 2011. – ст.86-96.

Арслонов Қ.П Кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси Б. 46-55

MAKTAB O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION FIKRLASHNING O‘RNI

*Xakimova Dildora Mashrabjonovna,
Toshkent shahar PYMO‘MM “Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi”
kafedra mudiri, p.f.f.d., dotsent*

Annotatsiya. Maqolada pedagog kadrlarning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z-o‘zini takomillashtirishi, jamiyatdagi yangilanishlarni ko‘ra olishi, ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalana olishi asosida innovatsion salohiyatini rivojlantirishi, pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilish bosqichlari kabi masalalar ilmiy jixatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion salohiyat, yangicha yondashuv, o‘z-o‘zini anglash, metodik mahorat, subyekt-subyekt hamkorligi, tashqi predmetli faoliyat, refleksiv layoqatlilik, novatorlikka yo‘nalganlik.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ

*Дилдора Машрабжоновна Хакимова
Заведующая кафедрой, PhD, доцент «Методика преподавания социально-экономических и прикладных наук» национального центра подготовки педагогов по новым методикам города Ташкента*

Аннотация. В статье рассматриваются такие вопросы, как самосознание педагогов, самообразование, самосовершенствование, умение видеть обновления в обществе, развитие инновационного потенциала на основе умения эффективно использовать их в педагогической деятельности, этапы анализа готовности педагогов для инновационной деятельности научно обоснованы.

Ключевые слова: инновационный потенциал, новый подход, самосознание, методическое мастерство, субъект-субъектное сотрудничество, деятельность с внешним субъектом, рефлексивная способность, ориентация на новаторство.

THE ROLE OF INNOVATIVE THINKING IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF SCHOOL TEACHERS

*Dildora Mashrabjonovna Khakimova
Head of the Department, PhD, Associate Professor «Methods of Teaching Socio-Economic and Applied Sciences» of the National Center for Training Teachers on New Methods of the City of Tashkent*

Abstract. In the article, issues such as self-awareness of pedagogues, self-education, self-improvement, ability to see updates in society, development of innovative potential based on their ability to effectively use them in pedagogical activities, stages of analysis of readiness of pedagogues for innovative activities are scientifically justified.

Keywords: innovative potential, new approach, self-awareness, methodical skill, subject-subject cooperation, activity with external subject, reflexive ability, orientation to innovation.

KIRISH. Insonning o‘z-o‘zini anglashi uning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boruvchi jarayon bo‘lib, bilish va anglash kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O‘z-o‘zini bilish birdaniga, to‘satdan namoyon bo‘lmaydi. Inson o‘z-o‘zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot va faoliyat jarayonida erishadi. Shakllanib, rivojlanib boradigan anglash – murakkab hodisadir. Chunki bu o‘rinda

shaxs bilishning o'ziga xos ikki shakli: bilishning ham obyekt, ham subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli pyedagog kadrlardan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Innovatsion faoliyat pyedagog kadrlarning hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo'lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

M.T.Jumaniyozovaning fikricha, pyedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi pyedagog kadrlar faoliyatini tahlil qilish.

2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritib bo'lingandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Pedagog kadrlar innovatsion faoliyatini tahlil qilib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim yangi moslama(modifikatsiya)lar metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich - yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'liq ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich - pyedagog kadrlar o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasi va metodikasini ishlab chiqadi.

Pedagog kadrlar innovatsion faoliyatining shakllanishidagi birinchi bosqichda quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- pedagogik faoliyatda ijodiy yo'nalishni shakllantirib borish;

- pedagogik jarayonda subyekt-subyekt hamkorligini yo'lga qo'yish;

- pedagogik kasbini rivojlantirish va bunga qiziqishni orttirib borish;

- keng qiziqish doirasini shakllantirish, pedagogik muloqotda ochiqlikni ta'minlash;

- "men-g'oyalar" ijodiy fikrlash yo'nalishini rivojlantirib borish;

- pedagogik vazifalarni hal etishga ijodkorlik bilan yondashuv, tahlil qilish malakalarini rivojlantirib borish;

- ijodiy ishlash texnologiyasini shakllantirish.

Bu jarayonda shaxsiyatni o'stirish treningi, muammoli o'qitish texnologiyasi, faol ta'lim metodikasidan foydalanish va yangilik kiritish jarayoni bilan tanishtirib borish lozim. Birinchi bosqichning asosiy mazmunini umumiy psixologik-pedagogik bilimlarni egallash, o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish tashkil etadi.

METODLAR. So'nggi vaqtlarda turli manbalarda "innovatsiya", "innovatsion faoliyat" tushunchasi bilan birga "innovatsion fikrlash" atamasidan ham tez-tez foydalanish holati ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ko'pgina ilmiy izlanishlarda innovatsion fikrlash tushunchasi qo'llanilsada, uning mohiyati aniq ochib berilmaydi. Uni odatda shaxsning innovatsion faoliyatga qobiliyatligi sifatida talqin qilinadi. Biroq innovatsion faoliyatga qobiliyatlilik nafaqat fikrlash jarayoni, balki tashabbuskorlik, tanqidiy munosabat bildirish, refleksiv layoqatlilik, novatorlikka motivatsion yo'nalganlik kabi shaxs sifatlarini ham o'z ichiga oladi.

Innovatsion fikrlash tushunchasiga V.P.Deliya quyidagicha tarzda ta'rif berishga harakat qilgan: mental modelni yaratish va ishlab chiqish bilan bog'liq, fiziologik ketma-ketliklar, ijtimoiy-madaniy qonuniyatlar, shu jumladan, ma'naviyat, ezgulik va haqqoniylik asosida olam manzarasini takomillashtirishga yo'naltirilgan innovatsiyalar va innovatsion jarayonlarning tasodifiy va jadal obyektivligiga

asoslangan fikrlashdir.

Individning refleksivligi va turli mental modullarini konstruksiyalash, o'z navbatida mazmuniga ko'ra obyektiv va subyektiv reallikdan tashkil topgan; hayot mazmunini tushunish, prognozlash va modellashtirish zaruriyati natijasida egallanadigan yangi bilimlar shaklida o'z-o'zidan voqe' bo'ladigan subyektiv reallikni V.P.Deliya noumen (yunoncha so'z, obyektiv, bor holaticha tushunarli) deb atagan.

Ko'rinib turibdiki, innovatsion fikrlashga berilgan yuqoridagi ta'rif uni amaliy jihatdan qo'llashga to'liq imkon bermaydi, chunki juda murakkab talqinga ega. Malaka oshirish kurslarida innovatsion fikrlashga berilgan mazkur ta'rifni taqdim etganimizda tinglovchilar uning mohiyatini tushunish juda "qiyin" ekanligini ta'kidlab o'tishdi. "Aynan qaysi o'rinlari tushunarsiz?" savoliga tinglovchilar "mental modellarning namoyon bo'lishini aniqlab beruvchi fiziologik ketma-ketliklar" jumlasini alohida qayd etib o'tishdi. Shuningdek, tinglovchilarda innovatsion fikrlashning "mavjud olam manzarasini takomillashtirish"ga yo'naltirilganligi haqidagi mulohaza ham ko'plab bahslarni keltirib chiqardi. Aksincha, u atrof-muhitni o'zgartirish jarayonida amaliy muammolarni hal etish bilan bog'liq ekanligi haqidagi fikrlarni aytib o'tishdi.

V.P.Deliya tomonidan berilgan ta'rifning yuqorida ko'rsatib o'tilgan munozarali jihatlar mavjud bo'lsada, biroq u innovatsion fikrlashning asosiy tavsifi va belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Innovatsion fikrlash – bu:

- bevosita faoliyat bilan bog'liq;
- obyektiv yangi voqelik(noumen)ni yaratishga yo'naltirilgan;
- noumenni yaratish asosida amaliy muammolarni hal etish imkonini beradi;
- ijtimoiy pozitivlikni aks ettiradi.

Quyida mazkur qoidalarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Innovatsion fikrlashning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, u faoliyat bilan bevosita bog'liq. Bunday fikrlashni biz atrof-muhitni moddiy jihatdan o'zgartirishda namoyon bo'luvchi mazkur jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sifatida motivatsiya va yakuniy natijadan ayri holda, faqat mental modellarga tayanib talqin qilishimiz mumkin emas. Boshqacha aytganda, innovatsion fikrlash mental modelni yaratishga olib keluvchi motivlar, shaxsiy fikrlar va ushbu modelni amalga tatbiq etishga doir tashqi predmetli faoliyat bilan tavsiflanadi.

Fikrlashning xilma-xil turlari ajratib ko'rsatiladi: empirik, nazariy, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy, fazoviy va h.k. Shu bilan birga, fikrlash yaxlit ko'rinishga ega ekanligi hammaga tushunarli va uning yuqorida sanab o'tilgan har bir turi faqat qaysidir tavsifiy jihatining ustunligiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtiriladi. Masalan, nazariy fikrlash yuqori darajadagi abstrakt tushunchalarga asoslanish bilan bog'liq, empirik fikrlash hissiy idrok etiladigan ko'rgazmali obrazlarga tayanadi. Reallikda faqat abstrakt yoki aksincha, ko'rgazmali obrazlarga asoslanib fikrlaydigan odam bo'lmaydi. Shuning uchun turli maxsus vazifalarning o'zgarishiga oson moslashadigan yaxlit fikrlash haqida gapirish o'rinli bo'ladi.

I.S.Yakimanskaya ta'kidlab o'tganidiki: "Istalgan qobiliyatning tuzilishi murakkab va ko'p o'lchamli. Uning hamma tarkibiy qismlari ham ayni paytning o'zida bir xil rivojlanmaydi... Biri kamroq rivojlangan bo'lishi mumkin, biroq ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni yaxshiroq rivojlangan boshqasi muvaffaqiyatli to'ldirishi mumkin. Yana u shuni ta'kidlab o'tadiki, "Istalgan qobiliyat tuzilmasida biror o'quv qobiliyati rivojlanishi mumkin bo'lmagan, uning yo'nalishi, o'ziga xosligini ta'minlaydigan yetakchi, asosiy xususiyat mavjud".

Bizningcha, innovatsion fikrlash quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi lozim:

- ijodiy;
- ilmiy-nazariy;
- ijtimoiy-pozitiv;
- konstruktiv;
- transformatsion;
- pragmatik.

Natijalar va munozara. Innovatsion fikrlashning har bir xususiyati tahliliga e'tibor qaratamiz va ulardan biri mavjud bo'lmasa, yaxlitlik hosil bo'lmashligini ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

1. Innovatsion fikrlash algoritmi, namuna, modellar doirasiga taalluqli ijodiy jarayonni o'zida aks ettiradi. Ijodiy fikrlash hamma vaqt subyektiv yangi natijalarga olib keladi. Ana shu nuqtayi nazardan innovatsion fikrlashning ijodiy komponenti san'at sohasidagidan farq qiladi. Har bir insonning ichki dunyosi noyobligini e'tirof etganda ham, rassom ichki olami aks etgan istalgan vosita hamma vaqt obyektiv yangilikka ega. Ijodkor uchun ma'lum bir ko'rinishdagi variantlar orqali obyektiv amaliy muammolarni hal etish asosiy maqsad hisoblanadi. Xuddi shunday natija bir-biridan xoli ravishda turli kishilar tomonidan qo'lga kiritilishi mumkin, kimki yechimni oldinroq izlab topgan bo'lsa, shuning faoliyati ijodiy deb aytilish o'rinli bo'lmaydi. Bir mamlakatda ma'lum bir texnologiya muvaffaqiyatli qo'llanilib, hozirda an'anaviylik kasb etishi mumkin, boshqa davlat uchun novatordan kamroq ijodkorlikni talab etuvchi innovatsion tavsifga ega bo'ladi. Ijodiy fikrlash jarayonida insayd algoritmlarni qo'llash doirasida amalga oshmaydigan yangilikning yuzaga kelishidir. Agar ayniqsa, ilhom kelgan vaqtda yorqin namoyon bo'ladigan innovatsion fikrlashning ijodiy komponenti mavjud bo'lmasa, u darhol innovatsion tavsifini yo'qotadi, faoliyat mahsulida yangilik mavjud bo'lmaydi. Mustaqil yechimlar qabul qilish talab qilinmaydigan algoritmi bo'yicha yangi innovatsion texnologiyalarni amalga oshiruvchi mutaxassis, tashqi faoliyat nuqtayi nazaridan novator bo'lishi mumkin, biroq fikrlash uslubiga ko'ra yangilik ishlab chiquvchi hisoblanmaydi.

2. Innovatsion fikrlash ilmiy-nazariy tafakkurni o'zida namoyon etadi. Ilmiy fikrlash "metodologik tamoyillar, yondashuvlar va ularning natijalariga muvofiq amalga oshiriladi". Yu.V.Senkoning fikricha, ilmiy fikrlash "nazariy fikrlashga munosabatiga ko'ra o'tmishdagi nazariyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati va o'ziga xosligini ochib berishga xizmat qiladi". Nazariy fikrlash asoslanadigan tushunchalar fanning hozirgi bosqichi uchun abstrakt darajani egallaydi. O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni bir necha marta tekshirishga asoslangan, o'zida obyektiv bazani ifoda etuvchi umumlashmalar, nazariy modellsiz fan va texnikaning hozirgi bosqichi uchun talab katta innovatsion mahsulotni yaratish mumkin emas. Masalan, energiyaning yangi manbaini zamonaviy fizik bilim va texnologiyalarga tayangan holda ixtiro qilish mumkin.

3. Innovatsion fikrlash ijtimoiy-pozitiv tavsifga ega bo'lib, u hamma vaqt yaratuvchanlikka yo'naltirilgan, insonparvarlik g'oyalari bilan bog'liq, hal qilinadigan muammolar ijtimoiy ahamiyatga molik: innovatsiya ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, ish sharoitini yaxshilaydi, turmush farovonligini ta'minlaydi va h.k. Shuning uchun hatto intuitiv darajada bo'lsa ham "innovatsion zaharlovchi gaz", "innovatsion qurol" kabi jumlar salbiy idrok qilinadi. Talabalarni u yoki bu ixtirolar bilan tanishtirish jarayonida uning insonlar hayotiga ijobiy ta'sirini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

4. Innovatsion fikrlash konstruktivlik, ya'ni vazifalarni real va diagnostik tarzda qo'yish, unga mos metod va vositalarni tanlash, o'z harakatlarini ketma-ketlikda rejalashtirish, maqsadga erishish darajasini aniqlash, zarur holatda unga tuzatishlar kiritish, amalga oshirilayotgan rejaga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritishga qobiliyatlilikni ko'zda tutadi. Konstruktivlikka sinonim sifatida texnologik madaniyat tushunchasini qo'llash mumkin. Konstruktiv fikrlash emotsiyalarga berilmaslik, mantiqiy, ketma-ketlik asosida yakuniy natijaga erishish, ikkinchi darajali omillarga chalg'imaslikni talab etadi. Uni obrazli tarzda uchqur va bo'ysunmas otni qo'raga qamab qo'yish ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

5. Innovatsion fikrlashning konstruktiv komponenti pragmatiklik bilan bevosita aloqadordir. Innovator ixtirochi va olimdan farqli ravishda faqat yangilikni kashf etish va uni nazariy asoslash bilan emas, balki yaratilgan yoki kashf etilgan ixtiro asosida

amaliy natijalarni qo'lg'a kiritish, ixtironi amalga joriy etish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun u o'zida nafaqat olim, balki tashkilotchi, menejer, tadbirkorga xos sifatlarni ham uyg'unlashtiradi. Buning uchun innovator joriy holatlarni hisobga olishi, ish jarayonida ulardan to'g'ri foydalanishi zarur.

6. Innovatsion fikrlash hamma vaqt atrof-muhitga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq. U faqat modellarni (chizma, jadval, algoritmi va h.k.) ishlab chiqish bilan chegaralanmaydi. Mazkur modellar real timsollarga aylanishi, moddiy hayot va sotsium ko'rinishiga ega bo'lishi zarur. Mazkur jarayonda innovatsion fikrlashning barcha xususiyatlari yorqin namoyon bo'ladi. Faoliyatni o'zgartirishga amaliy jihatdan layoqatsizlik noto'g'ri fikr yuritish - real jarayonlarni avvaldan ko'ra olishda intuitsiyaning yetishmasligi, sabab-oqibat tavsifida yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf eta olmaslikka olib keladi.

Ichki fikrlash jarayonlari va tashqi predmetli faoliyatning bevosita yaxlit tavsifga egaligi V.P.Deliyaning izlanishlarida ko'rsatib berilgan. U innovatorning fikrlash faoliyatining dialektik o'zaro aloqador ikki bosqichini ajratib ko'rsatgan: kognitiv – ichki refleksiya asosida yangi bilimlar mazmunini ishlab chiqish va taqdim etishga doir fikriy faoliyat; vositali - yangi bilimlarni amaliy faoliyat bilan mosligini ta'minlash va amalga oshirish.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, mualliflik yondashuvi asosida innovatsion fikrlashga quyidagi ta'rif berildi: innovatsion fikrlash innovatsion faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, kognitiv va vositali darajalarda amalga oshiriladigan ijodiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-pozitiv, konstruktiv, transformatsion va pragmatik tafakkur yuritish jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulboyev A. Pedagogik tashxis vositasida o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. – 112 b.
2. Jumaniyozova M. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – T., 2007. – 176 b.
3. Jo'rayev R.H., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovatsion faoliyati. // j. Xalq ta'limi. – 2004. - №2 – B.4-8.
4. Делия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. – Москва: Де-П, 2011. – 232 с.
5. Сенько Ю. В. Формирование научного стиля мышления учащихся. – Москва: Знание, 1996.
6. Freire, P. (1998). *Pedagogy of Freedom: Ethics, Democracy and Civic Courage*. Lanham, Rowman & Littlefield Publishers.
7. John A. Henschke. *Teaching Adult Learners*. 1994. https://trace.tennessee.edu/cgi/viewcontent.cgi?Article=1537&context=utk_IACE-browseall
8. Zmeev S. I. *Andragogy: fundamentals of the theory, history and technology of adult education*. Moscow, 2007. - 272 p. (Змеёв С. И. *Андрогогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых*. М.: ПЕР СЭ, 2007. - 272 с.)
9. Illeris, K. (2007). *How We Learn: Learning and Non-Learning in School and Beyond*. London: Routledge. 289 pp. ISBN 0415438470.
10. Knowles, M. S., et al. (1984). *Andragogy in action: Applying modern principles of adult education*. San Francisco: Jossey-Bass.

YOSH ERKIN KURASHCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONIDA FUNKSIONAL IMKONIYATLARINI RIVOJLASHTIRISH VA MUSOBAQA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Anarbayev Temur Risbekovich,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi
O'zbekiston, Chirchiq shahri*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh erkin kurashchilarni umumiy jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirishda qo'llaniladigan mashqlarning ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot natijalari muhokama qilinadi hamda murabbiylarga amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, yoshlar, erkin kurash, sport, rivojlantirish, nazorat guruhi, tajriba guruhi, natija.

РАЗВИТИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЮНЫХ БОРЦОВ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ И ПОВЫШЕНИЕ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

*Anarbayev Temur Risbekovich,
Преподаватель Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
Узбекистан, г. Чирчик*

Аннотация: В данной статье рассматриваются результаты исследования влияния упражнений, применяемых на развитие общей физической подготовленности юных борцов вольного стиля, и даются практические рекомендации тренерам.

Ключевые слова: физическая подготовка, юноши, вольная борьба, спорт, развитие, контрольная группа, экспериментальная группа, результат.

DEVELOPMENT OF THE FUNCTIONAL CAPACITIES OF YOUNG Wrestlers DURING THE TRAINING PROCESS AND INCREASE THE COMPETITION EFFICIENCY

*Anarbayev Temur Risbekovich,
Teacher of Uzbekistan State University of Physical Education and Sports
Chirchik, Uzbekistan*

Abstract: This article discusses the results of the study on the impact of exercises used in the development of general physical fitness of young freestyle wrestlers and gives practical recommendations to coaches.

Keywords: physical training, youth, freestyle wrestling, sports, development, control group, experimental group, result.

Dolzarbliligi .Bugungi kunda bolalar sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash, sohasida ta'lim tashkilotlarining ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish orqali jismonan rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo'lmoqda.

So'nggi yillarda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzining keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni

ta'minlash, shuningdek, sport sohasidagi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarorlari imzolandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki erkin kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish va sport mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish ayniqsa iqtidorli yoshlarni tanlash va ularni sport tugaraklariga jalb etishda samarali usullardan foydalanib o'rgatishda jismoniy madaniyat talim tarbiyasini zamonaviy muommalarni yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar chuqur olib borilmoqda. Shuningdek mazkur soha bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanmalar juda kam uchraydi.

Erkin kurash yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi ahamiyati va mohiyatining yuqoriligi, salmoqliligi ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda erkin kurash sport turining asosiy tamonlari, o'ziga xos vositalari va tamoyillari, o'zaro uzviy bog'lanib borishni aytib o'tish joiz. Shu tamonlar, vositalar va tamoyillar orqali sportning har bir turida muayyan fazilatlar kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati tarzida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizdagi ko'plab olimlarning adabiyotlarida bu mavzu muammolari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Bulardan qo'yidagi adabiyotlarni aytish mumkin. N.A.Tastanovning "Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" darsligi, F.A.Kerimovning "Sportda ilmiy tadqiqotlar" darsligi, Z.A.Bakiyev "Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanmasi, S.Q.Adilov "Sport-pedagogik mahoratni oshirish (erkin kurash)" o'quv qo'llanma, Sh.A.Abdullayev "Erkin kurash bo'yicha sport pedagogik maxoratni oshirish" kabi adabiyotlarda ham mana shu boradagi fikr va mulohazalar berilgan. Chet el olimlardan V.M.Zasiorskiy, A.D.Novikov, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, N.G.Ozolin, I.I.Alixanov, P.F.Matrushak kabi olimlar erkin kurashchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish to'g'risida bir qancha tadqiqotlar o'tkazib maxsus adabiyotlarda fikr va mulohazalar aytib o'tilgan. Yuqoridagi keltirilgan ilmiy ishlar yaqin yillarda kurash turlari sohasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili va pedagogik kuzatishlar natijasida yosh erkin kurashchilarni funksional imkoniyatlarini oshirish musobaqa samaradorligini yaxshilashga asos bo'la oladi deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning maqsadi: yosh erkin kurashchilarni umumiy jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirishda qo'llaniladigan mashqlarning ta'sirini aniqlash va musobaqa samaradorligini oshirish.

Tadqiqotni vazifasi: yosh erkin kurashchilarni funksional imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqot usullari ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, matematik statistik usullar.

Tadqiqotning tashkil qilinishi.

Yosh erkin kurashchilarda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish maqsadida o'quv – mashg'ulot va musobaqa jarayonlari 2022 – yil sentabr oyidan 2022 –yil dekabr oyigacha Chirchiq olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o'tkazildi. Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etildi. Yosh erkin kurashchilarning 12 nafaridan tajriba guruhi, 12 nafaridan nazorat guruhi tashkil etildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida yosh erkin kurashchilar umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlarini samaradorligiga e'tibor qaratildi. Pedagogik kuzatuv va ilmiy–uslubiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalangan holda yosh erkin

kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlarini qo'llay olish darajasini xarakterlaydigan quyidagi nazorat mashqlari tanlab olindi va ular umumiy jismoniy tayyorgarlik rivojlantirish maqsadida tajriba guruhining mashg'ulotlari tarkibiga kiritildi:

1. O'tirib turish mashqi 12tadan 4ta takrorlash;
2. O'tirib balandlikka sakrash 10tadan 4ta takrorlash ;
3. O'z vaznidagi sherigini yelkalariga olib o'tirib turish;
4. Sherigini yelkalariga olib 30 metrga tezlikka yugurish;
5. 70 sm balandlikka juft oyoqda sakrab chiqib tushish;
6. Polga tayangan holatda qo'llarni bo'kib yozish 12tadan 4marta takrorlash;
7. Arqonga chiqib- tushish, 4marta takrorlash
8. Turnikda tortilish 2marta takrorlash.
9. Oyoqlarni orqaga tashlash –signalga bajarish 10tadan 4marta takrorlash;
10. Ikki oyoqqa o'tish usulini raqibsiz signalga 10tadan 4marta bajarish
11. 10 soniyaga yelkadan oshirib tashlash usilini 2marta takrorlash bajarish;
12. 10soniyaga yelkalardan oshirib tashlash usilini 2marta takrorlash bajarish;
13. 60 metr metrga yugurish 3marta takrorlash;
14. Mokisimon yugurish (3x10) 3marta takrorlash;
15. Turgan joyidan uzunlikka sakrash 5tadan 3marta takrorlash;
16. 3000 metrga yugurish (haftada bir marta).

Yuqoridagi mashqlar to'plamini tayyorgarlik davrining mikrosiklida (haftalik) rejalashtirilishi 1-jadvalda keltirilgan.

1–jadval

T/r	Hafta kunlari					
1	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba
2	MJT UJT	TTT, O'quv mashg'ulot bellashuvi	Kross, tiklanish	MJT UJT	TTT, MJT	Sport o'yinlari UJT

Izoh: MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, UJT-umumiy jismoniy tayyorgarlik, TTT-texnik taktik tayyorgarlik

Yosh erkin kurashchilardan tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlaridan olingan jismoniy tayyorgarligi ko'rsatgichlari. (n=12)

2–jadval

Test mashqlari	Tajriba guruhi \bar{X}	Nazorat guruhi \bar{X}	P
60 metr metrga yugurish (s)	10.5	10.8	<0,001
7 metrli arqonga chiqib, tushish	10.5	11.45	<0,001
Turnikda tortilish (marta)	17	18	<0,001
Mokisimon yugurish (3x10) (s)	6.4	6.4	<0,01
Turgan joyidan uzunlikka uchsakrash	2.14	2.16	<0,001
10 soniyaga yelkadan oshirib tashlash usilini bajarish.(marta)	4.5	4.8	<0,01
10 soniyaga yelkalardan oshirib tashlash usilini bajarish.(marta)	4.2	4.5	< 0,05

Olti oy davomida ular bu mashqlar bilan muntazam shug'ullanib keldilar. Tajribaning boshida tajriba va nazorat guruhi yosh kurashchilarining umumiy

jismoniy tayyorgarlik mashqlarining natijalariga ta'siri o'rganildi.

Yosh erkin kurashchilardan tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhlaridan olingan jismoniy tayyorgarligi ko'rsatgichlari. (n=12)

3-jadval

Test mashqlari	Tajriba guruhi \bar{X}	Nazorat guruhi \bar{X}	P
60 metrga yugurish (s)	10.2	10.5	<0,001
7 metrli arqonga chiqib, tushish	9.5	9.9	< 0,05
Turnikda tortilish (marta)	20	19	< 0,01
Mokisimon yugurish (3x10) (s)	6.2	6.9	<0,001
Turgan joyidan uzunlikka uch sakrash	2.26	2.24	< 0,05
10 soniyaga yelkadan oshirib tashlash usilini bajarish.	6.6	5.7	< 0,05
10 soniyaga yelkalardan oshirib tashlash usilini bajarish.	6	5.5	< 0,05

Tadqiqot boshida va oxirida yosh erkin kurashchilarning tajriba va nazorat guruhidagi mos natijalarni solishtirib, yosh erkin kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklari bo'yicha ko'rsatkichlar ijobiy tomonga o'zgargani aniqlandi.

Tadqiqot oxirida olingan natijalar quyidagilardan dalolat beradi:

Tajriba guruhidagi kurashchilarning o'tkazilgan test mashqlari bo'yicha tadqiqot boshida o'lgan natijalariga nisbatan tadqiqot yakunida ko'rsatilgan natijalaridagi ijobiy o'zgarishlar nazorat guruhidagi natijalaridagi ijobiy o'zgarishlardan ancha ustunligi ko'rinib turibdi.

Tajriba guruhi erkin kurashchilarning tadqiqot boshidagiga nisbatan oxiridagi ko'rsatkichning eng katta o'zgarishi sportchilarda 60 metrga yugurish tadqiqot boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha 0.3 soniyaga o'sgan, nazorat guruhida o'rtacha 0,3 soniyaga o'sgan.

Tadqiqot 7 metrli arqonga chiqib, tushish o'rtacha 1 soniyaga o'sganligi aniqlandi, nazorat guruhida o'rtacha 1,6 soniyaga o'sganligi aniqlandi.

Tadqiqot guruhida shug'ullanuvchilar turnikda tortilish o'rtacha 3 taga nazorat guruhida shug'ullanuvchilariniki o'rtacha 1 taga ko'paygan.

Tadqiqot guruhida shug'ullanuvchilar mokisimon yugurish tezligi o'rtacha 0.2 soniyaga, nazorat guruhida shug'ullanuvchilarning tezligi o'rtacha -0.5 soniyaga o'zgargan.

Tadqiqot guruhida shug'ullanuvchilar turgan joyidan uzunlikka uchsakrashi o'rtacha 12 sm ga oshgan, nazorat guruhida o'rtacha 8 smga oshganligi aniqlandi

Tadqiqot guruhidagi o'quvchilari 2022-yil 22-24- dekabr kunlarida o'tkazilgan Toshkent viloyati birinchiligida Shukurullayev Zohid, Erkinov Firdavs, Muratov Jamshid, Muratov Otabek, Ro'zmuxammadov Tursun III o'rinni; Mullayev Amirxon, Utepov O'razbek, Baxodirov Asilbek II o'rinni; Miqtibekov Jasulan I o'rinni egalladilar.

Xulosa. Hozirgi zamon erkin kurash ilmiy uslubiy nazariy adabiyotlari bilim va ko'rsatmalarni yaratib bermoqda. Bu bilimlar orqali o'quv-mashg'ulot vaqtida yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklari to'g'ri rivojlantirishda samarali yordam bermoqda. Shunday bo'lsa ham ishlab chiqilgan qo'llanmalardan erkin kurash murabbiylari kam foydalanishmoqda.

Adabiyotlar tahlilini o'rganganimizda va mashg'ulotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, bazi sport maktablarida erkin kurashchilarning jismoniy rivojlantirishiga ko'p ham ahamiyat berilmayapti.

Biz bu mashg'ulotlarda qo'llagan mashqlarni erkin kurash va kurash sport turlari to'garaklari hamda sport maktablari o'quv mashg'ulotlarida qo'llashni tavsiya etamiz.

Yuqoridagi mashqlar to'plamini qo'llashda yosh sportchilarni malakasini, yuklamani qabul qilishini inobatga olish kerak. Bu yoshda asta sekin garmonalagik o'zgarishlar natijasida kuch va chidamlilikni rivojlantirish uchun zamin yaratila boshlaydi. Mashqlarni bir hil uslubda bajarish ham sportchilarni mashg'ulotdan zeriktiradi, shuning uchun maxsus harakatli va sport o'yinlarni bo'lishi maqsadga muvofiq dep hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 5-mart.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarori. 2021 yil 5 noyabr.

4. Qaxramonovich Adilov Sarvar. «Technology of increase in efficiency of development of coordination abilities and technical and tactical actions of athletes in free-style wrestling.» European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.10 (2019).



**SPORT KURASHIDA OLIB BORILADIGAN O‘QUV
MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA TEZKORLIK VA CHAQQONLIKINI
SIFATLARINI AXAMIYATI VA TAXLIL KO‘RSATGICHLARI**

Qayumov Xalillillo Mavlon o‘g‘li,

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Xalqaro kurash turlari
nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi o‘tqazilgan anketa so‘rovnomasi natijalari taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar; teskorlik, chaqqonlik, musobaqa, texnologiya, anketa so‘rovnomasi, adabiyotlar taxlili, harakatli o‘yinlar, tayyorlov bosqichi, oliy sport maxorati bosqichi

**ЗНАЧЕНИЕ И АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СКОРОСТИ И ЛОВКОСТИ
В ПРОЦЕССЕ ТРЕНИРОВОЧНЫХ УПРАЖНЕНИЙ, ПРОВОДИМЫХ В
СПОРТИВНОЙ БОРЬБЕ**

Каюмов Халиллло Мавлон ўгли,

*Преподаватель кафедры теории и методики международной борьбы
Узбекского государственного университета физического воспитания и
спорта*

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты обследования методики повышения эффективности соревновательной деятельности на основе развития быстроты и ловкости спортсменов в вольной борьбе.

Ключевые слова: скорость, ловкость, соревнование, техника, анкетирование, анализ литературы, подвижные игры, подготовительный этап, этап высшего спортивного мастерства.

**THE SIGNIFICANCE AND ANALYSIS INDICATORS OF THE
QUALITIES OF SPEED AND AGILITY IN THE PROCESS OF TRAINING
EXERCISES CONDUCTED IN SPORTS WRESTLING**

Qayumov Xalilillo Mavlon o‘g‘li,

*Teacher of Uzbekistan State University of Physical Education and Sports
Chirchik, Uzbekistan*

Abstract: This article analyzes the results of a survey of a methodology for increasing the effectiveness of competitive activity based on the development of speed and agility of athletes in freestyle wrestling

Keywords: speed, dexterity, competition, technique, questioning, literature analysis, outdoor games, preparatory stage, stage of higher sportsmanship.

Dolzarbliigi: Bugungi kunda bolalar sportni rivojlantirish va iste‘dodli yoshlarni saralash, sohasida ta‘lim tashkilotlarining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib borish orqali jismonan rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzining keng targ‘ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to‘laqonli va samarali foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, sport sohasidagi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish

maqsadida 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston sportchilarining navbatdagi yozgi va qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish to'g'risida"gi PQ-127-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sport kurashlarini olimpiya sport turlari sifatida ommalashtirish, yoshlar orasidan sportchilarni saralab olish tizimini yaxshilash, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash maqsadida. 2022-2024-yillarda sport kurashlarining olimpiya turlarini (erkin kurash va yunon-rum kurashi) (keyingi o'rinlarda – sport kurashlari) rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilab, sportchilarni zamonaviy ilmiy-metodik tavsiyalar asosida tayyorlash orqali o'quv-mashq jarayonini tashkil qilish, ularning nazariy tayyorgarlik va texnik-taktik ko'nikmalarini takomillashtirish, professional mahoratini shakllantirish, sport kurashlari bo'yicha mahalliy va xalqaro musobaqalarni tizimli ravishda tashkil qilish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish, shu jumladan, Olimpiya va Osiyo o'yinlarida qatnashish huquqini beruvchi litsenziyalarni qo'lga kiritish va har Olimpiya va Osiyo o'yinlari siklida ularning sonini ko'paytirib borish, sportchilarning professional mahoratini va trenerlarning kasbiy malakasini oshirish uchun sport kurashlari bo'yicha xorijiy maktablar bilan hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish, sport kurashlarini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish [1]

Jismoniy tarbiya va sport – xalqning umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning xar bir fuqarosining jismoniy xamda ma'naviy kamolotini ta'minlash asosidir. Xorijiy va yurtimiz olimlari tomonidan erkin kurashchilar rivojlantirish to'g'risida bir qancha tadqiqotlar o'tkazib maxsus adabiyotlarda fikr va mulohazalar aytib o'tganlar adabiyotlarida bu mavzu muammolari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan

Yaqin yillarda kurash sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bulardan;

Z.A.Bakiyev "Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanmasi, Sh.A.Abdullayev "Erkin kurash bo'yicha sport pedagogik maxoratni oshirish"

S.Q.Adilov 2021-y Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati; Kurashchilar musobaqa faoliyatining individual tavsiflarini xisobga olgan xolda ularning tezkor kuch tayorgarligini; F.A.Kerimov 2021-y Sportda ilmiy tadqiqotlar; D.Yu.Tashnazarov 2019- y Sport pedagogic maharatini oshirish (yunon-rum kurashi bo'yicha 1-jild);

Yuqoridagi keltirilgan ilmiy ishlar yaqin yillarda kurash turlari soxasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Lekin shu paytgacha erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi kam o'rganilgan va nazardan chetda qolgan.

Tadqiqotning maqsadi:Erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasini ishab chiqish.

Tadqiqotni vazifasi: Erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi.

Tadqiqot usullari: ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, matematik statistik usullar.

Tadqiqotning tashkil qilinishi:Tadqiqotlar 2022 yil aprel oyida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Kurash fakultetida olib borilgan. 2022 yil iyun oyida Chirchiq olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejida, 2022 yil oktyabr oyida Respublika olimpiya zaxirallari kollejida, xamda Toshkent shaxar Bektemir tumani 1-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabida olib borilgan. Erkin

kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu kelajakda sportchini yaxshi natijalarga erishishida yaxshi omil bo'ladi. Shu sababli biz tatqiqotimiz davomida 38 nafar murabbiylar orasida anketa so'rovnomasini o'tkazdik, o'tqazilgan anketa so'rovnomasi natijalari quyidagicha:

Kurash turlarida tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish qobiliyatlar qanchalik muhim ahamiyatga ega deb xisoblaysiz? - deb bergan savolimizga 12,55 % pedagog murabbiylar: "unchalik muhim emas" – deb javob berishgan bo'lsalar, 88,45 % murabbiylar bu savolga "muhim" deb javob berishgan, 0 % murabbiylar esa bu savolga "ba'zan kerak, ba'zan kerak emas" deb javob berishgan. Shu bilan birga murabbiylar bu savolga Yakkakurash sport turlarida teskorlik va chaqqonlik qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Qobiliyat tug'ma bo'lishi mumkin, qobiliyatni rivojlantirish mumkin. Teskorlik va chaqqonlik qobiliyati texnik va taktik usullarni bajarishda judayam muhim degan fikrlar mutaxassislar tomonidan aytib o'tilgan. Shu bilan birga erkin kurash sport turida teskorlik va chaqqonlik qobiliyatlar judayam muhim deb xisoblaymiz.

Mashg'ulot jarayonining qaysi yoshlarda teskorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish maqsadga mofiq deb xisoblaysiz?" deb bergan savolimizga 39,3 % murabbiylar: 10-12 yosh " – deb javob berishgan bo'lsalar 57,6 % murabbiylar bu savolga " 12-14 " – yosh deb javob berishgan, 12,1 % murabbiylar esa bu savolga " 13-16 yosh" deb javob berishgan. Bu savolimizga xam murabbiylar 10-12 yoshlarda rivojlantirsa bo'ladi. Bolalarda 10-12 yoshdan teskorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar berib turish kerak. Iloji bo'lsa 8-10 yoshdan. 8-10 yoshdagi sportchilarda chaqqonlik qobiliyati rivojlantirish maqulroqdegan fikrini bildirishdi. Bizning fikrimizcha chaqqonlik qobiliyati bola yura boshlagandan so'ng unda koordinatsiyasini saqlash shu bilan birgalikda tezlikni rivojlantirgan maqulroq deb o'ylaymiz.

Mashg'ulot jarayonining qaysi qismida teskorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish maqsadga mofiq deb xisoblaysiz? deb bergan savolimizga 28,1 % murabbiylar: " Tayyorlov qismida " – deb javob berishgan bo'lsalar 69,1 % pedagog murabbiylar: " Asosiy qismida deb javob berishgan, 2,8 % murabbiylar esa bu savolga " yakuniy qismida" deb javob berishgan. Bu savolimizga xam murabbiylar hammasida kerak bo'ladi sababi mashg'ulot jarayonini musobaqa sharoitiga yaqinlashtirib olib borish unda kutilmagan vaziyatlar bo'lishiga kurashchini tayyorlab borish kerak degan fikr bildirilgan. Biz xam bu fikrni to'g'ri deb xisoblaymiz.

Sportchini teskorligini qanday mashqlardan foydalanib rivojlantirish yaxshiroq deb xisoblaysiz?" deb bergan savolimizga 65,1% murabbiylar: xarakatli o'yinlar " – deb javob berishgan bo'lsalar 30,1% murabbiylar bu savolga " aylanma mashqlar" – deb javob berishgan, 4,8 % murabbiylar esa bu savolga " maxsus mashqlar" deb javob berishgan. Sport o'yinlaridan ko'proq basketbol va xarakatli o'yinlar berish kerak degan fikrni berishgan. Tayyorlov qismida tezkorlik va chaqqonlik qobiliyatiga mashqlar beriladi deb aytishgan. Mashg'ulot jarayonining xamma qismida vositalar qo'llanilishi kerak deb hisoblaymiz.

Sport kurashlarida chaqqonligini rivojlantirishda qaysi usullaridan foydalanasiz? deb bergan savolimizga 27,8% murabbiylar: Akrobatik va gimnastik mashqlardan foydalanish" – deb javob berishgan bo'lsalar 47,8% murabbiylar bu savolga " harakatli o'yinlar" –deb javob berishgan, 24,4% murabbiylar esa bu savolga " chaqqonlik tug'ma boladi umumrivojlantiruvchi mashqlarda ham bo'laveradi" deb javob berishgan. Bu savolimizga ham murabbiylar musobaqa mashqlaridan xam foydalanish kerak. Xammasidan foydalanish zarur. Degan fikrlarni bildirib o'tishgan. Biz yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan xolda chaqqonlikni rivojlantirish uchun Akrobatik va harakatli o'yinlardan foydalangan yaxshi samara beradi deb o'ylaymiz.

Kurashchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish uchun ilmiy-metodik

malumotlar yetarli deb xisoblaysizmi? deb bergan savolimizga 38,7% murabbiylar: " yetarli emas" – deb javob berishgan bo'lsalar 9,6% murabbiylar bu savolga " yetarli" –deb javob berishgan, 51,7% murabbiylar esa bu savolga " bor, lekin juda ham kam" deb javob berishgan. Bu savolimizga xam murabbiylar L.P. Matveevning chaqqonlikni rivojlantirish, M. Zatsiorskiy kitoblaridan ma'lumot olish kerak maqsadga mofiq bo'ladi.

Tezkorligi va chaqqonligini qobiliyatlarni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli emas deb ham fikr bildirishgan. Yana bazi bir murabbiylar "adabiyotlar yetarli faqat izlanish kerak"- deb fikr bildirishgan. Biz tezkorligi va chaqqonligini qobiliyatlarni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli ammo o'zbek tilida judayam kam deb xisoblaymiz.

Sport kurashida teskorlikligini rivojlantirishda qaysi metodlardan foydalanasiz? degan savolimizga 39,4% murabbiylar: " takroriy" – deb javob berishgan bo'lsalar 39,4% murabbiylar bu savolga " mashqalarni bajarishda kichik og'irliklardan foydalanish" –deb javob berishgan, 21,2% murabbiylar yesa bu savolga " oraliqli (tanaffusli) " deb javob berishgan. Bu savolimizga murabbiylar xamma metodlarni ishlatish mumkin deyishgan bo'lsalar. Mashqlarni bajarishda kichik og'irliklardan foydalanish metotidan xam foydalanish xamda mashg'ulot jarayonini musobaqa sharoitiga mofiqlashtirilgan metodini xam afzal taraflari ko'p deb fikr bildirishgan. Biz xam yuqoridagi fikrlarni to'g'ri deb xisoblaymiz.

Kurashchilarni tezkorligi va chaqqonligini aniqlovchi testlardan foydalanasizmi? deb bergan savolimizga 19,3% murabbiylar: " ha" – deb javob berishgan bo'lsalar 51,6% murabbiylar bu savolga yo'q" –deb javob berishgan, 29,1% murabbiylar esa bu savolga " bazan foydalanaman " deb javob berishgan. Aynan shular uchun biz kurashchilarning tezkorlik va chaqqonlik qobiliyatlarini rivojlantirish mazusini tanladik va izlanishlar olib bormoqdamiz.

Kurashchilarni ko'p yillik tayyorlov bosqichilarida teskorlik va chaqqonlikni qaysi bosqichda rivojlantirish kerak deb o'ylaysiz? deb bergan savolimizga 50% murabbiylar: " boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida" – deb javob berishgan bo'lsalar 9,4 % murabbiylar bu savolga oliy sport maxorati bosqichida" –deb javob berishgan, 40,6 % murabbiylar esa bu savolga " sport takomillashuv bosqichida" deb javob berishgan. Bu savolimizga murabbiylar teskorlik va chaqqonlikni qobiliyati rivojlanmagan sportchidan yaxshi natija kutish qiyin shuning uchun sportchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy sifatlar ham birgalikda mujassam bo'lishi kerak deb xisoblashadi.

Teskorlikni va chaqqonlikni yaxshi rivojlanganligini qanday aniqlash mumkin? deb bergan savolimizga 35.3 % murabbiylar: " Musobaqada yaxshi natijaga erishishiga qarab" – deb javob berishgan bo'lsalar 32,35% murabbiylar bu savolga " Berilgan topshiriqlarni to'g'ri bajarganligiga qarab " –deb javob berishgan, 32,35 % murabbiylar esa bu savolga " qiyin sharoitlarida o'z xarakatlarini nazorat qila olishiga" deb javob berishgan. Bu savolimizga murabbiylar sportchini ko'rsatgichlar doimo aniq va yuqori darajada bajarish shart deb fikr bildishgan. Biz xam yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan xolda teskorlik va chaqqonlikni qobiliyatlarning yaxshi rivojlanganligini maxsus testlar orqali aniqlash mumkin deb o'ylaymiz.

So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchi murabbiylar orasida p.f.d. profesor. Fan nomzodlari, Dotsentlar, o'qituvchilar, katta o'qituvchilar, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari, xalqaro toifadagi sport ustalari, xamda sport ustalari ishtirok etishdi.

Ushbu o'tkazilgan so'rovnoma hozirgi vaqtda juda xam zarur va dolzarb deb o'ylaymiz. Murabbiylar agar bu ishni yangi inavatsion metodlar bilan ochib bersangiz sportchilarni tarbiyalashda ustozlar uchun ajoyib ish qilgan bo'lardingiz deb fikr bildirib o'tdilar.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda hamma soha singari sport

sohasi ham turli yangiliklar zamonaviy inavatsion yangiliklar o'zgarishlar qilinmasa sport sohasida yuksak cho'qillarga erishib bo'lmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib sport sohasida "Erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi" yuzasidan ilmiy izlanish olib borish, tatqiqotlarni olib borish, tahlil qilish, olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq qilish, mashg'ulotlarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari Erkin kurashda sportchilarning tezkorligi va chaqqonligini rivojlantirish asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi bo'yicha o'quv qo'llanmalarining kamligi sabab murabbiylarning mashg'ulotlarni mukammal darajada olib borishlari uchun o'quv qo'llanmalar yaratilsa, o'ylaymizki kelgusida sportchilarimizni natijalari bundan xam yaxshilanib, bu sport turiga qiziqishlari yanada oshadi.

Xulosa. Sportning tezkorligi va chaqqonlik qobilyati yaxlit xarakat faoliyatini maqsadga muvofiq ijro etish (shakllantirish, o'zaro bo'ysundirish, birga birlashtirish) o'zlashtirilgan xarakat shakllarini qayta tiklash yoki o'zgaruvchan muhit talablariga ko'ra bir xarakat faoliyatidan ikkinchisiga o'tish qobilyatlaridan iborat. Tezkorlik va chaqqonlik qobilyatlarining ko'rsatgichlari tugallangan xarakat topshiriqlari (yugurish mashqlari, trenajyorlarda mashqlar, maxsus mashqlar va boshqalar hisoblanadi. [3] Ular to'g'risida yangi xarakat shakllarini o'zlashtirish va o'zlashtirilgan xarakatlarni qayta o'zgartirish uchun sarflangan vaqt, aniq xarakat ko'rsatgichlari (vaqt birligida) bo'yicha fikr yuritish mumkin. Tezkorligi va chaqqonligini qobilyatlarini egallash uchun muntazam xarakat malakalarining sonini ko'paytirish kurashchilar o'z ustida ishlash, xarakatlarining yangi shakllarini xosil qilish, xarakat shakllarini tez o'zgartirish yoki turli sharoitga qarab bir xarakatdan ikkinchisiga tez ko'cha bilish zarur. Maxsus xarakat shakllarini doimo bir xilda bajarish esa xarakat malakalarini boyitmaydi, imkoniyatlarini cheklaydi, xarakat uyg'unligida to'siq xosil qiladi, xarakatlarni o'zgartirish va yangilashga xalaqit beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ayta olamizki: Kurashchilarni tezkorligi va chaqqonligini asosida musobaqa faoliyati samadorligini oshirish texnologiyasi metodikasi to'liq yoritib berilmagan. O'quv-mashg'ulot jarayonining asosiy qismida tezkorligi va chaqqonligini qobilyatlarni rivojlantirish uchun vositalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi deb xisoblaymiz. Yuqorida o'tkazilgan anketa so'rovnomamizdan shunday xulosa qildik.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qaror

ERKIN KURASHDA SPORTCHILARNING HUJUM VA XIMOYA DARAJASINI ANIQLASH ASOSIDA MUSOBAQA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Shagiyev Ildus Ilyasovich,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi
O'zbekiston, Chirchiq shahri*

Annotatsiya: Maskur maqolada Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurash bo'limida o'quv-mashg'ulot guruhidagi erkin kurashchilarni hujum va ximoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar berilgan va tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Erkin kurash, hujum, ximoya, musobaqa, meyorlash, sport turlari, komponentlar, texnologiyalar.

ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ АТАКИ И ЗАЩИТЫ СПОРТСМЕНОВ В ВОЛЬНОЙ БОРЬБЕ

*Шагиев Ильдус Ильясович,
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Узбекистан, г. Чирчик*

Аннотация: В статье представлены рекомендации по технологиям повышения эффективности соревновательной деятельности на основе определения уровня атаки и защиты борцов вольного стиля в учебно-тренировочной группе отделения вольной борьбы Чирчикского центра олимпийской и паралимпийской спортивной подготовки и представлены результаты исследования.

Ключевые слова: Вольная борьба, атаки, защиты, соревнования, эталон, виды спорта, компоненты, технология.

TECHNOLOGY OF INCREASING THE EFFICIENCY OF COMPETITIVE ACTIVITY ON THE BASIS OF DETERMINING THE LEVEL OF ATTACK AND PROTECTION OF ATHLETES IN FREESTYLE WRESTLING

*Shagiyev Ildus Ilyasovich,
Uzbek State University of Physical Culture and Sport
Uzbekistan, Chirchiq*

Abstract: The article presents recommendations on technologies for improving the efficiency of competitive activity based on determining the level of attack and defense of freestyle wrestlers in the training group of the freestyle wrestling department of the Chirchiq Center for Olympic and Paralympic sports training and presents the results of the study.

Keywords: Freestyle wrestling, general strength, special strength, competition, standardization, sports, components, attack, protection.

Dolzarbligi. Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlash, Vatan mudofaasi va mehnat faoliyatiga tayyorlash jismoniy sifatlarni tarbiyalash ustuvor muammolari biri sifatida e'tirof etiladi.

Sport faoliyati jarayonida, turmushda kuch va kuch chidamkorligi eng ko'p ahamiyatga ega. Kuchning bu turlari ruyobga chiqishi bilan inson xar qadamda tuqnash keladi (masalan: Dzyudo, Sambo, Yunon-rum va Erkin kurash hamda kurash turlarini barchasida, ogir atletikada, va boshqalar) maksimal kuchni mushaklar kisqarishlarining yuqori tezligi bilan birga qo'shib olib borishda (uloqtirish, greble va boshqalar) bajarilishi vaqtida foydalaniladi. Insonni absolyut va nisbiy kuchni farqlash kerak. Ya'ni shaxsiy og'irligining 1 kg ga to'g'ri keladigan kuchni miqdori u tayyorgarligi bir xilda bo'lgan, ammo xar xil og'irlikdagi atletikachilarning kuchlarini taqqoslash uchun aniqlanadi.

Sportchilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda yaxshi natijalarga erishib, O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarishmoqda. Sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz dalilidir. Mamlakatimizda ta'lim tizimini

takomillashtirish, vatan ravnaqini ta'minlaydigan, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu borada muhim qadamlardan biri O'zbekistonda ilk bor «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» hamda «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tadbiiq etish.

So'nggi yillarda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohalarini yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzining keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, sport sohasidagi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarorlari imzolandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki hujum va ximoya darajasini aniqlash va sport mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish ayniqsa iqtidorli yoshlarni tanlash va ularni sport tugaraklariga jalb etishda samarali usullardan foydalanib o'rgatishda jismoniy madaniyat talim tarbiyasini zamonaviy muommalarni yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar chuqur olib borilmoqda. Shuningdek mazkur soha bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanmalar juda kam uchraydi.

Erkin kurash yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi ahamiyati va mohiyatining yuqoriligi, salmoqliligi ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda erkin kurash sport turining asosiy tamonlari, o'ziga xos vositalari va tamoyillari, o'zaro uzviy bog'lanib borishni aytib o'tish joiz. Shu tamonlar, vositalar va tamoyillar orqali sportning har bir turida muayyan fazilatlar kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati tarzida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizdagi ko'plab olimlarning adabiyotlarida bu mavzu muammolari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Bulardan qo'yidagi adabiyotlarni aytish mumkin. N.A.Tastanovning "Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" darsligi, F.A.Kerimovning "Sportda ilmiy tadqiqotlar" darsligi, Z.A.Bakiyev "Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanmasi, Sh.A.Abdullayev "Erkin kurash bo'yicha sport pedagogik maxorati oshirish" kabi adabiyotlarda ham mana shu boradagi fikr va mulohazalar berilgan.

Chet el olimlardan V.M.Zasiorskiy, A.D.Novikov, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, N.G.Ozolin, I.I.Alixanov, P.F.Matrushak kabi olimlar erkin kurashchilar rivojlantirish to'g'risida bir qancha tadqiqotlar o'tkazib maxsus adabiyotlarda fikr va mulohazalar aytib o'tilgan.

Tadqiqot maqsadi. Erkin kurashda sportchilarning hujum va ximoya darajasini aniqlash va musobaqa samaradorligini oshirish.

Tadqiqot vazifalari: Erkin kurashda sportchilarning xujum va ximoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari aniqlash;

Tadqiqot usullari ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, matematik statistik usullar.

Tadqiqotning tashkil qilinishi.

Erkin kurashchilarda mashg'ulot yuklamalarini me'yordash va samaradorligini oshirish omillarini aniqlash;

Erkin kurashchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni nazorat va tahlil qilish;

Ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. Kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish.

2. Kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda multimedion va slaydlardan foydalanish uslubiyatini ishlab chiqish.

3. Kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tajriba orqali asoslab berish.

Himoya – hujumni amalga oshiruvchining bajarayotgan usulini xujumni qabul qiluvchi tomonidan to'xtatib qolishga qaratilgan texnik harakat.

Kurashchilarning texnikasini namoyon qilish darajasining pedagogik nazorati uslubiyatini ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi sportchilarni musobaqa jarayonidagi

harakatlar samaradorligini oshiradi, hamda jismoniy tayergarlik ko'rsatkichlariga nisbatan o'zining texnik harakatlari natijalari haqida axborot olish sharoitlarida ancha yuqori bo'ladi.

Kurashchilarni texnikasini namoyon qilishi darajasini pedagogik nazorat qilib borish uchun barqaror hamda axborotli testlar majmui belgilandi, ushbu testlarning me'yoriy qiymatlari aniqlandi.

Kurashchilarni texnik xarakterlarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida trenirovka nagruzkalarini boshqarish uslubiyati ishlab chiqildi va tajribada asoslab berildi.

Bajarilayotgan tadqiqot ishini amalga oshirish uchun qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi tadqiqot uslublari qo'llanildi. Adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish;

pedagogik kuzatish;

Pedagogik testlar;

pedagogik tadqiqot;

matematik – statistika uslublari.

Tadqiqotning birinchi bosqichida (2022 – yilning dekabr oyigacha) ilmiy – uslubiy adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallar umumlashtirildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichi asosiy pedagogik tadqiqotda erkin kurashchilarda umumiy jismoniy tayyorgarlik hamda hujum va ximoya darajasini rivojlantirish maqsadida o'quv – mashg'ulot va musobaqa jarayonlari 2022 – yil sentabr oyidan 2022 – yil dekabr oyigacha Chirchiq olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o'tkazildi. Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etildi. Erkin kurashchilarning 12 nafaridan tajriba guruhi, 12 nafaridan nazorat guruhi tashkil etildi.

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tajriba testlari

№	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t _{sr}	R
		σ	V%	σ	V%		
1	Hujum uchun o'rtacha ball	3,2	0,60	3,3	0,65	0,9	>0,05
2	Hujum oralig'i	20,61	1,41	19,81	1,52	0,75	>0,05
3	Hujum samaradorligi	0,54	0,08	0,55	0,07	1,1	>0,05
4	Himoya samaradorligi	0,57	0,09	0,58	0,08	0,79	>0,05
5	Muvaffaqiyatli hujum oralig'i	26,2	1,32	25,5	1,29	1,26	>0,05

1-jadval

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tajriba testlari

t №	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t _{sr}	R
		σ	V%	σ	V%		
1	Hujum uchun o'rtacha ball	4,3	0,80	3,8	0,70	1,1	<0,05
2	Hujum oralig'i	17,61	0,6	18,65	0,7	0,42	<0,05
3	Hujum samaradorligi	0,68	0,05	0,61	0,06	1,1	<0,05
4	Himoya samaradorligi	0,69	0,04	0,60	0,07	0,79	<0,05
5	Muvaffaqiyatli hujum oralig'i	22,4	1,15	24,5	1,29	1,26	<0,05

2-jadval

Adabiyotlar tahlili va ilg'or amaliy tajribani umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, hozirga qadar kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyati yetarlicha ilmiy asoslab berilmagan.

Kurashchi faoliyatida texnik harakatlarini namoyon qilish darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida nazorat qilish ustivor masalalar qatoriga mansub bo'lib, ushbu jarayonni samarali effektiv vosita va usullar asosida tashkil etish, sportchi mahoratining tez o'sishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kurashchilar texnik harakatlarini tezkor, joriy va bosqichli pedagogik nazorat qilish asosida ularning mashg'ulot jarayonlarini tezkor, joriy hamda bosqichli boshqarish uslubiyatini asoslab berildi.

Muskullar ishtirokida bajariladigan ish yurak-tomir va nafas olish tizimlarining ancha aktivlashuvi bilan bog'lik emas. Bunday ishda charchoqning sababi, aftidan, nerv-muskul apparatining xarakat bajarilishini bevosita ta'minlaydigan zvenolarda aks ettirilgan.

Faoliyat turlarining spetsifikasiga qarab charchoqning bir necha tiplari mavjuddir. Bular aqliy, sensor (xis-tuyg'u organlariga tushadigan yuklama bilan bog'liq), emo-tsional va jismoniy charchoqdan iborat bo'ladi. Xar qanday faoliyatda charchoqning aytib o'tilgan barcha tiplarining komponentlari ishtirok etsada, jismoniy tarbiya sohasi uchun muskul faoliyati tufayli xosil bo'lgan jismoniy charchoq ko'proq ahamiyatga egadir. Bundan buyon gap charchoqning mana shu tipiga nisbatan bo'ladigan chidamlilik xaqida boradi.

Kishi faoliyatining, belgilangan intensivligini qachongacha saqlay olishini kursatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o'lchovidir. Chidamlilik bevosita va bilvosita usullar bilan o'lganadi. Bevosita o'lchash usulida tekshirilayotganlarga biror bir topshiriqni bajarish tavsiya etiladi va ish qancha vaqtgacha berilgan intensivlikda bajarilishi aniqlanadi.

Gavda muskullarining 2/3 qismidan ko'prog'i qatnashadigan ishda, odatda, energiya ko'p sarf bo'ladi. Bu energetik metabolismm tizimlariga, jumladan, nafas olish va qon aylanish organlariga katta talablar kuyadi. Ko'pincha organizmning aynan mana shu tizimlari funksional imkoniyatlarining yetarlicha bo'lmasligi ish qobiliyatini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ma'lum bir joydagi mashklarda ko'rsatiladigan chidamlilik barcha muskullarga ta'sir etadigan mashqlardagi yuksak chidamlilikdan dalolat bermaydi. Inson organizmining jismoniy fazilatlarini tarbiyalashda bu kishilarning xolati ancha o'zgarganligini ko'rish mumkin. Bu o'zgarishni mimika muskullari kuchlanishida, ter paydo bulishida ko'rish mumkin. Ayni vaqtda uning organizmida bir muncha jiddiy fiziologik o'zgarishlar xam ro'y beradi.

Xulosa. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish hamda amaliyotda erkin kurashchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg'ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo'lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Erkin kurash mashg'ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so'ng, mashg'ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida erkin kurashchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqoridagi tavsiya etilgan taktik usullarni musobqa usulidagi mashg'ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi. Yuqoridagi mashqlar to'plamini qo'llashda yosh sportchilarni malakasini, yuklamani qabul qilishini inobatga olish kerak. Bu yoshda asta sekin garmonalagik o'zgarishlar natijasida kuch va chidamlilikni rivojlantirish uchun zamin yaratila boshlaydi. Mashqlarni bir hil uslubda bajarish ham sportchilarni mashg'ulotdan zeriktiradi, shuning uchun maxsus harakatli va sport o'yinlarni bo'lishi maqsadga muvofiq dep hisoblaymiz. Biz bu mashg'ulotlarda qo'llagan mashqlarni erkin kurash va kurash sport turlari to'garaklari hamda sport maktablari o'quv mashg'ulotlarida qo'llashni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga

XIZMAT ITLARINI UMUMIY VA MAXSUS KURS BO'YICHA TAYYORLASHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

(Turkiya davlati kinologiya xizmatining xizmat itlarini o'rgatish uslubiyoti misolida)

Karimjonova Munavvar Ibragimovna,

*Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, Bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti "Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, PhD, bojxona
xizmati polkovnigi*

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СЛУЖЕБНЫХ СОБАК

*(на примере методики дрессировки служебных собак Турецкой
государственной кинологической службы)*

Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна,

*Независимый соискатель Университета общественной безопасности,
доцент кафедры, «Экономические и социальные дисциплины»
Таможенного института, Таможенного комитета PhD, полковник
таможенной службы*

ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES IN GENERAL AND SPECIAL COURSE TRAINING OF SERVICE DOGS

*(as an example of the methodology of training service dogs of the Turkish State
Cynological Service)*

Karimjonova Munavvar,

*Independent researcher of the University of Public Security, associate professor
of the Department of «Economic and Social Sciences» of the Customs Institute of
the Customs Committee, PhD, colonel of the customs service*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kinologiya xizmatining ahamiyati, jumladan, bojxona organlari tizimida milliy kinologiya markazining o'rni va xizmat faoliyati, xizmat itlarini umumiy va maxsus mashq kursiga o'rgatish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklarni ularni bartaraf etishda ilg'or xalqaro tajribalar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xizmat itlarining tayyorlashda o'quv-o'rgatuv jarayonini rivojlantirish va takomillashtirishda yangi o'quv-o'rgatish usullarini ilg'or xalqaro tajribalar asosida yaratish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: bojxona faoliyati, kinologiya xizmati, kinologiya, xizmat itlari, umumiy mashq kursi, it zotlari, o'rgatish usullari, noverbal usul, ko'nikma shakllantirish.

Аннотация: В настоящей статье освещены значение и место кинологических служб в системе правоохранительных органов Республики Узбекистан, в частности служебная деятельность Национального кинологического центра в системе таможенных органов, а также вопросы устранения некоторых недостатков в методике общего курса по обучению служебных собак на основе международного опыта. Также, в ней приводятся научные предложения и рекомендации по развитию и совершенствованию учебно-подготовительного процесса, создание новых учебно-образовательных методик по подготовке служебных собак на основе передового зарубежного опыта.

Опорные слова: таможенная деятельность, кинологическая служба, кинология, служебная собака, общие подготовительные курсы, породы собак, методы обучения, невербальные методы, формирование навыков.

Abstract: In this article, the importance of canine service in the system of law

enforcement bodies of the Republic of Uzbekistan, including the role and activity of the national canine center in the system of customs bodies, issues of organization of some shortcomings in the methodology of training service dogs to a general training course based on advanced international experiences are highlighted. Also, scientific proposals and recommendations are presented on the development and improvement of the training process of service dogs in order to ensure the economic security of our country, and to create new training methods based on advanced international experiences.

Keywords: ustoms activity, canine service, canine, service dogs, general training course, dog breeds, training methods, non-verbal method, skill formation.

Kirish. Bugungi kunda bojxona postlarida maxsus tayyorlangan xizmat itlaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda hamda, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qo'llash ishlari tashkil etilgan. Kuzatishlar natijasida shu narsa aniqlanganki - itlar bir qator haddan tashqari qimmatli tug'ma sifatlariga ega bo'ladi. Ular uzoq va tez chopa olishi mumkin bo'lib, bu xususiyat itdan turli xil xizmatlarda foydalanishda juda muhim hisoblanadi shuningdek, itlar o'z joyini tez yodda saqlaydi va yangi sharoitlarga juda yengil moslashadi.

Bojxona organlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra Milliy kinologiya markazi ham tizimda asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Bojxona organlari xizmat faoliyati samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiyotni himoya qilish, qonun yo'li bilan ta'qiqlangan tovarlarni (qurol-yaroq, portlovchi, narkotik moddalar va boshqalar) noqonuniy ravishda mamlakatimiz hududiga olib kirilishi va undan olib chiqilishini oldini olishda [1] hamda mamlakatimizni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda Milliy kinologiya markazining katta o'rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Jahonda kinologlarni tayyorlash va ular tomonidan xizmat itlarini boshqarishga o'rgatishning xalqaro tajribalari shuni ko'rsatadiki, jumladan, 2007 yilda qabul qilingan Isroil davlati tajribasi mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos uslub (metod)lari qo'llanilmoqda. Germaniyada XIX asr ohirlarida nemis ovcharkalarning yangi zoti yaratilgan[5].

Germaniyalik mashhur harbiy rotmister Maks Emil Frederik fon Shtefanis 1899 yilda "Nemis ovcharkalari Jamiyati"da ilk bora nemis ovcharkasi zotini yaratishida yangi standartlari qabul qilinishida va ular zotlarini takomillashtirish borasida ulkan hissa qo'shgan [7].

Shuningdek, zamonaviy rus olimlari Rossiyalik olimlar S.L. Вобьт, P.S. Osipovlar tomonidan harbiy itlarni tayyorlash hamda Goroxova T.A., Fedorov Yu.A., Fedorkov A.Nlar tomonidan xizmat itlarini giyohvand modda hamda qurol-aslaha va portlovchi moddalarni qidirib topish bo'yicha ixtirolari o'rganilgan[10].

O'zbekistonlik olim, iqtisod fanlari doktori, professor R.A.Turapov[3] tomonidan O'zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatini samaradorligini oshirish uslubiyati, holati, asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar zaminida barcha sohalar kabi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ham jumladan, kinologiya yo'nalishida soha faoliyatiga xizmat itlarini tayyorlashda yangi innovatsion texnologiyalarni jumladan masofadan boshqarish amaliyotini o'quv-o'rgatuv jarayonlariga qo'llash metodologiyalarini takomillashtirish masalalari dolzarb vazifalarga aylangan.

Tahlil va muhokamalar. Umumiy mashq kursi xizmat itini boshqarish, yo'naltirish hamda biror holatni qabul qildirish uchun zarur bo'lgan buyruqlar va ko'nikmalardan tashkil topgan bo'lib, xizmat itida umumiy bo'ysunish ko'nikmalarini hosil qilish va maxsus mashq ko'nikmalariga asos yaratish uchun o'rgatiladi.

Uy hayvonlari orasida alohida o'ziga hos o'rin tutgan hayvon zoti – it bo'lgani sababli. Uning inson bilan muloqoti turlicha tarzda muomala usullari vositasida

shakllanib borgan. Odamlar va itlar yonma yon yashab, bir hil usulda, ya'ni ovchilik bilan o'zlariga ozuqa topib yashashgani ularni turli xolatlarda o'zaro kelishib harakatlashinlarini taqazo etagani ham, itning xotirasida kerakli ko'nikmalarning shakllanishiga olib kelgan.


Bu itni o'rgatishga, odam uchun kerakli vazifalarni unga topshirishida mutahkam omil bo'lgan. Shu tariqa qadimgi ibtidoiy davrlardan boshlab, odamlar itlarni qo'lga o'rgatishni boshlaganlari har xil holatlarga moslashgan tarzda o'rgatish usullarini keltirib chiqishiga sabab bo'lgan.

Shu bois, dunyoning turli mintaqalarida itlarni birorta vazifani bajarishga o'rgatish uchun, o'zlarining uslubiyotlari shakllangan. Bunda har bir yerda istiqomat qiluvchi aholining o'z turmush tarzlaridan kelib chiqib, itlarning xizmatiga bo'lgan ehtiyojlari ham muhim rol o'ynagan. Masalan ovchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda ovchilik bilan shug'ullanuvchi itlar, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar uchun podachi itlar, ba'zi boshqa muhit xalqlari uchun qo'riqchi itlarni o'rgatib, ular xizmatidan foydalanish katta ahamiyat kasb etgan.

Natijada yuqordagi yo'nalishlar uchun moslashtirilgan it zotlari hampaydo bo'lgan. Yaqin tarixiy davrlarga kelib, ana shu xalqlarning it o'rgatishda qo'llanadigan usullari ommalashib, o'ziga hos bir necha turdagi it o'rgatish uslubiyotini shakllantirgan. Ushbu o'rgatish uslubiyotlari turli tarzda o'zgartirilishi va umumlashtirilishi hamda tadqiqotchilarning izlanishlari oqibatida bir necha xil o'ziga xos o'rgatish usullari yuzaga kelgan. Bular itlarning yoshi, ularning zotiga tegishli jismoniy va ruxiy afzalliklari, individual ish qobiliyatlaridan kelib chiqib, itni o'rgatish turlari va usullarini tashkil etadi.

Bugungi kunda Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazida huquqni muhofaza qiluvchi hamda davlat muassasalari jumladan, DXX Chegara qo'shinlari, Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona organlari va O'simlik korantini davlat inspeksiyasi xizmat faoliyatlari uchun umumiy va mashq kurslari bo'yicha kinologlar o'qitilib, xizmat itlari tayyorlab kelinmoqda.

Milliy kinologiya markazida xizmat itlarini quyidagi o'rgatish kurslari bo'yicha o'rgatishning to'rt xil turi bo'yicha tasnifi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Xizmat itlarini o'rgatish turlari bo'yicha tasnifi.

Ta'kidlash joizki, Milliy kinologiya markazida bugungi kunda xizmat ilari o'rgatishning ushbu to'rt asosiy turlari asosida o'quv-o'rgatuv jarayonida yuqori tajribaga ega instruktorlar tomonidan tayyorlanib kelmoqda.

Boshlang'ich mashq kursi bo'yicha itlarni tayyorlash bosqichining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu kursda asosan xizmat itlari uchun tanlab olinishi nazarda tutilgan 3 oydan 8 oygacha bo'lgan it bolalarini boshqarishga o'rgatish hisoblanadi.

Umumiy mashq kursida 8 oydan 2-2,5 yoshdagi xizmat itlarini hamda barcha itlarni boshqarish uchun qo'llaniladigan bo'ysinuvchanlik ko'nikmalarini shakllantiruvchi

kurs hisoblanadi.

Maxsus mashq kursining boshqa kurslardan farqli jihatlari shundan iboratki, bunda umumiy mashq kursi bo'yicha tayyorlanib tanlab olingan xizmat itlari uchun biror bir aniq maqsadli vazifani bajarish uchun o'rgatiladi. Misol tariqasida aytish joizki qurol-yaroq, o'q-dori, giyohvand moddalar, o'simlik urug'lari va boshqalar.

Xizmat itlarini biror yo'nalishda o'rgatish jarayonida, ko'p xollarda avval ularni "umumiy mashq kursi" bo'yicha o'rgatish maqsadga muvofiq.

Milliy kinologiya markazida olib borilgan ilmiy amaliy tadqiqotlarda Turkiya davlati kinologiya xizmatining faoliyati o'rganilgan (1-jadval).

1-jadval

Xizmat itlarini maxsus yo'nalishga o'rgatishda Turkiya davlati metodologiyasining afzallik jihatlari bo'yicha tahlili

T/R	Mavjud amaliyot	Turkiya tajribasi	Afzalliklari	Natija
1.	Markazda bugungi kunda xizmat itlarini maxsus mashq kursi bo'yicha tayyorlash jarayonida ularni <i>tasmasiz, erkin</i> holatda amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.	Qidiruv ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida, xizmat itini harakatlarini <i>tasma bilan salbiy ta'sir etib chegaralamasdan</i> , tasma vositasida erkin yo'naltirib boshqarish uslubiyoti mavjud.	Tasma yordamida xizmat itlarini salbiy ta'sir etib chegaralamasdan, erkin yo'naltirib boshqarish natijasida, xizmat itlari turli ob'ektlarda mukammal qidiruv jarayoni shakllanishiga sabab bo'ladi.	Xizmat itlarida boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilayotgan vaqtda ularda qidiruv jarayonlarida bo'lishi mumkin bo'lgan bir muncha tartibsizliklar oldi olinadi, bu esa o'z nabvatida yashiringan moddani topish jarayonida <i>xatoliklar va ortiqcha vaqt sarfini kamayishiga</i> olib keladi.
2.	Markazda bugungi kunda xizmat itlarini umumiy va maxsus mashq ko'nikmalariga o'rgatish jarayonlari bir vaqtda <i>parallel ravishda</i> olib boriladi.	Xizmat itlarini maxsus mashq ko'nikmalariga o'rgatishdan <i>oldin alohida</i> umumiy mashq kursi bo'yicha <i>bo'ysinuvchanlik ko'nikmalarini</i> to'liq shakllantirib borish uslubiyoti yo'lga qo'yilgan.	Avval umumiy mashq kursi orqali bo'ysinuvchanlik ko'nikmalarini alohida shakllantirib olish natijasida, xizmat itining xulqida <i>tabiiy ravishda</i> kinologga nisbatan bo'ysinuvchanlik va <i>bajaruvchanlik ko'nikmalarini yuqori bo'lishiga</i> sabab bo'ladi.	Natijada maxsus mashq kursi ko'nikmalarini shakllantirish va, rivojlantirish vaqti tezlashadi hamda ko'nikmalar xizmat itining <i>xotirasida talab</i> darajasida shakllanib mutahkamlanadi.
3.	Markazda bugungi kunda xizmat itlarini boshlang'ich qidiruv ko'nikmalariga o'rgatishda uni <i>verbal</i> ya'ni ovoz va ishoralar bilan boshqarish ko'nikmalari hosil qilish uslubiyoti qo'llaniladi.	Xizmat itlarini boshlang'ich qidiruv ko'nikmalariga o'rgatishda uni <i>noverbal</i> ya'ni ovoz va ishoralarsiz boshqarilib ko'nikmalar hosil qilish uslubiyoti mavjud.	Ubu uslubni qo'llash orqali xizmat itida qidiruvga o'rgatishning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab, instinktiv ravishda <i>mustaqil qidiruv</i> ko'nikmalari shakllanib boradi va yanada instinktiv ko'nikmasi ortishiga erishiladi.	Natijada xizmat itida <i>tabiiy qidiruv ko'nikmasini</i> mustahkamlash ta'minlanadi va shakllantirilgan ko'nikmalarining samaradorligi ortadi hamda unda ob'ektga nisbatan qidiruvga kuchli extiyoz uyg'otilishi asos yaratiladi.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida xizmat itlarini umumiy va maxsus yo'nalishlarga tayyorlashda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo'lganligi bois, Bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi o'quv-o'rgatuv jarayonida Turkiya davlati kinologiya xizmatining ilg'or tajribalarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi uslublarni ayniqsa xizmat itlarini maxsus mashq kursi bo'yicha tayyorlash jarayonida qidiruv ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida, xizmat itini harakatlarini tasma bilan salbiy ta'sir etib chegaralamasdan, tasma vositasida erkin yo'naltirib boshqarish yuqori samara berishiga amin bo'ldik.

Shuningdek, xizmat itlarini umumiy mashq va maxsus mashq kursi kursiga o'rgatish jarayonida xizmat itida yashirib qo'yilgan buyum yoki moddani qidirib topishda uning modda va bumlarga tegishi, tishlashi kabi kamchiliklar aqlangan hamda uni qayta qidiruvga yo'naltirishda xizmat itiga ovoz va ishoralar orqali yo'naltirib amaliy mashg'ulotlar olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va tahlillar shuni ko'rsatdigi, bizning fikrimizcha xizmat itlarini aynan maxsus mashq kursi ko'nikmalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarida ya'ni moddani qidirib topganida belgi berishga o'rgatish jarayonida, uning topilgan moddaga tegishi, tishlashi kabi kamchiliklarini xizmat itini boshidan qayta qidiruvga yo'naltirish orqali noverbal (ovoz va ishoralar bilan ta'sir etmasdan) usulda kamchiliklarini bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Natijada xizmat itlarini umumiy va maxsus mashq kursi bo'yicha tayyorlash

natijasida xizmat itlarining turli ob'ektlarni qidiruv jarayonida ularga aktiv ravishda zarar yetkazmaslik holatlari kamayadi.

Shuningdek, umumiy va maxsus mashq kursi ko'nikmalari bo'yicha yashirilgan moddani qidirib topganda belgi berishga o'rgatish jarayonida, xizmat iti aktiv usulda belgi berganda, uni noverbal usulda kamchiliklari bartaraf etish orqali keyingi mashg'ulotlarda xizmat itida ushbu kamchiliklar takrorlanmasligiga hamda asta-sekin yo'qolib borishiga erishiladi.

Ta'kidlash joizki, umumiy mashq kursi xizmat itlarini boshqarish, yo'naltirish hamda biror holatni qabul qildirish uchun zarur bo'ladigan buyruqlar va ko'nikmalardan tashkil topgan bo'lib, xizmat itida umumiy bo'ysinish ko'nikmalarini hosil qilish va maxsus mashq ko'nikmalariga asos yaratish uchun o'rgatiladi. Buning bir qancha afzalliklari qatorida, alohida ahamiyatli afzalligi maxsus mashq kursiga asos bo'luvchi bazaviy ko'nikmalarni shakllantirishidir, bu o'z navbatida itlarni o'rgatish jarayonida ulkan darajada qulayliklarni yuzaga keltiradi. Umumiy mashq kursida ham boshqa kurslardagi kabi o'rgatish usullari, ularni yuzaga keltiruvchi omillar va turlicha qoidalardan tashkil topgan. Umumiy mashq kursiga o'rgatish jarayoni davomida – o'rgatish usullari maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, turlicha tarzda o'zgartirilishi, bir usuldan boshqa usulga o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Natijada uning xizmat itiga ta'siri va xizma faoliyati samaradorligi ortishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1029-son qarori.

2018 yil 18 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida"gi 21-son qarori.

2021 yil 18 yanvar.

3. R.A.Turapov.Monografiya. O'zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatini samaradorligini oshirish uslubiyati, holati, asosiy yo'nalishlari.

Toshkent- "O'zbekiston"-2006 y.

4. Степанов В. "Все о дрессировке собак" Москва, 2020 г.

5. F.Qahhorov, M.Karimjonova, M.Aliev va boshqalar. "Xizmat itlarini masofadan radioaloqa vositasi orqali boshqarishga o'rgatish asoslari" XFU o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent., "Akademiya noshirlik markazi" Davlat unitar korxonasi. 2022 y.

6. O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Axborotnomasi" iqtisodiy, huquqiy. Ilmiy-amaliy jurnal. 2019 yil 2-son.

7. Макс Эмиль, Фредерик фон Штефаниц. "Олтин коидалар".

8. Коновалов Э. "Как обучить вашу собаку". Ростов-на-Дону 2003 г.

9. Горохова Т.А., Федоров Ю.А., Федорков А.Н. Способ тренировки розыскных собак на обнаружение взрывчатых веществ.

10. Горохова Т.А., Беликов А.А., Иванова С.Ю. Способ тренировки розыскных собак кинологической службы по поиску взрывчатых веществ с использованием универсального кинологического набора порошковых имитаторов запаха взрывчатых веществ.

11. Степанов В. "Все о дрессировке собак" Москва, 2020 г.

AYOLLAR KURASHIDA TEZKOR-KUCH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Usmonov Iroda Zaynidin qizi,

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kurashchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida o‘tqazilgan anketa so‘rovnomasi natijalari taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar; kuch, tezkor-kuch, musobaqa, anketa so‘rovnomasi, texnika, taktika, o‘quv yig‘in mashg‘uloti, metodlar.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ БЫСТРОСИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ЖЕНСКОЙ БОРЬБЕ

Усмонова Ирода Зайнидин қизи,

Преподаватель кафедры теории и методики международной борьбы Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта

Аннотация. В данной статье анализируются результаты анкетирования, проведенного на основе совершенствования методики развития быстросиловых качеств в женской борьбе.

Ключевые слова: сила, быстроедействие, соревнование, анкета, техника, тактика, учебно-тренировочный сбор, методика.

WAYS TO IMPROVE THE METHODOLOGY OF DEVELOPING QUICK-STRENGTH ABILITIES IN WOMEN’S WRESTLING

Usmonova Iroda Zaynidin qizi,

Teacher of the Department of Theory and Methodology of International Wrestling at the Uzbekistan State University of Physical Education and Sports

Abstract: This article analyzes the results of a questionnaire conducted on the basis of improving the methodology of developing the quick-strength skills of female wrestlers.

Key words: power, quick-power, competition, questionnaire, technique, tactics, training camp, methods.

Dolzarbligi: Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va manaviy salohiyatga ega bo‘lib dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga xech qaysi soxada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi batxli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish xamda takomillashtirishga e‘tibor kuchaydi. Respublikamiz Prezidenti ma‘rifat va ma‘naviyatni rivojlantirish bilan bir qatorda yosh avlodning jismoniy tarbiyasiga, sport ishlarini yanada yuksaltirishga katta g‘amxo‘rlik qilib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha qaror va farmonlarni imzoladi. Jumladan, 2021 yil 5 noyabrda PQ-5281-sonli “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Qarorlari imzolandi. O‘zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi.[1]

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam

shug'ullanish aholimiz, avallo yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhimi kishilar so'zda emas, amalda o'z salomatliklarini qadrlashlari xamda umumilliy qadriyat sifatida avaylab – asrashlari zarur.[2]

Jismoniy tarbiya va sport – xalqning umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning xar bir fuqarosining jismoniy xamda ma'naviy kamolotini ta'minlash asosidir. Yaqin yillarda kurash sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bulardan;

S.Q.Adilov Erkin kurash sportchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasi; L.Z.Xolmurodov Maxsus jismoniy mashqlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish; K.N.Murodov Erkin kurashda maxsus trenajyor lar va mashqlardan foydalanish asosida kurashchilarning kuch chidamliligini rivojlantirish texnologiyasi.

Yuqoridagi keltirilgan ilmiy ishlar yaqin yillarda kurash turlari soxasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Lekin shu paytgacha kurashchi qizlarda tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish kam o'rganilgan va nazardan chetda qolgan.

Tatqiqotning maqsadi ayollar kurashida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash va taxlil qilish.

Tatqiqotni vazifasi ayollar kurashida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

Tatqiqot usullari ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, matematik statistik usullar.

Tatqiqotning tashkil qilinishi. Tatqiqotlar 2022 yil fevral oyida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida olib borilgan. 2022 yil aprel oyida Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleijida. 2022 yil sentabr oyida Toshkent shahridagi Erkin va yunonrum hamda ayollar kurashi federatsiyasiga qarashli Dinamo sport majmuasida, Respublika olimpiya zaxirallari kolleijida, xamda Toshkent viloyati Sirg'ali tumani 1-sonli sport maktabi murabbiylari o'rtasida o'tqazildi. Kurashchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu kelajakda sportchini yaxshi natijalarga erishishida yaxshi omil bo'ladi. Shu sababli biz tatqiqotimiz davomida 45 nafar murabbiylar orasida anketa so'rovnomasini o'tqazdik, o'tqazilgan anketa so'rovnomasi natijalari quyidagicha:


Kurash turlarida tezkor-kuch qobiliyatlar qanchalik muhim ahamiyatga ega deb xisoblaysiz? - deb bergan savolimizga 17,85 % pedagog murabbiylar:

“unchalik muhim emas” – deb javob berishgan bo'lsalar, 82,15 % murabbiylar bu savolga “muhim” deb javob berishgan, 0 % murabbiylar esa bu savolga “ba'zan kerak, ba'zan kerak emas” deb javob berishgan.(1-rasm) Shu bilan birga murabbiylar bu savolga Yakkakurash sport turlarida tezkor-kuch qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Qobiliyat tug'ma bo'lishi mumkin, qobiliyatni rivojlantirish mumkin. Tezkor-kuch qobiliyati texnik va taktik usullarni bajarishda judayam muhim degan fikrlar mutaxassislar tomonidan aytib o'tilgan. Shu bilan birga erkin kurash sport turida tezkor-kuch qobiliyatlar judayam muhim deb xisoblaymiz.

Tezkor-kuch qobiliyati qaysi yoshda ko'proq rivojlanadi? deb bergan savolimizga 30,3 % murabbiylar: 10-12 yosh – deb javob berishgan bo'lsalar 57,6 % murabbiylar bu savolga ” 12-14 ” – yosh deb javob berishgan, 12,1 % murabbiylar esa bu savolga ” 13-16 yosh” deb javob berishgan. (2-rasm) Bu savolimizga xam murabbiylar 5-9 yoshlarda rivojlantirsa bo'ladi. Bolalarga 7-8 yoshdan tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar berib turish kerak. Iloji bo'lsa 8-10 yoshdan. 12-14 yoshdagi sportchilarda tezkor-kuch qobiliyati tarqoq vaqti bo'ladi degan fikrlarni bildirishgan. Bizning fikrimizcha tezkorlik qobiliyati bola yura boshlagandan so'ng

unda rivojlana boshlaydi shu bilan birgalikda tezkor-kuch 5-6 yoshdan rivojlantirgan maqulroq deb o'ylaymiz.

Kurash turlarida asosan qaysi jarayonlarda tezkor-kuch tayyorgarligi muhim hisoblanadi? deb bergan savolimizga 34,1 % murabbiylar: "hujumda" – deb javob berishgan bo'lsalar 34,1 % pedagog murabbiylar: "himoyada deb javob berishgan, 31,8 % murabbiylar esa bu savolga " qarshi hujumda" deb javob berishgan. (3-rasm) Bu savolimizga xam murabbiylar hammasida kerak bo'ldi sababi musobaqa jarayonida kutilmagan vaziyatlar bo'lishi mumkin degan fikr bildirilgan. Biz xam bu fikrni to'g'ri deb hisoblaymiz.




1-2-3 rasm. Anketa so'rovnomasi natijalari

O'quv-mashg'ulot jarayonining qaysi qismida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun vositalar qo'llanilishi kerak deb hisoblaysiz?" deb bergan savolimizga 37,1% murabbiylar: tayyorlov qismida " – deb javob berishgan bo'lsalar 60,1% murabbiylar bu savolga " asosiy qismda" – deb javob berishgan, 2,8 % murabbiylar esa bu savolga " yakuniy qismda " deb javob berishgan. (4-rasm) Sport o'yinlaridan ko'proq basketbol va xarakterli o'yinlar berish kerak degan fikrni berishgan. Tayyorlov qismida tezkorlik va kuch qobiliyatiga mashqlar beriladi deb aytishgan. Mashg'ulot jarayonining xamma qismida vositalar qo'llanilishi kerak deb hisoblaymiz.

Tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday vositalardan foydalanish ma'qulroq? deb bergan savolimizga 37,8% murabbiylar: "maxsus mashqlar" – deb javob berishgan bo'lsalar 37,8% murabbiylar bu savolga " harakatli o'yinlar" –deb javob berishgan, 24,4% murabbiylar esa bu savolga " umumrivojlantiruvchi mashqlar" deb javob berishgan. (5-rasm) Bu savolimizga xam murabbiylar musobaqa mashqlaridan xam foydalanish kerak. Xammasidan foydalanish zarur. Degan fikrlarni bildirib o'tishgan. Biz yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan xolda maxsus mashqlardan foydalangan yaxshi samara beradi deb o'ylaymiz.

Tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli deb hisoblaysizmi? deb bergan savolimizga 38,7% murabbiylar: " yetarli emas" – deb javob berishgan bo'lsalar 9,6% murabbiylar bu savolga "yetarli" –deb javob berishgan, 51,7% murabbiylar esa bu savolga " bor, lekin juda ham kam" deb javob berishgan. (6-rasm) Bu savolimizga xam murabbiylar Berneshteyn va Lyax kitoblaridan ma'lumot olish kerak. Tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli yemas deb xam fikr bildirishgan. Yana bazi bir murabbiylar adabiyotlar yetarli faqat izlanish kerak degan fikr bildirishgan. Biz tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli ammo o'zbek tilida judayam kam deb hisoblaymiz.




4-5-6-rasm. Anketa so'rovnomasi natijalari

Tezkor-kuch qobiliyatlarni rivojlantirishda qaysi metodlardan foydalanasiz? deb bergan savolimizga 39,4% murabbiylar: "takroriy" – deb javob berishgan bo'lsalar 39,4% murabbiylar bu savolga "qat'iy tartiblashtirilgan" –deb javob berishgan, 21,2% murabbiylar yesa bu savolga "oraliqli (tanaffusli) " deb javob berishgan. (7-rasm) Bu savolimizga murabbiylar xamma metodlarni ishlatish mumkin deyishgan bo'lsalar. Aylanma metotdan xam foydalaning musobaqa metodini xam afzal taraflari ko'p deb fikr bildirishgan. Biz xam yuqoridagi fikrlarni to'g'ri deb xisoblaymiz.

Shunga qadar ishlab chiqilgan kurashchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi innovatsion metodlar bilan boyitilgan deb hisoblaysizmi? deb bergan savolimizga 19,3% murabbiylar: "ha" – deb javob berishgan bo'lsalar 51,6% murabbiylar bu savolga yo'q" –deb javob berishgan, 29,1% murabbiylar esa bu savolga "aniq bilmayman " deb javob berishgan. (8-rasm) Bu savolimizga murabbiylar, pedagoglar tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning o'zi yangilik deb fikr bildirishgan bo'lsalar bazi mutaxassislar ilmiy metodikani rivojlantirish kerak deb aytib o'tishgan. Aynan shular uchun biz kurashchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish mazusini tanladik va izlanishlar olib bormoqdamiz.

Sportchi qizlarda tezkor-kuch qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sportchi uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? deb bergan savolimizga 50% murabbiylar: " sportda yuqori marralarga erisha olmaydi" – deb javob berishgan bo'lsalar 9,4 % murabbiylar bu savolga mashg'ulot jarayonida ko'p jarohat oladi" –deb javob berishgan, 40,6 % murabbiylar esa bu savolga " usullarni yaxshi bajara olmaydi" deb javob berishgan. (9-rasm) Bu savolimizga murabbiylar tezkor-kuch qobiliyati rivojlanmagan sportchidan yaxshi natija kutish qiyin sportchida texnika taktika bilan jismoniy sifatlar ham birgalikda mujassam bo'lishi kerak deb xisoblashadi.

Sportchi qizlarda tezkor-kuch qobiliyatlarning yaxshi rivojlanganligini qanday aniqlash mumkin? deb bergan savolimizga 35.3 % murabbiylar: " Musobaqada yaxshi natijaga erishishiga qarab" – deb javob berishgan bo'lsalar 32,35% murabbiylar bu savolga " Berilgan topshiriqlarni to'g'ri bajarganligiga qarab " –deb javob berishgan, 32,35 % murabbiylar esa bu savolga " Usullarni sifatiga qarab" deb javob berishgan. (10-rasm) Bu savolimizga murabbiylar Integral ko'rsatgichlar doimo aniq va yuqori darajada bajarish shart deb fikr bildishgan. Biz xam yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan xolda tezkor-kuch qobiliyatlarning yaxshi rivojlanganligini maxsus testlar orqali aniqlash mumkin deb o'ylaymiz.



7-8-9-10-rasm. Anketa so'rovnomasi natijalari

So'rovnomada ishtirok yetgan o'qituvchi murrabbiylar orasida p.f.d. profesor. Fan nomzodlari, Dotsentlar, o'qituvchilar, katta o'qituvchilar, O'zbekiston Respublikasida

xizmat ko'rsatgan sport ustozlari, xalqaro toifadagi sport ustalari, xamda sport ustalari ishtirok yetishdi.

Ushbu ilmiy tadqiqot hozirgi vaqtda juda xam zarur va dolzarb deb o'ylayman. Ustozlar agar bu ishni yangi inavatsion metodlar bilan ochib besangiz Davlatimiz va ustozlar uchun ajoyib ish qilgan bo'lardingiz deb fikr bildirib o'tgan.

Hozirgi rivojlanish va glabalashuv davrida hamma soha singari sport sohasi ham inavatsion yangiliklar o'zgarishlar qilinmasa sport sohasida yuksak marralarga yerishib bo'lmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib sport sohasida Kurashchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish, Olingan kerakli ma'lumotlarni murabbiylar tomonidan hayotga tadbiiq qilinib, mashg'ulotlarda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari kurashchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'quv qo'llanmalarining kamligi sabab murabbiylarning mashg'ulotlarni mukkamal darajada olib borishlari uchun o'quv qo'llanmalar yaratilsa, o'ylaymizki kelgusida kurashchi qizlarning natijalari bundan xam yaxshilanib bu sport turiga qiziqishlari yanada oshadi.

Xulosa. Sportning tezkor-kuch qobiliyati yaxlit xarakat faoliyatini maqsadga muvofiq ijro etish (shakllantirish, o'zaro bo'ysundirish, birga birlashtirish) o'zlashtirilgan xarakat shakllarini qayta tiklash yoki o'zgaruvchan muhit talablariga ko'ra bir xarakat faoliyatidan ikkinchisiga o'tish qobiliyatlaridan iborat. Tezkor-kuch qobiliyatlarining ko'rsatgichlari tugallangan xarakat topshiriqlari (yugurish mashqlari, trenajyorlarda mashqlar, maxsus mashqlar va boshqalar hisoblanadi. [3]Ular to'g'risida yangi xarakat shakllarini o'zlashtirish va o'zlashtirilgan xarakatlarni qayta o'zgartirish uchun sarflangan vaqt, aniq xarakat ko'rsatgichlari (vaqt birligida) bo'yicha fikr yuritish mumkin. Tezkor-kuch qobiliyatlarini egallash uchun muntazam xarakat malakalarining sonini ko'paytirish, xarakatlarining yangi shakllarini xosil qilish, xarakat shakllarini tez o'zgartirish yoki turli sharoitga qarab bir xarakatdan ikkinchisiga tez ko'cha bilish zarur. Ixtisoslashgan xarakat shakllarini doimo bir xilda bajarish esa xarakat malakalarini boyitmaydi, imkoniyatlarini cheklaydi, xarakat uyg'unligida to'siq xosil qiladi, xarakatlarni o'zgartirish va yangilashga xalaqit beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ayta olamizki: Kurashchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi to'liq yoritib berilmagan. O'quv-mashg'ulot jarayonining asosiy qismida tezkor-kuch qobiliyatlarni rivojlantirish uchun vositalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi deb xisoblaymiz. Yuqorida o'tqazilgan anketa so'rovnomamizdan shunday xulosa qildik. Kurashchilar yosh sinflariga bo'linadi. Mamlakatimizda o'smirlar bilan ishlash tajribasi ularning yoshini va ayrim shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, quydagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiqqligini ko'rsatmoqda.[8]

Bular kichik yosh sinfi bunda sportchilarning yoshi 7 dan 10 gacha bo'ladi, o'rta yosh sinfi bunda sportchilarning yoshi 11 dan 13 gacha bo'ladi, va oxirgisi yuqori yosh sinfi bunda sportchilarning yoshi 14 dan 17 gacha bo'ladi. Biz shularni inobatga olib tezkor-kuch qobiliyatni kichik yosh sinfida yani 7-10 yoshli kurashchilarda rivojlantirsak maqsadga muvofiq bo'lar yedi. Chunki asosiy qismda mushaklar yetarlicha toblanib sportchi mashqlarni erkin bajara oladi.

Adabiyotlar.

3. Adilov, S. Q. (2019). Importance of Developing Technical–Tactical Preparing and Improving Coordination Skills Freestyle Wrestlers (based on Questionnaire Results). *Eastern European Scientific Journal*, (1).

4. Xolmatov, A. I., Tashnazarov, D. Y., & Kurganov, O. N. (2021). Yunon-rim kurashchilariga texnik usullarni o'rgatishda modellashtirish usulining samaradorligi. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1708-1716.

**ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ПЕДАГОГИК
ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШ АСОСИЙ ОМИЛ СИФАТИДА**

*Камолова Ширин Усаровна,
ЖДПУ катта ўқитувчиси*

*Амонхонова Янглишхон,
Педагогика ва психология йўналиши 2-босқич магистри*

Аннотация: Ушбу мақолада ўқитувчи касбий компетентлиги педагогик фаолият жараёнида шакллантиришининг педагогик асослари масалаларига қаратилган. Таълим жараёнида кўзлаган натижаларда эришиш учун ўқитувчининг касбий компетентлик сифатлари қай даражада ривожланган бўлиши асосида ўқитувчиларни тайёрлаш сифатини ошириш зарурлиги ёритилган.

Калит сўзлар: компетентлик, ижтимоий компетенция, ҳамкорлик, хулқ-атвор, билим, кўникма, малака, англаш, ҳамкорлик, бағрикенглик, ижтимоий сафарбарлик, ижодий ёндашиш, ҳамкорликда ишлашни ва таҳлил қилиш.

**ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА КАК
ОСНОВНОЙ ФАКТОР ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Камолова Ширин Усаровна,
Старший преподаватель ДЖПГУ*

*Амонхонова Янглишхон,
2-курс магистр направления педагогики и психология*

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам педагогических основ формирования профессиональной компетентности учителя в процессе педагогической деятельности. Для достижения желаемых результатов в образовательном процессе выделена необходимость повышения качества подготовки учителей исходя из уровня профессиональной компетентности педагога.

Ключевые слова: Компетентность, социальная компетентность, сотрудничество, поведение, знания, навыки, компетентность, понимание, сотрудничество, толерантность, социальная мобилизация, творчество, сотрудничество и анализ.

**PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER AS THE MAIN
FACTOR IN THE IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITY**

*Kamolova Shirin Usarova,
Senior lecturer of DSPU*

*Amonkhonova Yanglishkhon
2nd year Master's degree in Pedagogy and Psychology*

Abstract: This article is devoted to the pedagogical foundations of the formation of professional competence of a teacher in the process of pedagogical activity. In order to achieve the desired results in the educational process, the need to improve the quality of teacher training based on the level of professional competence of the teacher is highlighted.

Keywords: Competence, social competence, cooperation, behavior, knowledge, skills, competence, understanding, cooperation, tolerance, social mobilization,

creativity, cooperation and analysis.

Таълим тизимини модернизациялаш, таълим тизимида юзага келадиган ўзгаришлар таълим муассаси ходимларининг касбий компетентлигини ривожлантириш бугуннинг долзарб муаммоларидандир. Сўнги йилларда мамлакатимизда таълимни ривожлантириш умуммиллий дастури доирасида таълим муассасаларини замон талабига мос равишда модернизация қилиш, таълимнинг мазмун -моҳиятини ўзгартириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилди. Маълумки жамият ҳар доим илмни, рақобатбардош, ижодий изланувчан компетентлик сифатига эга шахсга эҳтиёж сезади.

Янги минг йилликда халқимизнинг тараққиёт йўлида турли муаммолар мавжуд экан, аввало, уларнинг тўғри ечимини топиш зарур.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури сифат босқичининг моҳиятидан қаралганда, мазкур масаланинг қай даражада долзарблиги ўз-ўзидан намоён бўлади. “Компетентлик” тушунчаси таълим соҳасига психологик изланишлар натижасида кириб келган.

Бу асосан ўзлигини англаётган инсонларга, ижтимоий ҳаётда ўз мавқеига эга бўлган зиёлиларга боғлиқ. Бизнинг вазифамиз фан-техникани юксак савияда эгаллаган, жаҳон стандартлари даражасидаги мустақил фикрловчи, интеллектуал кўрсаткичи юқори бўлган ёшларни тарбиялашдир.

Тарихга назар ташлайдиган бўлсак компетентлик, шахс компетентлик тушунчалари ХХасрнинг 90-йилларида ижтимоий компетентлик шахснинг шахсий сифати каби барча ижтимоий тармоқларда машҳур бўлиб, фанлараро бир мавзу сифатида қабул қилиниб мураккаб, кўп компонентли ва кўп ўлчовли ҳодиса сифатида таҳлил қилина бошланди.

Тадқиқотчи В. Н. Куницынанинг кўп йиллик илмий тадқиқотлари натижаларига асосланиб, ижтимоий компетентликнинг қуйидаги турларини ажратиш кўрсатади: компетентлик; коммуникатив компетентлик; ижтимоий-касбий компетентлик; ўз-ўзини аниқлаш (эго-компетентлик) ҳақида хулоса чиқаради.

Шу билан бирга И.А.Зимняя компетентликни инсонга ижтимоий таъсирига кўра, ижтимоий ҳамкорлик (жамият, жамоа, оила, дўстлар, ҳамкорлар билан зиддиятлар ва улардан қайтариш, ҳамкорлик, бағрикенглик, ижтимоий сафарбарлик) ва муомала компетентлиги (оғзаки, ёзма, суҳбат, монолог, билим ва анъаналарга риоя қилиш, этикет, маданий ва хорижий алоқалар, бизнес, коммуникатив вазифалар) каби турларга ажратади.

Е.В.Коблянскаянинг тадқиқот ишида ижтимоий компетентликни “Мен” муносабатини тушуниш - жамият, тўғри ижтимоий йўналишни танлай олиш, ушбу йўналиш бўйича ўз фаолиятини ташкил этиш” сифатида кўриб чиқади. Унинг фикрича ижтимоий компетентлик – “бу шахсий сифат бўлиб - кишининг ижтимоий нормалар билан боғлиқ ушбу жамият аъзоси сифатидаги меҳнат фаолиятидир, бунда жамият ҳаёти унинг аъзолари ўртасидаги ўзаро алоқани тартибга солиди.

Аввало этимологиядан Компетентлик тушунчаси – бу бирор соҳада самарали фаолият юритиш учун зарурий тажриба ва керакли билимлар, компетенциялар тизимидир.

М.И.Лукьянова ўқитувчининг психологик-педагогик салоҳияти асосида педагогик фаолият учун юқори даражадаги профессионал тайёргарлик ва ўқув жараёнида талабалар билан самарали ўзаро муносабатларга эга бўлган шахснинг ўзига хос хусусиятларини тушунади психологик ва педагогик компетенция таркибий қисми сифатида у психологик ва педагогик йўналишларнинг блокларини кўриб чиқади деган фикрларни билдиради.

Ижтимоий компетентликнинг қуйидаги компонентлари мавжуд бўлиб,

ушбу компонентлар турли ёш даврларидаги инсонларда жамиятдаги ижтимоий институтларнинг тузилиши ва фаолият олиб боришига доир маълумотларни, ижтимоий ролга қўйилган талаблар ва кутишларга оид билимларни, ижтимоий ролга хос бўлган хулқни эгаллаш малакасини, умуминсоний нормалар ва кадрларга оид ҳамда кишининг ўзи ҳақидаги тасаввурлари, ўзини ижтимоий субъект сифатида идрок этиш билан боғлиқ бўлган самарали ижтимоий ҳамкорлик кўникмалари ва малакаларини шакллантиради. Ижтимоий компетентликни шаклланиши ўқитувчилардан қуйидаги ижтимоий хулқ малакаларини ҳам талаб этади.

- ўзаро биргаликдаги ҳаракат малакалари;
- стресс(зўриқиш)ли вазиятлардаги адекват хулқ малакалари;
- ижобий мулоқот малакалари;
- бошқаларни тушуниш ва ўз-ўзини баҳолаш малакалари;
- ўз хулқини идора этиш малакалари;
- ҳиссий ҳолатлар ва эмоцияларни бошқариш;

Шу сабабли компетентлик “ноанъанавий вазиятлар, кутилмаган ҳолларда мутахассиснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб боровчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалликни англади.

Компетентлик тузилмасида ижтимоий компетентликка алоҳида ўрин берилган бўлиб, у ўзида турли ҳаётий соҳалардаги ижтимоий ҳамкорликка бўлган қобилият ва ижтимоий мослашувчанликни акс эттиради.

- муваффақиятга эришиш мотивациясини бошқара олиш;
- ўқув фаолиятини такомиллаштириб бориш;
- фаолиятга танқидий ва ижодий ёндашиш;
- ўртоқлари билан ижодий ҳамкорликка эришиш;
- иродавий сифатларини ривожлантириб бориш;
- ишчанлик қобилиятини ривожлантириш;
- креативлик хусусиятларини ривожлантириб бориш;
- салбий одатларни бартараф этиб бориш;
- ўзига объектив баҳо бериш;

-ижобий сифатларни ўзлаштириш чораларини излаш йўлида олиб борадиган амалий ҳаракати ўқитувчининг ўз устида ишлашини ифодалайди. Ижтимоий компетенция - ижтимоий малакалар (мажбуриятлар) ҳисобланиб, кишига жамият ҳаётидаги нормалар ва қоидаларни адекват (ўзаро мос) тарзда бажариш имкониятини беради ва инсон ўз навбатида ўз менининг англай бошлайдиган илк болалик даврларидан бошлаб ушбу нормалар ва қоидаларни ота-онасининг ёрдами билан эгаллай бошлайди. Маълумки олдинги таълим кўпроқ академик билимлар беришга қаратилган бўлса, бугунги кунда ўқитувчиларнинг чуқур назарий билимларга эга бўлиши билан биргаликда, уларнинг амалий кўникмаларини ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Ўқитувчиларнинг изчил равишда ўзининг компетентлик сифатларини ривожлантириб бориш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиш муаммоси психологиядаги етакчи муаммолардан биридир. Бу муаммолар ечими ўқитувчилар ўз компетентлик сифатларини ривожлантириб бориши учун ўз устида ишлаши жараёнида ўз аксини топади:

Ижтимоий компетентлик асосини жамият, ундаги хулқ-атвор усуллари ва қоидалари ҳақидаги билимлар ташкил этар экан, мактаб ўқувчиси учун жамият, кенг (дунё, мамлакат) ва тор (оила, мактаб, маҳалла) даврада акс этади”. Унинг муаммоларни ҳал этиш билан боғлиқ мустақил билиш, ижтимоий-фуқаролик, ижтимоий-меҳнат, маданий-хордиқ каби компонентлар киритилади.

Шунинг учун ўқитувчилар компетентликларини ривожлантиришнинг муҳим

йўлларида бири, ўқитувчиларда ўзини ўраб турган кишилар билан биргаликда ҳаракат қила олиш, ўзини тутиш усулларига доир билимларни шакллантиришдан иборат. Ушбу ҳолатда ижтимоий мослашиш учун ўзаро ҳамкорликдаги фаолияти ижобий таъсир кўрсатади, ўқитувчи ўз тенгдошлари ва катталар билан ҳамкорликда фаолият олиб боради. Ўз фикрини бошқаларникидан ажрата олиш туфайли ўқитувчи ўз шахсий “Мен”ининг имкониятларини чамалай олади, кўпгина ҳаётий вазиятлар унинг хулқ-атвори, ўзини тутишига боғлиқ эканлигини тушуниб етади, шу аснода муаммоли вазиятларни ҳал этиш кўникмаларини эгаллайди.

Жумладан, замонавий ижтимоий-иктисодий шароитларда касбий ўзини ўзи бошқариш жараёнида шахснинг касбий ривожланишининг энг тўлиқ психологик шакллари, касбий компетентликнинг ривожланиш хусусиятлари Э.Ф.Зеер томонидан ўрганилган.

Бу асосда ўқитувчида муваффақиятга эришиш мотивациясини бошқара олиш хусусияти, фаолиятга танқидий ва ижодий ёндашиши, ҳамкасблари билан ижодий ҳамкорликка эришиш, иродавий, ишчанлик қобилияти, креативлик хусусиятлари ва салбий одатларни бартараф этиб бориши учун имкониятлар яратилади. Бунинг учун дарс жараёнида ҳам турли интерфаол усуллардан фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлади

Ўқитувчилардан ўз фаолиятга танқидий, ижодий ёндашиш, ҳамкорликда ишлашни ва таҳлил қилишни ўрганишади.

Ҳар бир ўқитувчи ўзининг касбий компетентлик сифатларини шакллантиришда мутахассислар томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур билим, кўникама ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни янги маълумотларни излаб топиш уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай олишни тақоза этади. Касбий компетентлик сифатлари мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганиши, муҳим ижтимоий талабларни англай олиши амалда юқори даражада қўллай олишлари учун ҳамкорликда ишлаш ижобий самара беради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, шахснинг интегратив хусусиятини бошқача айтганда, бўлажак мутахассислар шахсий сифатларин билим малака ва амалий тажрибаси, қобилиятлари кадрят йўналишларини ифода этади, ўқитувчиларда компетентлик сифатлари ривожланишга қаратилган ҳаракатлар асосан таълим муассасалариданоқ бошланади. Ўқитувчи бунинг учун турли фан асосларининг назарий ва амалий асосларини чуқур ўрганиб фан янгиликларидан доимо мақсадга мувофиқ фойдаланиш асосида компетентлик сифатларини ривожлантириб бормоғи керак, шунингдек, таълимнинг фаол усулларини (тренинг дарслари, кўргазмали дарс, аукцион дарс ва ҳоказо) ҳам ўзлаштириб олган бўлиши керак. Шундай қилиб, компетентлик - шахс установакалари ва маънавий кадрятлари, шахсий психологик хусусиятлар тизимида асосланувчи, ўзаро бир-бирига яқин ижтимоий компетенциялар мажмуаси бўлиб, ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги шаклланишига ва турли ижтимоий ролларни самарали бажаришга имконият беради. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги педагогик фаолиятни амалга ошириш жараёнида билимларга кадрятларга асосланиб ривожланиб боради. Албатта ўқитувчиларда компетентлик сифатлари ривожланиши учун имконият бўлади, таълим муассасаларида ижтимоий фойдали фаолият мотивацияси ривожланади ва мустаҳкамланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Андреева Г.М. Социальная психология. М., Аспект пресс, 1996.37с
2. Белицкая Г.Э. Социальная компетенция личности. Сознание личности в кризисном обществе. М.,-Масягина1995.-24 с.
3. Г. П. Формирование социальной компетенции будущих педагогов: Автореф. дис. канд.пед.наук. – Астрахань, 2008. –54,55с.
4. Т.Фафорова. Бошланғич таълимда замонавий педагогик технологиялар “Тафаккур”нашриёти.Т.:2011.-112б
5. Лукьянова М.И. психолого-педагогическая компетентность учителя//

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA E'TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Ramazanova Feruza Xudoynazarovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchi kasbiga bo'lgan ishonchni rivojlantirishning mavjud misollari haqida fikr bildiriladi, uni takomillashtirish usullari va ko'rsatmalarini batafsil ochib beradi. Shuningdek, maqolada qadimgi davrlardan e'tiqot masalalari va uning rivojlanishi haqidagi olimlarning fikrlari tahlil qilingan. O'qituvchilarning o'z kasbiga bo'lgan ishonchi ularni takomillashtirish orqali ularning pedagogik faoliyati va uning sohasida zarur bo'lgan masalalarni chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: kasb, e'tiqod, oliy ma'lumot, pedagogika, mehnat, talaba, tarbiya, o'qituvchi, shogird, ustoz, muhaddis, islom, so'z, ensiklopedik olim.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ВЕРЫ В ПРОФЕССИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

*Рамазанова Феруза Худойназаровна,
Преподаватель педагогического факультета Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация. Данная статья даёт представление о существующих примерах развития веры в профессию учителя, подробно раскрывает методы и инструкции по ее совершенствованию. Также в работе анализируются вопросы веры в исламе в древние времена и мнения его ученых о его развитии. Вера учителей в свою профессию требует более глубокого изучения того, что необходимо в их педагогической деятельности и ее сфере через ее совершенствование.

Ключевые слова: профессия, вера, высшее образование, педагог, логит, труд, студент, воспитание, учитель, дисциплина, учитель, мухаддис, ислам, слово, ученый-энциклопедист.

THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF FAITH IN THE PROFESSION OF FUTURE TEACHERS AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT

*Ramazonova Feruza Khudoynazarovna,
Teacher of the Pedagogical Faculty of the Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract. This article provides an idea of the existing cases of the development of faith in the profession in future teachers, reveals in detail the methods and instructions for its improvement. Also, in ancient times, the issues of faith in Islam and the opinions of its scholars for its development are analyzed in the work. The belief of teachers in their profession necessitates a deeper study of what is needed in their pedagogical activity and its sphere through its improvement.

Key words: profession, faith, higher education, pedagogue, ogit, labor, student, upbringing, teacher, disciple, teacher, muhaddis, Islam, word, encyclopedic scientist.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ta'lim va tarbiya jarayonida taraqqiyotining ilg'or natijalarini qo'llash bilan bir qatorda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli amalga oshirish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz

kerak. Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug‘ilmasin, gap oxir oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq, aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog‘liqdir.

Adabiyotlar sharhi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga e‘tiqodni rivojlantirishning mavjud holati va takomillashtirish yo‘nalishlari mavzusi bugungi kunga qadar ilmiy jihatdan kam o‘rganilgan. Shu sababdan, bu mavzuni tadqiq etishda xorijiy va mahalliy manbalar tahlili asosiy manba vazifasini bajaradi. Qolaversa, hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar to‘plamlarni ham o‘z navbatida mavzu mazmunini oydinlashtirishga xizmat qiladigan manbalar sirasiga kiradi. Bilimdon mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jixatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o‘qitish jarayonini tashkil qilishi va dars berishiga bog‘liq.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Oliy ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar o‘zining individual pedagogik tizimiga ega bo‘lishi uchun, avvalo ta‘lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, talabalar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning kasbga e‘tiqodini rivojlantirish, shuningdek, ularni yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishini ta‘minlash zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga e‘tiqodini rivojlantirishning ijtimoiy yo‘nalishlarini shakllantirish jarayoni quyidagilarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi:


- zamonaviy ta‘limning metodologik vazifalari;
- o‘qitish jarayonida pedagoglar shaxsiga qo‘yilgan talablar;
- o‘qitish sub‘yekti shaxsi, jumladan, yosh psixologiyasi;
- bo‘lajak o‘qituvchilar kelajakni oldindan ko‘ra bilgan holda o‘z istiqbolini belgilashi;

- mazkur jarayonning pedagogik texnologiyasi;
- ijtimoiy faollik omili;
- qadriyatlarga asoslangan yondashuv va o‘z-o‘zini ob‘yektiv baholash;

Quyidagilar bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbga e‘tiqodini rivojlantirishda asosiy mezon hisoblanadi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga hissiy yondashuvi;
- kelajakni oldindan ko‘ra bilgan holda o‘z pedagogik tayyorgarligi natijalarini tashxislash;
- pedagogik faoliyatda ijtimoiylashtirish.

Shuni ta‘kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbga e‘tiqodini rivojlantirishda o‘quv-tarbiya jarayoni va har qanday faoliyatning asosi hamda zarur sharti sifatida manfaat ustuvorlik qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida kasbga e‘tiqodini rivojlantirish tizimini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida

kasbga e'tiqodini rivojlantirish tizimi

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsiy faoliyatlari baholashni quyidagicha aks ettirish mumkin:

1-jadval.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsiy faoliyati		
O'quv faoliyati jarayonida	Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonida	Pedagogik amaliyot jarayonida
Bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini "Men" konsepsiyasi mazmuniga muvofiq holda baholash	Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv, auditoriyadan tashqarida va pedagogik faoliyatini bosh mezon-ijtimoiy faollikka ko'ra tahlil etish hamda baholash	

O'qituvchilik sharaflil, lekin juda murakkab kasb, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi, bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchidan:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni muqammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va yoshlarni yaxshi ko'radigan, har bir talaba ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Shu o'rinda "O'z oldiga yosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan birlajak o'qituvchilarning ijtimoiy sifatleri qanday bo'ladi?" degan savolga quyidagicha javob qaytarish mumkin: o'qituvchilarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari VII-IX asrlarda islom diniga, uning aqidalariga rioya qilib keldilar. Buyuk muhaddis, islom olamida yirik alloma sifatida tanilgan Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, o'zining "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarida kasb o'rganish, kasbga e'tiqod qilish va uning afzalligi to'g'risidagi hadislarni to'plab sharhlagan. Masalan, 14-bobda "Kishining kasbi va o'z qo'li biran mehnat qilishi haqida"gi hadisda shunday deyiladi: "Mening o'z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur. Men garchi musulmon ishlari birlan band bo'lsam ham, shu kasbim orqali oila tebraturman" – deb yozadilar [1. 120-140].

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida insonlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga, kasb egallashga hamda inson shaxsining ijodiy va bunyodkorlik kuchini va uning kamolotini, qadr-qimmatini ulug'lashga chorlaydi.

Masalan, uning fikricha, "... kimki eng go'zal va foydali bo'lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o'zining istagiga va boshqa bironing istagiga muvofiq bo'lmay yoki uni boshqalarning hoxishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan xayrli va foydalidir" [2. 56-66.].

Ta'lim, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'ladi. Tarbiya esa, ta'lim faoliyat asosida, ya'ni, unda bo'lajak o'qituvchining kasbga bo'lgan havasini kuzatish mumkin. Agar, u kasbga qiziqsa, ushbu qiziqish uni butunlay kasbga bog'lab qo'yadi, natijada, bo'lajak o'qituvchi kasbning chinakam oshig'i bo'lib qoladi.

Sharqning ulug' matematigi al-Xorazmiy, o'zining "O'gitlar"ida "Mehnat bu bir sel, agar shu sel to'xtab qolsa, u singib ketadi" deb fikr yuritadi. Buyuk mutafakkir olim al-Xorazmiy ushbu misralarida hayotiy, muhim bir haqiqatni aytadi. Ya'ni, suv obi hayot, suvsiz hayot yo'q bo'lgani kabi, mehnatsiz hayot bo'lmasligini, suvning yerga singib ketishini umrning quruq o'tib ketishiga taqqoslaydi [13. 85-86.].

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy kishilarning baxt-saodati va kamoloti, uning halol mehnat qilishi, kasb o'rganishida deb biladi. Buyuk alloma o'z asarlarida unumli mehnatning ahamiyatini alohida ta'kidlab, "...barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati, uning avlod-ajdodi kim bo'lganligi bilan emas, balki, uning halol mehnati bilan ulug'lanadi. Buning uchun mehnat zarur, faqat aql-idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi", - deydi.

Abu Rayhon Beruniy insonning halol mehnat qilishi va kasb egallashi tufayli aql-zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarini nihoyatda qadrlaydi. Mutafakkirning quyidagi hikmatlari tahsinga loyiqdir: "Har bir insonning qadr-qiyamati o'z ishini qoyil qilib bajarishida" [6. 8-9.].

Donishmand Yusuf Xos Hojibning ta'biricha: "Har bir kishi ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida kasb o'rganmog'i, o'z kasbi bilan xalqiga, Vataniga xizmat qilmog'i zarur", - deydi. Darhaqiqat, kasb o'rganishga va mehnat qilishga bo'lgan intilish har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj bo'lmog'i kerak.

Mahmud Qoshg'ariy, o'zining "Devonu lug'otit turk", ("Turkiy so'zlar to'plami") nomli asarida "Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla. Ilmlarni, kasblarni o'rganib, amalga oshir", - deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi, ilm va kasb sohiblarini e'zozlaydi, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Demak, ulug' donishmand o'zining ushbu so'zlari bilan unumli mehnat qilishni ilmni o'rganish bilan barobar qo'yadi. Kishi mehnat qilsagina, kasb o'rgansagina ilmli, aqlli kishi hisoblanadi [9. 100-110.].

Sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi pahlavon Farhodning kasbga qiziqishi targ'ib etiladi hamda yoshlarni bir necha kasblarni egallashlariga undaydi. Shuningdek, Navoiy Farhodni bir necha kasb-hunar egasi, ya'ni u sartaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi hunarlarni mukammal egallab olgan kishi sifatida ulug'laydi [7. 113-114.].

XII-XIII asrning buyuk allomalaridan hisoblangan Sa'diy Sheroziy, (1184-1292) "Guliston" asaridagi "Tarbiyat ta'siri zikrida" nomli 7-bobida quyidagicha hikoyat keltiriladi: "Ey, jon farzandlarim, kasb o'rganinglar, nedinkim, mulk va molg'a e'timod yo'qdurur. Nedinkim, kasb oning zotida ulug' davlatdur va har yerdakim borsa, sohibi qadr bo'lur va majlisning yuqorisida o'turur va kasb-hunarsiz kishi gadoylik qilur va har joydakim borsa, beqadr va beye'tibor bo'lur" [14. 76-77.].

Bahovuddin Naqshband ta'limoti XIV-XVIII asrda o'rta Osiyo va Xurosonda keng tarqaldi. U har bir kishini kasb-hunarlarni o'rganishga, egallashga undadi.

Bahovuddin Naqshband ta'limotidagi asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

1. Kishilarning halol mehnat qilishiga, hunar o'rganishiga, o'z mehnati mevasidagina bahramand bo'lishga chaqirish;

2. "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Dilingni Allohga-yu, qo'lingni ishga bag'ishla" degan kalimada o'z ifodasini topgan [5. 200-205.].

U kishi o'quvchilarni madrasaga qabul qilish paytida, ulardan biron kasbing bormi, deya so'raganlar. Kasb-hunarsiz odam o'qishga qabul qilinmagan.

Zardo'sht ta'limotida, "muallim – kohlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo'sinida o'rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir" deyilgan. Uning "yasht"larida aqlu farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, “Avesto”ning “yasht”larida tanballigi, befarqligi, mas’uliyatsizligi, loqaydligi, farosatsizligi, uquvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehni, ularning mustaqil tafakkurini o’tmaslashtiradigan, ayni chog‘da, yoshlarning aqlini “zanglatadigan”, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon e’tiqodini zaiflashtirib, ma’anaviy jihatdan qashshoqlashtiradigan “yomon ustozlar” qattiq qoralanadi.

Zardushtning Oliy Tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar xaqida shunday deyiladi: “Noshud, yomon muallim talaba qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra” [3.180-190.].


Talabalarga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o‘qituvchining shaxsiyati qanday bo‘lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqitira olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, akliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, adabiyot va san‘at, ma’rifatchilik jadal taraqqiy etgan. Shuningdek, o‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari surilgan va ma’lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘qituvchi va mudarrislarining insoniy xislatlariga bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta’minotidan qondirilishini yo‘lga qo‘ygan, eng tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o‘xshash fikrlarni G‘arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, Disterverg: “Yaxshi o‘qituvchi mahoratli ustozlarni e‘zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarining dars berishdan o‘zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O‘qituvchi o‘z ustida doimo mustakdl ishlashi lozim. Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o‘rgatadi” degan. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida sharq mutafakkirlari pedagogik qarashlaridan foydalanish metodologik asos vazifasini bajaradi [8. 11-13.].

Bo‘lajak o‘qituvchining profессиogrammasi



Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon bo'lajak o'qituvchining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi talaba shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning talaba faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Shaxsning rivojlanishida o'qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamini ortishiga bevosita bog'liq [11. 66-68.].

Professional bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, Lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur. Buyuk pedagog A.Desterveg ta'kidlaganidek, "Ilmiy izlanishga intilmagan o'qituvchi tavakkaliga ishlash, oddiylik va soxtalik kabi pedagogikadan ozdiruvchi shaytonlar qa'riga mahkum bo'ladi" [4. 301-315.].

Pedagog olim N.A. Muslimov tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. N.A.Muslimov tadqiqotlarida: "Oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish vazifalari belgilangan" – deb ta'kidlab o'tgan [12. 90-100.].

O'qituvchilarning shaxsiy modelini tuzish va uning asosida kasbiy pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish muammosi taniqli pedagog M.N.Skatkin tomonidan tadqiq etilgan [10. 15-35.].

Pedagog olim V.M. Blinovning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlarida yuqori samaradorlikka erishish bo'lajak o'qituvchilarning individual qobiliyatlari, layoqatlarini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi.

Tadqiqotchi A.A. Shoyusupova o'z ishlarida o'qituvchi modelining jamiyat ijtimoiy buyurtmasi sifatida ta'lim standarti, o'quv reja va dasturining mazmunini tanlab olish va tizimlashtirishga xizmat qilishini ilmiy asosda ko'rsatib bergan.

Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish samaradorligini oshirish ta'lim tizimidagi o'quv materiallarining mazmuniga bog'liqdir. Olimlardan A.A. Kiveryalg o'quv materiallar majmuini talabalarning kasbiy tayyorgarligiga, ularning o'quv jarayonidagi vazifalariga qarab guruhlariga bo'ladi, ya'ni direktiv (ko'rsatma beradigan) - me'yoriy hujjatlarga (o'quv rejaları va o'quv dasturlari); dars o'tish uchun uslubiy materiallarga (xususiy uslubiy tavsiyanomalar); talabalar uchun chop etilgan qo'llanmalarga (darsliklar, didaktik materiallar, laboratoriya va amaliy ishlar bajarish uchun uslubiy qo'llanmalar) hamda o'qitish ko'rgazmali materiallariga bo'ladi. O'quv materiallarining asosiy bo'g'ini deb - darslikni hisoblaydi.

O'qituvchining kasbga e'tiqodini rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o'rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat o'qituvchining individual uslubini belgilab beradi.

O'qituvchida o'z-o'zini boshqarish, qat'iylik, jur'atlik, jasurlik, atrofdagi insonlarga hurmat va e'tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o'z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, o'z kuch-quvvatini maqsadli yo'naltira olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to'g'ri boshqarib borish, aqliy faollik va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch hamda ijtimoiy olam bilan o'z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo'lsagina yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha

olishi mumkinligi aniqlangan.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayonida talabalarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarish zarur:

- davlat, jamiyat va shaxsning muntazam rivojlanib borayotgan ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli talabalarni tarbiyalash (ta'lim mazmunini yangilash);

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayoniga innovasion yondashuvlarni joriy etish (ta'lim dasturlarini yangilash);

- bo'lajak o'qituvchilarda innovasion jarayonlarning natijalariga qiziqishlarni muntazam shakllantirib borish;

- o'rganiladigan mavzular va tushunchalarning mazmunini turli yot g'oyalardan tozalash, raqobatni vujudga keltiruvchi fikrlar bilan to'ldirish;

- zamon talablariga mos ravishda o'qitish tizimiga yangi rivojlantiruvchi o'zgartirishlarni kiritish;

- yangilangan texnologik va dasturiy-uslubiy innovasiyalarni yaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish yo'nalishidagi ilg'or g'oyalarini o'rganish va amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

- bo'lajak o'qituvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblangan sub'ekt-sub'ekt, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlariga asoslanish;

- ta'lim va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini o'rganish, ko'proq samarali hisoblangan o'qitish vositalari, metodlari va yondashuvlarni tanlash va ta'limotga tatbiq etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayonlari komponentlari hisoblangan ta'lim-tarbiya, mustaqil ta'lim va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash;

- kasbiy malakani shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga modulli yondashuvni tatbiq etish asosida ularning reflektiv qobiliyatlari hamda tafakkurini rivojlantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirishda uzviylik va uluksizlikni ta'minlashga erishish.

Ko'rsatilgan vazifalarni samarali bajarilishi bo'lajak o'qituvchilarda kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqimizning yoshlarni kasbga e'tiqod qilishi, turli kasblarni egallashi jamiyat taraqqiyoti tarixida turli davrlarda muqaddas an'anaga aylanib borgan. Mutafakkirlar, allomalar, ahli donishmandlar, nazariyotchi va ta'limotchilar, olimlar tomonidan bu sohada turli mavzularda tadqiqot ishlari va kuzatishlar olib borilgan, ular o'z fikr va mulohazalarini o'z asarlarida bayon etganlar.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotni olib borish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga bo'lgan ishonchini rivojlantirish va ularni o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni o'rganildi. U respublikamizda yashab ijod qilayotgan olimlarning tajribalari, xalq pedagogikasida yerishilgan yutuqlar, urf-odatlar, an'analar, hozirgi zamon yoshlarining ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq nazariy va ma'rifiy pedagogik tadqiqotlar asosida olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абу Абдуллох ибн Исмоил ал-Бухорий. "Хадис. Ал-Жомий ас-Сахих". 1 жилдлар. – Т.: Қомуслар бош тахририяти. 1992-1997.

2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 330 б.

3. Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 314 б.

4. А. Дистервег. Избранные педагогические сочинения. – М.: Учпедгиз,



1956. – 374 с.

5. Гулчехра Наврўзова. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент: Фан, 2021. – 244 б.

6. Ф.Х. Рамазонова. Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маданияти ва уни ривожлантириш масаллари. Тюркоязычные страны //Республиканский научно-методический и познавательный журнал. – Казакстан: 2020, № 4(36). – Б.8-9.

7. Ф.Х. Рамазонова. Бўлажак ўқитувчиларда касбий этикодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида. // Педагогик маҳорат. 2021 йил июн, Махсус сон. – Б.113-114 ISSN 2181-6833

8. Ф.Х. Рамазонова. Бўлажак ўқитувчиларнинг этикоди ва уни тарбиялаш масаллари. Тюркоязычные страны //Республиканский научно-методический и познавательный журнал. – Казакстан: 2021, № 3(39). – Б.11-13.

9. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. –Т.: 1960.

10. М.Н. Скаткин. Методика преподавания естествознания в начальной школе. – М., 1952.

11. Л.Н. Селиванова. Педагогические взгляды С. Л. Рубинштейна. / Дисс. на соиск. уч. степени кандидат пед. наук. – М.: 1998. – 182 с.

12. Н.А.Муслимов. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.

13. П.Г. Булгаков, Б.А. Розенфельд, А.А. Ахмедов. Мухаммад ал-Хорезми. – М.: Наука, 1983. - 240 с.

14. Саъдий Шерозий. Гулистон. Бўстон. – Тошкент: Фафур Гулом нашриёти, 2021. – 264 б.

15. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Билим саодати). – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2019. – 634 б.

ФОРМИРОВАНИЕ АКМЕ - ЛИЧНОСТИ

*Мунарова Раъно Усаровна,
старший преподаватель Джизакский филиал
Национального Университета Узбекистана и ДжГПУ*

*Мажидова Тулганой Усмон кизи,
магистр 2 курса факультета Педагогика и психология ДжГПУ*

Аннотация: В статье речь идёт о формировании человека нового поколения акме-личности. Даются рекомендации в решении этих актуальных задач.

Ключевые слова: акмеология, самодвижение, самосовершенствование, самореализация, творческий потенциал, проблема рефлексия, личностно-профессиональный рост.

FORMATION OF AN ACME PERSONALITY

*Munarova Raino Usarovna,
Senior lecturer Jizzakh branch
National University of Uzbekistan and JSPU*

*Mazhidova Tulganoy Usmon kizi,
2nd year Master of the Faculty of Pedagogy and Psychology of JSPU*

Abstract: The article deals with the formation of a person of a new generation - an acme- personality. Recommendations are given in solving these urgent tasks.

Keywords: acmeology, self-movement, self-improvement, self-realization, creative potential, problem reflection, personal and professional growth.

АКМЕ ШАХСИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

*Мунарова Раъно Усаровна,
Ўзбекистон миллий университети Жиззах филиали катта ўқитувчиси*

*Мажидова Тулганой Усмон қизи,
ЖДПУ Педагогика ва психология факултети 2-курс магистри*

Аннотация: мақолада акме-шахснинг янги авлодини шакллантириши ҳақида сўз боради. Ушбу долзарб муаммоларни ҳал қилишида тавсиялар берилади.

Калит сўзлар: акмеология, ўз-ўзини ҳаракатлантириши, ўз-ўзини такомиллаштириши, ўз-ўзини англаш, ижодий салоҳият, муаммоларни акс эттириши, шахсий ва касбий ўсиши.

Идея воспитания совершенной личности имеет давнюю традицию. Она нашла свое отражение в произведениях таких великих мыслителей, как Беруни, Аль Фараби, Ибн Сина, А. Навои.

Идеи воспитания готовности к самосовершенствованию, творческой самореализации, высказанные в античности, в средневековье и в эпоху просвещения, получают свое дальнейшее развитие в трудах философов, педагогов и психологов более позднего периода.

Проблемы человека, его самодвижение, самосовершенствование, самореализация, выяснения отношения человека к самому себе, к себе подобным, к обществу в целом, к природе, к Богу. Изучение, человека неотделимо от изучения всего комплекса связей человека и мира. Данная проблема прослеживалась ещё учеными Средней Азии. В учениях мыслителей Средней Азии, который дал миру таких людей, как Беруни, Ибн-Сина, Омар Хайям, Фараби,

Аль-Фергани, Навои, Улугбек, Мукуми, Фуркат, Махтумкули - были глубоко убеждены в том, что наука, научные знания способствуют развитию лучших нравственных качеств ученых, которые в конечном итоге ведут к духовному совершенству, к развитию таких компонентов этой сферы, как интеллект, разум, сознание, мышление психика, нравственность, воля и т.д.

Проблемы соотношения знания и нравственности ставились в философском учении Фароби. Вопросы нравственности он тесно связывает с интеллектуальными качествами человека, с его разумностью, и поэтому рассматриваемые им этические категории воплощают в себе не только определенные нормы и правила нравственных отношений, но и в некоторой степени результаты разумной деятельности людей в течение всей истории их существования. В книге «Указание пути к счастью» Фароби пишет: «Хороший нрав и сила ума, оба вместе, являются человеческим достоинством в том смысле, что добродетель каждой вещи состоит в превосходстве и совершенстве в ней самой и ее действиях»

Абу Наср ал-Фароби великий мыслитель, философ Средней Азии, своим умением вести диалоги с учениками, давал прекрасный образец стимулирования работы мысли, включения в дискуссию, тем самым формируя умение производить самокоррекцию. Продуманными вопросами Фароби инициировал в своем собеседнике интеллектуальную активность, заставлял за внешней легкостью вопроса увидеть его глубинную суть и подвести к самостоятельному решению о правоте своих суждений.

Свое концептуальное выражение идея взаимосвязи знания и гуманизма находит у Ибн Сина. Мысль о единстве человеческого разума, его высоких нравственно-гуманистических качествах нашла свое яркое отражение в ней и выступает как четко выраженный этико-гносеологический феномен. Так, мудрость, по Ибн Сина, это основа и источник не только получения человеческого знания, но и нравственных отношений между людьми. Концепция, разработанная Ибн Синой, сводится к тому, что знание, пути постижения сути, природы вещей не являются самоцелью. Значимость знания определяется его местом и ролью в нравственном совершенствовании личности и общества в целом.

Великий писатель-гуманист Алишер Навои, занимаясь проблемой нравственности, чистоты души человека, говорил об особой роли учителя, продуктивности его труда, постоянном самосовершенствовании: «Только тогда работа каждого учителя будет высокорезультативной, а место учителя самым лучшим местом под солнцем, когда он будет неустанно трудиться над собой».

Человек не может жить вне общества, вдали от людей. «Общество является местом, домом событий. Никто не может быть вне его, не может быть независимым от его событий».

Характеризуя подростковый и юношеский возраст, Алишер Навои писал: «После детства наступает юношество — период формирования разума. В этот период жизни человеком овладевает или разум, или страсть. Если разум победит, он будет руководить благородными делами».

По мнению Навои, цель воспитания — подготовить подрастающих поколений хорошо образованными, овладевшими лучшими человеческими качествами и борющимися за счастье народа. Он призывал молодежь к изучению наук и развитию разума. Ум - одно из основных качеств человека. Человеку необходимо овладеть наукой и ремеслом и постоянно совершенствоваться в них. «Знание и мудрость — украшение человека» Поэт мечтал о разностроннем развитии человека, о воплощении в нём лучших человеческих качеств.

В числе лучших качеств благородного человека — вежливость, хорошее поведение и скромность. Первая обязанность человека — искренне уважать своих родителей. Надо уважать старших и быть внимательным, предупредительным

и милосердным к младшим и слабым. «Скромность — якорь корабля человека в мире превратностей», - писал Навои, резко осуждая подхалимство, подлость, трусость, невежество, угодничество, раболепие, двуличие, хвастовство, чванливость. «Чванливый человек — шайтан, возвеличение себя — дело глупого человека».

Абдулла Авлони, мечтавший о социальном преобразовании общества путем развития истинно человеческих сил, пропагандировал идею разностороннего и гармоничного воспитания, согласующегося с природой самого учащегося. Настаивая на неразрывности обучения и воспитания, он ввел в педагогику понятие «воспитывающее обучение», совмещающее умственное образование с воспитанием определенных качеств личности, способствующих дальнейшему нравственному и профессиональному становлению человека.

Акмеология - новая междисциплинарная наука о «человеке развивающемся», о закономерностях, обеспечивающих оптимальное раскрытие творческих возможностей личности, достижение вершин социального успеха и профессионального мастерства. Акмеология изучает развитие личности под влиянием самоопределения, жизненного опыта, социального окружения и образования, создает условия для личностного роста человека.

Акмеология (греч. акме - пик, вершина, высшая степень достижения точка, острие, расцвет, зрелость, лучшая пора и логия - от греческого logos -учение), наука изучающая феноменологию, закономерности и механизмы развития человека на ступени его профессиональной зрелости (30-5- лет) и при достижении им наиболее высокого уровня в этом развитии - акме.

Важной задачей акмеологии является выяснение того, что должно быть сформировано у человека на каждом возрастном этапе в детстве и юности, чтобы он смог успешно реализовать свой потенциал на ступени зрелости.

Понятие акмеология было введено в 1928 г. психологом Н.А. Рыбниковым, как учебная дисциплина была внедрена в учебный процесс вузов в 1993 г. Возникновение, становление развитие акмеологии непосредственно связано с именами многих выдающихся российских ученых А.А.Дергача, Н.В. Кузьминой, А.А. Бодалева и др. На начальном пути своего становления акмеология изучает профессионализм деятельности учителей. Со временем в акмеологическом знании наметилась естественная тенденция к дифференциации. Появились новые самостоятельные научные направления - педагогическая акмеология, военная акмеология, акмеология деятельности в особых и экстремальных условиях, управленческая акмеология. В стадии формирования находятся юридическая, медицинская, социальная, экономическая и педагогическая акмеология.

Акмеология возникла не на пустом месте. Ее мировоззренческие идеи о совершенствовании человека, полноте его самореализации в жизни и деятельности, его творческой сущности исторически древни.

Самореализация творческого потенциала предполагает самопознание ими рефлексию. Как особая проблема рефлексия стала предметом обсуждения еще в древнегреческой философии. У Платона и Аристотеля мышление и рефлексия толкуются как атрибуты, изначально присущие демиургу, божественному разуму, в котором обнаруживается единство мыслящего и мысли.

Подобная трактовка рефлексии перешла через неоплатонизм в средневековую философию, где рефлексия трактовалась как отраженная в логос миротворческая активность божества.

Понятие самореализации творческого потенциала, центральное в акмеологии, тесно связано с понятием самодвижения, вернее включает в себя последнее. Оно введено еще Платоном в «Федре». Разработку трехчастного строения души Платон дополняет учением о самодвижении души. Три начала

единой души рассмотрены им в динамике. Показана возможность преобладания того или иного начала, дана иерархия различных типов души (души богов; девять градаций человеческой души (мудреца, царя, практического деятеля, врачевателя тел, прорицателя, поэта или художника, ремесленника, софиста, тирана); души животных).

В философской мысли Средней Азии знание является мотивом к действию, индивидуализирующему субъект. Интерес к знанию научному, светскому, ведущая роль разума как в интеллектуально-образовательной, так и в религиозно-этической деятельности, социально-политическая, культурная среда в целом, детерминировали развитие науки на Востоке IX-XV вв.

На современном этапе акмеологическое понятие о самореализации творческого потенциала личности связано с работами и идеями российских ученых А.А.Дергача, Н.В. Кузьминой, А.А. Бодалева и т.д. В Узбекистане вопросу акмеологического понятия о самореализации творческого потенциала личности посвящены Международные и Республиканские научно-практические конференции. Среди публикаций по вопросам акмеологии привлекают внимание исследования проф. Ф.Р. Кадырова, Д.Иматуллаева, Н.Эгамбердиевой, И.Г. Ревес, З. Ахмедовой и т.д.

Анализ трудов по акмеологии позволил определить:

- объект акмеологии - профессионализм педагогической, инженерной, медицинской, военной, спортивной и др. деятельности людей;

- предмет акмеологии - объективные (качество воспитания и образования, полученные человеком) и субъективные (талант, способности человека) факторы, содействующие достижению вершин профессионализма, а также закономерности в организации обучения специалистов;

Цель акмеологии - разработка научных и методических основ повышения эффективности профессиональной подготовки специалистов, развития их творческого потенциала, формирования психологической готовности решения сложных и многообразных задач в условиях реформирования общества в целом и отдельных его сфер;

Задачи акмеологии

1. Актуализация личностно-профессионального роста человека в послевузовский период.

2. Теоретическое и практическое обоснование комплекса средств, позволяющих обеспечить эффективную реализацию профессионального роста личности.

3. Разработка методического инструментария, помогающего организовать условия для оптимального достижения людьми ступеней профессионализма.

Акмеология исследует проблемы противоречий между растущим объемом информации, с одной стороны, и временем, необходимыми для ее овладения - с другой. Акмеология выявляет общие и различные черты, проявляющиеся у людей в процессе их деятельности, а также исследует факторы, которые определяют качественные и количественные характеристики «акме». Нравственная воспитанность профессионала означает превращение общечеловеческих ценностей в его собственные ценности. Акмеология изучает также проблему зависимости между особенностями профессионализма человека и его поведением вне сферы профессиональной деятельности.

Акмеология развивалась как наука, пройдя ряд этапов:

- masalaning nazariy asoslarini belgilab olish va muammolarning ilmiy yechishini topish;

- muammolar yechimini amaliyot bilan bog'lash;
- ta'lim-tarbiya jarayonida jamoatchilikning keng ishtirok etishi.

Bu xususiyatlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni klaster tizimi asosida o'qitish va tarbiyalash yo'nalishlariga mos ravishda tayyorlashni taqozo etadi. Shu sababli Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muammolari fundamental tarzda o'rganilmoqda. Uning dastlabki natijalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligiga amal qilish;
- klaster usulida o'qitishning muammolarini tatqiqi etish va maqbul yechimlar

topish;

- klaster usulida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining samarasini amaliy jihatdan baholab borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida bo'lajak pedagoglarni "intellektual va ma'naviy salohiyatli yangi avlod kadrlari etib tayyorlash" vazifasi qo'yilgan. Bu vazifaning ijrosi jarayonida bizning jamoa tomonidan "Maktab-laboratoriya" loyihasi amalga oshirilmoqda. Unda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor berilayotganligini eslatib o'tish joiz:

- imkon qadar mashg'ulotlarni klaster usulida o'tish;
- klaster usuli vositasida o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholab borish;
- bo'lajak o'qituvchilarning va ta'lim ishtirokchilarining faolligini oshirish.

Xulosa va munozara. O'qitishning klaster usulida ochiqlik, oshkoralik va samaraga intilish metodlari birlamchi hisoblanadi. Unga ko'ra, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida hamkorlik asoslari birlamchi bo'ladi. O'qituvchi nazariy

va amaliy ko'nikmalarni berish bilan cheklanmaydi, aksincha, o'quvchining amaliy o'zlashtirganlik darajasini o'rganib boradi. Shu sababli o'qitishning klaster usulida ta'lim ishtirokchilarining vazifalari aniq bo'ladi. Bunda o'qituvchi muvofiq lashtiruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini ham bajaradi.

Mamlakatimizda o'qitishning klaster usuli bo'yicha ilk tajribalar amalga oshirilmoqda. Buning uchun keng ko'lamli tadqiqotlar ishlarini fanlar kesimida amalga oshirish taqozo etilmoqda. Shu sababli professor-o'qituvchilar va mutaxassislarining ilmiy hamkorligi asosida o'qitishning samarasi belgilanishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva B.P., Abdullayev F. Organization Of Swimming Lessons In Preschool Institutions. The american journal of social science and education innovations. July 2020 pp.322-330. Volume 02, Issue 07-42

2. Jabborova Onahon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. International journal of pssycological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.

3. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.

4. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.

5. Jabborova Onaxon Mannapovna, Umarova Zuhra Abduraxmanovna. Pedagogical conflicts in primary school students - as an important social-pedagogical problem. Solid State Technology, Great Britain, 2020, Issue 6, pp.235-241.

6. Karimjonov Alijan, Jabborova Onaxon Mannapovna. Improvement of cluster training system. Academicia An international multidisciplinary research journal, Kurukshetra (India), 2020, Issue 10, pp. 584-589.

7. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitel'nogo isskustva v nachal'noy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862- 870.

8. Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, Xujamqulov Umid Negmatovich, Botirova Shaxlo isomiddinovna, Shermatova Umida Safaevna. The end to educate young people with the spirit of patriotism in the context of globalization. Journal of Critical Reviews, Malaysia, 2020, Vol.7, Issue 12, pp 166-169.

9. Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, Quttibekova Guljan Tulepbaevna. Structure and Mechanisms of Action of The Educational Cluster. International journal of Psychosocial Rehabilitation, United Kingdom, 2020, Issue 07, pp. 8104-8111.

10. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitel'nogo isskustva v nachal'noy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862- 870.

11. Musurmonov Raxmatulla, Musurmanova Maluda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 777-783.

12. Muxamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif.-Chirchiq., 2019.

13. Tojiboeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209-215.

14. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных Систем.// Материалы по международного образовательного форума. Белгород.: Изд. БелГУ. Схаст 1. –С. 24-29

TALABALARDA TADBIRKORLIK KOMPYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

*Pirniyazova Malika Kenesbayevna,
Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Postindustrial mamlakatlar hayotida tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Kichik hamda o'rta biznesga asoslangan tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyot "drayveri" sifatida ushbu mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan birlari sifatida qaraladi. Shu bois o'rta ta'lim bosqichidayoq shaxsda tadbirkorlikning asosini belgilovchi kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi xorij tajribalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit suzlar: OTM, talabalar, tadbirkorlik, kompetensiya, tadbirkorlik kompetensiyalari, tadbirkorlik ta'limi, tajriba, xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlik ta'limi tajribasi.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ВОЗРОЖДЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

*Пирниязова Малика Кенесбаевна,
Соискатель ТГПУ имени Низами*

Аннотация: Предпринимательство играет важную роль в жизни постиндустриальных стран. Предпринимательство на базе малого и среднего бизнеса как «драйвер» общественного развития рассматривается как один из важных факторов обеспечения социального развития этих стран. Поэтому на этапе среднего образования особое внимание уделяется развитию компетенций, определяющих основу предпринимательства. В статье рассказывается о зарубежном опыте развития предпринимательских компетенций у студентов.

Ключевые слова: вуз, студенты, предпринимательство, компетенция, предпринимательские компетенции, предпринимательское образование, опыт, опыт предпринимательского образования зарубежных стран.

FOREIGN EXPERIENCES OF DEVELOPING ENTREPRENEURIAL COMPETENCIES IN STUDENTS

*Pirniyazova Malika Kenesbaevna,
Researcher of TSPU named after Nizami*

Annotasion: Entrepreneurship plays an important role in the life of post-industrial countries. Entrepreneurship based on small and medium-sized businesses as a «driver» of social development is considered as one of the important factors in ensuring the social development of these countries. Therefore, at the stage of secondary education, special attention is paid to the development of competencies that determine the basis of entrepreneurship. The article talks about foreign experience in developing entrepreneurial competencies of students.

Keywords: university, students, entrepreneurship, competence, entrepreneurial competencies, entrepreneurial education, experience, experience of entrepreneurial education in foreign countries.

Tadbirkorlik zamonaviy jamiyat infrastrukturasi muhim tarkibiy elementi sanaladi. Shu bois bugungi kunda bozor munosabatlari asoslangan har bir jamiyatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ahamiyatli yo'nalishi sifatida e'tirof etmoqda.

Tadbirkorlik o'zida bir qator ijtimoiy ahamiyatli jihatlarni namoyon qiladi. U, eng

avvalo, ijtimoiy faoliyat turi, inson kapitalining o'ziga xos ko'rinishi, shaxsning o'z-o'zini band qilish shakli, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, qolaversa, madaniy jihatdan rivojlanishiga hissa qo'shadigan soha. Tegishli yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borgan R.R.Zamaletdinova tadbirkorlikning jamiyat hamda shaxs uchun ahamiyatini yoritir ekan, quyidagilarni qo'shimcha qiladi: tadbirkorlik inson kapitalining sifati, muayyan jamiyatda qaror topgan iqtisodiy erkinlik darajasi, amaliyotga tatbiq qilinayotgan innovatsiyalarning in'ikosidir [1, s. 20].

Biznes sub'ektlariga egalik bo'yicha AQSh dunyoda yetakchilik qiladi. 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra AQSh bo'yicha 20 mln.ga yaqin biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatadi. Bu turdagi biznes sub'ektlariga egalik bo'yicha AQShdan keyingi o'rnlarni Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya mamlakatlari egallagan. Qayd etilgan yilda Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlarda jami 23 mln biznes sub'ektlari mavjud bo'lib, ularning 4 mln.nini kichik va o'rta biznes ishtirokchilari tashkil qiladi. 5 mln.ga yaqin biznes sub'ektlari esa Kanada, Avstraliya, Yangi Zellendiya, Osiyo (Yaponiyadan tashqari), Yaqin hamda O'rta Sharq, shuningdek, Afrika mamlakatlarining hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Hindiston, Albaniya, Braziliyada esa kichik biznes kambag'allik, ishsizlik kabi o'tkir ijtimoiy muammolarni kamaytirishga yordam beradigan hal qiluvchi omillar sanaladi [1, s. 20].

Tadbirkorlikning rivoji har bir jamiyat uchun ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga egaligi sababli ko'plab mamlakatlarda so'nggi chorak asrdan ko'proq vaqt mobaynida bu yo'nalishda nafaqat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish masalalari balki uni rivojlantirish yo'lida to'siq bo'layotgan mavjud muammolarni tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

A.Yu.Chepurenkoning qayd qilishicha, tadbirkorlik borasida ilmiy izlanishlarni amalga oshirish XX asrning 80-yillarida iqtisodiy o'lchov, demografiya, ijtimoiy psixologiya, tashkillashtirish nazariyasi, strategik menejment, sotsiologiya fanlarining konsolidatsiyasi (o'zaro birlashuvi) orqali ularning kesimida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va ommalashtirish maqsadida jahon miqyosida o'nlab ilmiy jurnallarning chop etilishi yo'lga qo'yildi. Ular orasida yuqori darajadagi impakt-faktorli jurnallarning borligi, shu bilan birga o'zida yuzlab tajribali, malakali tadqiqotchilarni jamlagan holda har yili Bebson kollej (AQSh) va RENT – Yevropa konferensiyalarining tashkil etilishi, XX asrning 90-yillarining oxiridan boshlab, tadbirkorlik va kichik biznes sohalaridagi muvaffaqiyatli tadqiqotlar uchun joriy qilingan xalqaro mukofotning 2015 yillardan boshlab, “global” maqomiga erishishi, yirik xalqaro loyihalar – “Tadbirkorlik dinamikasining ochiq tadqiqoti” (PSEDI), “Tadbirkorlikning global monitoringi” (GEM) kabilarning muvaffaqiyatli tashkil etilgani soha tadqiqotlarining metodologik, ilmiy, amaliy ahamiyati, ko'lamidan dalolat beradi [2].

Barcha postindustrial mamlakatlarda, shu jumladan, AQShda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beruvchi ta'lim kichik kollejlarda, ya'ni, turli mintaqalarda joylashgan kollejlarda amalga oshiriladi. Ikki yillik ta'limga asoslangan mazkur kollejlarni muvaffaqiyatli tamomlangan o'quvchilar yanada kengroq ta'lim imkoniyatlariga ega to'rt yillik kollejlarda (OTM)ning uchinchi kursida o'qishni davom ettirish yoki “Tadbirkorlar kursi”da tahsil olish huquqiga ega bo'ladi. “Tadbirkorlar kursi” mamlakatning turli mintaqasida mavjud bo'lib, tadbirkorlarni, ular tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadini ko'zlaydi. “Biznes inkubatorlari” deb nomlanuvchi ushbu kollejlarda o'quvchilar biznes loyiha (startap)larni tayyorlash va uni moliyalashtirish uchun banklarga murojaat qilish, imtiyozli kreditlarni olish tartibi, tadbirkorning zimmasidagi majburiyatlar, tadbirkorlik sub'ektining davlat tomonidani qo'llab-quvvatlanishiga oid bilimlarni o'zlashtiradi.

AQShda tadbirkorlik faoliyatining asoslariga oid bilimlar umumiy o'rta ta'lim

maktablarida menejmentning turli yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlariga muvofiq o'qitiladi, Har bir o'quv dasturi o'quvchilar oldiga o'quv dasturini o'zlashtirish borasida qat'iy talablarni qo'yadi. Ana shunday qat'iy talablar sirasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni rejalashtirayotgan o'quvchilarning psixologik treninglarda ishtirok etishi ko'zda tutiladi.

Mamlakatda imkoniyati cheklangan yoshlar shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yuritilishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ana shu maqsadda bir qator jamg'armalar tashkil qilingan. Misol uchun, "Aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlarning tadbirkorlik ta'limi Milliy jamg'armasi" tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tegishli ijtimoiy toifa vakillarini ish bilan ta'minlash, ular tomonidan o'z-o'zini band qilishga erishishda kutilgan natijalarni bermoqda.

Barcha bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda bo'lgani kabi Buyuk Britaniyada ham yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirish maktab ta'limi davridayoq amalga oshiriladi. O'quvchilarning barchasi o'quv fanlarini o'zlashtirish bilan birga tadbirkorlikka asoslangan ishlab chiqarish amaliyoti hamda kasbiy ta'lim bilimlarini beruvchi o'quv kurslarida tahsil oladi. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikning kognitiv va empirik asoslari turli OTMning qoshida tashkil etilgan xususiy markazlar, u qadar katta bo'lmagan firmalar, doimiy amalda bo'lgan treninglar, "Maslahat uylari"da o'qitiladi.

Ayni o'rinda shuni aytib o'tish joizki, AQSh, Buyuk Britaniyada biznes ta'limi doirasida yoshlar tomonidan innovatsion madaniyat, intellektual mulkni boshqarish madaniyati asoslarining puxta o'zlashtirilishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

Kanadamamlakatidatadbirkorlik ta'limini tashkil qilishga mahalliy ishbiarmonlar, "Yoshlarning muvaffaqiyatlari" dasturini yaratuvchilari bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi. Mamlakatda faoliyat olib boruvchi ikki yillik kollejlarda o'quvchilar tadbirkorlik faoliyatining dastlabki asoslarini, to'rt yillik bakalavriat ta'limida esa ixtisoslik yo'nalishi sifatida biznesning turli sohalari, xususan, savdo, ma'muriy ish yuritish yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan tadbirkorlik faoliyatining umumiy asoslarini chuqur o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Yaponiyada tadbirkorlik ta'limining amaldagi modeli boshqa mamlakatlarning o'qitish tizimiga tadbiriq qilingan modellardan keskin farqlanadi. Ushbu modelga ko'ra tadbirkorlik ta'limi asoslari uch bosqichda, ya'ni, professional kollejlarda (1-bosqich), universitetlar (2-bosqich) hamda kadrlar malakasini oshirish tizimi yoki ish joylari (3-bosqich)da o'qitiladi. Quyi bosqichdan yuqori bosqichga tomon ro'y beradigan dinamik o'sish negizida osondan murakkabgacha bo'lgan bilimlar o'zlashtiradi. Ya'ni (1-jadval):

1-jadval

Xorijiy mamlakatlari tadbirkorlik ta'limining bosqichlari

Bosqichlar	Ta'lim muassasalari	Tadbirkorlik faoliyati asoslari
1-bosqich	Professional kollejlarda	Marketing asoslari, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishda AKTdan foydalanish, boshqaruv nazariyasining asoslari
2-bosqich	Universitet	Malakali kadrlarni tanlash va boshqarish
3-bosqich	Kadrlar malakasini oshirish tizimi (yoki ish joylari)	Strategik boshqaruv asoslari

Norvegiya, Vengriya, Bolgariya, Fransiya, Finlandiya va Germaniya kabi

mamlakatlarda ham tadbirkorlik ta'limi ko'p bosqichli o'qitish tizimi (maktab-kollej-universitet tizimi)ga muvofiq tashkil qilinadi. Vengriyada mazkur yo'nalishdagi o'qitish 14 yoshli o'quvchilarni o'ziga qamrab oladigan Iqtisodiyot o'rta maxsus maktablarda amalga oshiriladi. Mazkur maktablar qoshida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga asoslangan firmalar mavjud bo'lib, o'quvchilar o'zlari tayyorlagan mahsulotlarni realizatsiya qilish, shaxsiy imkoniyatlariga tayangan holda turli xizmatlarni ko'rsatadi. Bolgariyada esa o'quvchilar tadbirkorlik faoliyatiga ularni maxsus gimnaziyalarga iqtisodiyot va mnejment, bank ishi, firmalarni boshqarish fanlari bo'yicha testlar orqali jalb qilinadi. Germaniyada davlat va tadbirkorlar o'rtasida o'zaro hamkorlik qaror toptirilgan bo'lib, o'quv muassasalarida tashkil qilinadigan tadbirkorlik ta'limi mamlakatning yetakchi ishbilarmonlari tomonidan nazorat qilinadi. Hamkorlik tegishli sohada strategik yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi va shu asosida kelgusi rivojlanish uchun kasbiy ta'limning umumiy asoslari aniqlanadi.

Yuqorida nomlari qayd qilingan mamlakatlar tadbirkorlik ta'limi

uchun xarakterli bo'lgan umumiy jihatlar quyidagilardir: tadbirkorlik ta'limi yoshlarni kasbga yo'naltirish hamda ular tomonidan kasbiy va umumiy bilimlarni o'zlashtirilishi bilan o'zaro uyg'unlikda olib boriladi; tegishli yo'nalishda o'qitish ishi ko'p bosqichli bo'lib, bosqichlar o'rtasida izchillik, uzviylik va tizimlilikning bo'lishi qat'iy belgilangan; tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlash maktab-kollej-universitet yoki kollej-universitet-malaka oshirish tizimlari asosida tashkil qilinadi; o'qitish mamlakatlar yetakchi ishbilarmonlarining faol ishtiroki yoki nazoratida olib boriladi; aksariyat ta'lim muassasalari qoshida ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga asoslangan firmalar mavjud bo'lib, nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiqi ta'minlanadi; ta'lim muassasalari qoshida firmalarning tashkil qilinishi uchun alohida, masalan, soliq imtiyozlari beriladi hamda yoshlar tadbirkorligi turli jamg'armalar tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi; o'quv muassasalari tadbirkorlik yo'nalishlarini tanlashda mehnatning ijtimoiy hamda tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini inobat oladi; o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda iqtisodiy tafakkur, umumiy madaniyat, kommunikativlik, intellektual qobiliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Chorak asrdan ko'proq vaqt ichida RFda Rossiya biznes-ta'lim asotsiatsiyasi (RABO) tomonidan soha faoliyatiga qo'yilgan talablarga javob bera oladigan biznes-ta'lim tizimi shakllandi [2]. V.A.Vandyshvning ko'rsatishicha, Rossiya FRda kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun kadrlarni tayyorlash tizimi quyidagi infratuzilma [3, s. 37]ga ega (2-jadval):

2-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun kadrlarni tayyorlash infratuzilmasi (Rossiya FR)

№	Xarakterli jhati	Muassasalar va ta'limiy xizmat turlari
1.	Ta'lim faoliyatini olib boruvchi muassasalar	Davlat/nodavlat ta'lim muassasalari; jamoatchilik nazoratiga asoslangan biznes-assotsiatsiyalar; ijtimoiy-ishbilarmonlik markazlari; o'quv-ishbilarmonlik markazlari; innovatsion-texnologik markazlar; biznes-inkubatorlar; biznes-maktablar; biznes-markazlar; texnoparklar
2.	Ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining turlari	Tadbirkorlar va kichik tadbirkorlik bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakalarini oshirish tizimi; ta'lim xizmatlarini axborot bilan ta'minlash; konsalting xizmatlari; professional ta'limni o'quv-metodik qo'llab-quvvatlash; professional ta'limning marketing tizimi; professional ta'lim tashkilotchilarini tayyorlash

Shunday qilib, postindustrial mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy elementi sanaladi. Shu bois ta'lim muassasalarida yoshlarni aholini ish bilan ta'minlash, fuqarolarning o'z-o'zini band qilishda alohida ahamiyatli bo'lgan tadbirkorlik faoliyati asoslari bilan tanishtirish ta'lim dasturiga kiritilgan. Xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlik ta'limi borasidagi tajribasi yoshlarning ko'p bosqichli jarayonda tizimli ravishda tadbirkorlik asoslarini puxta o'zlashtirishi ular tomonidan zamonaviy munosabatlarga tezkor, samarali moslashish, ijtimoiy faollikka erishish, iqtisodiy ehtiyojlarni mustaqil qondirish kompetensiyalarini o'zlashtirishda samarali ekanidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamaletdinova R.R. Малы́й бизне́с в за́рубежных страна́х // *J. Vestnik nauki.* – M.: 2020. -№5 (26). Т. 4. – S. 20.

2. Chepurenkо A.Yu. Predprinimatelstvo kak sfera sotsialnykh issledovaniy: Rossiya i mejdunarodnyy opyt // https://www.researchgate.net/publication/282847838_Predprinimatelstvo_kak_sfera_socialnyh_issledovaniy_rossia_i_mezdunarodnyj_opyt.

3. Shayxutdinova G.F., Oxotnikova L.V. Zarubejnyy opyt podgotovki predprinimateley // *J. Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta.* – Irkutsk: 2014. - № 1. – S. 37.

“UNIVERSAL KOMPYETENSIYALAR” TUSHUNCHASINING NAZARIY TAVSIFI VA PYEDAGOGIK AHAMIYATI

*Saydaliyeva Farzona O'tkir qizi,
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ijtimoiy va ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi mutaxassislarining malakasiga nisbatan yangi talablar qo'yilishiga olib kelmoqda. Binobarin, zamonaviy sharoitda har bir mutaxassis nafaqat o'z sohasiga aloqador bilimlarni puxta o'zlashtira olishi, shu bilan birga faoliyat jarayonining samaradorligini kafolatlovchi sifatlar – kompetensiyalarga ham ega bo'la olishi zarur. Qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalar majmui “universal kompetensiyalar” deb nomlanadi. Universal kompetensiyalarga ega bo'lish bo'lajak o'qituvchilar uchun qanchalik ahamiyatga ega? Maqolada ana shu xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tayanch kompetensiya, asosiy kompetensiya, universal kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentli.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОНЯТИЯ «УНИВЕРСАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ»

*Сайдалиева Фарзона Уткир кизи,
Стажер-исследователь ТГПУ имени Низами*

Аннотация. Стремительное развитие социальных и производственных технологий приводит к новым требованиям к квалификации специалистов. Поэтому в современных условиях каждому специалисту необходимо не только уметь владеть знаниями, относящимися к его области, но и обладать качествами - компетенциями, гарантирующими эффективность процесса деятельности. Совокупность компетенций, которыми должны овладеть специалисты вне зависимости от сферы их деятельности, называется “универсальными компетенциями”. Насколько важно приобретение универсальных компетенций для будущих учителей? В статье речь идёт об этом.

Ключевые слова: компетенция, ключевая компетенция, базовая компетенция, универсальные компетенции, компетентность, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность.

THE CONCEPT OF «UNIVERSAL COMPETENCES». THEORETICAL DESCRIPTION AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

*Saydaliyeva Farzona O'tkir qizi,
Intern-researcher of TSPU named after Nizami.*

Annotasion: The rapid development of social and production technologies leads to new requirements for the qualifications of specialists. Therefore, in modern conditions, each specialist needs not only to be able to possess knowledge related to his field, but also to possess qualities - competencies that guarantee the effectiveness of the activity process. The set of competencies that specialists must master, regardless of their field of activity, is called “universal competencies”. How important is the acquisition of universal competencies for future teachers? The article is about the aforementioned issues.

Key words: competence, key competence, basic competence, universal competence, universal competences, competence, professional competence, pedagogical competence.

Mavjud ilmiy adabiyotlar hamda tadqiqotlarning mazmunini o'rganish

“kompetensiya” tushunchasining dastlab psixologiyada Deniel Kats tomonidan 1955 yilda qo'llanilgani ma'lum bo'ladi. Mazkur tushuncha pedagogikada 1957 yil [10, p. 206] da ilk marta qo'llanilgan.

Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, “kompetensiya” (“competo”) tushunchasi lotin tilidan tarjima qilinganda “erishyapman”, “munosibman”, “loyiqman” degan ma'nolarni anglatadi. Nazariy tavsifiga ko'ra esa kompetensiya: 1) mutaxassis tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan bilimlar doirasi bo'lib, u yaxshi o'zlashtirgan ko'nikma, malaka va tajriba negiziga tayanadi hamda o'z navbatida tegishli faoliyatni amalga oshirish yoki qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyati [11]; 2) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba[7]; xodimning kasbiy faoliyatda bilimlar, ko'nikmalar, mahorat va tajribani qo'llash qobiliyati [1].

Deniel Kats mutaxassis faoliyatida yuqori samaradorlikni ta'minlovchi omillarni tadqiq etar ekan, aynan kompensiyaga egalik kasbiy samaradorlikka erishishda kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi, degan xulosaga kelgan. Muallifning fikriga ko'ra, XX asrning 50-60-yillarida sanoatlashish, industrial vaziyat, xodimning texnik qurilmalar bilan ishlay olish talabi, ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmuni barcha sohalarning mutaxassislarida funksional, boshqaruv, kommunikativ hamda konseptual kompetensiyalarning namoyon bo'lishini taqozo etadi. Deniel Kats qayd etilgan kompetensiyalar negizida muayyan bilim va malakalar aks etishi, zarur deb hisoblagan. Chunonchi (1-jadval):

1-jadval

Mutaxassislar tomonidan o'zlashtiriladigan kompetensiyalar (Deniel Kats g'oyasiga ko'ra)

№	Turlari	Ularda aks etadigan bilim va malakalar
1.	Funksional kompetensiya	Muayyan ishni bajarish uchun taqozo qilinadigan texnik ekspertizaga taalluqli bo'lgan bilim va malakalar
2.	Boshqaruv kompetensiyasi	Resurslarni rejalashtirish, tashkil qilish va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar
3.	Kommunikativ kompetensiya	Atrofdagilar bilan o'zaro munosabatni tashkil qilish uchun taqozo qilinadigan bilim va malakalar
4.	Konseptual kompetensiya	Mavhumlik darajasidagi g'oyalarga muvofiq faoliyatni rejalashtirish va mushohada yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar

XX asrning 70-yillarida Germaniyaning Mehnat bozori va kasbiy tadqiqotlar instituti (Institut für Arbeitsmarkt-und Berufsforschung – IAB)

hamda Federal Mehnat byurosi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotnomada “tayanch kompetensiyalar” (yoki “tayanch malakalar”) tushunchasi ilk bora tilga olingan bo'lib, ular asosida kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi malakaviy talablar ishlab chiqildi. 1974 yilda nemis olimi Diter Mertens (Dieter Mertens) taraqqiyotning tezkor rivoji mehnat bozorida mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga nisbatan ehtiyojning yuzaga kelishini belgilovchi tezlikning oshib borishi sababli mazkur malakaviy talablar o'z qiymatini yo'qotadi, degan qarashni ilgari suradi. Muallif tobora jadallashayotgan ijtimoiy munosabatlar fonida malakaviy talablarning tezkor yangilanishi maqsadga muvofiq, deb topgan. Uning fikriga ko'ra, ta'lim amaliyotining bir tomonlama yo'naltirilishi, bo'lajak mutaxassislar sifatida talabalar tomonidan predmetlar bo'yicha tor va maxsus kasbiy ko'nikma hamda malakalarning o'zlashtirilishiga qo'yiladigan talabni inkor qilish pedagogik jihatdan to'g'ri yo'l sanaladi. Aksincha, talabalarda bir ixtisoslik doirasidan chiqqan holda

ahamiyatli kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekaniga urg'u beradi [13, s. 179].

Diter Mertens (Dieter Mertens) yuqori darajada industrial rivojlanish istiqbolini ko'ra olgan holda tezkor o'zgarishlar jarayonida mutaxassis yoki bo'lajak mutaxassislarning ular tomonidan qisqa muddatlarda yangilanadigan bilimlarni oson, hech bir qiyinchiliksiz o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlovchi kompetensiyalarga ega bo'lishi darkorligini anglagan. U bu kompetensiyalarni "tayanch kompetensiyalar" deb atagan va ular nafaqat kasbiy, balki nokasbiy xarakterga ham ega bo'lishi zarurligiga e'tiborni qaratgan. Bir so'z bilan aytganda, tayanch kompetensiyalar jamiyatning yuqori darajada sanoatlashuvi, qolaversa, bozor munosabatlari asosida rivojlanishi sharoitida mutaxassislarning tezkor o'zgarishlarga oson moslashishi uchun poydevor bo'lishi kerak. Shuningdek, garchi shaxs kasbiy faoliyatni to'xtatganida ham uning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi darkor [14, pp. 238-254].

I.A.Zimnyayaning yondashuviga ko'ra, tayanch kompetensiyalar – jamiyatning har bir a'zosi muvaffaqiyatli ravishda hayotiy va kasbiy o'sishga erishishi uchun o'zlashtirilishi zarur bo'lib, turli vaziyatlarda ijobiy samarani ta'minlay oladigan universal bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va xulq-atvor modeli hisoblanadi" [3, s. 36-37].

1992 yilda Yevropa Kengashining "Yevropada o'rta ta'lim" loyihasi [9, s. 7] da "universal kompetensiyalar" tushunchasi qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik ular tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Muqobil tushunchalar orasida "tayanch malakalar", "asosiy kompetensiyalar", "metapredmet (bir predmet doirasida bo'lmagan) kompetensiyalar", "XXI asr uchun ahamiyatli bo'lgan malakalar", "hayotiy kompetensiyalar" kabi variantlar ommalashgan. Misol uchun, universal kompetensiyalar akademik I.A.Zimnyayaning ishlarida "tayanch kompetensiyalar" (2003-2004 yy.) [4, s. 5], D.A.Maxotin, Yu.V.Frolovning tadqiqotlarida "asosiy kompetensiyalar" (2004 y.) [6, s. 21], "Oliy pedagogik ta'lim (OPT) bo'yicha federal-davlat ta'lim standartlari (FDTS)ni ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyalar" (Rossiya)da esa "umumiy kompetensiyalar", "Oliy pedagogik ta'lim (OPT) bo'yicha federal-davlat ta'lim standartlari (FDTS)" (Rossiya) [5, s. 19]da esa "universal kompetensiyalar" deya turlicha talqin etilgan.

Bizning fikrimizcha, tegishli kompetensiyalarning "universal" deya talqin qilinishi to'g'ridir. Binobarin, universallik faoliyat turi, yo'nalishi, maqsadi, uni amalga oshiruvchi shaxsning ijtimoiy maqomi, yosh darajasi, kasbiy yoki hayotiy tajribasidan qat'i nazar barcha ijtimoiy sub'ektlar uchun birdek taalluqli ekanini anglatadi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy bahslar yakunida esa "universal kompetensiyalar" tushunchasini til iste'moli uchun yagona kategoriya sifatida qabul qilish to'g'ridagi xulosaga kelingan. Shu bois manbalarda tayanch, asosiy, umumiy sifatleri bilan tilga olingan kompetensiyalar aynan universal kompetensiyalar ekanini aytib o'tish joiz.

Bo'lajak mutaxassislar, xususan, bo'lajak o'qituvchilarning universal kompetensiyalarga ega bo'lishi ularning mehnat borzorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli, talabgir mutaxassis bo'lishi, nufuzli ish o'rni bilan ta'minlanishi, vaziyat taqozosiga ko'ra kasbiy faoliyat yo'nalishini tezkor o'zgartirishi, yuqori xizmat lavozimlariga ko'tarilishi uchun zamin hozirlaydi.

Universal kompetensiyalar mohiyatida bo'lajak mutaxassisni tayyorlash jarayoniga nisbatan jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyoji, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda mutaxassis tomonidan tashkil qilingan kasbiy faoliyat darajasini belgilovchi mezonlar, attestatsiya davrida e'tirof qilingan sifat, kasbiy e'tirof namoyon bo'ladi. Bu turdagi kompetensiyalarga egalikning pedagog faoliyat uchun ahamiyati shundaki, o'qituvchi tezkor ijtimoiy o'zgarishlarga oson moslashadi, o'z ustida ishlash, kasbiy mahorat va kompetentligini oshirish yo'lida tinimsiz izlanadi, zarur axborotlarga qiyinchiliksiz ega bo'ladi,

ijtimoiy sub'ektlar bilan to'siqlarsiz muloqot qila oladi, ta'lim oluvchilar faoliyatini muammolarsiz boshqaradi, o'zining kasbiy faoliyati natijalarini to'g'ri baholaydi, istiqbol faoliyati yo'nalishini ijtimoiy talablarga muvofiq samarali belgilaydi.

Elektron manbalardan biri [12]da "universal kompetensiyalar" tushunchasi shunday ta'riflanadi: universal kompetensiyalar – shaxs sifatleri bo'lib, ular kasbiy faoliyatning barcha yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi. Manbada bildirilgan fikrda bir o'inda xatoga yo'l qo'yilgan. Ya'ni, "kasbiy faoliyatning barcha yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishning ta'minlanishi"ga universal kompetensiyalar yordamida emas, balki maxsus (kasbiy) kompetensiyalar tufayli erishiladi. Universal kompetensiyalar esa o'z mohiyatiga ko'ra, shaxs hayotining kasbiy va nokasbiy, boshqacha aytganda, shaxsiy jabhalarida ham uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam berishi zarur.

Manbada universal kompetensiyalar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: maqsadni qo'ya va ularga erishishni rejalashtirish kompetensiyasi; madaniy kompetensiya; kommunikabellik; tahlil qilish qobiliyati; liderlik sifatleri; loyihalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish malakalari va boshqalar [12].

V.V.Belkina, T.V.Makeyeva tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda

OTMda bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirilishi zarur bo'lgan universal kompetensiyalarni quyidagicha turlar [2]ga ajratadi (2-jadval):

2-jadval

Universal kompetensiyalarning turlari (V.V.Belkina, T.V.Makeyevaga ko'ra)

№	Turlari	Tegishli kompetensiyalar
1.	Mehnat bozorida mehnat faoliyati va mobil huloq-atvorni namoyon qilishga oid kompetensiyalar	Tizimli va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi; loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga samarali tatbiq qilish kompetensiyasi; jamoada ishlay olish va liderlik kompetensiyasi; kommunikativlik kompetensiyasi; turli milliy madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlik
2.	Shaxs hayotini tashkil etishda ahamiyatli bo'lgan kompetensiyalar	O'z-o'zini rivojlantirish; shaxsiy salomatlikni muhofaza qila olish
3.	Yer sharida hayot mavjudligi va davomiyligini saqlashga oid kompetensiya	Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlay olish kompetensiyasi

Bildirilgan fikrlarni shu tarzda umumlashtirish mumkin bo'ladi: universal kompetensiyalar shaxs hamda mutaxassisga xos sifatlardir. Ular shaxs (mutaxassis) ga nafaqat kasbiy, balki samarali hayot kechirish yo'lida amalga oshiriladigan kundalik faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yarata olishi zarur. Universal kompetensiyalar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy tendensiyalar keskin va tezkor o'zgarayotgan axborot, texnologik muhitda umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni yangi g'oyalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga har bir shaxsning individual kamol topishi, samarali hayot kechirishini ta'minlashi zarur.

Shunday qilib, yuqori darajadagi sanoatlashuv, global axborot va texnologik muhitda mutaxassislarning universal kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Binobarin, ushbu kompetensiyalar mutaxassislarning tezkor o'zgaruvchan vaziyatlarga moslasha olish hamda samarali faoliyat yuritishlariga yordam beradi. Universal kompetensiyalar har bir ijtimoiy sub'ektga nafaqat kasbiy,

shu bilan birga kundalik faoliyat samaradorligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot va elektron manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son (2020 yil 15 may) Qarori (2-ilova) // <https://lex.uz/docs/4814154>.

2. Belkina V.V., Makeyeva T.V. *Konsept universalnykh kompetensiy vysshego obrazovaniya* // J. Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik. – Yaroslavl: 2018 // <https://cyberleninka.ru/article/n/kontsept-universalnyh-kompetensiy-vysshego-obrazovaniya>.

3. Zimnyaya I.A. *Klyuchevye kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya* // J. Vyssheye obrazovaniye segodnya. – M.: 2002. - №5. – S. 36-37.

4. Zimnyaya, I.A. *Klyuchevye kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya*. – M.: Pedagogika, 2009. – S. 5.

5. Isayeva T.Ye. *Klassifikatsiya professionalno-lichnostnykh kompetensiy vuzovskogo prepodavatelya / V sb.: Trudy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy Internet-konf. “Prepodavatel vysshey shkoly v XXI veke”*. Sb.4. – Rostov na Donu: Rost. gos. un-t putey soobsheniya, 2007. – S. 19.

6. Maxotin, D.A., Pavlova, A.M. *Nazvaniye istochnika: Formirovaniye universalnykh kompetensiy studentov v usloviyax obrazovatelnoy sredy VUZa*. – Yekaterinburg, 2007. – S. 21.

7. *Kompetensiya* // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kompetensiya-uz>.

8. *Kompetensiya* // <https://sberuniversity.ru/edutech-club/glossary/932>.

9. *Obrazovaniye v Sovete Yevropy. Navyki i kvalifikatsii dlya jizni v demokratii*. – Parij: 2015. – C. 7.

10. Pankova T.V. *Sushnost, sodержaniye i struktura informatsionno-kommunikatsionnoy kompetentnosti studenta VUZa* // Nauchno-metod.elek.j. “Konsept”. – M.: 2013. – T. 4. – S. 206.

11. Petrov D. *Kompetensiya – eto oblast vashey otvetstvennosti, v kotoroy vy horosho osvedomleny (professionalnaya, kommunikativnaya i dr.)* // <https://ktonanovenkogo.ru/voprosy-i-otvety/kompetenciya-cto-ehto-takoe.html>.

12. *Universalnye kompetensii* // <https://mggu-sh.ru/universalnye-kompetensii>.

13. Cherkashin S.V. *Formirovaniye klyuchevykh kompetensiy kak odna iz osnovnykh zadach vysshego obrazovaniya Germanii na etape yego korennoy reformirovaniya* // J. Fiziko-matematicheskoye obrazovaniye. – Xarkov: 2017. Vypusk 3(13). – S. 179.

14. Dreyer W., Hößler U. (Hg.): *Perspektiven interkultureller Kompetenz*. Göttingen: Vandenhoeck & Rureit, 2011. – pp. 238-254.

BO'LAJAK ERKIN KURASH SPORT MURABBIYINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

*Yarashev Jamshid Razzoqovich,
Sport nazaryasi va metodikasi kafedrasida*

Annotatsiya. Maqola bo'lajak erkin kurash sport murabbiyining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari va imkoniyatlariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: professional va kommunikativ kompetentsiya, Olimpiya va professional sport bo'yicha murabbiylar, tarbiyaviy jarayon.

Kirish. Zamonaviy oliy sport ta'limi malakasi eng yuqori darajada bo'lishi kerak bo'lgan bo'lajak murabbiylarni tayyorlashga qaratilgan.

Bo'lajak sport murabbiyida professional kompetensiyani rivojlantirish unda bilim, qobiliyatlar va amaliy ko'nikmalarning shakllanganligida, shuningdek murabbiyning fikrlash, professional, mafkuraviy va fuqarolik fazilatlarining mujassamligi, odo-axloq normalariga rioya qilishida namoyon buladi.

Murabbiyning kasbiy kompetensiyasining shakllanganligini uning atrofdagilar bilan to'g'ri muloqotga kirishuvda namoyon bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak murabbiy muloqot tajribasini o'zlashtirgan bo'lishi muhim. SHuning uchun ham bo'lajak murabbiyni tayyorlash, uning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga muloqot orqali erishiladi. Shu bilan birga, pedagogik muloqot bir vaqtning o'zida og'zaki, obrazli, ramziy va kinetik vositalarning butun majmuasidan foydalangan holda kommunikativ, pertseptiv va interaktiv funktsiyalarni amalga oshiradi. Funktsional jihatdan, u ta'lim va o'quv jarayonining barcha sub'ektlarining o'zaro hamkorligini tartibga solish bilan birga, aloqa va masofaviy, axborot, rag'batlantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi bo'lishi mumkin. Pedagogik muloqot ikki tomonlama yo'naltirilganlik, ko'p ma'lumotlilik, yuqori darajadagi representativlik bilan tavsiflanadi, barcha asosiy xususiyatlarining o'ziga xos sintezini shakllantiradi, bu yangi sifat mazmunida ifodalanadi va ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'siri tabiati bilan belgilanadi.

Kasbiy-pedagogik muloqot aloqa sub'ektlarining turli xil bevosita va bilvosita aloqalari tizimi sifatida amalga oshiriladi. Aloqa sub'ektlarining to'g'ridan-to'g'ri aloqalarining o'ziga xos xususiyati ularning to'g'ridan-to'g'ri aloqalari (umumiy vaqt, fazoviy xususiyatlarga ega): «murabbiy - sportchi», «murabbiy - sport jamoasi yoki jamoasi», «murabbiy - murabbiy», «murabbiy - murabbiylar guruhi» », “murabbiy – ma'muriy xodimlarning vakillari”, “murabbiy – sportchining ota-onalari, jamoatchilik vakillari, jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi organlari, tasodifiy sub'ektlar)” va boshqalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, Kurash sport turlari bo'yicha bo'lajak murabbiylarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish muayyan ijtimoiy-madaniy makonda amalga oshirilishi kerak va uning mazmuni atrof-muhitning madaniy va axloqiy qadriyatlariga ham bog'liq bo'ladi, xususan:

- ijtimoiy muhitni (milliy an'analar, etnik xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar va boshqalar) siyosiy-huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish va malakasini oshirish (o'qituvchilar va murabbiylar xodimlari, ta'lim va tarbiyaning moddiy-texnik va ilmiy-uslubiy ta'minoti. o'quv rejasining majburiy va tanlov bo'limlari jarayoni, o'ziga xosligi va mazmuni);

- ichki old shartlar, ya'ni. e. Yosh, jins, anatomik va fiziologik qobiliyatlar, individual psixologik va intellektual xususiyatlar, ta'lim darajasi, pedagogik va murabbiylik tajribasi va pedagogik xodimlarning malakasi kabi sub'ektiv omillar (Frunza, 2018; Kucherenko, Mamchur, Mamchur, & Bidyuk, 2020; Nosko. , va boshq., 2020b).

Ya'ni, bo'lajak murabbiyning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini

shakllantirish mazmunini o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan (muayyan sharoitlarda amalga oshiriladigan va tashqi ko'nikmalarga bog'liq bo'lgan kommunikativ tasdiqlash, bilim, kommunikativ ko'nikmalar) tashkil topgan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida ko'rib chiqish mumkin. sharoitlar va ichki omillar). Bo'lajak murabbiyning kasbiy va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish va takomillashtirish oliy ta'limning o'quv jarayonida shunday sharoitlarni yaratishni talab qiladi: 1) kasbiy va kommunikativ kompetentsiyaning har bir elementini har tomonlama rivojlantirish; 2) tashqi muhit sharoitlari (ijtimoiy makonning ijobiy ta'siri) va ichki omillarni hisobga olish (bo'lajak murabbiyning individual va psixologik xususiyatlari, uning sport tajribasi va boshqalar); 3) madaniyat darajasi (Gurevych, Sira, Kanyuk, Sidun, Syno, & Chernovol, 2022; Singhal, & Nagao, 1993).

Shuni ham ta'kidlash joizki, bo'lajak murabbiyning olimpiya va professional sport turlari bo'yicha professional va kommunikativ kompetensiyasi uning shaxsiy xususiyatlari, maqsadlari, qiziqishlari va imtiyozlari, faoliyati motivlari, shaxsiy ijtimoiy-madaniy va kommunikativ fazilatlar va o'yin-kulgi tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan chuqur manbalarga ega. qiymatlar. Shu sababli, murabbiyning «kompetentligi» atamasi uning kasbiy faoliyatidagi xabardorlik darajasini, uning kasbiy faoliyati haqida chuqur bilim beradigan kasbiy tajriba natijasini, murabbiylikning mohiyati va xususiyatlarini, unga erishish yo'llari va vositalarining mavjudligini belgilaydi. maqsadlar, raqobat faoliyatidagi g'ayrioddiy vaziyatlarni to'g'ri baholash va raqobat yoki sport duelingining ekstremal sharoitida yangi echimlarni topish va bu borada to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati. Murabbiy kompetentsiyasining tuzilishiga bilim, tajriba, kasbiy madaniyat va shaxsiy fazilatlar kabi komponentlar ham qo'llanilishi mumkin. Olimpiya va professional sport turlari bo'yicha yuqori malakali murabbiyning malakasi uning intuitsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, raqobatbardosh duel uchrashuvining borishini bashorat qilishning boyligi, musobaqalar paytida vaziyatni o'zgartirish variantlarining xilma-xilligi, professional tajribani birlashtirish bilan belgilanadi. va sportchining faoliyati va ularning tashkiliy o'zaro ta'siri, munosabatlar madaniyati bilan belgilanadi (Manolachi, & Vizitei, 2018; Griban, va boshqalar, 2020b).

Bo'lajak murabbiylarni kommunikativ tayyorlashning zamonaviy nazariyasini tahlil qilib, bo'lajak murabbiylarda kasbiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari yetarlicha o'rganilmagan va ishlab chiqilmaganligini aytish mumkin.

Bo'lajak murabbiylarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda yosh sportchilarni o'qitish va ularga murabbiylik qilishning faol usullaridan foydalangan holda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar, ishlab chiqarish amaliyoti kabi mashg'ulotlar shakllaridan foydalandik. Talabalar tomonidan Olimpiya va professional sport turlari bo'yicha murabbiyning kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muammoli ma'ruzalar qo'llanildi. Shunday qilib, yangi material murabbiyning kasbiy faoliyatining o'ziga xos muammolarini ochib beradigan fanlar bo'yicha muammoli ma'ruzalarni o'tkazishda talabalar tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan muammo ko'rinishida noma'lum sifatida kiritildi. Ma'ruza materialini texnik o'quv qo'llanmalari yordamida taqdim etishdan oldin, sport maktabida mashg'ulotning bir qismi ko'rib chiqildi, so'ngra muammo qo'yildi, bu esa talabalarni qarama-qarshiliklar va ularni hal qilish yo'llarini topishga undadi. o'qituvchi. Bu talabalarda kasbiy funktsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan muloqotga oid bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga, bo'lajak murabbiylarning motivatsiyasi va faolligini oshirishga yordam berdi. O'quv rejasi bo'yicha amaliy, seminar va mustaqil mashg'ulotlarning qurilishi bo'lajak murabbiylarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan kompetensiyani rivojlantirish kelajakdagi murabbiylarning Olimpiya va professional sport sohasidagi tadqiqot va

innovatsion muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, bo'lajak murabbiyning kommunikativ kompetensiyasi quyidagilarga qaratilgan edi: turli sport vaziyatlarida muloqotni yo'naltirish; o'z-o'zini anglash va ruhiy holatni o'zgartirish, sportchilar, murabbiylar va tashkilotchilar, shuningdek, musobaqalar hakamlari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar orqali atrof-muhit bilan samarali munosabatda bo'lish uchun bilim va hayotiy tajribadan foydalanish; shaxslararo o'zaro ta'sir holatlarida kommunikativ harakatlarni ichki tartibga solish.

Tadqiqot usullari: tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, anketa, pedagogik shakllantiruvchi eksperiment, matematik statistika usullari.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish Olimpiya va professional sport turlari bo'yicha kelajakdagi murabbiylarda kasbiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning izchil qonuniyatlarini tasniflash imkonini berdi, xususan:

- birinchi izchil naqsh jahon arenalaridagi deyarli barcha sport tadbirlarini hamda murabbiylar va sportchilarning turmush darajasini qamrab oluvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faollashtirishni hisobga olgan holda murabbiylarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish zarurligini aks ettiradi;

- ikkinchi izchil qonuniyat Olimpiya va professional sport turlari bo'yicha bo'lajak murabbiylardan murabbiy umumiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni har tomonlama o'zlashtirishni talab qiladi;

- uchinchi izchil naqsh bo'lajak murabbiyning integrativ shaxsiyati sifatida kasbiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning mazmuni, shakllari, usullari, vositalari, texnologiyalari, boshqaruv tizimi, nazorati va natijasini baholashning yo'naltiruvchi ta'sirini nazarda tutadi;

- to'rtinchi izchil naqsh milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va Yevropa va jahon makoniga integratsiyalashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu yangi ta'lim standartlarini, dinamika va yirik xalqaro sport tadbirlarini o'tkazishda ro'y berayotgan o'zgarishlarni o'zlashtirishni taqozo etadi;

- beshinchi izchil namuna bo'lajak murabbiylardan xalqaro musobaqalar jarayonida turli mamlakatlar ishtirokchilari (murabbiylar, hakamlar, sportchilar, tashkilotchilar, ko'ngillilar) o'rtasida ma'lumot almashish uchun professional va kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishni talab qiladi;

- oltinchi izchil naqsh murabbiydan olimpiya va professional sport turlarida murakkab ko'p funksiyali hodisa sifatida intellektual, g'oyaviy va hissiy kompetensiyalar bilan professional va kommunikativ kompetensiyaning uyg'un birligiga ega bo'lishini talab qiladi.

Professional kompetensiyalarning eng muhimlari quyidagilar edi:

- Olimpiya va professional sport sohasidagi muammolarni tanqidiy tushunish, o'ziga xos fikrlash va tadqiqot qobiliyati;

- olimpiya va professional sport turlari sohasida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati;

- murakkab, oldindan aytib bo'lmaydigan va yangi strategik yondashuvlarni talab qiluvchi olimpiya va professional sport turlari bo'yicha ish yoki mashg'ulot jarayonlarini boshqarish qobiliyati;

- ijtimoiy va axloqiy javobgarlik jihatlarni hisobga olgan holda, to'liq bo'lmagan yoki cheklangan ma'lumotlar mavjud bo'lganda, yangi yoki notanish muhitda Olimpiya va professional sportdagi muammolarni hal qilish qobiliyati;

- olimpiya va professional sport turlarida muvaffaqiyatli professionallashtirish uchun o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini aks ettirish qobiliyati;

- olimpiya va professional sport masalalari bo'yicha mustaqil tadqiqot ishlarini

rejalashtirish, tashkil etish va olib borish qobiliyati;

- olimpiya va professional sport turlari bo'yicha muammolarni hal qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq eta olish;

- kasbiy va sport etikasi tamoyillarini bilish va ularga rioya qilish zarurati. Kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni yaxshiroq egallash uchun bo'lajak murabbiylardan quyidagilar talab qilingan:

- zamonaviy olimpiya va professional sport turlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, qarama-qarshiliklari va istiqbollari tahlil qilish, bu boradagi muammolarni tanqidiy idrok etish;

- olimpiya va professional sportdagi muammolarni hal qilish uchun samarali qarorlar qabul qilish, muqobil variantlarni ishlab chiqish va solishtirish, xavf va resurslarga bo'lgan ehtiyojni baholash;

- olimpiya va professional sport turlari bo'yicha kasbiy faoliyat natijalari, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni milliy va xorijiy tillarda og'zaki va yozma ravishda erkin muhokama qilish;

Vaqt boshqarish. Har bir ota-ona oilangizni to'g'ri yo'lda tutish uchun vaqtni boshqarish qanchalik muhimligini biladi. Biroq, bolalar yoshligida vaqtni boshqarish saboqlarini o'rganishlari ham muhimdir.

Yosh bolalarga vaqtni o'lchash, vazifani bajarish va jadvalga rioya qilishni o'rgatish kunlaringizni osonlashtiradi. Ushbu hayotiy ko'nikmani o'rganish ularga vaqt ustasi bo'lishga yordam beradi, shunda ular jadval bo'yicha turishdan tortib, bir kun o'z vaqtida ishga borishgacha hamma narsani qilishlari mumkin.

Ovqat tayyorlash. Hatto eng kichik bolalar ham ovqat tayyorlashni o'rganishlari mumkin. Albatta, biz besh xil kechki ovqat haqida gapirmayapmiz, lekin siz maktabgacha yoshdagi bolalarga sendvichni qanday tuzatishni va boshlang'ich maktab o'quvchilariga mikroto'lqinli pechdan foydalanishni o'rgatishingiz mumkin.

Ovqat pishirish vaqti kelganda, bolalaringizdan tortib to o'smirlargacha sizning oshpazlaringiz bo'lishi mumkin.

Farzandlaringiz oshxonada ishonchi kuchayib borgan sari, ular o'z tushliklarini qadoqlash, sog'lom taom tanlash, kattalar nazorati ostida pechkada oddiy taom tayyorlash va o'z taomlarini rejalashtirishni o'rganish kabi boshqa taom tayyorlash ko'nikmalarini ham qo'shishi mumkin.

Pulni boshqarish. Biz bolalarimizga hisoblashni o'rgatamiz. Biz bolalarimizga asosiy matematikani o'rgatamiz. Biz bu saboqlarni davom ettirishimiz va ularni hozirdan foydalanishni boshlashlari mumkin bo'lgan hayotiy ko'nikmalarga aylantirishimiz mumkin.

Pulni boshqarish ko'plab kattalar muammosiga duch keladigan narsadir. Farzandlaringizga pul, uning ahamiyati va uni qanday boshqarishni o'rgatish, ularni o'zlari ish haqi olishni boshlagan kunga tayyorlashga yordam beradi.

Farzandlaringizga pulni samarali boshqarishni o'rgatish, shunda ular qanday qilib tejash, oqilona sarflash va o'zgarishlarni amalga oshirishni o'rganishlari mumkin. Shuningdek, ular cheklar, kredit kartalari va naqd pul ilovalaridan foydalanish bepul pul emasligini tushunishlari muhimdir.

Tozalik va saranjom-sarishtalikka o'rgatish. Ba'zida ota-onalar uy ishlarini o'zlari qilishlari osonroq bo'ladi. Lekin bu farzandlarimizga uyni qanday qilib toza saqlashni o'rgatishimiz uchun qo'ldan boy berilgan imkoniyatdir, ular oxir-oqibat ular sizning uyingizdan chiqib ketganlarida va g'amxo'rlik qilish uchun o'z joylariga ega bo'lishlarini bilishlari kerak bo'ladi.

Yoshga mos yumushlardan boshlang, jumladan, to'shak yasashni, idish-tovoq mashinasini bo'shatishni va mebellarni changdan tozalashni o'rganish. Bundan tashqari, bolalaringiz kundalik tartibsizliklari va ular o'zlarini qanday tozalashlari haqida o'ylab ko'ring.

Masalan, hammomda sochiq yoki shimgichni saqlang, bu bolalar peshtaxtada qoldirgan tish pastasini artib tashlashga imkon beradi. O'yinchoqlar sehrli tarzda xonadan xonaga ko'chib o'tganda, bolalar ularni kun oxirida qo'yishlari uchun ularni savatga tashlashlarini so'rang.

Farzandingizning kundalik ishlarining bir qismiga tozalash uchun har kuni oilaviy uyni saqlash jadvalini belgilang va unga rioya qiling.

Kir yuvish. Farzandlaringiz bo'lsa, sizda juda ko'p kir bor. Farzandlaringizga kirlarini yuvish, yig'ish va qo'yishni o'rgatish ularga yordam beradigan hayotiy mahoratdir; u ham sizga yordam beradi.

Kichkintoylar sizga kir yuvishda yordam berish orqali ko'p narsalarni o'rganishlari mumkin, masalan, kiyimlarni rangi bo'yicha saralash va to'qimalarni tushunish. Ular o'sib ulg'ayganlarida, bolalar kiyimlarni kir yuvish mashinasiga solib, quritgichga o'tkazishlari mumkin. Keyin boshlang'ich maktab o'quvchilari kir yuvish mashinasi va quritgichni qanday ishlatishni va qancha kir yuvish vositasi kerakligini bilib olishlari mumkin.

Kir quritgichdan chiqqach, siz ularga kiyimlarini qanday yig'ish va qo'yish kerakligini ko'rsatishingiz mumkin. Tez orada ular barcha kirlarini o'zlari hal qiladilar.

Taqqoslash xarid qilish. «Men buni xohlayman! Men buni xohlayman! Men buni xohlayman!» Farzandlaringiz konfet, o'yinchoq, futbolka, baliq yoki ular hozir bo'lishi kerak deb o'ylaydigan boshqa narsalarni ko'rganlarida buni necha marta eshitgansiz? Kattalar sifatida biz dollarning qiymatini va taqqoslash xarid qilish muhimligini tushunamiz. Biroq, biz ko'pincha farzandlarimizga o'rgatishimiz kerak bo'lgan bu qimmatli hayotiy ko'nikmaga e'tibor bermaymiz.

Keyingi safar siz do'konda katta narx yorlig'i va sizdan naqd pul berishingizni talab qilayotgan bola o'rtasida qolganingizda, telefoningizni olib, turli xil xarid qilish saytlarida mahsulotni qidirib toping. Farzandlaringizga bu mahsulot boshqa do'konlarda qancha turadi va ularda qanday sifatli mahsulotlar borligini ko'rsating.

Ehtimol, siz bo'lgan do'kon eng yaxshi shartnoma va eng yaxshi mahsulotdir. Ammo bolalarni dono xaridor bo'lishga o'rgatish va taqqoslash do'koniga vaqt ajratish ularga qayerda bo'lmasin, pulni tejashga yordam beradi, shu bilan birga tanlagan mahsulotlar haqida oqilona qaror qabul qiladi.

Restoranlarda buyurtma berish. Ota-onalar sifatida biz serverdagi ishlarni osonlashtirish uchun bolalarimizga restoranlarga buyurtma berishga moyilmiz. Biroq, bolalarimizga o'zlari uchun buyurtma berishga ruxsat berish ular uchun qiziqarli va o'z-o'zini hurmat qilish va ishonchni oshiradi.

Ko'pgina restoranlarda bolalar menyusida rasmi menyular mavjud, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar ovqatlanishni xohlagan narsani aylana yoki rang berishdan boshlashlari mumkin. Bu ishonch oshgani sayin, bolalar serverga kirish qismidan tortib to yon tomonlarigacha nimani xohlashlarini og'zaki aytib berishlari mumkin. Buyurtma qilgandan so'ng, iltimos va rahmat aytish orqali bolalarga yaxshi xulq-atvorni amalda qo'llashni eslatib turing.

Kiyinish va tayyorlanish. Bolalar erta yoshda mustaqil ravishda qanday tayyorlanishni o'rganishlari mumkin. Ertasi kuni kiyadigan kiyimlarini yotishdan oldin tanlashlariga ruxsat bering. Ular uchun o'rnatish oson bo'lgan uyg'otuvchi soatni tanlang. Ularning soch cho'tkasi va tish cho'tkasini joylashtiring. Butun jarayonni tasvirlash uchun ingl.

Misol uchun, eshikdan chiqishdan oldin ularga borishni eslatish uchun budilnikni, kiyimlarini, boshqa tish cho'tkasini, keyin soch cho'tkasini va hatto hojatxonani suratga oling. Rasmlar har kuni o'z-o'zidan tayyorlanish odatiga aylanmaguncha kartalardir

Muvaffaqiyatli ertalabki tartibni yarating. Bolalar sizning katta yordamchingiz bo'lishni yaxshi ko'radilar va uy atrofida har doim engil parvarish bo'ladi, ular buni qilishlari mumkin. Oddiy vazifalar qatoriga hojatxona qog'ozi rulosini qanday o'zgartirish yoki axlatni qopga qo'yishni ko'rsatish kiradi. Kattaroq bolalar lampochkani qanday almashtirishni, drenajni ochishni va changyutgich sumkasini almashtirishni o'rganishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan maslahatlarga o'z vaqtida amal qilish, bolalarning kelajakda hayotga tayyorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Jumayeva Malika Aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

2. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

3. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

4. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

5. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

6. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Sb. st. po mat. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Yevropeyskiye nauchnye issledovaniya:

innovatsii v nauke, obrazovanii i texnologiyax»: LXXV mejd. nauch.-prakt. konf. (London. 16 marta, 2022). S.

7. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Sb. st. po mat. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Yevropeyskiye nauchnye issledovaniya: innovatsii v nauke, obrazovanii i texnologiyax»: LXXV mejd. nauch.-prakt. konf. (London. 16 marta, 2022). S. {sm. sbornik}.

8. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Sb. st. po mat. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Yevropeyskiye nauchnye issledovaniya: innovatsii v nauke, obrazovanii i texnologiyax»: LXXV mejd. nauch.-prakt. konf. (London. 16 marta, 2022). S.

9. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Sb. st. po mat. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Yevropeyskiye nauchnye issledovaniya: innovatsii v nauke, obrazovanii i texnologiyax»: LXXV mejd. nauch.-prakt. konf. (London. 16 marta, 2022). S.

10. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Sb. st. po mat. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Yevropeyskiye nauchnye issledovaniya: innovatsii v nauke, obrazovanii i texnologiyax»: LXXV mejd. nauch.-prakt. konf. (London. 16 marta, 2022). S. {sm. sbornik}.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATGA KIRISHISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Ergasheva Tuyg'unoy Shavkatjon qizi,
Turon Zarmed universiteti Maktabgacha ta'lim va sport kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq qoidalarining shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish vazifalari yechimi taklif etiladi. Bu - turlar, navlar, shakllar, formulalar, o'yinlar, situatsion mashqlar va boshqalar - 4-sinf o'quvchilari bilan muloqot qilish istagini, tengdoshlariga ijobiy munosabatni rivojlantirish bo'yicha mualliflik huquqi tizimi tanlov darslari shaklida taqdim etiladi. , shaxslararo muloqotda o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyati; boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglash; guruhda ishlash.

Tayanch so'zlar: shaxslararo munosabatlar, ta'lim jarayoni, boshlang'ich sinf o'quvchilari, tuzilma odoblari, odob-axloq qoidalari, tanlov darslari.

Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun har qanday inson umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi kerak. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda, jumladan, yosh avlod o'rtasida axloqning umumiy tanazzulga uchrashi kuzatilmoqda. Madaniy va axloqiy tarbiya - bu bolalikdan boshlab rivojlanishi kerak bo'lgan shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish jarayoni. Shuning uchun boshlang'ich maktabda bolalarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish muammosini shakllantirish va hal qilish hali ham muhimdir. Boshlang'ich maktab yoshida o'quvchilarda atrofda odamlar bilan yangi turdagi munosabatlar shakllana boshlaydi. Aynan shu davrda ijtimoiy tuyg'ular deb ataladigan elementlar rivojlanadi, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari shakllanadi (harakat uchun javobgarlik, o'zaro yordam, kollektivizm, do'stlik va boshqalar), jamoaviy fikrning o'z dunyoqarashining shakllanishiga ta'siri. Bu yoshda bolalar o'zlarining xatti-harakatlarining axloqiy tomoniga alohida e'tibor berishadi, chunki ular boshqalarning ijobiy bahosini olishni xohlashadi, shuning uchun bu davr madaniy muloqot qoidalarini o'rganish uchun sezgir.

Kichik maktab o'quvchilarining shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish muammosi bilan shug'ullangan olimlar: V.N. Drujinin, E.P. Ilyin, O.N. Istratov, Ya.L. Kolomenskiy, V.G. Krisko, A.A. Rean va boshqa tadqiqotchilar. Odobning mohiyati va vositalari A.B. Venetskaya, E.A. Zamedlina, V.V. Kobzeva, I.N. Kurochkina, V.I. Petrova, E.L. Starunkina, V.I. Yujin va boshqa ba'zi olimlar va amaliyotchilar. Ushbu muammoning qarama-qarshiligi shundaki, bugungi kunda odob-axloq qoidalarining kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishga ta'siri etarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - 4-sinf o'quvchilari o'rtasida shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish vositasi sifatida odob-axloq qoidalaridan foydalanish imkoniyatlarini nazariy asoslash va sinab ko'rish.

Shunday qilib, munosabatlar «individual, tanlangan, ob'ektiv voqelikning turli tomonlariga ega bo'lgan shaxsning ongli aloqalarining yaxlit tizimi, shu jumladan uchta bog'liq komponent:

insonning odamlar bilan aloqasi; o'zingizga; tashqi dunyo predmetlariga munosabat. Shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari haqida gapirganda, ularning haqiqiy o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan sub'ektiv aloqalar va ularda ishtirok etuvchi shaxslarning turli xil hissiy va boshqa tajribalari (yoqtirish va yoqtirmaslik) bilan birga keladi. Ular odamlarning to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'siri va birgalikdagi faoliyati natijasida rivojlanadi, boshqalarga, o'ziga nisbatan shaxsiy munosabati orqali ularning yo'nalishi va natijalariga ta'sir qiladi. Ularni amalga oshirish qiymat mulohazalari, hissiy tajribalar va o'ziga xos xatti-harakatlarni ifodalash orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich maktab yoshida bolalar boshqa odamlar, ham kattalar, ham tengdoshlar bilan yangi turdagi munosabatlarni shakllantiradilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari turli omillarga bog'liq, masalan, o'quv muvaffaqiyati, o'zaro hamdardlik, umumiy manfaatlar, tashqi hayot sharoitlari, gender xususiyatlari. Bularning barchasi bolaning sinfdoshlari bilan munosabatlarini tanlashiga ta'sir qiladi va pirovardida ularning kelajakdagi mustaqil hayotidagi ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Buxoro shahridagi 11-sonli umumta'lim maktabida dastlabki aniqlovchi tajribasini olib borish jarayonida shaxslararo munosabatlarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun 4 «A» sinf o'quvchilari - nazorat guruhi va 4 «B» sinf o'quvchilari - eksperimental guruhlarini belgilab olindi (har bir guruhda 25 ta bola). Bunda to'rtinchi sinf o'quvchilarining quyidagi psixologik va yosh xususiyatlari hisobga olindi. To'rtinchi sinfga kelib, sinfdoshlarning bolaga bo'lgan munosabati, bir tomondan, uning boshqa bolalar orasidagi mavqeini belgilaydi, boshqa tomondan, uning hissiy holatiga ta'sir qiladi. Bu yosh davrida ular rivojlanadi: bir-biriga nisbatan talabchanlik, o'zaro baholash, jamoa fikrining ahamiyati va boshqalar. Bu ehtiyojlar bolaning tengdoshlari bilan muloqot qilish istagida, hamma narsani birgalikda qilish istagida ifodalanadi.

Shu sababli, ushbu sohadagi og'ishlarni o'z vaqtida tashxislash zarur, chunki salbiy shaxslararo munosabatlar bolaning shaxsiyatini shakllantirishga, kelajakda uning aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kichik maktab o'quvchilari o'rtasida odob-axloq qoidalari yordamida shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha eksperimental tadqiqot uch bosqichda o'tkazildi: aniqlash, shakllantirish, nazorat qilish.

Dars mavzulari Dars mazmuni Shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar Odob elementlari (vositalari)

1. Kirish suhbat. «Tanish» o'yini. Sinf burchagida plakat yasash (tanishning nutq formulalarini tuzish). Shaxslararo muloqot jarayonida o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish. Shakl: nutq odobi. tanishlik formulasi.

2. «Nima uchun siz xushmuomala bo'lishingiz kerak?». «Odobli so'z» o'yini. «Xushmuomalalik darsi». O'yin muloyim so'rov, muloyim rad etish. «Xushmuomalalik daraxti» ni yaratish (odobli xatti-harakatlar qoidalari). Muloqot uchun ijobiy istakni, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Turi: kundalik odob-axloq qoidalari. Shakl: nutq odobi.

3. «Menga bir narsa ayting, men sizga kimligingizni aytaman». Suhbat. «Oltin so'zlar» hikoyasidan parcha tahlili. Mavzu bo'yicha munozara: «Suhbat davomida xatti-harakatlar normalari»; sahnalashtirilgan vaziyatlar («Kutubxonada», «Sinfdoshlar suhbatini», «Telefonda suhbat», «O'qituvchi va o'quvchi suhbatini»). Shaxslararo muloqot jarayonida o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish. Turi: kundalik odob-axloq qoidalari. Turli xil: telefon odobi. Shakl: nutq odobi.

4. «Kechirasiz». N.Yusupovning «Kechir meni» she'ri muhokamalari. Vaziyatni tahlil qilish «do'stlar o'rtasidagi janjal». O'yin Kechirasiz. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish. Turi: kundalik odob-axloq qoidalari. Shakl: nutq odobi. Formula «kechirim».

5. «Biz teatrdamiz». Mavzu bo'yicha axloqiy suhbat: «Teatrdamiz o'zini qanday tutish kerak». Viktorina. «Biz teatrdamiz» o'yini. Muloqot uchun ijobiy istakni rivojlantirish. Jamoat joylarida o'zini tutish qoidalari (teatrdamiz). Shakl: nutq odobi.

6. «Yuz ifodalarimiz va imo-ishoralarimiz». Suhbat. Mashq qilish - «Pantomima» (odob-axloq qoidalari muvofiq tengdoshlar bilan muloqot qilish istagini rivojlantirishga qaratilgan). O'yinlar: «Meni tushuning», «Biz aytmaymiz, lekin kecha nima qilganimizni ko'rsatamiz». Tengdoshlar bilan muloqot qilish istagini rivojlantirish. Shakl: nutqdan tashqari odob. «Salomlashish», «uzr so'rash», «xayrlashish».

7. “Maktab, biz yashaydigan uy...”. Suhbat. «Maktabda xulq-atvor qoidalari» eslatmalarining qo'shma to'plami. O'yin vaziyati «O'qituvchiga, sinfdoshga, kutubxonachiga qanday qilib to'g'ri murojaat qilish kerak». Guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Shakl: nutq odobi. Turli xil: maktab odobi.

8. “Mening sinfim mening oilam”. Suhbat. Viktorina. “Yaxshi munosabatlar qoidalari” mavzusidagi salqin burchak dizayni. Suhbatdoshni tinglash, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Shakl: nutq odobi. Maktab odobi turi.

9. “Tashqi ko'rinish madaniyati”. Suhbat. Mavzuga oid she'rning muhokamasi. Viktorina (vaziyatli muammolarni hal qilish). Muloqot qilish, guruhda ishlash istagini rivojlantirish. Turi: kundalik odob-axloq qoidalari. Shakl: nutq odobi.

10. “Mehmon odobi”. Suhbat. «Taklif», «Mehmonlarni kutib olish» o'yinlari, «Men mehmonman», «Tug'ilgan kun» trening o'yini. “Mehmon uchun qoidalar”, “Mezbonlar uchun qoidalar” guruhlarida ishlash. Tengdoshlar bilan muloqot qilish, guruhda ishlash istagini rivojlantirish. Shakl: nutq odobi. Turli xil: mehmon, sovg'a. Formulalar: «taklif», «minnatdorchilik».

Shunday qilib, aniqlash tajribasidan olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, to'rtinchi sinf o'quvchilarining katta qismi tengdoshlari bilan munosabatlarda muammolarga duch keladi.

Aniqlash bosqichining natijalari shakllantiruvchi eksperimentning maqsadini aniqlashga imkon berdi: 4-sinf bolalarida odob-axloq qoidalari orqali shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha ixtiyoriy sinflar to'plamini modellashtirish, tashkil etish va sinab ko'rish.

To'rtinchi sinf o'quvchilarining shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan quyidagi vazifalar qo'yildi: muloqot qilish istagini, tengdoshlariga ijobiy munosabatni, shaxslararo muloqot jarayonida o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish; suhbatdoshni tinglash; guruhda ishlash.

Mashg'ulotlar majmuasining mazmuni shakllar (og'zaki va og'zaki bo'lmagan), turlari (kundalik), navlar (maktab, mehmon, sovg'a, jamoat joylarida o'zini tutish qoidalari), formulalar (tanishuv, minnatdorchilik, kechirim so'rash) kabi odob-axloq qoidalari o'z ichiga oladi, taklifnoma, vidolashuv), shuningdek, suhbatlar, adabiy asarlardan parchalarni o'qish, didaktik o'yinlar, drammatizatsiya, vaziyatli mashqlar va topshiriqlar kabi vositalar.

Kichik maktab yoshi - bu bolaning shaxsida yuz beruvchi ijobiy o'zgarishlar va yangiliklar davridir. Shuning uchun ham, mazkur yosh bosqichida har bir bola tomonidan amalga oshiriladigan muvaffaqiyatlar darajasi ancha muhim hisoblanadi. Agarda bola bu davrda yangi qiziqishlarning quvonchini his qilmasa, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarida o'ziga bo'lgan ishonchga ega bo'la olmasa, u holda keyinchalik buni o'z tengdoshlari bilan shaxsiy o'zaro munosabatlar tuzilmasidagi o'rinni to'g'rilash ham qiyin bo'ladi. Bola tomonidan o'zlashtiriladigan va qo'llaniladigan samarali muloqot

vositalari birinchi navbatda atrofda insonlarning unga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Muloqot ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos maktabi bo'lib boradi. Turli-tuman uslublarini turli xil uslublarini o'rgana boradi.

Har qanday jamoada bo'lgani kabi, o'quvchilar jamoasida ham jamoa a'zolari ob'ektiv ravishda umumiy jamoaviy maqsad, vazifalar, qiziqish va ehtiyojlardan tashqari mavjud shaxsiy qiziqishlari zahirida jamoada norasmiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilar. Guruhdagi norasmiy munosabatlar guruh kayfiyatiga o'ta kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Bunday munosabatlarning ta'sir doirasidan ancha kengdir, ularning barqarorligi ham odatda yuqori bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar jamoasidagi norasmiy munosabatlarni boshqarish muammosiga alohida e'tibor bilan yondashishi kerak.

O'quvchilar jamoasidagi norasmiy munosabatlarni boshqarishda o'qituvchining asosiy vazifasi bu munosabatlarda ahloqiy me'yorlarning buzilishiga yo'l

qo'ymaslikdan iborat. O'qituvchi o'quvchilar jamoasidagi norasmiy munosabatlarda hech qaysi o'quvchining huquqlari kamsitilmasligiga, jamoaning boshqa a'zolari tomonidan qo'pol hazil nishoniga aylantirilmasligiga e'tiborli bo'lmog'i kerak.

Jamoadagi, shu jumladan o'quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar uchun xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisalardan biri nizoli vaziyatlardir. Jamoada turlicha nuqtai - nazarga, ideallarga, ehtiyojlarga ega bo'lgan insonlar bor ekan, bu erda nizoli vaziyatlarning vujudga kelishita biiydir. Albatta, o'qituvchi o'quvchilar jamoasidgi ijobiy ijtimoiy - psixologik muhitni saqlab turish uchun bu erda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi lozim bo'ladi.

XULOSA

Shunday qilib, empatiya juda murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, juda chuqur qayg'urishni belgilaydi. Empatiya etakchi ijtimoiy tuyg'u bo'lib, individning boshqa odamlar kechinmalariga emotsional javob bera olish qobiliyati sifatida ko'riladi. U boshqa odamni sub'ektiv qabul qilish, uning kechinmalarini, xayollari va tuyg'ularini tushunishni o'zichiga oladi.

Shunga muvofiq, quyidagi xulosalarni keltrib o'tish maqsadga muvofiq:

-shaxsda empatiyaning namoyon bo'lishida atrofda insonlar jamoasi muhim ro'l o'ynashi mumkin;

-empatiya insonlarning bir-birini tushunishi va qo'llab-quvvatlashi natijasida yuzaga kelishi kuzatiladi;

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlarining negizida empatiya hissi qaror topishi mumkin;

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda jamoa munosabatlarini qaror topishi ularda empatiyaning kuchayishiga olib kelishi ehtimol.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69

2 Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

O`RTA ASRLARDA SHARQ ALLOMALARINING YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHGA OID QARASHLARI

*Nurboev Quvondiq Mirzanovich,
1 O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo`limi, fizika-
matematika*

*Ro`zimurotov Ramazon Xamza o`g`li,
fanlari nomzodi. SamDU O`zbekiston-Finlandiya instituti, talaba*

ВЗГЛЯДЫ МЫСЛИТЕЛЕЙ СРЕДНЕВЕКОВОГО ВОСТОКА О ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ МОЛОДЁЖИ

*Нурбоев Кувондик Мирзанович,
Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан, кандидат
физика-математических наук.*

*Рузимуротов Рамазон Хамзаевич,
Самаркандский государственный университет, Узбекско-Финский
институт, студент*

VIEWS OF MEDIEVAL EAST THINKERS ABOUT PROFESSIONAL ORIENTATION OF YOUTH

*Nurboev Kuvondik Mirzanovich
Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
candidate of physical and mathematical sciences.*

*Rozimurotov Ramazon Hamza
Samarkand State University, Uzbek-Finnish Institute, student*

Annotasiya: Kirish ma`lumotlari / dolzarbligi. Maqolada O`rta asr Sharq allomalari va faylasuflarining yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishga oid qarashlari tadqiq etilib, ularning yillar davomida vaqt sinovidan o`tgan dono fikrlari va teran qarashlari hozirgi kunda ham ah`amiyatli ekanligi yoritib berilgan.

Metodlar: Mavzuga oid tarixiy manbaalar va ilmiy adabiyotlarning retrospektiv tahlili.

Natijalar. Shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining eng asosiy shartlaridan bo`lgan – yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda, ularning kasbiy faoliyat sohasini to`g`ri tanlashi va ularda muayyan kasbiy sifatlarning shakllanganligi bo`lib, bu sifatlarni rivojlantirish, ta`lim va tarbiya singari alohida e`tiborga sazovor masala ekanligi tarixiy manbaalar va ilmiy adabiyotlarning retrospektiv tahlili asosida o`z tasdig`ini topdi.

Xulosalar. Sharq allomalari va faylasuflarining yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishga oid yillar davomida vaqt sinovidan o`tgan qarashlari bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan, balki dasturul amal bo`lib xizmat qilmoqda. Allomalar asarlaridagi insonning kasb tanlash faoliyati va ularni kasb-hunarga yo`naltirish borasidagi qimmatli va dono fikrlarini o`rganish, o`sib kelayotgan yosh avlodni bo`lajak kasbiy faoliyati sohasini tanlashlari masalasiga ongli yondashishlariga yordam beradi.

Tayanch so`zlar: kasb-hunarga yo`naltirish, hunar egallash, ta`lim, tarbiya, kosiblar, ilm ahli, inson mijoz, muhim kasbiy sifatlari.

Вводная информация / актуальность. В статье рассматриваются взгляды ученых и философов Средневекового Востока по вопросам профессионального

направления молодежи, а также подчеркивается, что их мудрые мысли и глубокие взгляды, прошедшие проверку временем годами, не потеряли свою актуальность и в наши дни.

Методы: Ретроспективный анализ исторических источников и научной литературы по теме исследования.

Результаты. Проведенный ретроспективный анализ проблемы профессиональной ориентации молодежи подтвердил, что правильный выбор сферы профессиональной деятельности и формирование профессионально-значимых качеств личности являются одним из основных условий успешной социализации молодежи.

Выводы. Проверенные временем взгляды ученых и философов Средневекового Востока на профессиональную ориентацию молодежи и сегодня не утратили своего значения, а служат основной практической программой. Изучение ценных и мудрых мыслей ученых-энциклопедистов по вопросам выбора профессии и профессиональному направлению поможет подрастающему молодому поколению осознанно подойти к вопросу выбора сферы будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, профессиональное обучение, образование, воспитание, профессионалы, ученые, тип человека, важные профессиональные качества.

Introduction / Relevance. The article examines the views of scholars and philosophers of the Medieval East on the professional direction of youth, and emphasizes that their wise thoughts and deep views, which have passed the test of time over the years, have not lost their relevance in our days.

Methods: Retrospective analysis of historical sources and scientific literature on the topic of research.

Results. The conducted retrospective analysis of the problem of professional orientation of young people confirmed that the correct choice of the sphere of professional activity and the formation of professionally significant personal qualities are one of the main conditions for the successful socialization of young people.

Conclusions. The time-tested views of scientists and philosophers of the Middle East on the professional orientation of young people have not lost their importance today, and serve as a basic practical program. The study of valuable and wise thoughts of scientists-encyclopedists on the choice of profession and professional direction will help the younger generation to approach the question of choosing the sphere of future professional activity consciously.

Key words: professional orientation, vocational training, education, upbringing, professionals, scientists, human type, important professional qualities.

Kirish. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, unda antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi X-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porlaganining guvohi bo'lamiz. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va buning natijasida Muhammad Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy kabi buyuk allomalarning jahonshumul ilmiy kashfiyotlari dunyo tamadduni rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

XV asrda yurtimizda ikkinchi Uyg'onish ya'ni ikkinchi Renessans davri boshlandi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. "Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida ham jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi", - deydi Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyev.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning muhim shartlaridan biri – ilm va ta'lim tizimida, ma'naviy sohada yirik islohotlarni amalga oshirishdir, buning uchun yoshlarga zamonaviy bilimlarni puxta egallashlari uchun keng sharoitlar yaratish, barcha sohalarga ilmni kiritish, ma'naviyatni, madaniyatni rivojlantirish zarur. Bugungi kunda respublikada yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishi, ilmu fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi, davr talablari asosida ta'lim va tarbiya olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun yetarlicha sharoitlar muhayyo etilyapti.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumati tomonidan katta ishlar boshlangan bo'lib, bunda mamlakatimizda mehnat bozorini isloh qilishning samarali mexanizmlarini joriy qilish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish kasb-hunarga o'qitish va shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash hamda ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, o'quv jarayonlarini amaliyot bilan bog'lagan holda tashkil etish, kasb-hunarga o'qitish muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirish, mazkur jarayonda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib, kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Barkamol insonning shakllanishi deganda uning munosib kasb-hunar egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarda tutiladi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir.

“Kasbiy shakllanish” deganda insonning aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo'lgan layoqati, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi.

Biroq, ayrim pedagog-o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi ya'ni yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha yetarli bilim, malaka va ko'nikmalarga ega emasligi bu ishni samarali olib borishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu esa o'rta umumta'lim maktablaridan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan amaliy ishlarning zamon talablari darajasida bajarilishini hamda bu muammoning nazariy va uslubiy tomondan yanada samarali yo'llari va vositalari ishlab chiqilishini talab qiladi.

Materiallar va metodlar. Sharqda yoshlarga kasb-hunar o'rgatish qadimiy an'analardan hisoblanib, hunarmand va kosiblar, me'mor va naqqoshlar, dehqon va chorvadorlar o'z farzandlari yoki shogirdlarini tarbiyalashda, ularga kasb-hunar sirlarini o'rgatishga juda katta ahamiyat berganlar.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida hunarmandchilik IX-XII asrlarda keng rivojlangan bo'lib, shu asosda xorijiy davlatlar bilan yaqin iqtisodiy-madaniy aloqalar o'rnatilgan. O'sha davrda aholi turar joylarining mavqei u yerda istiqomat qiluvchi insonlarning kasb-hunar turlarini qay darajada egallanganligi bilan ham belgilanib, aholi yashaydigan joyni “shahar” deb atalishi uchun u yerlik kishilar kamida 32 xil turdagi kasb-hunarga ega bo'lishlari kerak bo'lgan. [Muslimov N., 2007]

Katta shaharlar aholisining aksariyat qismi kasb-hunar egalari - hunarmandlardan iborat bo'lgan. Masalan, I.Jabborovning “O'zbek xalq etnografiyasi” nomli asarida

1897 yilda Farg'ona vodiysida birinchi bor aholini ro'yxatga olinganida, Namanganning 64 foiz, Chustning 54 foiz, Qo'qonning 52 foiz aholisi hunarmand-ustalar bo'lib, ular muayyan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanganliklari ta'kidlangan. [Jabborov I., 1995]

XII-XV asrlarda esa Movarounnahr va Xurosonda hunar ilmi ko'lami rivojlanishi eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan davr bo'lib, har bir xalq ota-bobosidan meros bo'lib kelayotgan tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o'ziga xos an'analarni saqlashga harakat qilib kelgan. O'sha davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlik bo'lgan. Bundan tashqari, ajdodlarimiz ichida yog'ochga ishlov beruvchi hamda teriga ishlov beruvchi mohir ustalar hunarmandlar ichida ko'pchilikni tashkil etgan. XX asrga kelib, tikuv mashinalari paydo bo'lishi bilan yangi hunarmandchilik – zardo'zlik, do'ppisozlik kabi kasb-hunarlar yuzaga kelgan. [Magzumov P.T. va boshq., 2013]

Ulug' allomalarning barcha davrlarda yaratilgan asarlarida halol mehnat ulug'lanib, bunda kasb-hunar egallashni muqaddas va eng zarur amallardan biri deb ta'kidlangan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Davoniy va bir qator boshqa allomalar tomonidan yozilgan asarlarda ushbu masala atroficha talqin qilingan.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida fikr bildirib, ... ta'lim - so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat bo'lishini aytgan. [Farobiy, 1975. –B.75-78.]

Amaliy fazilatlar shakllantirish, amaliy san'at va kasb-hunarlarga o'rgatish hamda ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, alloma bu odat ikki hil yo'l bilan hosil qilinishini ta'kidlaydi:

birinchisi – odatda qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, intilish harakatga aylantiriladi;

ikkinchisi – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroiylar xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi.

Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir, deb hisoblaydi Farobiy.

Farobiyning fikriga ko'ra, insonning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganida edi, podshohlar o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlikka ular faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan va majburiy bo'lib qolar edi. [Farobiy, 1993]

Allomaning asarlarida kasb-hunar o'rganishga, ilmni bo'lishga intilganlar alohida e'zozlangan, har kimki ilmu-xikmatni o'rganaman desa, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin, deydi Farobiy [Аль-Фараби, 1976. –С. 199].

Farobiyning ta'lim va tarbiya tushunchalariga bergan ta'rifi yana bir karra e'tibor beradigan bo'lsak, allomaning kasb-hunarga qiziqishga oid bo'lgan nafis qarashini, ya'ni kasb-hunarga qiziqish tarbiyaviy jarayon ekanligini tushunib olishimiz mumkin: agar inson kasb-hunarga qiziqsa va bu qiziqish uni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, u kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniy har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, xayrixoh bo'lish zarurligini uqtiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar, - deb biladi. Shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida

gavhar izlovchilar va dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerakligini ta'kidlab, amaldorlar bunday mehnat ahliga g'amxo'r bo'lishlari kerakligiga alohida urg'u beradi. Chunki ana shu mehnat ahlini ular hukmronligining tayanchi deb hisoblaydi. [Беруний, 1997. –С. 487]

Ibn Sino odamlar kasb-hunar bilan shug'ullanishlarida ularning mijozidan kelib chiqishlariga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlagan. Chunki har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshash insonlar kamdan-kam bo'ladi, deb yozadi alloma. [Ibn Sino, 1994.]

Bilim olish bilan birga hunarning inson uchun qay darajada afzal va ulug'ligi Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021—98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082—83) va «Nasihatnomai Kaykovus» asarida ham o'rin olgan. Asarda dexqonchilik va bozor hunarlari haqida shunday deyiladi: “Har bir hunarni qilsang ham, chaqqon bo'lgil va pokiza ish qilgil. Sening ishing hamma hunarmandlarning ishidan yaxshiroq bo'lg'ay” [Kaykovus, 1992. –B.120]. Ushbu asarda jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligi ta'kidlangan: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'likka aql va bilim oqali erishilur, nasl-nasab ila emas. Ismni senga ota va onang qo'yimishlar, sen unga g'arra bo'lmasin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lg'il”. Asarda turli kasb egalari ulug'lanib, kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borish tavsiya etiladi. Kaykovusning qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanalib, ularning aksariyati hozirgi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Xususan, «Ey farzand ogoh bo'liki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo'qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur». [Kaykovus, 1992. –B.173]

«Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, – deydi Kaykovus, – agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa qayg'usi yo'qdir. Hunarmand qayerga borsa qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi» [Kaykovus, 1992. –B.175].

Abdurahmon Jomiy yoshlarni hunar egallashga chaqiradi va u bilan shug'ullanishni har qanday boyligidan afzal ko'radi. Kasb-hunar egallash – yoshlarning asosiy burchi, deb hisoblab, inson muayyan bir hunar bilan shug'ullanishi va uni puxta o'zlashtirishi lozimligiga alohida e'tibor qaratadi. Jomiy o'sha davrda bilim va hunar egallamay, o'zining nasl-nasabi bilan maqtanib, ota-onasining molu-davlatiga ishonib taralla-bedod qilib yurgan insonlarni qattiq tanqid qiladi. Bunday yoshlarni o'tindan boshqaga yaramaydigan, hosil bermaydigan mevasiz daraxtga o'xshatib, bundaylarning jamiyatga nafi tegmasligiga kuyinadi. U har bir yoshni ota obro'si, shon-shuhratidan mag'rurlanmay o'z yo'lini tanlashiga, ilmu-hunar o'rganishga undaydi. Hunar o'rganish kishilarning yoshi va ijtimoiy nufuzidan qat'iy nazar – barchasi uchun barobar ekanligini ta'kidlaydi. [Xoshimov K. , 2001.]

Ulug' Alisher Navoiy o'z g'azallarida ilm-hunar egallashga chaqirib, shunday degan:

Ilm kasb-hunarini qildi to joni bor,

Hunar o'rgandi onga ki imkoni bor.

Qomuschi olimlardan Jaloliddin Davoniy yoshlarning kasb-hunar egallashlari to'g'risida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan. Ustoz shogirdlarining qobiliyatlarini, ularni qaysi kasblarga qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim ekanligiga e'tibor qaratgan. Agar bola ma'lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan shug'ullansa, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallashi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitni yaratib berish lozim, deb hisoblagan.

Davoniyning fikriga ko'ra, insonda barcha kasblarni egallash uchun qobiliyatlar mavjud bo'lmaydi, balki har-bir odamda muayyan kasbni egallash uchun kerakli qobiliyat bo'ladi. Bir kasbni o'rganishga intiluvchilar butun iste'dodlarini ana shu

kasbni egallashga qaratsalargina shu kasb-hunarni tezda va puxta o`zlashtirib olishlari mumkin bo`ladi, deydi.

Davoniyning bu fikrlari Forobiyning kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o`z ixtiyori bilan havas qilib intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san`at ahllaridir, degan fikriga hamohangdir. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarlarni uch guruhga bo`ladi:

birinchisi – inson aqliga tegishli bo`lib, ular kishining ruhiy-ma`naviy quvvatiga bog`liqdir. Bularga olim va vazirlik kasbini kiritadi;

ikkinchisi – ta`lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya fanlari bilan shug`ullanish kiradi;

uchinchisi – kishidan shijoatkorlik, irodaviylik, botirlik, qat`iylik va jasurlik talab qiladigan kasblar bo`lib, bular harbiylik, chegarani qo`riqlash kasblaridir.

Shunday qilib, Davoniy kasb-hunar egallashni kishining eng go`zal fazilatlaridan biri, deb hisoblab, kishilarni kasb-hunariga qarab tasniflaydi va quyidagi toifalarga ajratadi:

birinchi toifaga qalam ahllari – olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, muhandislar, musulmon qonunshunoslar;

ikkinchi toifa – jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka ega bo`lgan harbiylar;

uchinchi toifa – savdogarlar va hunarmandlar;

to`rtinchi toifaga – dehqonlar, qishloq xo`jaligiga bog`liq kasblar bilan shug`ullanuvchilar. [Aliqulov H. va boshq., 1981. –B.40-41]

Turk dunyosidagi milliy uyg`onish davrining yana bir eng yirik mutafakkirlaridan biri bo`lgan Yusuf Xos Hojib o`z pedagogik qarashlarida insonni ulug`laydi. Adibning fikricha, insonning ulug`ligi uning aql-idroki, so`zlash qobiliyati, bilimi, uquvi va eng asosiysi, kasb-hunar egasi ekanligidadir. [Yusuf Xos Hojib, 1971. –B. 84] Shuning uchun ham farzandlar tarbiyasida, ularga bilim va hunar o`rgatilmog`i ularni go`zal va axloqli bo`lib voyaga yetishlarini ta`minlaydi, deb yozadi. [Yusuf Xos Hojib, 1971. –B. 236]

Olingan natijalar tahlili. Shaxsni tarbiyalash, uni hayotga tayyorlashning eng asosiy shartlaridan biri – turli davr va avlod olimlarining mehnati bilan yaratilgan bilim va tajribani asrab-avaylash hamda undan oqilona foydalanishdir.

Biz o`tmishdan olayotgan merosni hozirgi kunda yaratilayotgan buyuk kashfiyotlar bilan uyg`unlashtirmog`imiz, o`z kelajagimizni ana shu nazariya asosiga qurmog`imiz kerak. Tarixiy ma`lumotlar tahliliga asoslanib, yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelgan, deb e`tirof etishimiz mumkin. Tabiiyki, kasb-hunarga yo`naltirish kasb-hunarlar paydo bo`lishi hamda ularga extiyoj yuzaga kelishi bilan bog`liq bo`lgan. Kasb-hunarga yo`naltirish ishlari ham jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan va u ham jamiyat kabi o`z rivojlanish tarixiga ega.

O`rta asrlarda Sharq mamlakatlarida insonning kasbiy shakllanishi masalalari faylasuf-olimlar diqqat-e`tibori markazidagi masalalardan bo`lib, yoshlarni kasb-hunar egallashga da`vat qilish va o`rgatish qadimiy an`analardan hisoblangan. Yoshlarning kasb-hunar egallashi ta`lim va tarbiya berish masalasi bilan bir qatorda muhim hisoblanib, kasb-hunarga o`rgatish jarayoni bilim olish bilan qo`shib olib borilishi, nazariya va amaliyotning birligi ta`minlanishi tavsiya etilgan. Kasb-hunar o`rgatish jarayonida esa imkon qadar qanoatbaxsh so`zlar bilan ilhomlantirish orqali malakalar vujudga keltirishga e`tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o`ta muhim bosqichi - bo`lajak kasb-hunarni tanlash bo`lib, ushbu bosqich insonda ma`lum bir kasbga bo`lgan qiziqishning shakllanishidan boshlab, ushbu kasbni tanlash borasida aniq bir qarorga kelishigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Insonning kasb-hunar tanlashga tayyorlik darajasi uning faqat yoshigagina bog`liq emas ya`ni inson ma`lum yoshga kelganida o`z-o`zidan shakllanib qolmaydi. Balki,

konkret kasb-hunarni mukammal egallashda, eng avvalo, insonning mijozi hamda mazkur kasbiy faoliyatga moyillik, qobiliyat va qiziqishning shakllanganligi muhim omillar, deb qaralgan. Shu bilan birga, kasb-hunarga yo`naltirish masalasini samarali hal qilish maqsadida kasb-hunarlar tasniflanib, ularni egallash uchun insondan qanday kasbiy muhim sifatlar talab qilinishiga alohida e`tibor qaratilgan.

Hulosa. O`rta asrlarda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda ulardagi muayyan kasbga bo`lgan moyilligi, qiziqishi va qobiliyatlari, ularda konkret kasb-hunarni muvaffaqiyatli egallashlari uchun muhim bo`lgan kasbiy sifatlarning shakllanganligi, hisobga olingan. Yoshlarning ilmga bo`lgan ishtiyoqi va kasb-hunarga nisbatan munosabatlari har tomonlama qo`llab-quvvatlangan, ularning ilm yoki kasbni mukammal darajada egallashlari uchun zarur bo`lgan barcha sharoitlar imkon darajasida yaratilgan. Masalaga bunday yondashish yoshlarda axloqiy va irodaviy xislatlar – sabr-toqat, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy fazilatlar shakllanishini ta`minlash bilan birga, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – muayyan bir kasb-hunarni puxta o`zlashtirish imkonini bergan.

Sharq allomalari va faylasuflarining yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishga oid yillar davomida vaqt sinovidan o`tgan qarashlari bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Allomalarning asarlaridagi kasb-hunarlarini tasniflash, insonni kasb tanlash faoliyati va kasb-hunarga yo`naltirish hamda ushbu jarayonning shaxs kamolotidagi beqiyos ahamiyati borasidagi qimmatli va dono fikrlarini o`rganish, ularni amaliy hayotga joriy etish, o`z kelayotgan yosh avlodni bo`lajak kasbiy faoliyati sohasini tanlash masalasiga ongli yondashishlariga yordam berish bilan birga, ularda bo`lajak kasb-hunarlariga tegishli bo`lgan tushuncha, tasavvur va bilimlarining boyishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi “Kambag`al va ihsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o`qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4804-son qarori / <https://lex.uz/docs/4945748>
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi “Ishchi kasblar bo`yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-5140-son qarori / <https://lex.uz/docs/5449377>
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrda “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 792-son qarori / <https://lex.uz/uz/docs/5800745>
4. Abdurahmon Jomiy. Tanllangan asarlar. –Toshkent: Adabiёт va san`at nashriёti, 1971.
5. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – Toshkent, 1994.
6. Abu Ali ibn-Sino. Ta`lim va tarbiya haqida. –T., 1967.
7. Abu Nasr Farobiy. Vaxt-caodatga erishuv haqidagi risolalar. –Toshkent: «Fan», 1975.
8. Aliqulov H., Omonboyeva R. Jomiy va Davoniy ta`lim-tarbiya haqida. –Toshkent: “O`zbekiston”, 1981.
9. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата, 1976.
10. Беруний Абу Райхан. Памятники минувших поколений. – Т.: 1997.
11. Гулямов Дж.Р., Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в современных условиях // “Педагогика” Ж., 2014. № 3. –С.14-18.
12. Jabborov I.. O`zbek xalq etnografiyasi. –T., 1995.
13. Ибн Сина (Авиценна) Даниш-наме (перев. и предис. Богоутдинова А.М.) Изд.: Таджикгосиздат, 1957. –288 с.
14. Kaykovus. Qobusnoma / Fors-tojik tilidan eski o`zbek tiliga Ogaxiy tarjiması. –T.: O`qituvchi, 1968.
15. Магзумов П.Т., Гулямов Дж.Р. Мыслители Центральной Азии о науке и знании // “Халқ таълими” Ж., 2013, № 2. –Б. 111-114.
16. Муслимов Н. Касб танлашга йўллаш. Олий ўқув юртлири учун ўқув қўлланма. –Т., 2007.
17. Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
18. “Xalq so`zi” On-line gazetasi, 30 Sentyabr 2020 yil // <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-uchinchi-renesansdan-avvalgi-ikkita-renesans-qachon-bolib-otganini-malum-qildi>
19. Xoshimov K., Mavlonova R. Pedagogika. Darslik. – Т., 2001.
20. Yusuf Xos Xojib. Qutadg`u bilig (Saodatga yo`llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi

O`QUVCHILARDA KASB-HUNARGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Numonova Dildor Umurzokovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti, falsafa fanlari doktori, dotsent.*

*Mirzayeva Nargiza Berkinovna,
O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Navoiy akademik litseyi,
o`qituvchi.*

ФОРМИРОВАНИЕ УЧАЩИХСЯ ИНТЕРЕСА К ПРОФЕССИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Нумонова Дилдор Умурзоковна,
Навоийский государственный педагогический институт, доктор
философии, доцент*

*Мирзаева Наргиза Беркиновна,
Навоийский академический лицей Министерства внутренних дел
Республики Узбекистан, преподаватель*

FORMING STUDENTS' INTEREST IN THE PROFESSION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*Numonova Dildor Umurzokovna,
Navoi State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy, Associate Professor.*

*Mirzayeva Nargiza Berkinovna,
Navoi Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of
Uzbekistan, teacher*

Annotasiya: Kirish ma`lumotlarni dolzarbligi. Davlatimizda o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va mavjud kasbiy qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda kasbiy ta`limni davom ettirishlari yoki tanlagan kasblari bo`yicha mehnat faoliyati bilan shug`ullanishlari uchun sharoit yaratish masalasiga alohida e`tibor qaratilmoqda. Maqolada o`quvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tadqiq etilib, ushbu fenomenning mazmuni va mohiyati tahlil qilingan, "kasb-hunarga qiziqish" tushunchasiga aniqlik kiritilib, qiziqishning shakllanish jarayoniga ta`sir qiluvchi ob`ektiv va sub`ektiv omillar yoritilgan.

Metodlar: Muammoga oid ilmiy adabiyotlar tahlili, o`quv xujjatlarini o`rganish.

Natijalar: O`quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining asosiy shartlaridan biri – ularni kasb-hunarga yo`naltirishda kasbiy faoliyat sohasini to`g`ri tanlashlariga yordam berish bo`lib, buning uchun ularni kasb-hunarga yo`naltirishda kasbga moyilliklari va qobiliyatlari bilan bir qatorda, kasb-hunarning aniq sohasiga qiziqishni dinamik, ongli va turg`un shakllanishiga erishish zarur. Maktablarda o`quvchilar bilan kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishga yo`naltirilgan tadbirlarning natijadorligi bunday tadbirlarni tashkil etishda o`quvchilarda shaxsning zarur kasbiy sifatlarini rivojlanganlik darajalari bilan jamiyatning shunday mutaxassislariga bo`lgan ehtiyojlari o`rtasidagi mutanosiblikni hisobga olish bilan uzviy bog`liq.

Xulosalar: O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishda asosiy e`tiborni ularning kasbga moyilliklari va qobiliyatlari bilan bir qatorda, kasb-hunarga qiziqishlarini hisobga olinishi hamda qiziqishlar shakllanishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak. Ushbu shartni bajarilishi maktab o`quvchilarida axloqiy va irodaviy xislatlarni hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bilan birga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvlarini ta`minlash masalalariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Maktab o`quvchilarida kasb-hunarga qiziqish shakllantirish ularga ta`lim va tarbiya

berish masalalari bilan bir qatorda muhim yo`nalishlardan hisoblanadi.

Tayanch soʻzlar: oʻquvchi, kasb-hunarga yoʻnaltirish, kasb-hunarga qiziqish, qiziqishga shakllanishiga taʼsir qiluvchi omillar, qiziqishning parametrlari, muhim kasbiy sifatlar.

Вводная информация/актуальность. В нашей стране уделяется особое внимание созданию условий для профессиональной ориентации учащихся с учетом их профессиональных способностей продолжить в будущем профессиональное образование или заниматься трудовой деятельностью по выбранным профессиям. В данной статье вопрос формирования у учащихся интереса к профессии исследуется как педагогическая проблема, осуществлен анализ сущности и содержания данного феномена, уточнено понятие “интерес к профессии”, выявлены объективные и субъективные факторы влияющие на формирование данного процесса.

Методы: Анализ научной литературы по проблеме исследования, изучение учебной документации.

Результаты. Правильная ориентация учащихся в сферы предстоящей профессиональной деятельности является одним из основных условий их успешной социализации. Для этого, наряду с учетом профессиональных склонностей и способностей, необходимо формирования у учащихся динамичного, осознанного и устойчивого интереса к профессии. Продуктивность мероприятий по формированию интереса у учащихся к профессиям зависит от организации таких мероприятий с учетом сформированности профессионально важных качеств личности у учащихся и потребностей общества в квалифицированных кадрах.

Выводы. При организации профессиональной ориентационной учащихся, наряду с формированием у них профессиональных склонностей и способностей, необходимо учитывать их интерес к профессии и создать условия для формирования интереса к профессии. рассматривать вопрос формирования у них интереса к профессии. Выполнение этого условия положительно скажется на вопросах обеспечения успешной социализации школьников, способствуя развитию у них нравственных и волевых качеств и профессиональной компетентности. Формирование интереса к профессии у школьников, наряду с вопросами образования и воспитания, должна являться важной частью учебно-воспитательной работы.

Ключевые слова: школьник, профессиональная ориентация, интерес к профессии, факторы влияющие на формирование интереса, параметры интереса, профессионально-важные качества.

Introductory information/relevance. In our Country, special attention is paid to creating conditions for vocational guidance of students, taking into account their professional abilities to continue professional education in the future or to engage in work in their chosen professions. In this article, the issue of students` interest in the profession is investigated as a pedagogical problem, the essence and content of this phenomenon are analyzed, the concept of “interest in the profession” is clarified, objective and subjective factors influencing the formation of this process are identified.

Methods: Analysis of scientific literature on the research problem, study of educational documentation.

Results. The correct orientation of students in the areas of their upcoming professional activity is one of the main conditions for their successful socialization. To do this, along with taking into account professional inclinations and abilities, it is necessary to form a dynamic, conscious and sustained interest in the profession among students. The productivity of measures to form students` interest in professions

depends on the organization of such events, taking into account the formation of professionally important personality traits in students and the needs of society for qualified personnel.

Conclusions. When organizing professional orientation of students, along with the formation of their professional inclinations and abilities, it is necessary to take into account their interest in the profession and create conditions for the formation of interest in the profession. consider the issue of forming their interest in the profession. The fulfillment of this condition will have a positive impact on the issues of ensuring the successful socialization of schoolchildren, contributing to the development of their moral and volitional qualities and professional competence. The formation of interest in the profession among schoolchildren, along with issues of education and upbringing, should be an important part of educational work.

Keywords: students of the school, professional orientation, interest in the profession, factors influencing the formation of interest, interest parameters, professionally important qualities.

Kirish. Mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash hamda ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini amaliyot bilan bog'lagan holda tashkil etish, ishsiz aholi, jumladan yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish kasb-hunarga o'qitish muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirishda o'z namunalarini topmoqda. Ushbu jarayonda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va mavjud kasbiy qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda kasbiy ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki yoshlarni munosib kasb-hunar egallashlari ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvlaridagi muhim omillardan hisoblanadi.

Kasbiy shakllanish insonning aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari hamda u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga asoslanib biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik esa shu sohaga kirishib moslasha borishi (kasbiy adaptatsiya) va nihoyat, nisbatan qisqa vaqt mobaynida, malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasi muayyan bir kasbiy faoliyat va unda foydalaniladigan mehnat qurollari, kasb-hunarni egallash yo'llari va mutaxassisning psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar, kasb-hunarning jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy himoyalanganligi kabi ma'lumotlar asosida konkret kasb-hunar tanlashning ijobiy motivlarini shakllantirish orqali shaxsda kasb-hunarga qiziqish uyg'otishdan boshlanadi.

Materiallar va metodlar. Ma'lumki, har qanday kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog'liq bo'lib, bu sohada pedagog-olimlar (A.A.Abdukadirov, N.V.Kuzmina, P.T.Magzumov, N.Muslimov, F.R.Yuzlikayev, S.N.Chistyakova, Ye.Klimov va boshq.) ko'p yillar davomida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Nomi yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning barchasi kasbga qiziqish – kasb-hunarga yo'naltirilganlikning yuqori ko'rsatkichi bo'lib, u turli bosqichlardan iborat ekanligini ta'kidlaganlar.

Psixologik lug'atda «qiziqish - bu bilishga ehtiyojning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, shaxsning faoliyat maqsadlarini o'rganishga yo'nalganligini ta'minlaydi», deb ta'rif berilgan [Психология, 1956].

S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra «qiziqish» deganda shaxsning yo'nalganligi,

uning faoliyat motivi tushunilib, o'zining aniqlanganligi va emotsional jozibadorlik kuchi bilan shaxsning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qiladi [С.Л.Рубинштейн, 1956: 630].

Pedagogikada "qiziqish" shaxs hayotining real sharoitlarida paydo bo'lib, uning mavjud bo'lgan ob'ektiv munosabatlarini o'zida aks ettiradi, deb qaraladi. Shaxs faoliyati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi, ehtiyojlar asosida esa ma'lum bir sohalarga nisbatan qiziqish shakllanadi. Qiziqish shaxsning atrof muhit va ob'ektlarga nisbatan psixik jarayonlarning tanlangan yo'nalganligi, faqat o'zi tanlagan faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyoji va faollikni oshirishga undaydigan omil sifatida namoyon bo'lib, inson faoliyatining samarali va sarmahsul bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib "kasbga qiziqish" tushunchasiga aniqlik kiritamiz.

Qiziqishning umumiy tarkibi L.G.Antipova tomonidan taklif qilingan bo'lib, o'z ichiga intellektual (tafakkur, xotira, tasavvur va hokazo), emotsional va irodaviy jarayonlarni oladi. Bunda qiziqishning uch komponentlik tizimi intellektual, emotsional va irodaviy hodisalarning umumiy yig'indisini emas, balki barcha psixik jarayonlarning o'zaro murakkab munosabatini tashkil qilishi ta'kidlanadi [Л.Г.Антипова, 1987: 8].

Ta'kidlash joizki, kasb-hunarga qiziqishning to'rtinchi komponenti – kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar inson hayoti davomida yuqoridagi uchta komponent bilan o'ziga xos ravishda qo'shiladi va bir-birini rivojlantiradi. Ularni o'zaro qarama-qarshi qo'yish, birining ahamiyatini ikkinchisiga nisbatan oshirish yoki kamaytirish shaxsning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [Н.В.Савин, 1983: 82].

O'quvchilarda kasbga qiziqish shakllanishiga yosh davrining ham ta'siri katta. Xususan, psixologiya sohasidagi olimlardan I.S.Kon o'z tadqiqotlarida o'smir yoshidagi o'quvchilarda ta'lim motivlari ancha o'zgarib, ijtimoiy rollarning o'zgarishi faollashadi – faoliyat jarayonida ko'proq mustaqillik va o'ziga ishonch namoyon bo'la boshlaydi, deb ta'kidlaydi. O'smirlik yoshidagi o'quvchilar o'z taqdiriga taalluqli qaror qabul qilishda bo'layotgan voqealarning passiv tomoshabinidan faol ishtirokchisiga aylanadilar [И.С.Кон, 1978].

A.R.Luriya [A.R.Luriya, 1974] va P.Ya.Galperin [P.Ya.Galperin, 1985; P.Ya.Galperin, 1998] bolalarni 9-12 yoshida bosh miya yarimsharlari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini ta'minlovchi qadoqsimon tana (komissural tolalar)ning rivojlanishi va miyenilizatsiyasi sodir bo'lishini aniqlaganlar. Shu davrda miya qabul qilayotgan ma'lumotlariga to'liq ishlov berishni boshlaydi. 12 yoshdan 16 yoshga qadar bo'lgan davrda esa, garmonlar ta'sirining ortishi sababli, bola xulq-atvorida sodir bo'ladigan hodisalarga munosabatining o'zgarishi sodir bo'ladi – bola o'zini-o'zi va atrof-muhit (tabiiy va ijtimoiy)ni anglay boshlaydi, unda turli ehtiyojlar shakllanadi.

J.Piajening ta'kidlashicha, 12-15 yoshlarda shaxs intellektining rivojlanishida sezilardi o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bu yoshda kishida gipotetik-deduktiv tafakkur – atrof muhitda sodir bo'layotgan voqea-xodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish, o'z shaxsiy hayotini o'rganish va rejalashtirish kabi qobiliyatlar shakllanadi [I.S.Kon, 1989].

S.N.Chistyakovaning fikriga ko'ra, 14-16 yoshlardagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, kasbga qiziqishni shakllantirish va kasb tanlash jarayonlari ancha faol va samaraliroq bo'lib, buning sababi bu yoshda o'quvchilarda ideallar shakllanadi va ular nisbatan qat'iy hayotiy maqsadlarni rejalashtiradilar [S.N.Chistyakova, 1983].

A.P.Seyteshev o'z ilmiy tadqiqotlarida sub'ektiv omillar qatoriga bilishga va kasbga qiziqish, moyilliklarni, muayyan bir kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishning psixologik mexanizmi sifatida esa turli qobiliyatlarni kiritgan [A.P.Seyteshev, 1988].

Ye.A.Klimov har qanday sohadagi kasbiy faoliyat umumiy va maxsus qobiliyatlarni talab qiladi va ularning o'zaro muvofiq bo'lgan munosabati orqali ro'y

berishini aniqlagan [Ye.A.Klimov, 1988: 9].

Yuqoridagi fikrlarga qo`shilgan holda P.T.Magzumov o`quvchilarda kasb-hunarga qiziqish shakllanishidagi asosiy omillar sifatida ota-onalar, sinf rahbari va fan o`qituvchilarining maslahati, OAV va badiiy adabiyot kabilarni keltirgan [Dj.R.Gulyamov i dr., 2014: 14-18].

Ye.M.Pavlyutenkov shaxsni kasb-hunarga yo`naltirishda, xususan unda kasb-hunarga qiziqishini shakllantirish va kasb tanlashida kasbiy faoliyat motivi, hayotiy qadriyatlar va tajriba, bo`lajak kasbiy faoliyat to`g`risida tushuncha kabi omillarga alohida e`tibor qaratgan [Ye.M.Pavlyutenkov, 1980].

S.N.Chistyakova va N.N.Zaxarov tadqiqotlarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish omillarini uch guruhga – umumiy, tashqi (regional) va ichki (individual) omillar guruhiga ajratganlar. Bunda umumiy omillar guruxiga jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzumiga bog`liq bo`lgan makromuhit omillari, tashqi omillar guruhiga – konkret bir regionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari, ichki omillarga esa o`quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlari kiritilgan [S.N.Chistyakova i dr., 1987].

N.V.Groxolskaya kasbga tegishli bilimlarni rivojlanishida kuchli omil bo`lib shaxsni o`ziga adekvat yuqori baxo berishi xizmat qilishini aniqlagan [N.V.Groxolskaya, 1994].

Dj.R.Gulyamov va Q.M.Nurboyev o`z tadqiqotlarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishga ta`sir ko`rsatuvchi omillar deb kasbiy faoliyatning istiqboli, mazmuni hamda kasb-hunarning psixofiziologik talablari, mutaxassis maslahati va oilaviy an`ana kabilarni aniqlaganlar. Bundan tashqari, kasb-hunarga qiziqish shakllanishiga o`quvchilarda shaxsiy kasbiy rejaning mavjudligi hamda qay darajada to`liqligi va asoslanganligi bilan belgilanishini tajriba-sinov yo`li bilan isbotlaganlar [Dj.R.Gulyamov and etc., 2020].

Olingan natijalar tahlili. O`quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati hamda ko`zlagan maqsadi sari intilishi kasb-hunarga qiziqishi bilan uzviy bog`liq bo`ladi. O`quvchilarda kasb-hunarga qiziqish shakllanganligi kasb-hunarga oid ma`lumotlarni ko`proq olishga intilishlarida o`z aksini topadi. Maktablarda o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishga qaratilgan tadbirlarning mazmuni va mohiyati, shakl va metodlari o`quvchilarda kasb-hunarlariga, shu jumladan zamonaviy kasb-hunarlariga oid bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo`lishi kerak.

“Kasb-hunarga qiziqish” deganda shaxsning kasb-hunar tanlashga yo`nalganligi, tanlagan sohasining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlarini anglagan holda kasbiy motivlarining shakllanganligi bilan ifodalanib, shaxsning kasb-hunar haqida ko`proq ma`lumot olishida, uni egallash maqsadida o`zida kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalarni shakllantirish faolligini oshirishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

Kasb-hunarga qiziqishni uch tarkibiy komponenti (intellektual, emotsional va irodaviy komponentlar) bilan birga to`rtinchi komponentni – kasb-hunar tomonidan mutaxassisning kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalariga, xamda uning qobiliyatlariga qo`yiladigan talablarni ham o`zida aks ettiradi. Ushbu to`rtta komponent o`zaro munosabatda va mutanosib bog`liqlikda bo`lib, inson shaxsiga hamda uning hayot faoliyatiga ta`sir ko`rsatadi.

Kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish bu, birinchi navbatda, o`quvchida mehnatsevarlikni hamda unga ijodiy yondashish tuyg`usini tarbiyalash, kasb-hunar tanlashdagi mas`uliyat va kasbning jamiyat uchun ahamiyatini xis qilishni tarbiyalashdir. O`z navbatida, bilishga qiziqish ob`ekti bilish jarayonining o`zi bo`lib, xodisalarning ma`nosini tushunish, tegishli soha bilimlarining nazariy va ilmiy asoslarini chuqurroq o`rganish bilan belgilanadi. O`quvchining kasb-hunarlariga oid bilimlarni egallashga qiziqishi uning darsda va darsdan tashqari jarayonlarda faollik ko`rsatishiga, olayotgan bilimlarining sifatiga, ta`lim olishning ichki motivlarini shakllanishiga, o`z hayotiy pozitsiyasiga ega bo`lishiga olib keladi. Bu esa ta`lim-

tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlab, o'quvchida kasb-hunarga qiziqishni bilim olishga qiziqish bilan o'zaro uyg'unlikda shakllanishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda kasb-hunarga qiziqishning shakllanish jarayoni turg'un va faol bo'lishi ularni maqsadlariga erishishlarida hamda mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida yordam beradi. Qiziqish dinamik, ongli va turg'un shakllansagina o'quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Qiziqishning dinamikligi – doimo faolligi va shakllanish jarayonida o'zgarishga moyilligida aks etadi.

Qiziqishning ongliligi – shaxsning o'ziga-o'zi baho berishini kasb-hunarga munosabati bilan belgilanadi.

Kasb-hunarga qiziqishning turg'unligi – aynan bir kasb (yoki kasbiy soha)ga nisbatan ijobiy va faol munosabatning doimiylikida namoyon bo'ladi.

Psixologiya va pedagogika sohalari vakillarining tadqiqotimiz mavzusiga oid ilmiy asoslangan xulosalariga tayanib, 12-16 yosh davri maktab o'quvchilarida kasb-hunarga qiziqish shakllantirish uchun optimal davr, deb hisoblash mumkin. Biron-bir kasbiy faoliyat turiga nisbatan erta shakllangan qiziqish uzoq vaqt saqlanib qoladi va kasbiy maqsadning asosini tashkil etadi.

Maktab o'quvchilarining kasb-hunar tanlashi ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmuasi ta'sirida sodir bo'ldi. Ob'ektiv omillarga shaxs hoxishi va irodasiga bog'liq bo'lmagan, lekin kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining sifatini oshirish uchun sharoit yaratadigan quyidagi omillarni kiritamiz: ota-ona va qarindoshlarning, pedagog-o'qituvchilarning, o'rtoqlarning, kasb egasining va kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassisning maslahatlari, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar, kasbning jamiyat uchun ahamiyati.

Sub'ektiv omillar qatoriga esa o'quvchining individual va psixofiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan omillar bilan bir qatorda o'z bilimlarini amalda qo'llashga qiziqishi, mas'uliyat, intizomlilik va ideal (ya'ni badiiy adabiyot yoki filmlardagi asar qahramonlariga xavas), kasb-hunarni o'quvchining shaxsiy qobiliyatlariga talablarini to'g'ri kelishi, kasbni mahorat darajasida egallashga bo'lgan hoxish-istak va shu kabilar kiradi.

Har qanday kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati mutaxassisdan faqatgina bitta qobiliyat yoki sifatni emas, balki ularning muayyan kombinatsiyasini talab qiladi. Bu kombinatsiyasi ikki guruh qobiliyatlarni – ko'pchilik kasblar uchun nisbatan umumiy qobiliyatlar va faqat ayrim kasblar uchun xos bo'lgan maxsus qobiliyatlardan iborat bo'ladi.

Xulosa. Kasbga qiziqish insonning kasb-hunar tanlashidagi birinchi jiddiy qadami bo'lib, o'quvchining shaxsiy kasbiy rejani asosi hisoblanadi. Kasbga qiziqish bilan bilishga qiziqish qay darajada o'zaro mutanosib bo'lsa, ularning o'zaro ta'siri ham shu darajada kuchli bo'ladi.

O'quvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish kasb tanlashga yo'naltirish ishining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, maktablarda bosqichma-bosqich va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib rejalashtirilishi va tashkil etilishi kerak. Bunda beriladigan ma'lumotlar kasb-hunarlarning o'ziga jalb qiluvchi tomonlaridan tashqari kasbiy faoliyatning mazmuni, ijtimoiy ahamiyati va mutaxassisning psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan umumiy va maxsus kasbiy talablar, zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar to'g'risida ham yetarlicha chuqur tushunchalarni o'z ichiga qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning turli zamonaviy kasb va hunarlar to'g'risidagi tasavvurlari qanchalik keng va chuqur bo'lsa, ularni kasbga qiziqishi shunchalik ongli va turg'un bo'lib shakllanadi.

Kasbga qiziqish o'smir-yoshlarning o'z kelajagi yuzasidan qaror qabul qilish davridagi sezitivligi bilan bog'liq bo'lgan psixologik va pedagogik fenimen hisoblanadi. 12-16 yosh davrida bolalarda o'zini-o'zi baholashning ahamiyati ortganligi sababli, kasb-hunarga qiziqishni ongli va turg'un bo'lib shakllana boshlaydi. Bu esa,

o`z navbatida, o`quvchilarda tegishli o`quv predmetlariga qiziqishni to`liq namoyon bo`lishini va asoslangan kasb tanlash motivlari shakllanishiga olib keladi.

O`quvchilarning har qanday kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati ularda kasb-hunarga qiziqishning turg`unligi, faolligi va ongliligi hamda umumiy va maxsus qobiliyatlarining o`zaro uyg`unligiga bog`liq.

ADABIYOTLAR:

[1]. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi “Kambag`al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o`qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4804-son qarori // <https://lex.uz/docs/4945748>

[2]. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrda “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 792-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/5800745>

[3]. Антипова Л.Г. Проблемы формирования профессиональных интересов у учащихся средних профтехучилищ: Метод. пособие. –М.:Высш. шк., 1987.

[4]. Гальперин П.Я. Методы обучения и умственного развития ребенка. М.: Изд-во Моск.ун-та, 1985. - С.3-9.

[5]. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука. М., 1998

[6]. Грохольская Н.В. Диагностика и развитие профессиональной компетентности инженерно-педагогических работников (психологический аспект): Дисс. ... канд.психол наук. – Т., 1994.

[7]. Гулямов Дж.Р., Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в современных условиях // Ж. “Педагогика”, 2014. № 3, - С.14-18

[8]. Климов Е.А. Психологические основы выбора профессии // Психологические аспекты совершенствования труда учителя сельской школы. –М., 1988.

[9]. Кон И.С. Открытие “Я”. –М.: Политиздат, 1978. – 366 с.; Психология ранней юности: Кн.для учителя. –М.: Просвещение, 1989.

[10]. Кон И.С. Психология ранней юности: Кн.для учителя. –М.: Просвещение, 1989. 69-бет.

[11]. Лурия А.Р. Об историческом развитии познавательных процессов. М., 1974.

[12]. Павлютенков Е.М. Формирование мотивов выбора профессии / Под ред. Б.А.Федоршина.. –Киев.:Рад. школа, 1980.

[13]. Психология. Словарь/Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М.: Политиздат, 1990.

[14]. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. –М., Педагогика, 1956.

[15]. Савин Н.В. Педагогика / Ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1983.

[16]. Сейтешев А.П. Пути профессионального становления учащейся молодежи. –М.:Выс.шк., 1988.

[17]. Чистякова С.Н. Профессиональная ориентация школьников. –М., Педагогика, 1983.

[18]. Чистякова С.Н., Захаров Н.Н. Профессиональная ориентация школьников: Организация и управление. –М.:Педагогика, 1987.

[19]. Gulyamov Dj.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Personal professional plan of students as a factor of a targeted organization of proforientation work and a conscious profession choice / European Journal of Molecular & Clinical Medicine: Volume 07, Issue 07, 2020 / https://ejmcm.com/article_3309.html. -P.960-969.

«SMART TA'LIM» INNOVATSION TA'LIM MODELI SIFATIDA

Zaripova Dilnoza Anvarovna,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
Axborot Texnologiyalari Universiteti, p.f.f.d., (PhD)

«SMART-ОБУЧЕНИЕ» КАК НОВАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ

Зарипова Дилноза Анваровна,
Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада аль-Хорезми к.п.н., (PhD)

«SMART-LEARNING» AS A NEW EDUCATIONAL MODEL

Zaripova Dilnoza Anvarovna,
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-
Khorezm, d.p.p.s., (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'qituvchilar va talabalarning SMART-ta'limning zamonaviy ta'lim modeliga munosabatini o'rganish va tahlil qilingan. Hamda, maqolada SMART ta'limni joriy etish masalalariga e'tibor berilgan. SMART muhitining yuqori ahamiyati va ijobiy ta'sirini tan olish to'g'risida umuman olganda ta'limni rivojlantirish va boshqa tomondan, ta'lim jarayoniga SMART texnologiyalarini joriy etish masalasida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarning faol subyektiv pozitsiyasi yo'qligi to'g'risida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim islohotlari, innovatsion o'qitish, faol ta'lim, tarmoq bumerang, elektron ta'lim, kompyuter yordamida o'qitish, aqlli texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается и анализируется отношение учителей и учащихся к современной образовательной модели смарт - обучения. Также, в статье уделено внимание вопросам внедрения SMART образования. Рассматривается признание высокой значимости и положительного влияния смарт-среды на развитие образования в целом и, с другой стороны, об отсутствии активной субъективной позиции обучающихся и педагогов по вопросу внедрения смарт-технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: реформы образования, инновационное преподавание, активное обучение, сетевой бумеранг, электронное обучение, компьютерное обучение, интеллектуальные технологии.

Abstract. This article examines and analyzes the attitude of teachers and students to the modern educational model of smart learning. Also, the article focuses on the implementation of SMART education. The article considers the recognition of the high importance and positive impact of the smart environment on the development of education in general and, on the other hand, the absence of an active subjective position of students and teachers on the introduction of smart technologies in the educational process.

Keywords: education reforms, innovative teaching, active learning, network boomerang, e-learning, computer-assisted learning, smart technology.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida innovatsion faoliyatni ta'lim jarayoniga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Zero, ta'limning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash va yuqori malakali kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Halqaro hamjamiyatda pedagogik innovatsiyalar global miqyosda ahamiyatli ta'lim-tarbiya jarayonlarida insoniyat uchun serqirra imkoniyatlar ochib bermoqda. Bunday innovatsiyalar ta'limni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishini belgilaydi,

shuningdek axborotlashgan jamiyatda ilmiy-texnika jadal rivojlanishi va buning hayotimizdagi aks etayotganligi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal etish imkoniyatini beradi.

Aqlli ta'lim yangi AKT orqali ta'limni o'zgartirishning eng ilg'or bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotchilar doimiy ravishda ta'kidlaganidek, aqlli ta'lim, shubhasiz, ta'limni zamonaviy tezkor dunyo talablariga moslashtirishga va davom etayotgan texnologik inqilobdan omon qoladigan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilishning muhim istiqbolidir. Ko'pgina tadqiqotlar SMART treningining samaradorligi va jozibadorligini tasdiqlaydi [1]. Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish intellektual ta'limni qo'llab-quvvatlovchi uchta asosiy pozitsiyani aniqlashga olib keladi:


1. Mobil texnologiyalar
2. Raqamli darsliklar
3. Bulutli texnologiyalar.

Mobil texnologiyalar SMART Learningning asosiy texnologiyasidir, chunki u o'quvchilarning shaxsiy xohishlariga ko'ra hamma joyda o'rganish strategiyasini ifodalaydi. Smartfonlar, planshetlar va boshqa ko'chma qurilmalardan foydalangan holda talabalar har qanday joyda, hatto an'anaviy maktab binosidan tashqarida ham o'quv topshiriqlarini bajarishlari mumkin. E. R. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar. Syksom [2], ta'limda mobil qurilmalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

2. S. Djangning so'zlariga ko'ra, raqamli darslik «kelajakka yo'naltirilgan», texnologik jihatdan takomillashtirilgan va yanada jozibali darslik [3]. An'anaviy darslikning xususiyatlaridan tashqari, raqamli versiya o'z-o'zini o'rganish daftarchasi, ish daftarchasi va lug'at vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, u turli xil innovatsion o'quv qo'llanmalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli darslik video, animatsiya, virtual haqiqat yoki giperhavola kabi ilg'or texnologik elementlardan foydalanadi. Raqamli darslik ham interaktiv bo'lib, shu orqali har bir o'quvchining qobiliyati, mahorati va darajasiga moslashadi. Raqamli darslik n-ekran deb ataladigan muhitda ishlaydi (ba'zan uchta ekran deb ataladi, uchta asosiy foydalanish kontekstiga nisbatan: Internet, mobil telefon, televizor), shuning uchun uni har qanday ekranda – kompyuter, planshet, smartfon, televizorda ishlatish mumkin.

3. Bulutli texnologiya - bu keng qo'llaniladigan atama bo'lib, uning ta'rifi bo'yicha bir qator noaniqliklarni o'z ichiga oladi. Bulutli texnologiya o'zining eng oddiy shaklida har xil turdagi dasturlar yoki materiallarni shaxsiy kompyuter disklaridan tarmoqqa (bulutga) o'tkazish strategiyasidir, shunda ular istalgan joyda va istalgan qurilmada ishlatilishi mumkin [4]. Ta'lim nuqtai nazaridan, bulutli texnologiyalar, sodda qilib aytganda, o'quv materiallarini turli formatlarda (matn, film, ovoz va boshqalar) saqlaydigan texnologik bulutdir. Ushbu bulutda ilovalar va ta'lim dasturlari, shuningdek, ta'lim sohasidagi turli manfaatdor tomonlar (talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar, ta'lim muassasalari ma'muriyati va boshqalar) tomonidan ishlatiladigan aloqa vositalari o'rnatiladi. Texnologik nuqtai nazardan, bu bulut barcha qurilmalarda (smartfonlar, kompyuterlar, televizorlar va boshqalar) mavjud bo'lib, o'quv jarayonini hamma joyda va istalgan vaqtda taqdim etadi. A. Middleton [5] shuningdek, Smart Learning-ning o'quvchilarga yo'naltirilgan jihatlari va aqlli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini ko'rib chiqadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni o'rganishda ishtirok etishga va o'z mustaqilligini yanada boy shaxsiy kontekst orqali yanada ochiq, bog'langan va kengaytirilgan usullar bilan oshirishga undaydi. V. P. Tixomirov SMART-trening haqida barcha ta'lim jarayonlarini, shuningdek, ushbu jarayonlarda qo'llaniladigan usul va texnologiyalarni har tomonlama modernizatsiya qilishni o'z ichiga olgan yangi tushuncha sifatida gapiradi. Ta'lim nuqtai nazaridan SMART tushunchasi aqlli taxta, aqlli ekranlar, istalgan joydan Internetga kirish kabi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu texnologiyalarning har biri

tarkibini ishlab chiqish, uni etkazib berish va yangilash jarayonini yangicha tarzda yaratishga imkon beradi [6].



Onlayn ravishda SMART metodidan foydalanish uchun esa rasmda keltirilgan shakilni to'ldirish va uni tekshirish uchun yuborish mumkin bo'ladi.



Ushbu dasturdan foydalanishning yana bir qulayligi shundaki undag har bir ma'lumot onlayn tartibda shakilantirilgan va bu nga agr o'qituvchi hohlasa ma'lumotlarni o'zgartirish, yangi ma'lumotlar qo'shish yoki olib tashlash, dizayn borasida ishlash imkoniyatini beradi. Lekin talabalar dasturdan foydalanish uchun o'sha bir marta tashlangan linkdan foydalanaveradilar. Dasturning bu imkoniyati testlardan foydalanishda hamqulay o'qituvchi hohlas tes yoki anketa so'rovnomasiga o'zgaish kiritish orqali kerakli savollarni osonlikka qo'shish yoki olib tashlashi mumki. Tizimning yana bir avzaligi shundaki unda aftomatik baholash va foydalanuvchularni ro'yhatga olish funksiyasi ham mavjud, bu esa o'qituvchga ham o'quvchiga ham bir munha qulayliklar yaratadi

Talabalar bilimni nazorat qilishda "SMART" texnologiyalardan foydalanish metodikas mavzusini o'qitishda ishlab chiqilgan elektron resursning tajriba sinovida 48 ta talaba ishtirok etdi. Ular onlayn ravishda o'z telefonlaridan men tomonimdan dasturga kirish huquqini beruvchi link orqali kirib dasturdan fodalandilar va unda berilgan SMART metodidan onlayn foydalanish imkoniyatidan foydalanib ko'rdilar.

SMART ta'limining tuzilishi shunday qilib, biz «SMART Learning» tushunchasini talqin qilishning turli xil variantlari mavjudligini ta'kidlashimiz mumkin, ammo ularning umumiy jihatlari juda ko'p: SMART Learning axborot resurslari bilan boyitilgan va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga kiritilgan o'quv jarayonining mustaqil, motivatsion, moslashuvchan modeli sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, SMART Learning o'quvchilarning ta'lim olish usullarida paradigma o'zgarishini taklif qiladi. Talabalar va o'qituvchilar tarkibini moslashish qobiliyati juda muhim bo'lgan tez o'zgaruvchan dunyoga to'liq tayyorlash uchun zamonaviy aqlli texnologiyalardan foydalangan holda yaxlit o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunga kelib, SMART-ta'lim loyihasi SMART texnologiyalaridan

foydalangan holda ta'lim Tashkilotining Smarts muhitida maktab o'quvchilari va talabalari bilan qanday ishlashni batafsil tavsiflovchi aniq uslubiy ta'lim echimlarini ishlab chiqmagan. O'qituvchilar zamonaviy ta'lim yangiliklariga mustaqil ravishda moslashishlari, an'anaviy o'qitish usullarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganishga aylantirishni o'rganishlari kerak.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilar qanday baholanishini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Kelajakda bunday yuqori texnologiyali echimlarni amalga oshirishda etakchi rolini hisobga olgan holda SMART-trening ta'limda, shuningdek, o'quvchilarda «SMART-ta'lim» yangi ta'lim paradigmasini shakllantirish bo'yicha o'z pozitsiyalarini bilib oling. Buning uchun biz o'qituvchilar va talabalarining qancha ekanligini baholash uchun tadqiqot o'tkazdik ta'lim tashkilotlarida SMART ta'limni joriy etish bo'yicha ishlar olib boriladimi yoki yo'qmi, aqlli ta'lim tushunchasi bilan tanish; o'qituvchilar va talabalarining SMART ta'limni joriy etishga munosabatini aniqlang va innovatsion ta'lim muhitining mavjudligi.

Olib borilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 54 foizi «aqlli ta'lim» tushunchasini yaxshi bilishadi, ammo respondentlarning 16 foizi ushbu kontseptsiya haqida umumiy tasavvurga ega emaslar va ko'pchiligi berilgan savolga javob berishda qiynalishgan. «SMART-ta'lim» tushunchasining mohiyatiga kelsak, so'rovnomaga o'tkazganda aksariyati quyidagilarni hisoblashadi. «SMART Education» - bu ta'lim tizimi, ammo respondentlarning 12 foizi ko'proq moyil ushbu kontseptsiyaning atrof-muhit yoki paradigmatic ta'rifiga ko'ra, 10 % SMART ta'lim deb ta'kidlaydi bu boshqariladigan jarayon va faqat 5% bu o'quv tarmog'i deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, so'rov ishtirokchilaridan taqdim etilgan elementlarni konkretlashtirish so'ralganda, biz quyidagi javoblarni oldik: zamonaviy ta'lim maydoni va texnik qo'llab-quvvatlash respondentlarning ko'proq foizni, yangi texnika va yondashuvlarni qayd etdi ta'limda - 6% ni afsuski, bu savolga javob berish qiyin kechdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тихомиров В. П. Мир на пути Smart education. Новые возможности для развития // Открытое образование. 2011. № 3. С. 22-28. 7.

2. Glasswell K., Davis K., Singh P., McNaughton S. Literacy lessons for Logan learners: A smart education partnerships project // Curriculum Leadership. 2010. Vol. 31. № 8. P. 1-4.

3. Jang S. Study on Service Models of Digital Textbooks in Cloud Computing Environment for SMART Education // International Journal of U- & E-Service, Science & Technology. 2014. Vol. 7. № 1. P. 73-82. 11.

4. Kim B. H., Oh S. Y. A Study on the SMART Education System Based on Cloud and N-screen // Journal of the Korea Academia-Industrial Cooperation Society. 2014. Vol. 15. № 1. P. 137-143.

5. Middleton A. Smart learning: Teaching and learning with smartphones and tablets in post compulsory education [Электронный ресурс]. URL: <https://www.academia.edu/12512765/>

6. Smart_learning_teaching_and_learning_with_smartphones_and_tablets_in_post_compulsory_education (дата обращения: 21.08.2021).

**ДАРС – ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ ВОСИТАСИ
СИФАТИДА****(ЁЧҚБТ фани мисолида)***Нумонова Дилдор Умурзоқовна**Навоий давлат педагогика институти, фалсафа фанлари доктори,
доцент.**Рузимуротова Умида Хамза кизи**Навоий давлат педагогика институти, талаба***УРОК – КАК СРЕДСТВО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ
УЧАЩИХСЯ****(на примере дисциплины Допризывной начальной военной
подготовки молодёжи)***Нумонова Дилдор Умурзоқовна,**Навоийский государственный педагогический институт, доктор
философии, доцент.**Рузимуротова Умида Хамзаевна**Навоийский государственный педагогический институт, студент***LESSON AS A MEANS OF PROFESSIONAL ORIENTATION OF
STUDENTS****(on the example of the discipline of pre-conscription initial military
training of youth)***Numonova Dildor Umurzokovna,**Navoi State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy, Associate Professor.**Ruzimurotova Umida Khamzaevna**Navoi State Pedagogical Institute, student*

АННОТАЦИЯ: Кириш маълумотлари / долзарблиги. Ўқувчи-ёшларни касб-хунарга йўналтириш масаласи Ўзбекистон Раҳбарияти ва Хукуматининг алоҳида диққат-эътибор марказида турган муҳим вазифалардан ҳисобланади. Мактабда касбга йўналтириш ишларининг натижадорлиги ўқувчиларнинг қизиқишлари, қобилиятлари ва шахсий касбий режаларидан келиб чиқиб ташиқил этилиши, келажакда таълимни давом эттиришлари ёки эгаллаган касблари бўйича меҳнат фаолияти билан шугулланишларига оид муҳим қарорни тўғри қабул қилишлари билан белгиланади. Мазкур мақолада ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришида дарснинг восита сифатидаги ўрни ва имкониятлари ЁЧҚБТ фани мисолида ёритилган.

Методлар. Дарснинг ўқувчиларни касбга йўналтиришидаги имкониятлари мақсадли педагогик кузатиш методи воситасида ўрганилди; касбга йўналтиришига оид материалларни дарс мазмунига сингдирилганлиги ўқув хужжатларини ўрганиш методидан фойдаланилди; фан ўқитувчиларининг дарсни касбга йўналтиришидаги имкониятларига оид фикри ва муносабатини тадқиқ этишида суҳбат методи қўлланилди; ўқувчиларни касбга йўналганлиги динамикасини аниқлашда анкеталаштириш методи билан фойдаланилди; тадқиқот натижалари қиёсий таҳлил қилинди.

Натижалар. Ўқувчиларни ҳарбий касбларга йўллашга мажмуали ёндашиш уларда нафақат шу соҳа касбларига, балки бошқа соҳа касбларига нисбатан ҳам қизиқиш шакллантириши мумкин. Бунда ўқувчиларга касблар тўғрисида қўшимча маълумотлар бериш билан бирга, уларни касбни эгаллашга доир

маслаҳатларнинг ҳам аҳамияти каттадир. Таълим муассасаларида дарс жараёнида ўқувчиларни касбга йўналтириши ҳамда бу жараённи замон талаблари асосида бошқариши учун аниқлик, мақсадга мувофиқлик, кетма-кетлик ҳамда назариянинг амалиёт билан боғлиқлиги каби тамойилларга риоя қилиши муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Хулосалар. Дарс жараёнида касб-ҳунарга оид материалларни босқичма-босқич, тизимли ва, энг муҳими, ўтилаётган мавзуга боғлаб ҳавола қилиниши ўқувчиларни ушбу жараённинг фаол иштирокчисига айланишларига ва таълим жараёнида “субъект – субъект” муносабатлари таъминлашга ва таъминлайди. Бу эса, ўқувчиларга касб-ҳунарга йўналтиришига оид маълумотлар бериши ва касб танлаш мотивациясини шакллантириши билан бирга, уларда мустақилликни ва билиши фаоллигини ривожлантиришига ёрдам беради

Таянч сўзлар: ўқувчи, касбий ўзини англаш, касб-ҳунарга йўналтириши, касбга қизиқиши, дарс, дарс режаси, касб танлаш мотивацияси, касбий маслаҳат.

АННОТАЦИЯ: Вводная информация / актуальность. Вопрос о профессиональной ориентации учащихся является одной из важных задач, поставленных Руководством и Правительством Узбекистана перед учителями и педагогами. Эффективность профориентации учащихся в школе определяется тем, что данная работа организуется исходя из их интересов, способностей и личных профессиональных планов. Это способствует принятию правильного решения относительно будущего профессиональной пути - будут ли они продолжать образование или будут заниматься профессиональной деятельностью, которые они приобрели. В данной статье на примере преподавания дисциплины Допризывной начальной военной подготовки молодежи освещены роль и возможности урока, как инструмента ориентации учащихся на профессию.

Методы. Изучены возможности урока в направлении учащихся к профессии с помощью метода целевого педагогического наблюдения; использован метод изучения учебных документов для включения в содержание урока материалов, связанных с профориентацией; методом интервью было исследовано мнение и отношение учителей-предметников к возможностям направления урока на выбор профессии; анкетный метод использовался для определения динамики карьерной ориентации студентов; результаты исследований были подвергнуты сравнительному анализу.

Результаты. Комплексный подход к подготовке учащихся к военным профессиям может заинтересовать их не только к профессиям военной сферы, но и других сфер профессиональной деятельности. Помимо предоставления учащимся дополнительной информации о карьере, также важны советы о том, как их достигнуть. В учебных заведениях стало важным следовать таким принципам, как точность, целесообразность, последовательность, а также связь теоретического материала с практикой. Это позволит управлять процессом профессиональной ориентации учащихся исходя из требований времени.

Выводы. Предоставление в ходе урока поэтапное, систематическое и, главное, обращение к тематике профессиональных материалов позволит учащимся стать активными участниками этого процесса и установить «субъект-субъектные» отношения в учебном процессе. процесс. Это помогает учащимся развивать самостоятельность и познавательную активность, а также дает информацию по профориентации и мотивации к выбору профессии.

Ключевые слова: учащийся, профессиональное самосознание, профориентация, профессиональный интерес, урок, план урока, мотивация, выбор профессии, профориентационная консультация.

ANNOTATION: Introductory information / relevance. The issue of professional orientation of students is one of the important tasks set by the Administration and the Government of Uzbekistan for teachers and educators. The effectiveness of career guidance for students at school is determined by the fact that this work is organized based on their interests, abilities and personal professional plans. This helps them make the right decision about their future professional path - whether they will continue their education or pursue the professional activities they have acquired. In this article, on the example of teaching the discipline of pre-conscription initial military training of youth, the role and possibilities of the lesson are highlighted as a tool for guiding students to a profession.

Methods. The possibilities of the lesson in the direction of students to the profession with the help of the method of targeted pedagogical observation were studied; the method of studying educational documents was used to include materials related to vocational guidance in the content of the lesson; the interview method was used to study the opinion and attitude of subject teachers to the possibilities of directing the lesson to the choice of profession; the questionnaire method was used to determine the dynamics of students' career orientation; the research results were subjected to a comparative analysis.

Results. An integrated approach to preparing students for military professions may interest them not only in military professions, but also in other areas of professional activity. In addition to providing students with additional information about careers, advice on how to achieve them is also important. In educational institutions, it has become important to follow such principles as accuracy, expediency, consistency, as well as the connection of theoretical material with practice. This will make it possible to manage the process of professional orientation of students based on the requirements of the time.

Conclusions. Providing during the lesson a phased, systematic and, most importantly, an appeal to the subject of professional materials will allow students to become active participants in this process and establish «subject-subject» relationships in the educational process. This helps students develop independence and cognitive activity, and also provides information on career guidance and motivation for choosing a profession.

Key words: student, professional self-awareness, career guidance, professional interest, lesson, lesson plan, motivation, career choice, career guidance consultation.

Кириш. Ёшларни касб-хунарга йўналтириш методик жиҳатдан – педагогик, мазмун жиҳатидан эса ижтимоий аҳамиятга эга бўлган масала бўлиб, таълим муассасаси фаолияти билан узвий боғлиқ. Ёшлар касбий ўзлигини тўғри англаши эса, ўз навбатида, Янги Ўзбекистоннинг забардаст қурувчилари бўлиб етишишлари учун замин яратади. Шунинг учун ҳам Ўзбекистонда ўқувчи-ёшларни касб-хунарга йўналтириш масаласи алоҳида диққат-эътибор марказидаги вазифалардан ҳисобланади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ишчи касблар бўйича кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2021 йил 8 июндаги ПҚ-5140-сон қарори билан ишчи касблар бўйича кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш, ўқув жараёнларини амалиёт билан боғлаган ҳолда ташкил этиш, ишсиз аҳоли, жумладан ёшлар ва хотин-қизларда замонавий касб ва тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, касб-хунарга ўқитиш муассасаларининг фаолияти самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунга умумий ўрта мактабларнинг 9-11-синфлари ўқувчиларини касб-хунарга ўқитиш тартиби жорий қилинганлиги, касб-хунарга тайёрлаш бўйича умумий ўрта таълим муассасаларига бириктирилган яқин ҳудудда жойлашган касб-хунарга ўқитиш марказлари, маҳалла аҳолисини касб-хунарга

ўқитиш масканлари ва қисқа муддатли курслар очилган таълим муассасаларининг ўқув бинолари, шу жумладан, синф хоналари ва устахоналаридан бепул фойдаланилиши ёрқин мисол бўла олади.

Касбий ўз-ўзини англаш – 9-11-синф ўқувчилари учун ўзига хос ёш даври ҳисобланади. Айнан 9-11-синф даврида ўқувчилар ўзларининг келажакдаги касбий фаолиятлари тўғрисида қарор қабул қилишлари, касб-ҳунар танлашга оид шахсий режаларини тўғри шакллантиришлари уларнинг самарали ижтимоийлашувларидаги муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Ўрта умумтаълим мактабларининг асосий вазифаси – ўқувчиларни касбга йўналтириш ишларини уларнинг қизиқишлари, қобилиятлари ва шахсий касбий режаларидан келиб чиқиб ташкил этилиши, келажакда таълимни давом эттиришлари ёки эгаллаган касблари бўйича меҳнат фаолияти билан шуғулланишларига оид муҳим қарорни тўғри қабул қилишларига ёрдам беришдан иборат бўлади. Чунки ўқувчиларда касбга қизиқишни онгли, асосланган ва турғун бўлиб шаклланиши учун касб-ҳунар танлаш қай даражада масъулиятли босқич эканлигини таъкидлашнинг ўзигина етарли эмас.

Материаллар ва методлар. Нафақат Ўзбекистонда, балки аксарият кўшни МХД мактабларида ҳам ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришда муаммолар мавжуд бўлиб, булар касбий фаолиятлар турларининг ўзгариш суръатига касбга йўналтириш ишларининг шакл ва методларини мувофиқ келмаслиги, касбга йўналтиришни мажмуавий ва тизимли ташкил этилмаслиги, мактаб ўқувчилари билан касб-ҳунарга йўналтириш ишларини ташкил этиш технологияларини ўқитувчилар билмаслиги ва шу қабилилар.

Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш икки босқичда амалга оширилади. Биринчи босқич – маълумотлар базасини яратиш, яъни мавжуд касб-ҳунарлардан қайси бирини (ёки қайси соҳасини) танлаш мақсадга мувофиқ эканлигини аниқлаш, иккинчиси – касб-ҳунар танлашнинг мотивацион асосини яратиш, яъни нима учун айнан шу касбни танлаш мумкинлиги тушунтирилади. Мазкур фаолиятни дарс жараёнида ҳам самарали ташкил этиш мумкин. Чунки дарс болаларнинг касб-ҳунарларга оид дунёқарашларини кенгайтириш ҳамда касбларга доир маълумотларга қизиқиш шакллантиришда кучли восита бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бунинг учун фан ўқитувчилари дарсда берилаётган билимлар ишлаб чиқаришнинг қайси соҳаларида қўлланилиши мумкинлиги, касб эгалари учун бу билимлардан ташқари қандай малака ва кўникмалар зарур эканлиги ҳақида тегишли маълумотларни ҳавола қилиб боришлари тавсия этилади.

Фан ўқитувчилари дарсни ташкил этишда муаммоли, тадқиқот-изланишли, мустақил таълим ҳамда амалий машғулотларнинг имкониятларидан фойдаланишлари, ўқувчиларни касб-ҳунарларга оид кўшимча маълумотлар бериш орқали уларда келажакда эгалламоқчи бўлган касбга онгли ва турғун қизиқиш шаклланади.

Дарсни интерфаол методларга ва замонавий педагогик технологияларга асосланган ҳолда ташкил қилиш ўқувчилар касб-ҳунарларга оид маълумотларни ўзлаштиришлари, яъни мавжуд замонавий касб-ҳунарлардан қайси бирини танлаш мақсадга мувофиқ эканлигини аниқлашларига ёрдам беради.

Дарсда замонавий касб-ҳунарларнинг маъноси ва мазмунини, нима учун айнан шу касбни танлаш мақсадга мувофиқ эканлигини аста секин тушунтириш орқали ўқувчиларда касбга қизиқиш шакллантирилади. Бу эса, ўз навбатида, касб танлашнинг мотивацион асосини шакллантиришга ҳамда мустақиллик ва фаолликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Ушбу илмий тахминимизни текшириш мақсадида ўрта умумтаълим мактабларининг 10-11 синфларида ЁЧҚБТ дарсларида ўқувчиларни касбга йўналтириш ишлари мақсадли педагогик кузатиш ва ўқув хужжатларини

Ўрганиш методлари воситасида ўрганилди. Дарсларни кузатиш шуни кўрсатдики, машғулотлар давомида ЁЧҚБТ раҳбари ўқувчиларга касб танлаш қай даражада маъсулиятли босқич эканлигини таъкидлаб, уларни касб танлаш масаласига жиддий, пухта ўйлаб ёндашишлари учун зарур амалий ва услубий тавсиялар бериши маълум бўлди. Хусусан, ўтилаётган мавзу ҳарбий соҳадаги қайси касб ва мутахасисликлар билан боғлиқ эканлигини тушунтириб бориш билан бирга, касб соҳасининг мутахасислари иштирокида бинар ўқув машғулотларини уюштириш кабиларни ўз ичига олган.

ЁЧҚБТ дарсларида ўқувчиларни касбга йўналтиришда биринчи вазифа – ўқитувчилар томонидан ўқувчилар учун ҳарбий касбларга оид маълумотлар базасини яратиш, яъни республикамиз Қуролли Кучларида мавжуд бўлган ҳарбий соҳа касбларидан қайси бирини (ёки қайси соҳадаги касбларни) ўқувчилар танлаши мумкинлиги ва, иккинчи вазифа эса, мотивацион асосни яратишдан иборат бўлиб, бунда нима учун айнан шу касбни танлаш мумкинлиги ўқувчиларга асослаб берилиши керак эди.

Мақсадли педагогик кузатишимиз ўқувчиларни ЁЧҚБТ дарси жараёнида касб-хунарга йўналтириш учун берилаётган билимлар фан ёки ишлаб чиқаришнинг қайси соҳаларида қўлланилиши мумкинлиги, касб эгалари учун бу билимлардан ташқари қандай касбий компетентликка эга бўлишлари керак эканлиги ҳақида тегишли маълумотлар бериш орқали ҳам амалга оширилиши мумкинлигини кўрсатди. Таълим жараёнида муаммоли, тадқиқот изланишли ўқитиш, мустақил таълим ҳамда амалий машғулотларнинг имкониятларидан кенг фойдаланиш эса маълум даражада ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг самарадорлигини янада ошириши ўз тасдиғини топди. Дарслар қанчалик қизиқарли бўлса, у инновацион-педагогик технологияларга ёндашган ҳолда ташкил қилинса, ўқувчиларнинг касбга қизиқишлари шунчалик тез шаклланади ва тобора турғун бўлиб боради.

Тажирибали педагог-ўқитувчилар билан ўтказилган суҳбат натижасида дарс жараёнида берилаётган маълумотларни ўқувчилар томонидан тушунарли бўлишига алоҳида эътибор қаратишлари зарур эканлиги таъкидланди. Чунки, ўқувчилар касбларга оид маълумотлар нима мақсадда уларга берилаётганини тушунсаларгина бу жараённинг фаол иштирокчисига айланишлар ва таълим жараёнида “субъект – субъект” муносабатлари ташкил топишига имкон яратилади. Бу эса доимий равишда ўқувчиларда фаолиятнинг ижобий мотивациясини шакллантириб боришга, уларда мустақилликни ва билиш фаоллигини ривожлантиришга ёрдам беради. Натижада ўқувчилар турли соҳа мутахасислар ва касб эгалари фаолиятларининг маъносини ва мазмунини тушуниб борадилар.

Ўрганиш жараёнида, дарс режасига таълимий, ривожлантирувчи ва тарбиявий мақсад билан бирга касбга йўналтирувчи вазифани ҳам киритиш керак, деган хулосага келдик. Чунки дарсда бериладиган маълумотлар мақсадга қаратилган бўлсагина ўқувчиларда касбга қизиқишни шакллантириши мумкин. Акс ҳолда, аниқ бир мақсадга қаратилмаган касбга йўналтиришга оид маълумотлар таъсирида шаклланадиган қизиқиш барқарор бўлмайди. Дарс жараёнида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш мақсадида берилаётган маълумотлар касб танлаш мотивига айланиши учун ҳеч бўлмаганида ўқувчиларда қизиқиш ҳиссини шакллантириши керак, деб ҳисобладик.

Юқоридаги фикр ва мулоҳазаларни эътиборга олиб, ёшларни чақириққа қадар ҳарбий тайёрлиги фанидан дарс ўтишда дидактик, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларига қўшимча равишда касбга йўналтирувчи мақсадни ёки мавзу мазмунига алоҳида банд билан шундай маълумотларни киритиш ўқувчиларда ҳарбий соҳа касбларига қизиқишни шаклланишига самарали таъсир қилиши мумкин, деган фаразни илгари сурдик. Ушбу ишчи

фаразни текшириш мақсадида тажриба-синов ишлари амалга оширилди.

Тадқиқотимиз жараёнида тажриба-синов ишлари Навоий шаҳридаги 19-сонли ўрта умумтаълим мактабларида амалга оширилди. Бунда 106 нафар ўқувчи ва 26 нафар педагог иштирок этди. Тадқиқотимизда иштирок этган ўқувчилар икки гуруҳга бўлиниб, уларнинг бири – назорат гуруҳи (56 нафар ўқувчи), иккинчиси эса – тажриба гуруҳи (51 нафар ўқувчи) деб белгиланди.

Назорат гуруҳида ЁЧҚБТ дарси ва дарсдан ташқари тадбирлар анъанавий равишда, ҳеч қандай ўзгаришсиз олиб борилди. Тажриба гуруҳларида эса ЁЧҚБТ дарси ҳамда дарсдан ташқари тадбирлар – касбга оид тўғрақлар фаолият, экскурсиялар ва мустақил таълим жараёнларида ўқувчиларни касбга йўналтириш ишлари амалга оширилди.

ЁЧҚБТ дарси материаллари, дарс мавзуси ҳисобга олинган ҳолда, ўқувчиларни ҳарбий касбларга оид қўшимча маълумотлар билан таъминланди. Бу тадбирлар ўқувчиларни ҳарбий касбларга оид қўшимча билимларни ўзлаштиришларига имкон яратди, уларнинг билиш фаоллигини оширди.



1-расм. Ўқувчиларнинг касбга қизиқишларини шаклланганлик ҳолати (назорат гуруҳи)



2-расм. Ўқувчиларнинг касбга қизиқишларини шаклланганлик ҳолати (тажриба гуруҳи)

Тадқиқотимизнинг назорат гуруҳида иштирок этган ўқувчиларнинг кўпчилиги ўз касбий фаолиятларини кишилар билан ижтимоий муносабатларга кириш билан боғлиқ бўлишига қизиқиш камроқ эканлигини маълум қилдилар (7,4 %). Шунинг таъкидлаш жоизки, тажриба гуруҳида бу кўрсаткич 5,8 фоизга тенг бўлди.

Назорат ва тажриба гуруҳларида ўқувчиларни ҳарбий соҳа касбларига қизиқиши бир-бирига деярли яқин эканлиги (назорат гуруҳида 7,2%, тажриба гуруҳида эса 5,8%), лекин етарлича баланд эмаслиги аниқланди.

ЁЧҚБТ фанининг “Умумқўшин жанг асослари” боби юзасидан дарс ўтиш жараёнида ўқувчиларга республикадаги қўшин турлари, қўшин турларидаги асосий ҳарбий мутахасисликлар, улар фаолиятининг ўзига хос жиҳатлари тўғрисида умумий маълумотлар берилди.

Ўқувчиларга “Разведка” мавзусини ўқитишда эса Ўзбекистон Қуролли Кучларида разведкачи фаолиятининг мазмуни, вазифалари ва аҳамиятидан ташқари, разведкачиларни касбий тайёрлашни амалга оширувчи республикадаги ҳарбий билим юртлари, разведкачи шахсига қўйиладиган психофизиологик талаблар тўғрисида чуқурроқ тушунча берилди. Бу эса ўқувчиларда разведкачи касби томонидан шу касбни эгаламоқчи бўлган номзод шахсига нисбатан қўйиладиган талаблари тўғрисида чуқурроқ маълумотларга эга бўлишларини таъминлади.

“Мухандислик жиҳозлаш ва уларни кўздан яшириш” мавзусини ўтишда ЁЧҚБТ ўқитувчиси ўқувчиларга, ўқитилаётган мавзуга қўшимча равишда, ҳарбий-муҳандислик қўшинлари, унда мавжуд мутахасисликларнинг турлари, мутахасисларни тайёрлаш масалалари ва уларга қўйиладиган асосий касбий билим, кичикма ва малакалар тўғрисида маълумотлар бердилар. Ўқувчилар, Қуролли Кучларда ҳарбий-муҳандислари нафақат техник фанларни чуқур билиши, балки кучли ирода, юқори интеллектуал қобилиятлар ва юксак

маънавият эгаси бўлишлари ҳам кераклигини тушундилар.

Душманнинг турли ҳарбий техникаси ва кучларига зарар етказишга доир бўлган билимларни бериш “Қуроли Кучларда қўлланиладиган миналар” мавзусини ўтишда амалга оширилади. Ўқитувчи, ўтиладиган дарс мавзусига кўшимча равишда, ўқувчилар билан минёрлик ихтисоси, бу ихтисоснинг кўшин турлари ичида тутган ўрни, минёрлар учун зарур бўлган касбий билим, малака ва кўникмалар тўғрисида ўзаро фикр алмашиш ва уларнинг фикрини кўшимча маълумотлар билан бойитди. Ўқувчилар билан ўтказилга суҳбат натижасида, уларда минёр ихтисосининг ҳарбий соҳа касблари ичида тутган ўрни ва бу мутахасисликни эгаллаш учун зарур касбий сифатлар тўғрисида тушунча шаклланиши аниқланди.

Олинган натижалар таҳлили. Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришда дарснинг восита сифатидаги ўрни ва имкониятларини ўрганиш мақсадида ўтказилган тадқиқот ишларимизнинг натижадорлигини аниқлаш учун назорат ва тажриба гуруҳлари ўқувчилари ўртасида сўров ўтказилди. Ўтказилган сўров натижаларининг қиёсий таҳлили қуйидаги жадвалда ҳавола қилинади.

№	Касб-ҳунар соҳалари	Жавоб натижалари	
		Назорат гуруҳи	Тажриба гуруҳи
1.	Ҳарбий соҳа касблари	7,8%	18,1 %
2.	Ишлаб чиқариш соҳаси	5,2%	9,5%
3.	Молия ва иқтисод соҳалари касблари	62,0%	48,7%
4.	Ижтимоий соҳа касблари	9,4%	12,7%
5.	Техника билан боғлиқ касблар	16,6%	15,0%
6.	Ҳеч қайси соҳа касбларига қизиқмайди	0	0

Жадвалдан кўриниб турибдики, ўқувчиларни ҳарбий касбларга йўллашга мажмуали ёндашиш уларда нафақат шу соҳа касбларига, балки бошқа соҳаларнинг касбларига нисбатан ҳам қизиқиш шаклланишига самарали таъсир қилиши мумкин экан. Бунда ўқувчиларга касблар тўғрисида бериладиган кўшимча маълумотлар билан бирга уларни касбга йўллашга доир маслаҳатларнинг ҳам аҳамияти каттадир. Тажриба гуруҳи ўқувчиларида ҳарбий соҳа касбларига қизиқадиганлар сони 2,5 баробар ортган (18,1 фоизгача) бўлиб, молия ва иқтисодиёт соҳаларининг касбларига қизиқадиган ўқувчилар миқдори эса 39,7 фоизга тушган.

Сўровда иштирок этган ўқувчиларнинг аксарияти ЁЧҚБТ дарслари қизиқарли, лекин бирмунча мураккаб деб ҳисоблайди. Бундай мураккабликнинг боиси сифатида, ўқотар қуроолларни, танк, ўзи юрар қурилмаларни, граната ва миналарни амалда қўллаб кўриш имконияти, асосан плакат ва филмлар орқали амалга оширилиши кўрсатилди. Ўқитувчилар томонидан таълим жараёнида ҳарбий соҳа мутахасисликлари тўғрисида кўшимча маълумотлар бериш эса дарсни янада қизиқарли ва “жонли” қилиб юборади.

Бу фикрга ЁЧҚБТ ўқитувчилари ҳам қисман қўшилдилар. Лекин улар мактабларда ўқувчиларга ҳақиқий ҳарбий техникадан фойдаланиш ва уларнинг техник-тактик имкониятларини намоиш қилишда бир қатор қийинчиликлар мавжудлиги билан асосладилар. Бундан ташқари, ҳарбий техника ва воситалар билан ишлаш бунга етарлича тайёргарлик кўрмаган ва ҳарбий хизмат ўташга психофизиологик нуқтаи назардан тайёр бўлмаган ёшлар учун ниҳоятда ҳавфли эканлигини таъкидладилар. Биз, шубҳасиз, ЁЧҚБТ ўқитувчиларининг эҳтиёткорликлари асосли эканлигини тушунамиз.

Хулоса. Юқоридагиларни ҳисобга олиб, таълим муассасаларида

Ўқувчиларни ҳарбий соҳа касбларига йўналтириш ҳамда замон талаблари асосида бу жараёни бошқариш учун дарсда касбга йўналтириш ишини аниқлик, мақсадга мувофиқлик, кетма-кетлилик ҳамда назариянинг амалиёт билан боғлиқлиги каби тамойилларга риоя қилиган ҳолда ташкил қилиш катта аҳамиятга эга бўлади, деб ҳисоблаш мумкин.

Шу билан бирга, ўрта умумтаълим мактаби юқори синфларида дарс жараёнида ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг самарали амалга оширилиши уларда шу соҳада фаолият юритадиган мутахасисликларга қизиқиш шаклланиши билан боғлиқ бўлади. Бунинг учун фан ўқитувчиси куйидаги вазифаларни бажариш зарур:

- дарс жараёнида ўқувчиларга ҳарбий соҳа касблари тўғрисида маълумот бериш;
- дарсда ўқувчиларда турли соҳа касбларига қизиқиш шаклланишга тизимли ёндашиш;
- дарс жараёнида ўқувчиларга бериладиган касбларга оид маълумотларни аста-секинлик билан мураккаблаштириб бориш;
- касбни жамиятда тутгаан ўрни тўғрисида мисоллар асосида маълумот бериш;
- ўқувчилар касбларга оид оладиган маълумотларини амалий машғулотларда мустаҳкамлаб бориш;
- касбни эгаллаш учун муҳим бўлган психофизиологик талаблар билан ўқувчиларни таништириш;
- касблар тўғрисида маълумотларни йиғишга ўқувчиларнинг ўзларини жалб қилиш орқали уларнинг мустақил билиш фаоллигини ошириш.

Ўқувчиларни дарсда касбга йўналтириш - бўлажак касбий фаолиятларига онгли муносабатда ва касбга қизиқишининг илмий, амалий ва ижтимоий мазмуни билан белгиланади. Ўқувчилар томонидан ўзлари эгалламоқчи бўлган соҳа мутахасисларининг фаолиятлари мазмунини англаб етишлари, унинг мақсади, вазифасини тушунишлари касб танлашга мустақил ва онгли равишда ёндашишларини таъминлайди.

Адабиётлар

[1]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ишчи касблар бўйича кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2021 йил 8 июндаги ПҚ-5140-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5449377>

[2]. Gulyamov Dj.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Personal professional plan of students as a factor of a targeted organization of proforientation work and a conscious profession choice / *European Journal of Molecular & Clinical Medicine: Volume 07, Issue 07, 2020* / https://ejmcm.com/article_3309.html. -P.960-969.

[3]. Гулямов Дж.Р., Нурбоев Қ.М. Дарс жараёнини болаларнинг индивидуаллигига йўналтириш методи: синтезланган дарс // Эл.Ж. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 8). –Б. 140-150.

[4]. Магзумов П.Т. Ўқувчиларни ишчи касбига йўналтириш. -Т.: Ўқитувчи, 2000.

[5]. Макаренко Т.А., Панина С.В. Профессиональное самоопределение старшеклассников: региональный аспект // Ж.: Дискуссия, № 10 (84) ноябрь, 2017. –С.85-90.

[6]. Муслимов Н. Касб танлашга йўллаш. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. –Т., 2007. -205 бет.

[7]. Чистякова С. Н., Родичев В. Ф. Профессиональное самоопределение. М.: ОИЦ «Академия», 2010. -176 с.

[8]. Чистякова С.Н., Родичев Н.Ф., Сахарова В.И. Тенденции развития профессиональной ориентации учащейся молодежи и вызовы времени // *Профессиональное образование в России и за рубежом*. 2013 № 10. С. 23–29;

[9]. Шодиев Н.С. Ўқувчиларни касб танлашга йўналтириш ишларини ташкил

O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIK BOSQICHIDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINING TAQSIMLANISHI

*Raxmonov Rauf Rasulovich,
Buxoro davlat universiteti, Sport faoliyati kafedrasida dosenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta masofaga yuguruvchilarning texnik tayyorgarlik bosqichida mashg'ulot yuklamalarining taqsimlanishining asosiy jixatlari ko'rsatilgan bo'lib, 800 m.ga yugurish shiddati qaysi zonasiga tegishli ekanligini, uning fiziologik xususiyatlarini tasavvur qilish, o'rta masofaga yuguruvchilarning mavsumning asosiy startlariga tayyorlashda vosita va usullarni to'g'ri tanlashda ahamiyatli tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yengil atletika, o'rta masofaga yuguruvchi sportchilar, yugurish, maxsus chidamlilik, texnik tayyorgarlik, mashg'ulot yuklamalari.

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ТРЕНИРОВОЧНЫХ НАГРУЗОК НА ЭТАПЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БЕГУНОВ НА СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ

*Рахмонов Рауф Расулович,
доцент. Бухарский государственный университет, кафедры спортивной
деятельности*

Аннотация. В данной статье показаны основные аспекты распределения тренировочных нагрузок на этапе технической подготовки бегунов на средние дистанции, к какой зоне интенсивности бега на 800 м относится, представляя ее физиологические особенности, и важные аспекты правильного выбора средств и методов. в подготовке бегунов на средние дистанции к главным стартам сезона.

Ключевые слова. Легкая атлетика, бегуны на средние дистанции, бег, удельная выносливость, техническая подготовка, тренировочные нагрузки.

DISTRIBUTION OF TRAINING LOADS AT THE STAGE OF TECHNICAL TRAINING FOR MIDDLE DISTANCE RUNNERS

*Rakhmonov Rauf Rasulovich,
Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Sports
Activities*

Annotation. This article shows the main aspects of the distribution of training loads at the stage of technical training of middle-distance runners, which intensity zone of 800m running belongs to, presenting its physiological features, and important aspects of the correct choice of means and methods. in preparing middle-distance runners for the main starts of the season.

Key words. Athletics, middle-distance runners, running, specific endurance, technical training, training loads.

Mustaqillik tufayli yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga a'lohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, ushbu e'tibor sport ko'rsatkichlari, balki millat genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalashda kafolatli vosita bo'lib xizmat qilmoqda, Prezidentimiz va hukumat tomonidan qabul qilingan farmon hamda qarorlar asosida jismoniy tarbiya va sport yuksak cho'qqi sari qanot yozmoqda. Kechagi yosh sportchi bolalar bugun nafaqat o'zbek sportida, balki Olimpiya o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari musobaqalarida o'z natijalari bilan faxrli shoxsupalardan joy olib, yurtimiz shon-shuhratini jahon hamjamiyati oldida

tarannum etmoqda. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni hamda 2021 yil 5 noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilingani ayni muddao boʻldi. Bugungi kunda yurtimiz boʻylab mazkur yoʻnalishdagi amaliy chora-tadbirlar izchil olib borilmoqda. Soʻnggi uch yilda 118 ta sport majmuasi, mahallalarda 7 mingta sport maydonchasi foydalanishga topshirilgani, 3 ming 500 ta mini-futbol, 6 mingta basketbol, voleybol, 663 ta badminton maydoni, mingdan ortiq fitnes zallari faoliyat koʻrsatayotgani shular jumlasidandir. Har bir tuman va shahar markazlarida “Salomatlik yoʻlaklari” va velosiped yoʻllari tashkil etilgani aholi vakillariga keng qulaylik boʻlib xizmat qilmoqda.

Lekin, taraqqiyot «gʻildiragi» toʻxtab qolishi mumkin boʻlmaganidek, sport natijalari ham oʻsmay qolmaydi. Binobarin, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash tizimi va uslublarini shakllantirish hamda takomillashtirish, innovasion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish zarur boʻladi. Ushbu muammolar, oʻz navbatida, soha boʻyicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oʻquv–mashgʻulot va musobaqa jarayonlarini ilmiy asosda tashkil qilish, isteʼdodli sportchilarni tarbiyalash koʻlamini kengaytirish muhimligiga eʼtibor qaratadi.

Albatta, bu borada soʻnggi yillarda qator ilmiy maskanlarda arzigulik ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirila boshladi [12,13,15].

Shunga qaramay, hali joylardagi sport maktablarida, taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatayotgan sport toʻgaraklarida oʻtkazilayotgan mashgʻulotlar, tuman, shahar va viloyatlar miqyosida tashkil etilayotgan musobaqalar sifati va samaradorligini yetarli deb boʻlmaydi. Jumladan, azaldan Olimpiya oʻyinlari dasturidan joy olgan yengil atletika Respublikamiz boʻylab muntazam oʻtkazilib kelinayotgan barcha musobaqalar, xususan, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi musobaqalar tarkibidan joy olgan boʻlsada, hali ushbu sport turi boʻyicha halqaro miqyosga loyiq sport ustalari yetarli darajada koʻp deb boʻlmaydi.

Pedagogik kuzatuvlar va olib borilayotgan statistik maʼlumotlar hamda ilmiy tadqiqotlar [1,2] natijalari shundan dalolat beradiki, umumtaʼlim maktablari, AL, KHKlari hatto oliy oʻquv yurtlaridagi yengil atletika toʻgarak seksiyalarida shu sportning alohida turlari (qisqa, oʻrta va uzoq masofalarga yuguruvchilar, uzunlikka va balandlikka sakrovchilar, nayza, bosqon va disk uloqtiruvchilar va h.k.) boʻyicha shugʻullanuvchilar koʻp emas. Mashgʻulotlar koʻp yillik sport tayyorgarligining davriyligi, tabaqalashtirilgan uslublar va vositalarga didaktik tartibda asoslanmaydi. Ushbu muammo, ayniqsa, oʻrta masofaga yuguruvchi sportchilar tayyorlash jarayoniga taalluqlidir. Agar yengil atletikaning mazkur ixtisosligi boʻyicha oʻquv-mashgʻulot va takomillashtiruv guruhlarida shugʻullanayotgan sportchilarning tayyorgarlik davriga mansub umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlarida oʻtkazilayotgan mashgʻulotlar mazmuni, hajmi, shiddati va yoʻnalishi nisbatan maqsadga muvofiq deb tan olinsa, tayyorgarlikning musobaqaoldi bosqichi zamon talablari darajasida shakllanmagan.

Binobarin, bugungi kunda oʻrta masofaga yuguruvchi sportchilarni oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari sharoitida musobaqalarga tayyorlash masalasi ilmiy obʼyekt sifatida oʻta dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: oʻrta masofaga yuguruvchi sportchilarning oʻquv yili davomida musobaqalarga tayyorlash dasturini ishlab chiqish va ilmiy asoslab berish.

Tadqiqot vazifalari:

1. 800 m masofaga yuguruvchi sportchilarning texnik tayyorgarlik bosqichida qoʻllaniladigan mashgʻulotlar siklini oʻrganish.

2. Oʻrta masofaga yuguruvchi sportchilar uchun oʻquv rejasidagi mashgʻulotlardan ajralmagan holda musobaqa oldi tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish va uni

samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti: sifatida o'rta masofalarga yuguruvchi sportchilarni musobaqaga tayyorlashda musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotlarini sport maktabi o'quv dasturidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni inobatga olgan holda sportchilarning yillik mashg'ulot yuklamalariga moslashtirib ishlab chiqish va uni qo'llash uslubiyati tanlab olingan.

Mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash mashg'ulot siklini rejalashtirishni hal qilishda muhim masala hisoblanadi.

Yetakchi mutaxassislar [4,6,11] quyidagicha yondashishni taklif qiladilar: yuklamalarni taqsimlash tayyorgarlikning to'rt bosqichi uchun hafta davrlari bo'yicha o'tkaziladi (bu bosqichlardan har biri tayyorgarlik haftalarining aniq soniga egadir). Har bir davrga yuklamalarni taqsimlashda umumiy yo'nalish beriladi. Masalan, tayyorgarlik davrida (kuzgi-qishki) yuklamalarning umumiy hajmi o'sishi, jadallik esa pasayishi kerak, musobaqa davrida bo'lsa, aksincha, yuklamalarning umumiy hajmi pasayib, shiddat o'sib borishi kerak.

Mashg'ulot yuklamalarini batafsil nazorat qilib borish, qo'llaniladigan mashg'ulot usullarini hisoblab, ularni tayyorgarlikning turli davrlarini nazoratga olish sport natijasining o'sishiga imkon yaratadi.

Shunday qilib, haqiqatda yuguruvchining barcha yuklamalari organizmni energiya bilan ta'minlovchi turli-tuman fiziologik omillar va mexanizmlarning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, umumiy hajm hamda umumiy shiddat tushunchalaridan kelib chiqqan holda baholanib taqsimlanadi.

Olimlarning fikricha [18,19] mashg'ulot yuklamalarini taqsimlashni tayyorgarlik davrlari bilan bog'lab, bunda «kumulyativ natija», «kechikuvchi axborot natijasi» va «jismoniy sifatlar to'g'risida tasavvur» kabi tushunchalarga tayanadilar. Birinchi tushuncha asosida bir tomondan, sportchi organizmining bajarilgan tezkorligiga samarali ta'siri hamda ushbu samarani uzoq vaqt saqlab turish qobiliyati to'g'risidagi tasavvur hosil qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'lum vaqt oraliqlaridagi turli jismoniy sifatlar rivojlanishiga yo'naltiruvchi, mashg'ulot vaqtida namoyon bo'luvchi uzoq muddatli mashg'ulot samarasini umumlashtirish yotadi. Bunda turli jismoniy sifatlar mashq qildiruvchi ketma-ketlikning aniq tartibiga, mashg'ulot davrlari esa muddatiga asoslanadi.

Tayyorgarlikning yillik davrida mashg'ulot yuklamalari taqsimlanishini quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadiki, bunda tayyorgarlik davrida imkoni boricha yuklamalarning kam shiddati bilan ko'proq hajm «to'plash» yoki musobaqa davrida esa yuklamalar hajmini kamaytirib va shiddatni oshirish, hisobiga musobaqalarda qatnashish kerak bo'ladi.

O'rta masofalarga [20] yuguruvchi sportchilar mashg'ulotida to'qqiz bosqich ajratilib, har bir bosqich uchun yuklamalar va mashg'ulotning asosiy vositalari taqsimlab chiqilgan.

1. Jalb qiluvchi.

Yuklamalari: mushak tizimi va tayanch-harakat apparatini mustahkamlash, organizmning yetakchi funksiyalarini ishga tayyorlash.

Vositalar: sakrash mashqlari, turg'un holatdagi mashqlar, harakat xarakteridagi tezlik-kuch mashqlari, aerob yugurish (YUQS 150-160 zar/daq.).

2. Birinchi asosiy bosqich.

Yuklamalari: aerob natijalarni mukammallashtirish, oyoq mushaklarini eng yuqori kuchgacha rivojlantirish, yugurishda tezlikka o'tish qobiliyatini tarbiyalash.

Vositalar: aerob rejimda (YUQS 150-160 zar/daq.), qumda va tepaga yugurish (0,5-2 km.li masofalar), sakrash mashqlari.

3. Qishki musobaqaoldi bosqichi.

Yuklamalari: maxsus chidamlilik mashg'uloti, erishilgan kuch darajasini ushlab turish texnikani takomillashtirish, yugurish sur'ati va taktikasi.

Vositalar: qayta yugurish (200 m va undan yuqori masofalarda), sakrash, anaerob poygalar.

4. Qishki musobaqa bosqichi.

Yuklamalar: maxsus ish qobiliyatining yuqori darajasiga erishish, to'plangan imkoniyatlarni ishga solish, anaerob mexanizmlarni takomillashtirish, tezlik sur'atni his qilishni tarbiyalash.

Vositalar: anaerob rejimda (40-50 daq.), tiklovchi yugurish (6-8 km), yuqori tezlikda yugurish (100-200 m).

5. Ikkinchi asosiy bosqich.

Yuklamalar va vositalar birinchi asosiy davrdagidek, lekin mashqlarni bajarish shiddati yuqori.

6. Yozgi musobaqaoldi bosqichi.

Yuklamalar va vositalar qishki musobaqaoldi bosqichidagidek.

7-8. Birinchi va ikkinchi musobaqa bosqichlari.

Yuklamalar: eng qulay mashg'ulot siklini vujudga keltirish, maxsus ish qobiliyatining yuqori darajasiga erishish, texnika va taktika mahoratini takomillashtirish.

9. O'tish (tiklanish) davri bu bosqichda yaxshi dam olishning turli shakllari asosiy vositalar hisoblanadi.

Sportning boshqa turlari bilan bog'liq ilmiy izlanishlarda mashg'ulot vositalarini taqsimlash masalalariga turlicha yondashilgan. V.N.Platonovning [23] hisoblashicha, yuqori malakali suzuvchilarning tayyorgarlik amaliyoti yil davomida mashg'ulot siklini turlicha tuzish imkoniyati borligini ishonarli qilib ko'rsatadi [7,8] sportning chidamlilikni talab qiluvchi (o'rta va uzoq masofalarda) tur guruhlar uchun rejalashtirish modelini taklif qiladilar; bu model tayyorgarlik yuklamalarining quyidagi ketma-ketligidan iboratligini ko'rsatadi: 1 umumiy chidamlilik; 2 tezkorlik; 3 tezkor chidamliligi. Tayyorgarlikning butun sikli musobaqalarning mas'ul bosqichlariga kuch va tezlikka chidamlilikni rejali rivojlantirib borishga qaratilgan. Bunda tayyorgarlik davrlariga albatta kuchni rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llashni taklif etganlar.

Asosiy [14] yuklamalarni butun tezlik diapazoni bo'ylab taqsimlaydilar. Bu yerda o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni asosiy vosita yuklamasi sifatida ishlatiladi. Ishda yuklamani taqsimlash yuguruvchining malaka darajasiga bog'liqligi bildirilgan. Yuqori malakali «o'rta masofachilar»ni tayyorlashda asosiy e'tibor tezlik-kuch bazasiga qaratilgan bo'lib, uning asosida organizmning aerob unumdorligi oshiriladi. Qolgan boshqa yuguruvchilar uchun mashg'ulot davri birinchi bosqichlarida aerob imkoniyatlarni o'stirish maqsadga muvofiqdir. Tayyorgarlikning [27] turli davrlarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtiriyotganda uning o'ziga xosligini saqlash, ya'ni sport natijalarini ta'minlashda organizmning tizim va funksiyalarini rivojlantirishni taklif qiladi.

Quyidagilarni aytib o'tish kerak:

a) ko'pchilik mutaxassislar mashg'ulot yuklamalarini taqsimlashni tayyorgarlik davrlari bilan bog'laydilar, lekin biz aytib o'tganimizdek, davrlashga qarashlar turli-tuman bo'lgani kabi, mashg'ulot yuklamalarini taqsimlashga qarashlar ham turlichadir;

b) mashg'ulot yuklamalarini taqsimlashga imkon beruvchi davrlashtirish nazariyasi juda chiroyli berilgan, lekin achinarlisi, uning qoidalari tajribada ham, amaliyotda ham o'z tasdig'ini topmagan.

800 m masofaga yugurishda, ayniqsa, 14-16 yoshli sportchilarni tayyorlashda, mashg'ulot yuklamalarining asosiy ko'rsatkichlari ularning hajmi va shiddati hisoblanadi.

Laktat to'planishining ikkita boshlang'ich darajasi aniqlanib, ular aerob-anaerob rejim zonasining boshi va oxirini tavsiflab beradi. Odatda aerob boshlanish aerob-

anaerob rejim zonasining oxiriga yaqinroqda aniqlanadi.

1-jadval

Aerob-anaerob o'tish fazalari va ularning fiziologik tavsifi

Ko'rsatkichlar	Aerob-anaerob o'tish fazalari		
	I	II	III
Boshlanish turi	Aerob boshlanish		Anaerob boshlanish
Metabolizm turi	Aerob	Aerob-anaerob	Anaerob
Energetik oziqlantiruvchi muhit	Yog'li kislotalar	Yog'li kislotalar, glikogen	Glikogen, yog'li kislotalar
MKO'dan %	<40	40-80	>85
YUQSdan %	<65	65-90	>90
Laktat konsentratsiyasi, mol/l	<2	2-4	>4

Yuklamalar ta'sirchanligi uning hajmiga bog'liq. Uzoq masofaga kichik tezlik bilan yugurganda yoki qisqa masofaga katta tezlik bilan yugurganda taxminan bir xil natijalarga erishish mumkin.

2-jadval

	Shiddat zonolari			
	1-chi	2- chi	3- chi	4- chi
	Aerob zona		Anaerob zona	
Uzoq masofaga yuguruvchilar va o'rta masofachilar	126-138 (21-23)	138-150 (23-25)	150-162 (25-27)	162-174 (27-29)
14-16 yoshli stajga ega o'rta masofachi sportchilar	132-144 (22-24)	144-156 (24-26)	156-168 (26-28)	168-180 (28-30)
Kam stajli o'rta masofachi 16-22 yoshli sportchilar va o'smirlar	138-150 (23-25)	150-162 (25-27)	162-174 (27-29)	174-186 (29-31)

Bularni inobatga olib, sportchining yoshi, staji va mutaxassisligini hisobga olgan holda turli shiddat zonolari uchun yuklamalar hajmlari tavsiya qilinadi. Shiddatning 1-zonasida yuklamalar hajmi to'g'risida so'z yuritilmaydi, chunki u mashg'ulot sikli, mikro-mezosikl, shuningdek, 3-jadvalda aks ettirilgan omillar maqsadlariga bog'liqdir.

3-jadval

Shug'ullanuvchilar toifasi	Shiddat zonolari		
	2- chi	3- chi	4- chi
	Aerob	Anaerob zona	
O'rta va uzoq masofalarga malakali yuguruvchilar	20 (80)	16 (60)	11 (40)
O'rta va uzoq masofalarga 14-16 yoshli malakali yuguruvchilar	15 (60)	12 (45)	8 (30)
O'rta va uzoq masofalarga 14-16 yoshli yuguruvchi sportchilar	12 (50)	9 (35)	6 (20)
Kam shug'ullangan 14-16 yoshli sportchilar va o'smirlar	9 (40)	6 (25)	3 (12)
Eslatma: qavsda mashg'ulot vaqti daqiqalarda			

Unda mashg'ulot yuklamalarining yuqori chegaralari berilgan. Bunda yuguruvchining o'quv mashg'ulot bosqichi, uning ish qobiliyatining joriy darajasi, mashg'ulot vazifalari va qator boshqa omillarni nazarda tutish kerak. Chegarali hajmlar bilan ayniqsa, shiddatning 3-4-zonalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar sportchiga kuchli ta'sir qilib, organizm gomeostaziga chuqur zarar yetkazadi.

To'liq tiklanishga 48-72 soat va undan ham ko'proq vaqt ketadi. Shuning uchun shiddatning 3-4-zonalarida mashg'ulotlar haftasiga kattalarda ikki-uch va 14-16 yoshli sportchilarda bir-ikki martadan ortiq bo'lmasligi kerak.

Yugurish boshlang'ich tezligi chidamlilik darajasini baholashda aniq ko'rsatkich hisoblanadi [5].

Bu ko'rsatkich kattaligi asosida chidamlilik darajasini tasniflash ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan shug'ullanmagan shaxslar anaerob boshlanishga yugurish tezligi 3,0-0,5 m/s da, bo'sh shug'ullangan shaxslar 3,5-4,0 m/s da, yuqori malakali sportchilar 5,3-5,6 m/s da erishadilar.

Mashg'ulot darslarida qo'llaniladigan davriy yuklamalar umumiy jadalligini baholashning taxminiy usullarni ishlab chiqishga bir necha bor harakat qilingan. So'nggi yillarda nemis olimlari tomonidan kompleks ko'rsatkich taklif qilingan bo'lib, u harakat tezligi va mashg'ulot hajmi ko'paytmasidan iborat. Muallif [14] o'xshash usulni taklif qilgan, faqat farq shundaki, hajm tezlikka emas, balki mashg'ulot mashqlarini bajarishdagi qiyinchiliklarni hisobga oluvchi shartli koeffitsiyentga ko'paytiriladi. Olimlar [26] yugurish yuklamalarini tasniflashda mashg'ulot ishlari yoshga qarab o'sish sur'atini, energiya ta'minotining 3 ta rejimi: aerob, aralash, anaerobni taklif qildi.

I va II razryadli [17] sportchilar uchun yillik davrdagi shiddat zonalarining quyidagi hajmlarini taklif qiladilar: musobaqa davri tayyorgarligida aerob yo'nalish yuklamalarining haftalik hajmini 235-420 daq. atrofida o'zgartirdi. Mashg'ulot yuklamalarining tavsiya qilingan taqsimlanishi: aerob imkoniyatdagi 67%, aralash 20%, ko'proq anaerob imkoniyatdagi 13%. 14-16 yoshli sportchilarning o'rta masofalarga yugurishi uchun musobaqa faoliyatiga tayyorlashda eng muhim muammosi MOT bosqichining mikro va mezosikllarida ayrim mashg'ulot darslarini rejalashtirish va tuzish hisoblanib, bu mashg'ulot yuklamalarini har bir ayrim yuklamadan keyin organizmning moslashishini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash imkonini beradi.

U yoki bu yo'nalishda har bir shug'ullanishdan so'ng tiklanish davrlarini bilish bu yoshdagi sportchilar uchun haddan tashqari ko'p yuklamalardan chetda bo'lishga va tayyorgarlikning bu eng muhim bosqichida sportchilarning haddan tashqari ortiqcha mashg'ulot o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslikka imkon beradi.

Boshqacha yondashish, ya'ni kompleks mashg'ulotning muallifi A.Lidyad [16] hisoblanadi. U bir mikrosiklda organizmning barcha tizim va funksiyalarini chiniqtirishni taklif qilib, bu tizim va funksiyalar sport natijalarining o'sishini ta'minlaydi, lekin har bir mashg'ulotda bir yo'nalishdan foydalaniladi.

Misol sifatida mikrosikl rejasini keltiramiz:

Dushanba: 1/4 kuchga 2x800 m, 1/3 kuchga 1600 m.

Seshanba: 1/2 kuchga 3km.

Chorshanba: 1/2 kuchga 6x800 m.

Shanba: 1/2 kuchga 20x200 m.

Yakshanba: uzoq muddatli yugurish.

Mualliflar [21,22] suzishda bir mashg'ulot darsida turli yo'nalishdagi mashqlardan foydalanishni taklif qiladilar. O'rta va uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilar mashg'ulotlarida bunday yondashish A.M.Yakimov [27] tomonidan taklif qilingan. U qo'llaydigan rejalashtirishning asosiy usuli - taxminiy rejalardir.

Yo'naltiruvchi hajmlar va mashg'ulotlarning taxminiy rejalarini o'z ichiga olgan bo'lib, umumiy tavsiyalardan tashqari, ilmiy-uslubiy adabiyotlardan ko'plab tavsiyalarni topish mumkin [14]. Ishda o'rta masofalarga yuguruvchilar mashg'ulotida qo'llaniladigan uchta tezlikni ajratish mumkin:

1. Masofaning ko'proq qismida yugurishda kerakli yugurish sur'atini bir maromda ushlab turish uchun kerak bo'ladigan tezlik. Bu tezlik to'g'ridan-to'g'ri katta kislorod qarziga bardosh berish qobiliyati bilan bog'liqdir.

2. Raqiblar bilan bo'lgan taktik kurash siklida «tezlanish» tezligi yoki masofani

to'g'ri taqsimlash orqali taktika qo'llash.

3. Marrada oldinga intilish tezligi.

Shu bilan birga maxsus ishdan misollar keltirilib, unda yuqori sur'atda yugurishdan kelib chiqadigan kislorod qarzig'a qarshi tura bilish qobiliyati takomillashtiriladi. Bu mashg'ulotlar kichik masofalarning katta bo'lmagan takrorlanish sonlari seriyasidan iborat bo'lib, unga yana takrorlanish orasidagi juda uzun bo'lgan dam olish oralig'i kiradi.

Dunyoning bir nechta o'rta masofa bo'yicha ish olib borgan olimlari o'z izlanishlaridagi ma'lumotlari quyidagicha tahlil etilgan.

Yetakchi olimlarning ta'kidlashicha [7,8], 15x400 m.li mashg'ulot (to'xtamlarda 200 m bir maromda yugurish) yanada foydaliroq bo'lish uchun uch seriya 5x400 m.dan yugurib, 200 m.li yugurish orasidagi to'xtamlarda bir maromda yugurish, seriyalar orasida esa 400 m.

Ishlarida marokashlik yuguruvchilarning [24] ba'zi bir mashg'ulot sirlarini ochib bergan. Buni Marokashdagi yuguruvchilar bilan ishlovchi murabbiy D.Dionisi bajargan. Noyabr-dekabrda mashg'ulotlar eng yuqori aerob quvvatning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, odatda 1000 va 400 m.ga yugurish ko'inishida bo'ladi. Masalan, 2-5x1000 m takrorlanishlar orasidagi dam olish 1:30,0 s. oralig'i bilan va seriyalar orasidagi dam olish oralig'i 3:00,0 bilan yoki 25x400 takrorlanishlar orasidagi dam olish oralig'i 40-60 s. bo'ladi. Tepalikka tezlanib yugurish oralig'i kuch imkoniyatlarini rivojlantirish va yugurish texnikasini takomillashtirish uchun 150 m.ga takroriy yugurish bajariladi, shuningdek, aerob yo'nalishdagi davomli yugurishdan foydalaniladi.

F.P.Suslov [25] bergan ma'lumot bo'yicha aerob va anaerob sikllar chegarasida yugurish bo'yicha efopiyaalik S.Auitaning mashg'ulotlarida o'ziga xos tayyorgarlikni ko'rishimiz mumkin. U masofalarda yuqori tezlikni saqlab turish kompleks qobiliyatlarni tarbiyalaydi, deb hisoblaydi. S.Auita mashg'ulotlarini aerob va anaerob chegarada quyidagi ko'inishda olib borgan:

- 300 m.ni - 38,8 dam olish - 1:57,0; 600 m.ni - 1:23,4, dam olish - 3:55,0;
- 200 m.ni - 24,3 dam olish - 1.56; 400 m.ni - 52,9, dam olish - 3:51,0;
- 800 m - 1:57,6 dam olish - 3:54; 400 m.ni - 54,5, dam olish - 6 s; 300 m-40,1.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, musobaqalarga yaqin bosqichda musobaqa tezligidan oshib ketuvchi tezlik bilan yetarli darajada katta hajmdagi ishlarni bajarish natijaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. [9,10] ishida ko'rsatilishicha, o'rta masofaga yuguruvchilarning musobaqaga bevosita tayyorgarlik bosqichida qisqa masofalarga yugurishni bajarganda hajm va shiddatni bir vaqtning o'zida oshirish asosiy sport natijasining oshishiga yordam bermasdan, balki ba'zi bir hollarda yomonlashuvga olib keladi. Tadqiqotchilar yana shuni ko'rsatdilarki, faqatgina hajm yoki shiddatni oshirish sport natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MOT bosqichida mikrosikllar tizimini tuzish uchta juda muhim bo'lgan siklga bog'liqdir:

- charchash va tiklanish sikllarining o'zaro ta'siri va ular bilan bog'liq ancha yuqori va yuqori bo'lmagan yuklamalarning dam olish bilan almashinuvi tartibi;
- o'zaro qulay bog'liqlikda bo'lgan turli yo'nalishdagi mashqlarni qayta qo'llash zarurligi;
- umumiy tartib.

A.F.Boyko [3] fikricha, o'rta masofaga yuguruvchilarda mashg'ulot yuklamalarini bosqich ichida rejalashtirishda bajarilgan ish hajmi son ko'rsatkichli emas, balki yuklamalarni kunlarga taqsimlashning uslubiy va biologik maqsadga muvofiqligini o'rgatish afzalroqdir. Kuch tayyorgarligidan charchaganda maxsus-kuch mashqlari musobaqalar boshlanishidan 7-12 kun oldin mashg'ulotlardan olib tashlanadi va musobaqalar arafasida chigal yozish mashqlariga kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, muallifning hisoblashicha, oyoq mushaklari kuchini tiklash va

ularning tonusini oshirish uchun keyingi 7-10 kunda yugurish tartibini qisqartirib, kunora sakrash mashqlarini kiritish kerak.

Xulosa qilib aytganda 800 m.ga yugurish shiddati qaysi zonasiga tegishli ekanligini, uning fiziologik xususiyatlarini tasavvur qilish, 14-16 yoshli sportchilarni mavsumning asosiy startlariga tayyorlashda vosita va usullarni to'g'ri tanlashda katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmatov M.S. Ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini boshqarish: Monografiya. - T., 2003. - 352 б.
2. Achilov A.M., Akromov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash: o'quv qo'llanma. - T.: Lider Press, 2009. - 203 б.
3. Бойко В.В. Целенаправленное развитие двигательных способностей человека. - М.: ФиС, 1987. - 144 с.
4. Бойко А.Ф. Подготовка к ответственным соревнованиям бегунов на средние дистанции //Предсоревновательная подготовка бегнов высокого класса. - М.: ФиС, 1971. - С. 49-67.
5. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. - М., 2000. - С. 84-99..
6. Бондарчук А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса. - М.: Олимпия Пресс, 2007. - 272 с.
7. Верхошанский Ю.В. Выносливость, как фактор, определяющий движения в циклических видах спорта //Научно-спортивный вестник. - М.,1988. №1. - С. 15-20.
8. Верхошанский Ю.В. Горизонты научной теории и методологии спортивной тренировки //Теория и практика физ. культуры. - М., 1998. - №7. - С. 50-52.
9. Rasulovich R. R. Content of running loads and used facilities of medium distance runners in annual preparation stage //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – С. 1070-1077.
10. Евтеев В.И., Макаров А., Варшавский Б. Предсоревновательная подготовка //Легкая атлетика. - М., 1977. - №6. - С. 8-10.
11. Rasulovich R. R. Effectiveness of improving the technical and tactical movements of middle-distance runners //E-Conference Globe. – 2021. – С. 309-314.
12. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. - T.: Zar qalam, 2004. - 334 б.
13. Кудратов Р.К. Соотношение и распределение беговых средств тренировки при развитии выносливости студентов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. - М., 1985. - 20 с.
14. Кулаков В.Н., Суслов Ф.П. Динамика анаэробного порога у бегунов на длинные дистанции в процессе акклиматизации в среднегорье и реакклиматизации в привычных условиях //Теория и практика физической культуры. - М., 1989. - С. 18-20.
15. Кошбахтиев И.А. Управления подготовкой футболистов. - Т., 2001. - 57 с.
16. Лидьярд А., Гилмор Г. Бег с Лидьярдом - М.: ФиС, 1987. - 109 с.
17. Макаров А.Н. Легкая атлетика. - М.: Просвящение, 1990. - 205 с.
18. Матвеев Л.П., Мельников С.В. Методика физического воспитания с основами теории. - М.: Просвещение, 1991. - 190 с.
19. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учеб. для ИФК. - М.: ФиС, 1991. - 543 с.
20. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. - М.: Астрель, 2003. - 672 с.
21. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимп. лит. 1997. - 584 с.
22. Платонов В.Н. Подготовка квалифицированных спортсменов / В.Н. Платонов. - М. Физ. культура и спорт, 1986. - 286 с.
23. Полунин А.И., Снесарев Н.К. Методические особенности подготовки высококвалифицированных бегунов на длинные дистанции. Изд-во «Советский спорт», 1990.- 45 с.
24. Полунин А.И. Теоретико-методические основы управления тренировочным процессом в беге на длинные дистанции при организации самостоятельных занятий: Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. - М.: РГАФК, 1995. - 30 с.
25. Суслов Ф.П., Королев Г., Кулаков В.Н. Бег на средние и длинные дистанции: система подготовки. - М.: ФиС, 1986. - №12. - С. 5-6.
26. Травин Ю.Г., Чернов С.С., Карманов В.Д. Предсоревновательная подготовка бегунов на средние дистанции: Метод разраб для слушателей ВШТ и фак. повышения квалификации. - М.: ГЦОЛИФК, 1981. - 80 с.
27. Якимов А.М. Основы тренерского мастерства: Учебно-методическое пособие. - М.: Терра-Спорт, 2003. - 176 с.

СМАРТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ҲАМДА ТАЪЛИМГА ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ

Абидова Дилфуза Муратджановна,
Етакчи ўқитувчи, Тошкент педиатрия тиббиёт институти академик
лицейи, Ўзбекистон

Аннотация. Мазкур мақолада смарт-технологиялар ва уларнинг таълим жараёнига тадбиқ этилиши масалалари ёритилган. Шунингдек, мақолада смарт таълим хусусида олиб борилган тадқиқотлар таҳлил қилинган. Смарт технологияларнинг жамиятдаги ўрни ва аҳамияти кўриб чиқилган ҳамда мавзунинг долзарблиги исботланган.

Калит сўзлар: смарт-жамият, смарт-таълим, келажак тенденциялари, олий таълим, талабалар.

СМАРТ-ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ОБЩЕСТВО И ОБРАЗОВАНИЕ

Абидова Дильфуза Муратджановна,
Ведущий преподаватель, Академический лицей Ташкентского
педиатрического медицинского института, Узбекистан

Аннотации. В данной статье рассматриваются вопросы смарт-технологий и их применения в образовательном процессе. Также в статье анализируются исследования, проведенные в области смарт-образования. Рассмотрена роль и значение умных технологий в жизни общества и доказана актуальность темы.

Ключевые слова: смарт-общество, смарт-образование, тенденции будущего, высшее образование, студенты.

SMART TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION IN SOCIETY AND EDUCATION

Abidova Dilfuza Muratjanovna,
Leading Lecturer, Academic Lyceum of the Tashkent Pediatric Medical Institute,
Uzbekistan

Abstract. This article discusses the issues of smart technologies and their application in the educational process. The article also analyzes studies conducted in the field of smart education. The role and importance of smart technologies in the life of society is considered and the relevance of the topic is proved.

Keywords: smart society, smart education, future trends, higher education, students.

Кириш. Замонавий жамият ахборот ва билимлар ролининг ортиши билан тавсифланади. Ахборот-коммуникация технологиялари ҳар биримизнинг ҳаётимизга янада қулайроқ кириб бормоқда, тобора ишончли кириб бормоқда. Бироқ ахборот технологияларини ривожлантириш ўз-ўзидан амалга оширилаётгани йўқ, балки мамлакатимизда тубдан янги рақамли иқтисодиёт – билимлар иқтисодиёти инфратузилмаси сифатида амалга оширилмоқда. Бугунги кунда технологиялар ўз ривожланиши нуктаи назаридан эмас, балки уларни экологик муҳитни шакллантиришда, жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий муаммоларини ҳал қилишда фойдаланиш имкониятлари билан баҳоланмоқда.

Материаллар ва методлар. Ушбу мақолада абстрактлаштириш ва конкретлаштириш, статистика, қиёсий таҳлил, ҳужжатлар билан ишлаш ва прогнозлаш усуллари қўлланилган.

Натижалар ва муҳокама. Замонавий жамиятнинг асосий хусусияти

ахборотдан фойдаланишнинг тармоқ мантиқидир. Тармоқ ахборот оқимлари, тармоқ тузилмалари ва ўзаро таъсир тушунчалари биринчи ўринга чиқади. Иқтисодиёт ўз-ўзидан тармоқ иқтисодиётига айланади; узлуксиз янгилашиб туриш қобилиятига эга бўлган «узлуксиз оқимли тармоқлар майдони» [5].

Ривожланишнинг ушбу ахборот усули билан маҳсулдорлик манбаи билимларнинг билимга таъсири бўлиб, у билимларни ишлаб чиқариш, ахборотни қайта ишлаш ва рамзий алоқа технологияларида ўз аксини топади [1]. Таълим муҳитининг чегаралари ҳам хиралашган, унинг тузилиши жамиятнинг ҳозирги эҳтиёжларини қондириш учун доимий равишда ўзгариб туради. Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш модели муаллифи Н.Кондратиев циклик ривожланишни фан-техника тараққиёти (илмий-техника тараққиёти) ва янги технологик тартибга ўтишни бошлаб юбориши мумкин бўлган инновациялар билан боғлади.

Таълим майдонида смарт технологияларни жорий этишнинг долзарблиги куйидаги омиллар билан белгиланади:

а) маълумотларга деярли чексиз киришда намоён бўладиган ва глобал дунёда уни танлаш алгоритмини муаммоли ҳолга келтирадиган виртуализация тенденцияси. Бугунги кунда у таълимнинг ўзаро таъсирининг маълум бир мавзуси учун ҳам, бутун таълим майдони учун этакчи векторга айланмоқда;

б) виртуал хусусият касб этувчи таълим ўзаро таъсир тизимининг номувофиқлиги.

Асосий қарама-қаршиликлар куйидагилардир:

- ахборот, шу жумладан конструктив бўлмаган ахборот оқимлари ва конструктив билим олиш зарурати ўртасидаги зиддият;

- анъанавий аксиологик миқёснинг деформацияси ва янги кадрятлар ва маъноларнинг шаклланиши, бу таълим жараёнида маълумотларни танлаш ва тизимлаштириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишга ёрдам бермайди. Виртуал аксиологик шкала асосий кадрятларга шубҳа туғдириб, билим мавзусига тубдан таъсир қилади;

- замонавий ўқув жараёнини виртуаллаштириш таълим тизимининг мақсад ва вазибаларини қайта белгилаб беради. Ёш мутахассис муваффақиятининг калити - ахборот маконида йўналтириш тезлиги - барқарор касбий билим эмас, балки хабардорлик, бу кўпинча таълим маконини виртуализация қилишнинг салбий оқибатлари сифатида талқин этилади;

- таълим фалсафасида акс эттирилган ўзига хос таълим амалиётлари виртуализация жараёнларининг ноаниқлигидан далолат беради. Бир томондан, виртуализация ахборот технологиялари ёрдамида ўзининг шахсий «ахборот майдони» ни шакллантиришга қодир бўлган маълум бир шахснинг янада чуқур онтологик мазмунига ёрдам беради. Бошқа томондан, таълимдаги виртуал тенденциялар шахсни шакллантириш учун «субъективлик», «реаллик», «оқиллик» ва бошқалар каби фундаментал тушунчаларнинг моҳиятини йўқотиш хавфини туғдиради;

- энг бошида рус таълим маконини виртуализация қилиш жараёни. Шунга кўра, бу таълим амалиётида ҳам, уларнинг фалсафий мулоҳазасида ҳам кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради.

Борисенконинг сўзларига кўра, 4 концептуализацияси таълим учун зарур бўлган асосий қарама-қаршилик таълим ҳамжамиятидаги «инновацион футуризм» ва «педагогик консерватизм» ўртасидаги зиддиятдир [4].

Смарт таълимни жорий этиш ва ривожлантириш алоҳида тартибга солишни талаб қилади, чунки анъанавий ва онлайн таълим сезиларли даражада фарқларга эга [2]. Смарт таълимнинг афзаллиги - умумий стандартлар, мурса ва технологиялар асосида таълим муассасалари, профессор-ўқитувчилар ва талабаларни Интернетда биргаликда таълим фаолиятини амалга ошириш учун

бирлаштириш, шунингдек, маъмурий функцияларнинг бир қисмини смар тизимга ўтказиш имкониятидир. Шу сабаб, бутун дунё бўйлаб контент билан тўлдирилган мослашувчан таълим муҳити ўрганиш, ҳамкорлик ва ривожланиш учун кенг аудиторияга киришни таъминлайди.

Замонавий шароитда контентни тўлдириш анъанавий таълим ресурслари, яъни ўқитувчилар томонидан яратилган курслар (фан, модуллар) туфайли юзага келади. Улар рақамлаштирилади, юкланади ва онлайн тизимда фойдаланишга топширилади. Анъанавий таълимдан тўлиқ масофавий таълимга бундай ўтиш муқаррар равишда ўқитувчи анъанавий равишда бажарадиган бир қатор функцияларни йўқолишига олиб келади ва уларсиз ўқув жараёни фақат билимларни узатиш билан чегараланади. Оффлайн ўқитиш, ўргатиш каби функциялар таълим жараёнидан чиқариб ташланади. Хусусан, таълим шахсий намуна, ўқувчиларга ихтиёрий таъсир кўрсатиш, ўқувчиларнинг ҳиссий ҳолатини баҳолаш қобилияти, психиканинг хусусиятларини (перцептив, коммуникатив, таклифни ўрганиш функциялари) ва бошқа функциялар билан чекланади. Улар минимал даражага туширилади ва талабаларнинг зиммасига ва смар таълим тизимига, ташкилий ва маъмурий функцияларнинг бир қисмига ўтади. Фақат онлайн режимда ишлаш талабаларга кўшимча масъулият юклайди: улар юқори даражадаги мотивацияга эга бўлиши, вақтни мустақил режалаштириши, материални ўрганиши, вебинарларда қатнашиши ва ҳоказоларда қатнашиши керак. Шу маънода, анъанавий ва смар таълимни уйғунлаштириш модели энг истиқболли, деб ҳулоса қилиш мумкин. Смарт таълим технологиялари ёрдамида ўқитувчи ва талабаларнинг чекланган вақт оралигидаги биргаликдаги реал фаолияти - аудиториядаги машғулотлар - ўқувчи учун қулай бўлган ҳар қандай жойдан мустақил равишда давом эттирилиши мумкин. Бугунги талабалар интернетдан етказиб бериш усули ва мобил қурилмалардан фойдаланган ҳолда аудиторияларидан қуйидагилар орқали ташқарига чиқишлари мумкин:

- аппарат ва дастурий таъминот;
- электрон таълим платформалари.

Хуллас, анъанавий шаклда билим олгандан сўнг, талабалар маълум бир жойга вақтинчалик ёки ҳудудий жойлашувдан қатъий назар мулоқот қилишлари, қўшма лойиҳалар ва вазифалар доирасида маълумот алмашишлари мумкин. Жараёни кузатиш ва қайд этишнинг автоматлаштирилган тизими туфайли материал миқдорини, такрорлашлар сонини тартибга солиш, шунингдек, ўқитувчини ҳар бир талабанинг муваффақияти ҳақида хабардор қилиш, унга ўқув жараёнини созлаш имконини беради. Бундай вазиятда тушунтириш частотаси ҳар бир ўқувчининг материални тушунишга сарфланган индивидуал вақтга мослашиши туфайли, ўқувчиларнинг тушуниш даражаси ҳам, шу жумладан, ривожланиши ҳам ортади [1].

Хулоса. Смарт таълим электрон таълим жараёнининг марказий фигурасига айланиш жараёнида ўқитувчи билан талаба ўртасидаги фаол ўзаро ҳамкорлик қуйидаги имкониятларни яратади [1]:

- фанни самарали ўрганиш учун зарур ва тизимлаштирилган кўшимча материални ўз вақтида олиш (шу билан бирга уни маълум бир талаба учун қулай бўлган тақдим этиш шаклини танлаш);
- очиқ таълим мазмунини яратишда шахсан иштирок этиш;
- мустақил равишда ҳам, ўқитувчи назорати остида ҳам ўзлаштирилган билимларни тезкор баҳолаш;
- ўқитувчининг таҳлилий ишини электрон баҳолаш журналида кўриш;
Amaliyotchilar tegishli kognitiv asossiz muayyan vazifalarni o'zlashtira oladimi? Javob: ha, ba'zan. Vaqti-vaqti bilan yangilanmasa, bilim yo'qoladi va ish samaradorligi faqat vaqt o'tishi(takrorlashlar va yangilashlar) bilan oshadi. Tajribali professorlar kabi talabalar ham malaka(bilim)li bo'lib qolishi mumkin, ammo nazariy materialni bilish ham shart, lekin vaqt o'tishi bilan ular ba'zi jarayonlarning nazariy asoslarini unutishlari mumkin. Ushbu ma'lumotlar baholovchilarni «osilgan chodir» modelini (G-rasm) ko'rib chiqish imkoniyatini ko'rsatadi, unda ishlash bilimga bog'liq emas(yani ko'proq unitilgan nazariyadan ko'ra esda qolgan amaliyotga bog'liq). Ushbu konfiguratsiya yillar davomida zarur diplomlarsiz amaliyotda muayyan turdagi jarayonli ko'nikmalarni o'zlashtirgan ko'plab odamlarning mavjudligi tufayli aniq bo'ldi[8].

Ushbu dalil kattalarni o'rganish nazariyasi sifatida tanilgan andragogiya tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Andragogika nazariyasiga ko'ra, kattalar talaba sifatida ko'pincha rag'batlantiriladi, o'zini o'zi boshqarishga va o'zining mavjud kompetentsiyasini aks ettirishga qodir [4]. Shunday qilib, katta yoshli talaba uchun o'rganish tajribasi kognitiv dissonansni keltirib chiqarishi kerak, bu talabaga mavjud bilimlarni o'quv tadbirida yaratilgan yangi bilimlar bilan yangilash imkonini beradi [5].

Konstruktiv metodologiyaga muvofiq, talabaning rivojlanayotgan kompetensiyasi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali talabaning yangi kompetentsiya darajalariga erishishga imkon beradigan kompetensiyani rivojlantirish yo'lini qurish mumkin bo'lishi kerak. Konstruktiv metodologiya muammoli ta'limni asosiy ta'lim usullaridan biri sifatida belgilaydi, bunda talaba yangi bilim olishga olib keladigan muammolarni yechish orqali talaba o'z ko'nikmalarini rivojlantiradi [7]. Konstruktiv metodologiyaga muvofiq, talabaning rivojlanayotgan kompetensiyasi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali talabaning yangi kompetentsiya darajalariga erishishga imkon beradigan kompetensiyani rivojlantirish yo'lini qurish mumkin bo'lishi kerak. Konstruktiv metodologiya muammoli ta'limni asosiy ta'lim usullaridan biri sifatida belgilaydi, bunda talaba yangi bilim olishga olib keladigan muammolarni yechish orqali talaba o'z ko'nikmalarini rivojlantiradi. Konstruktiv metodologiyaga muvofiq, talabaning rivojlanayotgan kompetensiyasi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali talabaning yangi kompetentsiya darajalariga erishishga imkon beradigan kompetensiyani rivojlantirish yo'lini qurish mumkin bo'lishi kerak. Konstruktiv metodologiya muammoli ta'limni asosiy ta'lim usullaridan biri sifatida belgilaydi, bunda talaba yangi bilim olishga olib keladigan muammolarni yechish orqali talaba o'z ko'nikmalarini rivojlantiradi [7].

Kiberpedagogik tamoyillar:
Pedagogik dizayn
Mustaqil o'rganish, modulli o'rganish, simulyatsion-javob
Kognitiv dizayn tamoyillari
Kuzatish texnikasi, assimilyatsiya va moslashish
Konstruktiv dizayn tamoyillari
Tajriba orqali yangi odatlarni shakllantirish, simulyatsiya fasilitatoridan ijtimoiy o'rganish;

Vaziyatdan xabardorlik;
Mashqning maqsadlari;
mashq uchun ta'lim yoki o'quv maqsadlari;
Jismoniy mashqlar kontekstining funktsiyalari;
xakerrlar, shu jumladan tahdid qiluvchilar;
Case funktsiyalari, zaiflik, xavf omillari.

Kiberxavfsizlik tamoyillar bo'yicha mashqni talaba oldida turgan muammolarni hal qiladigan va shu bilan o'zi uchun yangi bilimlarni yaratadigan murakkab muammoli maydon sifatida ko'rish mumkin. Bu nazariyani tajribaviy o'rganish nazariyasi ham qo'llab-quvvatlaydi [8].

Kiberxavfsizlik amaliyotining asosiy elementi jamoa a'zosi sifatida ishlashdir. Bu, masalan, xavfsizlik operatsiyalari guruhining bir qismi sifatida harakat qiladigan haqiqiy hayot ishni modellashtiradi. Mashqda barcha talabalar, jamoalar a'zosi sifatida joylashtiriladi, ularning vazifasi ularga tayinlangan operatsion muhitda mavzuni himoya qilish (mustaqil tayyorlanib xar xil pedagogic metodlar orqali tushuntirib) berish va qo'llab-quvvatlashdir. Talaba tahdid harakatlarini simulyatsiya qiluvchi qizil jamoa funktsiyasining bir qismi sifatida ham harakat qilishi mumkin. Bu rol, masalan, penetratsion test uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatishdir. Mashqda talabalar o'zlariga berilgan rolda harakat qiladilar, va o'zlarining operatsion muhitida idrok etadigan voqealar jamoasining bir qismi sifatida muloqot qilish. Shunday qilib, talabalar bilimlarini almashadilar, muammolarni hal qiladilar va yangi bilimlarni birgalikda quradilar.

Xulosa qilib aytganda, kiberxavfsizlik mashqlari bir nechta pedagogik nazariyalarni birlashtiradi. Kiberxavfsizlik bo'yicha mashg'ulotlarning pedagogik asoslari 1-rasmda ko'rsatilgan. Mashq pedagogik amalga oshirish nuqtai nazaridan ham talabchan bo'lib, ko'pincha mashg'ulotdan oldingi rejalashtirishga katta sarmoya kiritishni talab qiladi, bu erda operatsion muhit zarur bo'lgan texnik sharoitlarni yaratish uchun yaratilgan. elementlarni modellashtirish va operativ funktsionalliklarni pedagogik maqsadlarga erishish uchun loyihalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://jyvsectec.fi/2020/10/review-of-pedagogical-principles-of-cyber-security-exercises/>

2. <https://www.jamk.fi/en/for-students/professional-teacher-education-student-pedagogical-principles>

3. This research is funded by Cyber Security Network of Competence Centres for Europe (CyberSec4Europe) -project of the Horizon 2020 SU-ICT-03-2018 program. The authors would like to thank Ms. Tuula Kotikoski for proofreading the manuscript.

4. Mika Karjalainen, Samir Puuska, and Tero Kokkonen. 2020. Measuring Learning in a Cyber Security Exercise. In 2020 12th International Conference on Education Technology and Computers (ICETC'20). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 205–209.

5. M. Karjalainen and T. Kokkonen, "Comprehensive Cyber Arena; The Next Generation Cyber Range," 2020 IEEE European Symposium on Security and Privacy Workshops (EuroS&PW), Genoa, Italy, 2020, pp. 11-16.

6. А.Ю. Алексеев. (Al-Eraky M. Marei H.) Свежий взгляд на пирамиду миллера: оценка на уровне «является» и «делают». Точка зрения. Медицинское образование и профессиональное развитие. Том 11, №2 2020. 118-126 с.

7. Miller G.E. The assessment of clinical skills/competence/ performance. Acad Med. 1990; 65: S63–7

8. <https://www.ericsson.com/>

O‘ZBEKISTON TA‘LIMINING FINLYANDIYA TA‘LIMI BILAN INTEGRATSIYALASHUVIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

*Rajabova Kimyoxon Farmonovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ta‘limining Finlyandiya ta‘limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari, Finlyandiyaning birinchi milliy savodxonlik strategiyasi yaratilganligi, strategiyaning maqsadi savodxonlik ko‘nikmalarini barcha sohalarda keng e‘tirof etilganligi bunda amaliyotga alohida e‘tibor qaratilganligi, shunda har bir o‘quvchi shaxsi o‘z savodxonligini hayoti davomida qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashi zarurligi, mazkur strategiya ko‘p savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlash va o‘qishni rag‘batlantirishga qaratilgan tajribalar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim, kompetensiya, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS xalqaro baholash dasturi, tahlil, baholash, integratsiya, ta‘lim sifati, inson kapitali, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion ta‘lim.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНКИ В ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА С ОБРАЗОВАНИЕМ ФИНЛЯНДИИ

*К. Раджабова,
исследователь Бухарского государственного университета*

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования международных оценочных программ в интеграции образования Узбекистана с финским образованием, создание первой национальной стратегии Финляндии по грамотности, то, что целью стратегии является широкое признание навыков грамотности во всех сферах, и что особое внимание уделяется практике и необходимости для каждого учащегося поддерживать и укреплять свою грамотность на протяжении всей жизни, эта стратегия описывает опыт, направленный на укрепление навыков мультиграмотности и поощрение чтения.

Ключевые слова: непрерывное образование, компетентность, международные программы оценки, международная программа оценки PIRLS, анализ, оценка, интеграция, качество образования, человеческий капитал, современные подходы, инновационное образование.

OPPORTUNITIES FOR USING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN INTEGRATION OF EDUCATION IN UZBEKISTAN WITH EDUCATION IN FINLAND

*К. Rajabova
Bukhara State University independent researcher*

Abstract: In this article, the possibilities of using international evaluation programs in the integration of Uzbekistan education with Finnish education, the creation of the first national literacy strategy of Finland, the fact that the goal of the strategy is the widespread recognition of literacy skills in all areas, and that special attention is paid to practice, and the need for each student to support and strengthen their literacy throughout their lives, this strategy describes experiences aimed at strengthening multi-literacy skills and encouraging reading.

Key words: continuous education, competence, international assessment programs, PIRLS international assessment program, analysis, assessment, integration,

quality of education, human capital, modern approaches, innovative education.

Finlyandiyada Ta'lim tizimi - ta'lim barcha fuqarolarning asosiy huquqi va asosiy maqsadi hisoblanadi. Finlyandiyaning ta'lim siyosati barcha fuqarolarga; yoshi, millati, yashash joyi, moddiy ahvoli yoki ona tilidan qat'i nazar, ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishdan iborat. Finlyandiya hukumati asosiy ta'limning umumiy maqsadlarini belgilaydi. Ta'lim bo'yicha milliy agentlik, o'qitish vaqtini va fanlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisobot beradi.

Ta'lim va Madaniyat vazirligi tayanch va oliy ta'lim uchun milliy tayanch o'quv dasturlarini ishlab chiqadi. Agentlik ham o'rta umumiy ta'lim, shuningdek, erta bolalik davridagi ta'lim va parvarish ta'limini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, o'quv xizmatlarini taklif qiladi va ta'limni rivojlantirish loyihalarini tashkil qiladi.

Munisipalitetlar umumiy maktabda ta'limni tashkil etishda sezilarli erkinlikka ega. Milliy ko'rsatmalar; maktablar va o'qituvchilar pedagogik amaliyotga nisbatan avtonomiyaga ega va o'quv dasturining ko'rsatmalari doirasida o'quvchilarni baholash usullari milliy asosiy o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

O'quvchilarning aksariyati davlat tomonidan moliyalashtiriladigan maktablarda o'qishadi. Munisipalitetlarning aksariyati boshlang'ich va yuqori o'rta ta'lim muassasalarini saqlab turadi.

Xususiy maktablar - boshqa maktablar kabi bir xil miqdordagi davlat mablag'larini olish va bir xil siyosatlariga rioya qiladi.

Majburiy ta'lim boshlanishidan oldin, bola bir yillik maktabgacha ta'limda qatnashishi lozim.

Munisipalitetlar ta'minlashi shart bo'lgan Majburiy ta'lim odatda bola 7 yoshga to'ladigan yildan boshlanadi.

Asosiy ta'lim dasturi to'qqiz yilni o'z ichiga oladi (1-sinfdan 9-sinflar gacha), deyarli barcha bolalar umumta'lim maktabiga qatnaydilar. Asosiy ta'lim barcha o'quvchilar uchun bepul va darsliklar va boshqa materiallarni, bepul kundalik ovqatlanishni, ta'limni, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni o'z ichiga oladi.

To'liq o'rta ta'lim uch yillik muddatni; umumiy va kasbiy ta'limni o'z ichiga oladi. Ikkalasida ham bor o'quv dasturini o'rganish va ikkalasi ham universitet uchun umumiy talablarni ta'minlaydi. Birinchi milliy imtihon, ya'ni abituriyentlik imtihoni to'liq umumiy ta'lim oxirida bo'lib o'tadi. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich, asosiy va to'liq o'rta ta'limni o'z ichiga oladi. Bola bu vaqtga 18 yoshga to'ladi. Yuqori o'rta ta'lim ham quyi darajadagi ta'lim kabi bepul.

O'zbekistonda ta'lim "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr O'RQ - 637) asosida uzluksiz ta'lim olib boriladi. Maktabgacha va maktab ta'limi ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar 2-6 yosh maktabgacha ta'limga jalb etilib, maktabga tayyorlab boriladi, 7 yoshdan maktabga jalb etiladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);

o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan ("Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 9-modda)

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi

(“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun 5-modda).

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi kiritilgan.

Maktabgacha va maktab ta’limini Maktabgacha va maktab vazirligi boshqaradi, hududlarda maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari va tuman, shahar bo‘limlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida barcha savodxonliklar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarini bajarish bo‘yicha nazorat va amaliy yordamni berib boradi.

Finlyandiyaning PIRLS tadqiqotiga ishtiroki

Finlyandiya 2011-yildan beri PIRLSda ishtirok etib keladi. Finlyandiya boshqa bir qancha Xalqaro o‘quvchilarni baholash monitoringlarida ham ishtirok etadi.

PIRLS o‘qish savodxonligini baholash nuqtai nazaridan Finlyandiya ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab berish xizmat qiladi.

PIRLS tadqiqoti asosiy va to‘liq o‘rta ta’lim bo‘yicha milliy o‘quv dasturi, shuningdek Milliy savodxonlik strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha baholashlar yaratish uchun imkoniyat beradi. Barcha davlatlar kabi Finlandiya ta’limi uchun o‘qishni oshirishga bir qancha tashabbuslarni ilgari suradi. PIRLS

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar matematika, ona tili va adabiyoti fanlari bo‘yicha o‘quv ko‘nikmasining rivojlanishini baholash paralel sinflarda bir xil olib boriladi. Milliy baholashdan tashqari, xalqaro baholashlar masalan, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan PIRLS va Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini o‘rganish (ICILS) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan PISA (Programme for International Student Assessment) o‘qish savodxonligini nazorat qilish hamda o‘quv dasturlari va o‘quv maqsadlarini yangilash uchun ishlatiladi.

Maxsus o‘qish tashabbuslari so‘nggi o‘n yil ichida savodxonlik ko‘nikmalari va ayniqsa o‘qishga qiziqish bilan bog‘liq 40 dan ortiq tashabbuslar, loyihalar yoki kasbiy rivojlanish dasturlari, masalan, “Milliy o‘qish tashabbuslari” Finlyandiya o‘qish markazi loyihalari mavjud. 2017-yilda Ta’lim va madaniyat vazirligi bolalarning savodxonligi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar loyhasini ishlab chiqib, Milliy savodxonlik forumini o‘tkazdi. Bu 2019-yilda Finlyandiya Milliy Ta’lim Agentligi boshchiligidagi Savodxonlik harakati dasturi tomonidan davom ettirilayapti, bu ham barcha savodxonliklar ko‘p tillilikning ahamiyatini targ‘ib qiladi.

Finlandiya 2011-yildan boshlab 2 siklda PIRLS tadqiqotida ishtirok etdi. PIRLS – 2011-yil natijalari asosida 45 mamlakat ichida 567 ball bilan 3-o‘rinni, PIRLS – 2016-yilda 50 mamlakat ichida 566 ball bilan 5-o‘rinni egalladi.

O‘qish savodxonligi bo‘yicha butunjahon talab etilayotgan xususiyatlaridan Finlandiya o‘quvchilarining matnini Oliy darajada tushunish darajasida ekanligi ko‘rinadi.

Dastur asosida Finlyandiyaning birinchi Milliy savodxonlik strategiyasi yaratildi. Strategiyaning maqsadi savodxonlik ko‘nikmalarini barcha sohalarda keng e‘tirof etish va amaliyotni rivojlantirishdir, shunda har bir shaxs o‘z savodxonligini hayoti davomida qo‘llab-quvvatlab yuboradi va mustahkamlaydi. Mazkur strategiya ko‘p savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlash va o‘qishni rag‘batlantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning PIRLS tadqiqotiga ishtiroki

O‘zbekiston PIRLS – 2021 xalqaro monitoring tadqiqotida ilk bor ishtirok etdi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi, Boston kolleji tomonidan PIRLS – 2021 natijalari 2023-yil 16-may sanasida rasman e‘lon qilinadi.

2020-yilgi o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro sinov tadqiqotlari aprel-may oylarida o‘tkazildi. Koronavirus pandemiyasi tufayli sinov jarayonlari 2020-yil noyabr oyida 11 ta hudud 28 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 1400 nafar o‘quvchilardan Butun Jahon Ta’lim yutuqlari asotsiatsiyasi tomonidan o‘zbek, rus, qoraqalpoq tillarida

o'tkazildi.

PIPLS asosiy tadqiqotlari esa 2021-yilda 1-30 aprel sanalari oralig'ida 4-sinf o'quvchilaridan 5982 nafari (jami o'quvchilar soni 626646 nafar), 221 ta sinf o'quvchilari tadqiqotda ishtirok etishdi. Bu umumiy o'quvchilar sonining 0.01 foizini tashkil etdi. Respublika bo'yicha jami 10008 ta maktablardan 180 ta (0.018 foiz) maktab qatnashdi.

PIRLS xalqaro tadqiqotlari natijasi asosida 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi jahon standartlari bilan solishtiriladi, yutuqlar va kamchiliklar tahlili bo'yicha xalq ta'limi tizimida aniq chora-tadbirlar belgilab olinadi. Monitoringdan aniqlangan individual va hududiy bo'shliqlarni to'ldirish ishlari tizimli ravishda olib borilishi nazarda tutiladi. Hamda 2026-yilgi xalqaro tadqiqotlarga qatnashadigan o'quvchilarimizning badiiy va axborot matni bilan ishlash kompetensiyalari ko'rsatkichida o'sishiga tayyorlash uchun tegishli ishlar olib boriladi.

O'rta Osiyodan Qozog'iston davlati PIRLS - 2016-yilda qatnashdi va 50 mamlakatlar ichidan 536 ballik natija asosida 27-o'rinni egalladi hamda o'quvchilari matni yuqori darajada tushunish darajasiga erishdi.

Finlyandiya boshlang'ich sinflarda til va o'qish bo'yicha o'quv dasturlari

Finlyandiyada 2014-yildan boshlab asosiy ta'lim uchun yangi asosiy o'quv dasturi joriy etilgan va 2016-yilda amalga oshirish boshlangan. O'quv dasturi har bir fan bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi va mazmuni umumiy darajada tavsiflaydi. Yangi asosiy ta'lim o'quv dasturida quyidagi yetti ko'ndalang kompetensiya sohalari barcha fanlarni to'ldirib boradi:

Fikrlash va o'rganishni tahlil qilish;

Madaniy kompetensiya, o'zaro ta'sir va o'zini namoyon qilish;

O'ziga g'amxo'rlik qilish va kundalik hayotni boshqarish;

Savodxonliklar;

Axborot va kommunikasiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha kompetensiya;

Ish hayotiy kompetensiyasi va tadbirkorlik;

Kompetensiyalarga ishtirok etish, jalb qilish va barqaror kelajakni qurish.

Finlandiya ta'limida o'quvchilar tarbiyasidagi o'zgarishlar sezilsa yoki o'zlashtirishida qiynalgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar paydo bo'lsa bunda faqat o'quvchi shaxsi bilan emas balki uning ota-onasi yoki vasiylikka olganlar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi.

Milliy asosiy o'quv dasturida ona tili va adabiyoti fanidan o'qishni o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud. Savodxonliklar, AKT kompetensiyasi ham o'qish ko'nikmalarida asosida e'tiborni qaratadi. Barcha savodxonliklar ma'lumoti og'zaki, vizual, audio, raqamli va kinestetik belgilar tizimlari va ularning kombinatsiyasi orqali taqdim etilganda, o'quvchilar yoshga mos keladigan matnlarni topish, sharhlash, yaratish va baholash qobiliyatlarini rivojlanib boradi. AKTdan mas'uliyatli va xavfsiz foydalanish, axborotni boshqarish va so'rovga asoslangan holda yondashish, ijodiy ish olib borish tilni tushunish va anglash kabi o'zaro ta'sir va tarmoqni o'z ichiga oladi.

Milliy tayanch o'quv dasturida o'quv maqsadlari va fanlar mazmunidan tashqari har bir fan bo'yicha o'qitish vaqtining minimal miqdori yiliga haftada bir necha darslar soni sifatida belgilangan. Ona tili va adabiyoti bo'yicha o'qitishning minimal miqdori 1 va 2-sinflarda haftasiga 14 soat (har bir dars uchun 45 daqiqa), 3-6-sinflarda haftasiga 18 soat va 7-9-sinflarda haftasiga 10 soat hisobida olib boriladi. Har bir sinf uchun haftada darslarni sinflar bo'yicha qanday taqsimlashni alohida hal qiladi. Masalan, ular 3-6-sinflar uchun haftasiga 18 soatni uchinchi sinf uchun haftasiga 5 soat, to'rtinchi sinf uchun haftasiga 5 soat, beshinchi sinf uchun haftasiga 4 soat va oltinchi sinf uchun haftasiga 4 soat sifatida taqsimlashlari mumkin.

Asosiy ta'lim siklining har bir sinfida ona tili va adabiyoti o'qitilishi shart. Munisipalitetlar o'qitishning minimal miqdoridan oshib ketishga imkon yaratib

beradi.

O'zbekistonda ta'lim Milliy o'quv dasturlari va darsliklari asosida olib boriladi.

1 va 2-sinf o'quv dasturlari to'liq Milliy o'quv dasturi standartlari asosida olib borilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2022-2023-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 24- dekabrda 414-son buyrug'i asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv reja tasdiqlangan.

Boshlang'ich sinflarda tayanch o'quv rejaga asosan 1- sinfda 10 ta fan uchun haftasiga 22 soat belgilangan bo'lib, shundan 8 soati ona tili va o'qish savodxonligiga ajratilgan (har bir dars uchun 45 daqiqa). 2-3-sinflarda 11 ta fan uchun haftasiga 24 soat belgilangan bo'lib shundan 7 soati ona tili va o'qish savodxonligiga ajratilgan. 4-sinfda 12 ta fan uchun haftasiga 24 soat belgilangan bo'lib shundan 4 soati ona tili va 3 soati o'qish fanlariga ajratilgan.

Yuqori sinflarda 5-sinfda haftasiga jami 28 soat, shundan 4 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga, 6-sinfda haftasiga jami 29 soat, shundan 4 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga, 7-sinfda haftasiga jami 34 soat, shundan 3 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga, 8-sinfda haftasiga jami 33 soat, shundan 3 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga, 9-sinfda haftasiga jami 34 soat, shundan 2 soat ona tili va 3 soat adabiyot faniga, 10-sinfda haftasiga jami 31 soat, shundan 2 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga, 11-sinfda haftasiga jami 31 soat, shundan 2 soat ona tili va 2 soat adabiyot faniga ajratilgan.

Har bir maktab pedagogik kengashi qaroriga binoan o'quv rejasiga 15 foizgacha o'zgartirish kiritishi mumkin.

Ta'lim tizimi boshqaruvi tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'ta-onalarining talablariga asosan 7-sinfdan boshlab ona tili va o'qish fanini o'qitish bo'yicha variativ sinflar ochishiga sharoitni yaratgan.

Finlyandiyada pedagoglarni kasbiy rivojlanish talablari

Finlyandiyada o'qituvchilarning jamoaviy mehnat shartnomalarida ular har o'quv yili davomida uch kun davomida kasbiy malaka oshirishda ishtirok etishlari kerakligi ko'rsatilgan. Biroq maktabni rivojlantirish va o'qituvchilarning kasbiy ta'limi ko'pincha loyihalarda birlashtirilib, qo'shimcha vaqt kasbiy rivojlanishga sarflanadi. O'qituvchilarning ish beruvchilari, masalan, munisipalitetlar, odatda o'z xodimlarining kasbiy rivojlanishini tashkil etish va moliyalashtirish uchun javobgar hisoblanadilar. Malaka oshirishning mazmuni va yo'nalishi munisipalitetlar va hududiy hokimiyat organlarida turlicha bo'lishi mumkin ya'ni farqlanadi.

Finlyandiya Milliy Ta'lim Agentligi o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun munisipalitetlarni kerak bo'lgan mablag' bilan ta'minlaydi. Odatda milliy ta'lim siyosati va yangi o'quv dasturlariga taalluqli mavzularga qaratilgan malaka oshirish ishlari olib boriladi. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari odatda bepul.

Ayniqsa, PIRLS 2016 siklidan so'ng o'qishga qaratilgan bir necha kasbiy rivojlanish dasturlari yaratildi. LUKILOKI, 8 Luki-ILO, 9 and Gransland10 (for Swedish-speaking teachers - shved tilida so'zlashuvchi o'qituvchilar uchun) deb nomlangan dasturlar o'qish va yozishni o'rgatishga qiziqqan barcha boshlang'ich va o'rta ta'lim o'qituvchilariga 15 ta o'quv kreditiga teng nazariya va amaliyotni taqdim etadi. Bundan tashqari, Finlyandiya bolalar adabiyoti instituti va Yangi savodxonlik dasturi kabi bir qancha muassasalar, tashkilotlarning loyihalari o'qituvchilar uchun maktabda ta'limni rivojlantirish hamda darslarda foydalanishlari uchun tayyor materiallar taqdim etadi.

Finlandiya davlatida o'qituvchi eng oliy kasb egasi hamda barcha hurmat qilishi kerak bo'lgan inson sifatida e'zozlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi

to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VM-25-son qarori bilan xalq ta'limi xodimlarining har yili malaka oshirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etilgan.

Tizim bo'yicha umumiy o'rta ta'lim tizimi pedagog va rahbar xodimlari kalendar yilida 36 soatlik "Uzluksiz kasbiy ta'lim" malaka oshirish kursidan o'tishlari kerak.

Malaka oshirishning onlayn yoki an'anaviy turi ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Platformada berilgan kreditlar yig'ib boriladi.

Xalq ta'limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti pedagoglarni malaka oshirishi bo'yicha ishlarni olib boradi.

Pedagoglarga qulay bo'lishi uchun viloyat markazlarida pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tashkil etilgan bo'lib, xoxishiga ko'ra an'anaviy malaka oshiradiganlarni reja asosida kurslarga jalb etiladi.

Pedagoglar xohishlariga ko'ra mazkur markazlar yoki A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutida o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borishlari mumkin.

Finlandiyada o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatini kuzatish Ona tili va adabiyoti fanida o'quvchilarning o'qish darajasi baholanadi. Mazkur fan o'qituvchilari sinfda o'quvchilarni baholash uchun mas'uldirlar va odatda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan imtihonlar, darslik asosidagi imtihonlar va o'quvchilar taraqqiyotini doimiy kuzatishni o'z ichiga olgan baholash usullarini tanlashlari mumkin. O'quv dasturiga 6-9-sinf o'qituvchilari uchun o'quvchi 8 («yaxshi») ball olish uchun qanday ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi kerakligi haqida ko'rsatmalar kiritilgan.

Umumta'lim maktab o'quvchilari topshirishi mumkin bo'lgan yagona milliy imtihon umumiy o'rta ta'lim oxirida o'tkaziladigan insho va o'qishni tushunish vazifalarini o'z ichiga olgan imtihondir.

"Asosiy ta'lim to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ta'lim natijalarini o'lchash uchun milliy va xalqaro baholash kabi 13 ta tashqi baholash usullari qo'llaniladi. Keng miqyosdagi milliy baholashlar maktab fanlariga qaratilgan bo'lib, namunaviy hisoblanadi va Finlyandiya Ta'limni Baholash Markazi (Finnish Education Evaluation Centre (FINEEC) tomonidan o'tkaziladi. 2019-yildan buyon Ona tili va adabiyoti fanidan o'qish malakasini baholash kiritilgan, 9-sinf o'quvchilari uchun so'nggi milliy baholash (fin va shved tillarida) o'tkaziladi. O'quvchilarning til, adabiyot va madaniyatni tushunishini baholash matnlari tarjima qilish va yaratishni qamrab oladi.

O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr O'RQ - 637) hamda Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi qaroriga binoan maktablarda o'quvchilarning o'zlashtirishi baholab boriladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallashni ta'minlashga yo'naltiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muntazam va tizimli bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini, o'quvchining barkamol shaxs sifatida kamol topishini, uning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarining rivojlantirilishini ta'minlaydi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq o'quvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallashini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'quv yili umumta'lim muassasalarida 2-sentyabrdan kelgusi yilning 25- mayiga qadar davom etadi va to'rta chorakka bo'linadi.

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

o'quv yilining davomiyligi — 34 hafta (I sinflar uchun 33 hafta);

O'quvchilarning sifatli bilim olishini va ularni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga mos holda o'qitish natijalarini nazorat qilishni ta'minlash maqsadida umumta'lim muassasalarida quyidagi nazorat turlari olib boriladi:

joriy nazorat — o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda nazorat qilish uchun so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar ko'rinishida o'tkaziladi;

oraliq nazorat — chorak yakunida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun o'quv dasturining bir qismi tugaganda amalga oshiriladi va u yozma nazorat ishi yoki testlar ko'rinishida olib boriladi;

bosqichli nazorat — o'quv yili tugaganda og'zaki, yozma imtihon hamda test sinovlari ko'rinishida amalga oshirilib, unga asosan o'quvchining yakuniy bahosi, reytingi aniqlanadi va o'quvchini keyingi sinfga o'tkazishga qaror qilinadi;

yakuniy nazorat — tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'lim tugaganidan so'ng yakuniy davlat attestatsiyasi shaklida o'tkaziladi;

“Chet tili” fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi xalqaro baholash tizimi asosida aniqlanishi mumkin.

O'quvchilarning xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari hamda boshqa ko'rik-tanlovlardagi ishtiroki yakuniy davlat attestatsiyasi va bosqichli nazorat muddatlariga to'g'ri kelib qolgan taqdirda, ular tegishli yakuniy davlat attestatsiyasi va bosqichli nazoratlardan ozod etiladi.

Ularning bilimlarini yakuniy baholash va reytingini aniqlash yillik baholar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Finlandiyada Pandemiyaning PIRLS 2021ga ta'siri

2020-yil bahorida maktablarning yopilishi sababli, tajriba sinovida o'quvchilarning atigi uchdan bir qismi haqidagi ma'lumotlar to'plandi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim tufayli o'quvchilarning ochiq javoblariga ball to'plashlariga qiyinchiliklarni tug'dirdi. 2021-yil bahorida, PIRLSning asosiy ma'lumotlarini yig'ish jarayonida Finlandiya bo'ylab maktablar yopilmagan, ammo ba'zi sinflar ikki hafta karantinga qo'yilgan yoki bir nechta o'quvchilar qatnashmaganligi sababli muammolar yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida 4-sinf o'quvchilarining to'liq ishtirok eta olmasligiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, 2020 yil 23 sentabr, O'RBQ – 637;
2. 8.12.1992-yil, O'zbekiston respublikasining konstitusiyasi;
3. Xalqaro ta'lim assotsiyasi (IEA)ning PIRLS bo'yicha internet bazasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

**КАТТА МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ ЁШИДАГИ БОЛАЛАР
ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТЕХНОЛОГИЯСИ КОНЦЕПЦИЯСИ***Яхши Зиёевич Файзиев**Бухоро давлат педагогика институти, “Жисмоний маданият назарияси
ва услубиёти” кафедраси мудури вазифасини вақтинчалик бажарувчи, доцент**Камила Ғайратовна Адизова**Бухоро давлат педагогика институти
Жисмоний маданият факультети 2 курс магистри***PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN OF SENIOR
PRESCHOOL AGE TECHNOLOGY CONCEPT***Yaxshi Ziyoevich Fayziev**Bukhara State Pedagogical Institute**«Physical culture theory and methodology»**temporary head of the department, associate professor**Kamila Ghairatovna Adizova**Bukhara State Pedagogical Institute**Faculty of physical culture, 2 nd year master's degree***ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КОНЦЕПЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ***Яхши Зиёевич Файзиев**Бухарский государственный педагогический институт
временно исполняющий обязанности заведующий кафедры
«Теория и методика физической культуры», доцент**Камила Гайратовна Адизова**Бухарский государственный педагогический институт
Факультет физической культуры, магистрант 2 го курса*

Аннотация. Уйбу мақолада Катта мактабгача тарбия ёшидаги болалар жисмоний тарбия технологияси концепцияси ҳақида фикр ва мулоҳазалар юритилади. Миллий ва ҳаракатли ўйинларни педагогик жиҳатдан баҳолаш ва чуқурроқ ўрганиш ҳақидаги масала мактабгача тарбия муассасаларидаги 5-6 ёшли болаларни саломатлигини яхшилашни асосий воситаларидан бири сифатида анча олдин етилган эди. Кейинги йилларда болаларни илк ёшлигидан бошлаб спорт билан махсус шугулланишга жалб қилиниши ва саломатлигини ёмонлаштиришни умумий мойиллиги билан боғлиқ бўлган бу масалани аҳамияти кўпроқ ортиб бормоқда.

Аннотация. Данной статье содержатся мысли и комментарии по поводу концепции и технологии физического воспитания детей старшего дошкольного возраста. Вопрос о педагогической оценке и более глубоком изучении национальных и подвижных игр давно поставлен как одно из основных средств оздоровления детей 5-6 лет в дошкольных учреждениях. В последние годы возрастает актуальность данного вопроса, связанного с приобщением детей к специальным видам спорта с раннего возраста и общей тенденцией к ухудшению их здоровья.

Abstract. This article contains thoughts and comments about the concept of physical education technology for children of senior preschool age. The issue of pedagogical assessment and deeper study of national and mobile games was raised long ago as one of the main means of improving the health of 5-6-year-old children in

preschool institutions. In recent years, the importance of this issue, which is related to the involvement of children in special sports from an early age and the general tendency of their health to deteriorate, is increasing.

Калит сўзлар: жисмоний тарбия, миллий ҳаркатли ўйинлар, мактабгача тарбия, жисмоний ривожланиш, гимнастика.

Ключевые слова: физическое воспитание, национальные спортивные игры, дошкольное воспитание, физическое развитие, гимнастика.

Key words: physical education, national sports games, preschool education, physical development, gymnastics.

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Жисмоний тарбия ахлоқий, эстетик, меҳнат, ақл-идрок тарбияси билан чамбарчас боғланганлиги айнан болани тарбиялашни умумий тизимидаги аҳамияти ва уни муҳимлиги ҳам шундандир.

Мактабгача тарбия ёшигачан бўлган болаларни жисмоний тарбия тизимидаги ўзини умумий кўринишида оилада болаларни жисмоний тарбиялаш тизими билан биргаликда ҳаракат қилиши аниқ бўлиши шарт. Ўзининг мустақиллигини сақлаган ҳолда, тизимлардан ҳар бирини илмий асоси, ўзининг назарияси ва ташкилий тузилиши бўлиши керак. Шунинг учун жисмоний тарбия услублари ва воситаси, шакли ёрдами билан шахсни ҳар томонлама ривожланиши учун тушуниб етиш зарурдир.

Ижтимоий-иқтисодий муносабатни қайта қуриш даврида болани жисмоний тарбиясига махсус ёндошиш зарурдир. Махсус тестлар яъни миллий ва ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш билан, айниқса болалик ёшидан бошлаб, шахсни соғлом шакллантиришга алоҳида ва шахсий ёндошиш, одатдаги тасаввур доирасидан ташқарисига чиқади.

Миллий ва ҳаракатли ўйинларни педагогик жиҳатдан баҳолаш ва чуқурроқ ўрганиш ҳақидаги масала мактабгача тарбия муассасаларидаги 5-6 ёшли болаларни саломатлигини яхшилашни асосий воситаларидан бири сифатида анча олдин етилган эди. Кейинги йилларда болаларни илк ёшлигидан бошлаб спорт билан махсус шуғулланишга жалб қилиниши ва саломатлигини ёмонлашишини умумий мойиллиги билан боғлиқ бўлган бу масалани аҳамияти кўпроқ ортиб бормоқда. Муаммони долзарблигини ҳал этишдаги уни ўзаро боғлиқлигини яна ҳам ва айниқса, миллий ва ҳаракатли ўйинларга кўпинча етарлича баҳо берилмайди. Ҳар доим ҳам мактабгача тарбия илм олиш муассасаларида жисмоний тарбия тизими ҳар доим ҳам муаммони ўрнини эгалламайди.

«Жисмоний тарбия ва спорт ҳақидаги» мос келадиган қонун, шунингдек Президентни «Соғлом авлод» тўғрисидаги фармони мутлақо равшанки, яъни Республика мактабгача тарбия ёшидаги болалар муассасаларида бекиёс даражада диққат ва вақтни ва жисмоний ривожланишини ҳамда болаларни соғломлаштиришга ажратилиши шарт. Ушбу вазифани комплекс ҳал этишда муҳим ўринга эга чиқишига, гигиеник жиҳатдан ўргатиш ва тарбиялашга, соғлом турмуш ҳаётни худди болалар ўртасида, худди шундай катталар педагоглар, тарбиячилар, ота – оналар ўртасида тарғибот қилишга йўналтирилган. Бир қатор тадқиқотларни кўрсатишича, катта мактабгача тарбия ёшидаги болалар жисмоний ривожланишини ижобий силжиши ҳар куни бўладиган фаоллаштириш организм тизимини мотор – вестибулярни ва мотор даражасини ҳамда ўзаро муносабатини ва мотор даражасини ва уни асаб тизими тороникка хос тартибга солишга таъсир этишини тезлаштиради. Шу билан бирга ҳафтасига 3 марта тарбиячи раҳбарлигида жисмоний машқлари билан ўтказиладиган машғулот (15 дақиқада 35 дақиқача) 5-7 ёшли болаларни ҳаракат фаоллиги ва организмни асосий физиологик функциясини тўлақонли ривожлантириш учун етарли бўлмайди. Шундай машғулотлар мушакни фаоллигини оширишга олиб келмайди натижада барча физиологик функцияни шундай кучли табиий

кўзгатувчиси тушиб кетади, кинестезия ҳисобланади.

Замонавий даражада катта мактабгача тарбия ёшидаги болалар жисмоний тарбия вазифасини ечилиши нафақат услубий томондан тўғри ташкил қилиш ва жисмоний тарбия бўйича машғулотни ўтказиш, лекин ва мактабгача тарбия ёшидаги болалар муассасаларида етарли бўлиши учун моддий – техника базаси таъминланган бўлиши керак. Бироқ маълумки, ҳозирги вақтда асосан кўпчилик мактабгача тарбия ёшидаги муассасаларида шундай базаларга эга эмас. Шундай қилиб, нафақат аниқ нормативларни ишлаб чиқиш, уларни спорт заллари, сузиш ҳавзаси, ўйин майдони, спорт жихози ва асбоб анжомлари мос равишда таъмин этилганлиги зарур, аммо бу нормативларни ҳаётга режа асосида тадбиқ қилишга эришиш. Бу тўғрисида гапиришни ҳеч кераги йўқ, миллатни соғлиги давлат учун қандай аҳамиятга эга бўлади. Буни ўқтириб ўтмаслик мумкин эмас, бу «пойдеворни» кўйишни асосан жисмоний тарбия ва соғломлаштириш воситалари ёрдамида эришади. Шу билан боғлиқки мактабгача тарбия ёшидаги болаларни жисмоний тарбияси кўп қиррали педагогик кадрларни аҳамияти ва роли тушинарли бўлиб қолади. Афсуски, ҳали яна республикамиз олий ўқув юртларини бирортасида мактабгача тарбия ёшидаги болаларни жисмоний тарбияси бўйича мутахассисларни.

Катта мактабгача тарбия ёшидаги болалар жисмоний тарбия вазифасини долзарблиги болаларни ҳаракати доирасида ривожланиши, ҳаракатга бўлган эҳтиёжини шакллантириш асосида такомиллаштиришни самарали воситасини кидириш ҳисобланади, ҳаракатни ўзини бўлажак ва ҳозирги соғлиқни гармоник жисмоний ривожланиши пойдевори сифатида қараш керак. Худди шунингдек, болани умумий ривожланишини муҳим воситаси сифатида, уни психаносини, қобилиятини ва ҳаётий фаоллигини шакллантиради.

Болалар боғчаларида кун тартибида жисмоний тарбия машғулотида турли туман ҳаракат турларини ўз ичига олган, жисмоний машқлар, халқ ва миллий ҳаракатли ўйинлар, физкультура дақиқалар, спорт элементлари билан ўйналадиган ўйинлар мажбурий бўлиши шарт, жисмоний тарбия болалар боғчасида болаларни ҳаётини барчасини ташкил қилишда ўз ичига сингиб кетиши керак, шулар қаторида кўргазмалар ва иқтисодий шароитда болалар фаолиятидаги тартиби ва ҳар хил турларида ва уларни ёшини ҳамда маданий турмушидаги индивидуал ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда.

Жисмоний тарбия машғулотида асослаб ва ўйин характериға эга бўлиши шарт, у болаларда ўз олдига вазифани кўйишни билиш ва уларни ечиш йўллари топишни шакллантиради.

Жисмоний тарбия бўйича йўриқчи услубчи машғулот жараёнида болалар билан алоқада бўлиши ва самарали шаклларидан, командаи услубни ўзига ўзига хослиги, мажбур қилиш, жазолаш усулларидан фойдаланиши шарт. У машғулот мавзусида ёки ўйинда сиймога кириш учун, ўзида артистлик қобилиятини ривожлантириши шарт. Болалар ўз навбатида маълум ролларни бажарадиганлар ҳисоблашиб, бу ролни яхши билишлари шарт, модомики бу билимни даражасига, фикрлашиға ва уларни мустақиллигиға, машғулотни ўтказиш натижасига ва мазмуни сифатиға боғлиқ бўлади.

Шуни ҳисобга олган ҳолда, катта мактабгача тарбия ёшидаги болаларда нисбатан жисмоний сифати енгил ривожланади. Болаларда тезликни, эпчилликни ва эгилувчанликни, кооруакцион қобилиятини, тезкорлик – куч сифатини ва чидамлиликини ривожлантиришға алоҳида диққатини қаратилиши зарур. Бу ерда жисмоний юкломани бошқаришда бажарилиши шарт бўлган миллий ва ҳаракатли ўйинларни спорт юналишидагини танлаши муҳимдир.

Ҳозирги вақтга қадар кўпчилик педагоглар мактабгача тарбия ёшидаги болаларда чидамлиликини тарбиялашға айрим хавф хатар билан қарайдилар. Жаҳон тажрибасини ва илмий маълумотларини ҳисобга олган ҳолда, машғулотга

чидамликни тарбиялаш воситасини киритиш мумкин деб ҳисоблаш мумкин. Бу мақсад учун чидамликни ривожлантиришга йўналтирилган миллий ва ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш мумкин.

Болаларни жисмоний машқларни ўргатиш жараёнида кейинчалик фаоллаштириш учун болалар боғчаларидаги ишларида кенгроқ амалиётни турли туман жисмоний тарбия шаклларида амалиётни кенгроқ киритилиши зарур:

- эрталабки бадан тарбия бир қаторда аэробик элементлари билан ритмик гимнастикадан, «УШУ» гимнастикаси, ўйин мавзуларидан фойдаланиш мумкин;

- кун давомида ҳаракат фаоллигини оширишга йўналтирилган, турли туман жисмоний машқлар, шулар қаторида, мустақил шуғулланиш ўйинлар ва б.к;

- жисмоний машғулотлар, умумий ўтказиладиган, ҳуди шундай ноанъанавий шаклда ишлашни кўллаш билан;

- факультатив ва тўғарак ёки секция ишлари (теннис, бадминтон, гимнастика) ва б.к;

- даволаш гимнастикаси билан шуғулланиш (қадди-қоматида қийшиқликлари бўлган болалар учун);

- жисмоний ривожланишдан орқада қолган, болалар билан шуғулланиш.

Кун давомидаги ҳаракат тартибини асосий таркибини қисми ташкил этилган, мустақил ва турмушдаги ҳаракат фаолиятига кирувчи асосий ҳаётий муҳим ҳаракатлар – юриш, югуриш, сакраш, тирмашиб чиқиш, улоқтириш, мувозанатни сақлаш машқлари киради. Бунда ҳаракат фаоллигини барча даврлар давомида давом этиши, тетиклиги, бақувватлиги 50-60 % ни ташкил этади.

Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни жисмоний тарбия бўйича ишларини натижаларини баҳолашда энг асосий норматив талаблар, уларни жисмоний тайёргарлиги, мустақиллиги ва жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги билимларни билишлари албатта шартдир.

Ҳар бир мактабгача тарбия ёшидаги болалар муассасалари жамоасини муҳим вазифалари борлар боғчасида, оилада ва мактабда жисмоний тарбияни изчиллигини таъминлаш ҳисобланади. Жисмоний тарбия жараёнида алоҳида диққатни шахсий ахлоқий – маърифий соҳада ривожланиши ва тикланишига қаратиш керак. Бунинг учун ўзбек халқининг анъаналарини, турмуш тарзи, маданиятидан кенг фойдаланиш керак.

Бу сир эмас, мактабгача тарбия ёшидаги болалар муассасаларида тиббий ходимларни иш мазмунини кўпинча фақат болаларни шикоятига қараб кўриш билан яхшиланади.

Болаларни жисмоний ривожланишини, жисмоний тайёргарлигини жисмоний томондан соғлом бўлиб ўсишини назорат қилиши болалар боғчасини тиббиёт ходимлари бизни ишимиз деб ҳисоблайдилар. Шунинг учун бунга ажабланмаса ҳам бўлади. кўпчилик болалар боғчасида тиббий дафтарида болаларни жисмоний ривожланиши тўғрисидаги барча маълумотлар йўқ. Духтирлар ва медицина хамшираси болаларни жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлигини мунтазам равишда тиббий – педагогик назоратини ўзларини ўзларини қатнашиши билиб йўлга қуйишга ёрдам кўрсатишлари керак, шу билан бирга ҳар хил спорт – оммавий ва физкультура – соғломлаштириш тадбирларини самарали ўтказишга ёрдам беришлари керак. Улар болалар боғчасида медицина ходимини ишлари дастури ўрнида бўлиши шарт.

Шуларни ҳисобга олган ҳолда, яъни тиббий – педагогик назорат кўп йиллик бўлиши шарт (болалар боғчаси, мактаб, олий ўқув юртида), бунинг учун ҳар бир болага «Мактабгача тарбия ёшидаги болалар саломатлик карточкаси» юритилса мақсадга мувофиқ бўларди. Карточкадаги барча кўрсаткичларни фақат врачни ва жисмоний тарбия йўриқчисини, балки барча педагогик жамоани, албатта ота – оналарни ҳам қизиқтириш керак.

Кўйилган муаммо фақат шундай ҳолатда муваффақиятли ҳал этилиши

мумкин, агарда мактабгача тарбия жамоатчилиги тизими, оила тарбияси билан гармоник билан бирга кўшиб олиб борилгандагина, алоҳида тизим бўлмасданбалки уни тўлдирилиши лозим.

ХУЛОСАЛАР. 1. Катта мактабгача тарбия ёшдаги болалар дафтарчаси билан болани ўзига хос шахсиятини таърифи ҳисобланиши аниқланган, усул ҳаракат тайёргарлиги ва жисмоний ривожланишни кўрсаткичларини тутиб турувчи тарбиячи ижобий баҳо беришига имконият беради ва педагог – тарбиячи ҳамда мактабгача тарбия ёшдаги болалар – тарбиячини ўзаро ҳамкорлиги ҳисобланади.

2. Кўп сонли миллий ва ҳаракатли ўйинлардан кучланиш имкониятларидан чидамлик, эпчиллик, ҳаракат координациясига ривожлантиришга йўналтирилганлигини ҳисобга олиб улардан фойдаланиш зарурлиги асослаб берилган.

3. Спорт йўналишига оид миллий ва ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш технологияси даври базасида – аниқ маълум бўлиши асосий йўналиши билан ривожланувчи диагностикани асослар билан исботланган.

Катта мактабгача тарбия ёшдаги 5-6 ёшли болаларни жисмоний тарбия технологияси спортга йўналтирилган миллий ва ҳаракатли ўйинлар воситаси ёрдамида педагогика асосида ҳамкорликда; болага инсонпарварлик руҳида шахсга ёндошиш; тарбия концепцияси дидактик фаоллаштирувчи ва ривожлантирувчи комплексини ишлаб чиқилди.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 июнь ПҚ–3031-сон “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори Тошкент. 2017 йил 4 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги ПҚ-3583-сон «Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори Тошкент. 2018 йил 6 март.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 июльдаги 507-сон “Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳузуридаги жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори Тошкент. 2018 йил 6 июль.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сон «Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» фармони. Тошкент. 2018 йил 6 март.

5. Железняк Ю.Д.. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорта, -М., 2002 г. 435 с

6. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С.. Теория и методика физического воспитания и спорта. // Учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальности «Физическая культура». М.: Академия, 2008. – 478 с.

7. Қурбонова М.А., Қосимова М.У. Миллий ва ҳаракатли ўйинлар. // Олий ўқув юртли умуий курс учун ўқув қўлланма. Т.: 2009, - 67 б.

8. Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Космина И.П. Научно-методическая деятельность. // Учебник. М.: Физкультура и спорта, 2005. – 287 с.

9. Спортивные игры: Техника, тактика, методика обучения. // Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. Под. ред. Ю.Д. Железняка, Ю.М. Портнова. М.: Академия, 2004. – 520 с

10. Файзиев Я. З. “Физическая культура личности студента как общественная и индивидуальная ценность”. Яхши Зиёевич Файзиев, доцент, Дилшод Яхши угли Зиёев, студент, Галина Владимировна Сытник, канд. психол. наук // Уважаемые участники 71-й Всероссийской научно-практической конференции «Физическая культура студентов», коллеги! Сердечно приветствую участников и гостей 71-й Всероссийской научно-практической конференции «Физическая культура студентов» и благодарю вас за то, что вы сегодня здесь вместе с нами!. – 2022. – С. 172.

**TALABALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA
HARAKATLARGA O'RGATISH JARAYONLARI**

*Jahongir Jo`rayevich Murodov,
Buxoro Davlat universiteti "Sport faoliyati" kafedrasida katta o`qituvchisi*

**ПРОЦЕССЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ДВИЖЕНИЮ НА
ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА**

*Муратов Джахонгир Джураевич,
старший преподаватель кафедры «Спортивная деятельность»
Бухарского государственного университета*

**PROCESSES OF TEACHING STUDENTS TO MOVEMENT IN THE
LESSONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT**

*Murodov Jahangir Dzhuraevich,
senior lecturer of the department «Sports activity» of the Bukhara State
University*

Аннотация. Ушбу мақолада talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida harakat malakalariga o'rgatish va shakllantirish usullari, ularni maqsad va vazifalari hamda shakllarini mazmuni o'rganib chiqilgan. Shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida talabalarni muntazam o'rgatish va yangi o'rganilgan mashg'larni murakkab birlashtirish, jismoniy harakatlari, ularning mohiyati, kuchini egallash. Tashqi sharoit ta'sirida hosil bo'ladigan tez harakat faoliyatini qayta tashkil qiladigan mashqlarni qo'llash, ya'ni (gimnastika, sport va harakatli o'yinlar elementlari, yengil atletika va xokazo) turlari turli xil mashqlarni ajoyib birikmalarini to'g'ri bajarish va ularning usulini o'zgartirishni kinematik va dinamik ta'rifi, harakatlarning mohirona bajarish va mahoratini oshirishni shakllantirish va takomillashtirish tahlil etilgan.

Калит so'zlar. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, harakatlarga o'rgatish bosqichlari, jismoniy tayyorgarlik, harakat akti, dastlabki o'rganish bosqichi, dinamik stereotip, harakatli mashq texnikasi, koordinatsion qobiliyatlar.

Аннотация. В статье отражены цель и задачи обучения студентов двигательным действиям студентов включает себя подготовка к специализации по сети будущей деятельности и к жизни, развитие физических качеств, оздоровление, обучение и совершенствование сложных и не сложных движениям и формирования у студентов двигательных качеств и способность. В статье отражены формы и методы формирования двигательной способности и действия студентов на занятиях по физическому воспитанию и их совершенствования. Для совершенствования и укрепления двигательных способности студентов на занятиях имеет большое значение, правильное организация учебно-тренировочных занятий, методический правильно организованное занятия, спортивной тренировки, спортивные соревнования и массовые физкультурно спортивные мероприятия.

Ключевые слова. Физкультурно-спортивные мероприятия, этапы двигательной подготовки, физическая подготовка, двигательный акт, начальный этап обучения, динамический стереотип, техника двигательной тренировки, координационные способности.

Abstract. The article reflects the goals and objectives of teaching students the motor actions of students, including preparation for specialization, the network of future activities and for life, the development of physical qualities, health improvement, training and improvement of complex and not complex movements and the formation

of students' motor qualities and abilities. The article reflects the forms and methods of the formation of the motor ability and the actions of students in the classroom for physical education and their improvement. To improve and strengthen the motor abilities of students in the classroom, it is of great importance that the correct organization of training sessions, methodically organized classes, sports training, sports competitions and mass physical culture and sports events

Keywords. Physical culture and sports events, stages of motor training, physical training, motor act, initial stage of training, dynamic stereotype, motor training technique, coordination abilities.

KIRISH. Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini ta'minlash va barcha ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishning muhim omilidir. Bu olijanab maqsad yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar sportini rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlardagi izchil islohatlar o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

Mamlakatimizning mustaqilligi va istiqboli buyuk kelajagimiz istiqbollarini ta'minlashni taqazo etadi. Bunda aholi salomatligini himoya qilish, ularning jismonan va ma'naviy barkamalligini doimo ta'minlab borish jamiyatimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu asosda oila, maktab va ayniqsa mahalla, mehnat jamoalarida sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan barcha tibbiy va jismoniy madaniyat tadbirlaridan maqsadli foydalanish ustivor turishini xayotning o'zi isbotlayapti.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya, sport va milliy xalq o'yinlarining beqiyosligini inobatga olib, yosh avlodni jismonan barkamol, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bilan birgalikda barcha pedagogik jamoasining dolzarb vazifalaridan biri yosh soha mutaxassislarining bilim mahorati, malakalarini zamon talablari darajasiga ko'tarish, talabalarning yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishida nazariy bilim va ko'nikmalar egallashda yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonlarini sifatini oshirish va tarbiyaviy ta'sirini yaxshilash maqsadiga qaratilganligidir.

Talabalarni jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida harakatlarga o'rgatish jarayonlari. Jismoniy tarbiyada harakatlarga o'rgatish jarayonlari turli bosqichlar va qonuniyatlarga ega bo'ladi.

METODLAR. Harakatlarga o'rgatish bosqichlari: Dastlabki o'rganish-bu o'rganish jarayonida harakatni umumiy tarzda bajarish malakasi tarkib topadi. O'rgatishning bu bosqichidagi maqsad harakat faoliyatini umumiy tarzda bajarish malakasini tarkib toptirishdir. O'rganuvchilar yangi harakat texnikasining negizini o'zlashtirib olishi kerak. Bir xil holda bunday malakalar jismoniy tayyorgarlik jarayonida hosil qilinganda mustaqil ahamiyatga ega bo'lib texnika takomillashmagan sharoitda ham ko'nikmaga aylanish mumkin. Dastlabki malakani tarkib toptirish bosqichi fiziologiya mexanizmi jihatida bu bosqich davomida miya po'stlog'idagi dinamik stereotipning asosi yaratiladi. Bunda yaroqli tug'ma va orttirilgan reflekslarni tanlash, shuningdek, o'rganuvchilarning harakatlarni bajarish tajribalarida bo'lmagan reflekslarning yangilarini barqaror etish sodir bo'ladi. Natijada bosqich oxirida o'rganiladigan faoliyat texnikasining asosiga mos keluvchi harakat reflekslari sistemasi tarkib topadi.

Bu bosqichning o'ziga xos xususiyatlari: harakatlarning fazo va vaqt jihatidan yetarli darajada aniq bo'lmasligi, muskul harakatlarining aniq emasligi; harakat akti ritmining barqaror emasligi; keraksiz qo'shimcha harakatlarning mavjudligi; murakkab harakat fazalari o'rtasida yaqinlikning yo'qligidir.

O'rgatishning birinchi bosqichida quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Harakat akti haqida bir butun tasavvur paydo qilish.
2. Yangi harakatlarini o'zlashtirish uchun kerak bo'lgan elementlar bilan to'ldirish.
3. Harakatlarni to'la bajarishga erishish.
4. Keraksiz harakatlarni yo'q qilish.

Harakatlarni o'rganishning boshlang'ich payti shu harakatlar bilan oldindan tanishib chiqish hisoblanadi. Bunga harakatlarning ahamiyati va xususiyatini so'zlab berish, namoyish etish, harakat texnikasining asosini qisqacha tushuntirib berish, shuningdek, amalda bajarib ko'rsatish orqali erishiladi. Harakatni dastlabki o'rganishda o'qitishning ko'rgazmali bo'lishi harakatning asosiy fazalari haqida his va tasavvur qilish imkonini beruvchi xilma-xil uslub va usullar yordami bilan ta'minlanadi.

Dastlabki o'rganish bosqichida topshiriqni bajarib bo'lish yoki bo'lmaslik shug'ullanuvchilar harakat tajribasi qanchalik ko'pligi, o'rganiladigan harakat tarkibining qanchalik murakkabligi, harakat tarkibining o'rganuvchilar jismoniy imkoniyatlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Dastlabki malakaning tez hosil bo'lishi va sifati o'rganuvchining harakat tajribasining qanchalik boyligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu tajriba qanchalik xar tomonlama bo'lsa, yangi harakatlar sistemasi shuncha tez va oson hosil bo'ladi.

Birinchi bosqichda o'qitishning sistemaliligi topshiriqning optimal miqdorda takrorlanishini va ular orasidagi intervalning qanchalik kattaligini aniqlash zarurligi bilan tavsiflanadi. O'rganuvchilar topshiriqni shunday intervallarga bir yo'la bir necha marta bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bu intervallar o'rganuvchilarning o'qituvchi (trener) ning ogohlantirishini yaxshi idrok etishga, bajarilishini bilish, navbatdagi vazifani va ijroni yaxshilash yo'lini tasavvur etishga, shuningdek, buning uchun zarur bo'lgan kuchini tiklashga imkon bersin.

Demak, dastlabki o'rganish shug'ullanuvchilarda mashq va harakatlar to'g'risida tushuncha tasavvur hosil qilish, harakatlar texnikasining dastlabki shakllarini amalda bajarishni o'rganishdir.

Chuqurroq-mukammal o'rganish, bunda harakatni zarur darajada aniq bajarish malakasi hosil bo'ladi. Bu o'rgatish bosqichi oldida turgan maqsad ilgari hosil qilingan malakani aniq, butun qismlargacha qayta ishlab chiqilgan malaka darajasiga yetkazish iboratdir. Dastlabki o'rgatish ko'proq harakatni texnikasi asosini o'rganishdan iborat bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda esa bu asos mukammal o'rganiladi va uning detallari aniqlanadi. Mukammal o'rganish bosqichi murakkab harakat aktini vaqtli, fazoviy kuch xususiyatlarini aniqlash bilan ta'riflanadi.

Harakat ko'nikmasini takomillashtirish natijasida harakat dinamik stereotipi vujudga keladi va bu stereotip bundan keyin mustahkamlanadi. Miya po'stlog'ida yuzaga kelgan faoliyat haqida tushuncha harakat faoliyatini bema'lol bajarishni ta'minlaydi.

O'rganishning ikkinchi bosqichidagi vazifalar:

- 1) o'rganilayotgan harakatlarning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish:
- 2) o'rganilayotgan harakat texnikasining qismlarini bilib va aniqlab olishga erishish:
- 3) harakat amallarini to'raligicha aniq, erkin va bir-biridan uzmay bajarishga erishishdan iboratdir.

Mukammal o'rganish bosqichida o'rganish uslubiyoti quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. O'rganuvchida ongliklik va faollilik ortadi. O'z faoliyatlarini baholash natijalarni tahlil qilish ishtiyoqi uyg'onadi. Mukammal o'rganish bosqichida ko'rgazmalilik ilgari idrok etilgan harakatlarni detallashtiruvchi shuningdek, umumiy tushunchalarni konkretlashtiruvchi usullarni tanlash bilan ta'minlanadi. Mukammal o'rganish bosqichida harakat larni bajara olish va individuallashtirish birinchi navbatda topshiriqlarning izchilligi va xar bir o'quvchining materialni o'zlashtirish

xususiyatlarini hisobga olib, qo'shimcha mashqlar kiritish bilan ta'min etiladi. Mukammal o'rganish bosqichida sistemalilik tamoyilini amalga oshirish shu bilan xarakterlanadiki, takrorlash soni bir seriyada ham, butun mashg'ulot davomida ham asta-sekin oshib boradi. Mukammal o'rganishda dastlabki o'rganishga qaraganda mashg'ulotlar orasida katta intervallar bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Bu o'quv jarayonini yangi material bilan boyitishga yordam beradi. Ba'zan harakatlarni aniqlash yuzasidan qilinadigan tanaffuslar harakatlarni o'rganish darajasi qanchaligini baholashga imkon beradi. Lekin bunday tanaffuslar uzoq vaqtga cho'zilmasligini ta'minlash kerak.

Chuqurroq yoki mukammal o'rganish jarayoni mashq yoki harakatlarni texnikasini to'liq egallash bilan birga ularni musobaqa va jismoniy tarbiya jarayonida bajara olish qobiliyatini ya'ni taktik mahoratlarni shakllantirish vazifalarni hal etadi.

Harakat malakalarini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, bu harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi, shuningdek, undan xar xil sharoitlarda foydalana olish bilan bog'liqdir. O'rgatishning oxirgi bosqichi vazifasi olingan malakani ko'nikmaga aylantirish, o'rgatilgan harakatni xar xil sharoitlarda qo'llanishning qo'shimcha malaka va ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Jismoniy tarbiya jarayonining umumiy yo'nalishga qarab bu bosqichga ajratilgan vaqt xar xildir. Bu bosqichda o'rgatish jarayonlari harakat ko'nikmasini rivojlantirishning ko'nikmani mustahkamlash hamda qo'shimcha variantlarda malaka va ko'nikmalarni shakllantirish davrlarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda o'rganiladigan harakat texnikasining asosiy variantiga mos harakatlar mustahkamlanadi. Ikkinchi davrda bu stereotipga qo'shimcha ravishda harakat texnikasining xar xil variantlarga mos keluvchi harakat reaksiyasi ishlab chiqadi va mustahkamlanadi.

O'rganishning bu bosqichidagi xususiy topshiriqlar:

- 1) harakatli mashq texnikasini mustahkamlash va qismlarini yana ham aniq bajarishga o'rgatish;
- 2) harakat texnikasi individual xususiyatlarining zarur darajada takomillashtirishga erishish;
- 3) o'zlashtirilgan harakatni xar xil tashqi sharoitlarda va boshqa harakatlar bilan qqshilgan holda maqsadga muvofiq ravishda qo'llashni ta'minlash;
- 4) harakatli mashqlarni maksimal darajada jismoniy kuch sarf etgan holda mukammal egallashni ta'minlashdan iboratdir.

Harakatlarni mustahkamlash va takomillashtirish bosqichida onglilik va faollilik tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Harakatli mashqlarni takomillashtirishda onglilik yetakchi ro'lni qynasa, harakatlarni ketma-ket izchil o'rganib borishda faollilik asosiy omil bo'ladi. Harakat ko'nikmasini mustahkamlash jarayonida o'qitishning ko'rgazmaliligi oldingi bosqichlarga qaraganda boshqacha shakl oladi. Harakat ko'nikmasini mustahkamlanib borishiga muvofiq harakatlarni boshqarishda analizatorlar yetakchi ro'lni o'ynaydi. Ko'rish, eshitish kabi masofa analizatorlari harakatlar ustidan nazoratni boshqarib tashqi sharoit ta'siriga imkon beriladi. O'rgatishning ko'rgazmali tomonida ko'rgazmali texnik vositalar yordamida mashg'ulotlar o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harakatlarga o'rgatishning mustahkamlash va takomillashtirish bosqichida sistemalilik tamoyili harakatlarni to'laligicha qayta takomillashtirish shu bilan birga ehtiyojga qarab bo'laklarga bo'lib o'rgatishni taqozo etadi. Ko'nikmani mustahkamlanishiga qarab asosiy o'rinni o'zgaruvchan mashqlar egallaydi. Bu jarayonda harakat ko'rinishi o'zgaradi. Xar xil sharoitlarda harakat bajarishning tashqi ta'sirlari uni murakkablashtirganda, shug'ullanuvchilarning ahvoli o'zgariganda, boshqa xil harakatlar bilan uyg'unlashiganda, jismoniy zo'r berish kuchaytirilganda harakatlar shakli o'zgarib boradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Harakat ko'nikmalarini takomillashtirish jarayonida bu ko'nikmani bajara olishni va individuallashtirishni ta'minlash,

rivojlanishning har bir bosqichida biror- bir murakkablikdagi harakat vazifalarini hal qilishning o'z imkoniyati bo'ladi. Bir xil shug'ullanuvchilar harakatlarni bajarishda qo'yiladigan talablarga chidash bersalar boshqalar uchun bu og'irlik qiladi. Bu bilan ko'nikmaning buzilishi sodir bo'ladi. Shuning uchun bunday holatga sabab bo'lgan mashqlarni vaqtinchalikka to'xtatiladi. Koordinatsion qobiliyatlar umumiy darajasi tiklanishiga qarab mashqlar bilan shug'ullanish qayta tashkil etiladi. O'rgatishning bu bosqichida yuklama va dam olishni ketma-ketlashtirish takomillashtirish darajasiga bog'liq.

O'rgatishning bu bosqichida ko'nikmaning mustahkam bo'lishi va taraqqiy etishini talab etish muhim o'rin tutadi. Siklli tarkibdagi harakatli mashqlarda ko'nikmalar mustahkamligiga oson erishiladi. U mashg'ulotlarni uzoq o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi. Bir aktli atsiklli harakatlar takrorlashni alohida usulda tashkil etishni talab etadi. Harakat malakalari va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun shart-sharoit harakat vazifalarini muntazam ravishda yangilab, murakkablashtirib turish va jismoniy sifatlarni xar tomonlama rivojlantirishga qaratilgan funktsional yuklamani oshirish yo'li bilan yaratiladi. O'rgatishning uchinchi bosqichida o'rgatish jarayoni xarakterli tomonlardan biri jismoniy sifatlarni tarbiyalash bilan harakat larga o'rgatish vazifalarni birlashib ketishidir.

Harakatlarni takomillashtirish va mustahkamlash bosqichi xar qanday sharoitda harakatlarni texnik va taktik jihatdan samarali bajarish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga shug'ullanuvchilarda harakatlarni bajarishda zaruriy bo'lgan jismoniy va ahloqiy, ma'naviy iroda tayyorgarligini ham amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimovna F. M. VOLEYBOLO'YINI JARAYONIDA SAKRABIJRO ETILADIGAN TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: 10.53885/edinres. 2022.93. 93.072 Fatullayeva Muazzam Azimovna Buxoro davlat universiteti "Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport" kafedrasida o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 438-440.

2. Фатуллаева М. А. и др. VOLEYBOLCHILARNI SARALAB OLIH VA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI: Fatullayeva Muazzam Azimovna, Buxoro davlat universiteti "Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport" kafedrasida o'qituvchisi Baqoyeva Dilnoza Baxtiyor qizi, Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti 3-kurs talabasi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6. – С. 154-158.

3. Azimovna F. M., Kuziboevich O. B. UNIQUE WAYS OF AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 11-15.

4. Azimovna F. M. Peculiarities of Aesthetic Education of Students By Means of Physical Culture and Sports //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 212-215.

5. Djuraevich M. D., Madina M. THE RELATIONSHIP OF SPORTS AND SPORTS AND HEALTH TOURISM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 25-29.

6. Jalolovich M. J. et al. Teaching Action Games that Develop Physical Qualities //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 166-171.

7. Utanov B. et al. Correlation Of The Interaction Of Agricultural Production With The Volume Of Dehkanproduction In Uzbekistan //Ilkogretim Online. – 2021. – Т. 20. – №. 3.

8. Muratov D. Women's sports is a key link of physical culture //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

9. Fatullayeva M. Methods of Technical Improvement of the Football Player //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 19. – №. 19.

**TALABLARNING TASVIRIY YARATUVCHANLIK, IJODKORLIK
POTENSIALLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Ibatova Nigora Istamovna
Buxoro davlat pedagogika institute
“Musiq va tasviriy san’at” kafedrasi o‘qituvchisi*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
РАЗВИТИИ ВООБРАЖАЕМОГО ТВОРЧЕСТВА И ТВОРЧЕСКОГО
ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ**

*Ибатова Нигора Истамовна
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры «Музыка и изобразительное искусство»*

**THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE
CREATIVE POTENTIAL OF THE STUDENTS IN THE FINE ARTS**

*Ibatova Nigora Istamovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Music and Fine Arts*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari, o‘quvchilarning ijodiy, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish va tasviriy san’atga bo‘lgan ishtiyoqlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiya, multimedia, akmeologiya, noan’anaviy ta’lim, kasb-hunar ta’limi, kompozitsiya, tasvir.

Аннотация. В статье описаны способы использования современных инновационных технологий и развитие творческих способностей учащихся. Также в статье идет речь о формировании интереса к изобразительному искусству среди учащихся.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, педагогическая технология, мультимедиа, акмеология, нетрадиционное образование, профессиональное образование, композиция, образ.

Abstract. The article deals with the ways in which modern innovative technology can be used, how students develop their creative abilities and how they can develop a passion for fine arts.

Keywords: Independent learning, pedagogical technology, multimedia, acmeology, nontraditional education, vocational education, composition, image.

O‘zbekistonda ta’lim islohoti uning demokratik, bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni bilan bevosita amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishga, jahon ta’lim muhitiga mos ravishda jamiyatning barqaror rivojlanishiga asoslangan uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini yaratishga olib keladi. Shu bois ta’lim mazmunini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim sifatini oshirish g‘oyasi kun tartibiga qo‘yilganini alohida ta’kidlash joiz. Bu mazmun nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy qobiliyatlarni tasviriy san’at orqali milliy qadriyatlarga, atrof-muhitga munosabatni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Oliy ta’limdagi innovatsiyalarning tabiati, pedagoglarning kasbiy mahorati, innovatorlar va ishtirokchilarning innovatsion faoliyati bilan belgilanadi. Bu muammolarni V.A. Slastenin, M.M. Levina, M.Y. Vilenskiylar; o‘zbek olimlaridan J.G.Yo‘ldoshev, R.J.Ishmuhamedov, U.Tolipov, N.Sayidahmedov, N.N.Azizxo‘jaeva va boshqalar o‘z ishlarida aks ettirganlar.

Tadqiqotlar hali ham olib borilmoqda va o'rganilmoqda. B.G.Ananov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar inson hayotining eng ijodiy davrlari, kamolot bosqichlari, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish haqida fikr almashadilar. Ularning ishlarida yetuk kishilarning gullab-yashnashi, shaxsning rivojlanishidagi ruhiy qonuniyatlari, kasbiy mahoratini istisno qilish masalalari ko'rib chiqiladi. V.A Slastenin akmeologiyaning eng yuqori mukammallikka olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini va mutaxassisning ijodiy faoliyatining davomiyligini oqladi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'lim sifati kiradi, sub'ektiv omillarga esa shaxsning qobiliyati, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qilish mas'uliyati va professional yondashuv kiradi.

Yuqori kasbiy rivojlanishga erishish omillari quyidagilardan iborat:

- Iqtidorning xususiyatlari;
- Ravonlik;
- Qobiliyat;
- Iste'dod;
- Oilaviy muhit;
- Ta'lim muassasasi;
- Shaxsiy xulq-atvor.

O'qituvchining ijodiy individualligi:

- Intellektual va ijodiy tashabbus;
- Keng va chuqur bilim, intellektual qobiliyat;
- Mojarolarga hushyorlik, ijodkorlikka tanqidiy yondashish;
- Ijodkorlikni ro'yobga chiqarish qobiliyati;
- Axborotga chanqoqlik, muammolarning noodatiy xususiyatlari va yangilik hissi, kasbiy mukammallik, bilim olishga intilish.

V.A.Slastenin shaxsiy ijodning asosiy maqsadlarini belgilaydi:

- Ijtimoiy ahamiyatga ega madaniyatni boyitish;
- Shaxsning pedagogik jarayoni va bilimlarini yangilash;
- Samarali va muhim normalarni belgilovchi yangi texnologiyalarni topish;
- O'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini namoyon qilish orqali shaxsiy rivojlanishni ta'minlash.

Shuning uchun, faol o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilimini rag'batlantirish usulidan foydalanishimiz kerak. Suhbatlar, bahslar, o'yinlar, amaliy ishlar, loyihalar, muammolarni hal qilish, aqliy hujumlar va boshqalar eng keng tarqalgan va noyob o'qitish usullaridandir. Shu tariqa talabanning shaxsiy ijodkorligini shakllantirish kasbiy mahoratini rivojlantirish va yangilashning dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Respublikamizning barcha ta'lim yo'nalishlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at sohasida ham ushbu muammoni hal etish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilyapti. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda ijobiy natijalarga olib keladigan faol o'qitish usullarini joriy etish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilyapti. B.B.Boymetov o'z darslarida asosan milliy naqshlar chizishni taklif qilgan bo'lsa, R.J.Rajabov murabbiylik tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun talabalar bilan individual ishlashga urg'u beradi. S.F. Abdirasilov "Pedagogik texnologiyaning ahamiyati avvalroq olingan nazariy bilimlar bilan yangi olingan bilimlar o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik bilan belgilanadi" deb ta'kidlaydi. Q.G'ulomovning ilmiy-tadqiqot ishlari o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni yanada tatbiq etish, ta'lim mazmunini boyitish, o'quvchilarning bilim olishini takomillashtirish va jadallashtirish, hamkorlik va ta'lim va tarbiyani kompleks loyihalashga qaratilgan. Bu jarayonda shaxs o'z fikrini, e'tiborini va hozirgi hissiy kechinmalarini o'z ishining samaradorligiga yo'naltiradi. Bu qarama-qarshi aloqa, ya'ni subyekt-obyekt munosabatlariga asoslanadi. O'qituvchi va talaba o'rtasida o'qituvchi-shogird munosabatlari o'rnatiladi. O'qituvchi kompozitsiyadan va erishgan muvaffaqiyatidan mamnun bo'lishi ehtimoli kata bo'ladi. Muvaffaqiyatga

erishishda yangi kuch, o'ziga ishonch omili paydo bo'ladi. Shaxs manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan tobora uyg'unlashib borada.

Hozirgi kunda yangi pedagogik usullarni qo'llamasdan turib, yaxshi bilim olishning iloji yo'q. Hozirgi kunda ta'lim jarayoni yangi va innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim elementi - bu shaxsning o'zini o'zi boshqarishi va o'zini o'zi safarbar qilishi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish bo'lib, bu talabalarning o'quv ishlarining faollashishiga va kasbiy rivojlanishiga olib keladi. O'quv muhitida kompyuter vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanishni jamiyatda axborot, kommunikatsiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti hajmining ortishi bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish, zamonaviy innovatsiyalarni o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonini o'z ichiga olgan innovatsion texnologiyalar bo'lajak mutaxassislariga o'z hayotiy ta'lim faoliyatlarini mustaqil ravishda moslashtira oladigan faol, ijodkor bo'lib yetishtirishlariga yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalarning maqsadi ta'lim jarayoni sifatini oshirish, pedagogik amaliyotni sifat va miqdor jihatdan o'zgartirishdir. Biz zamonaviy ta'limni matn, grafik, video va dars sifatini yaxshilaydigan multimedia texnologiyalaridan foydalanmasdan va shu tariqa o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanmasdan tasavvur qila olmaymiz. Tavsiya etilgan rasmlar, tasvirlar o'quvchining vizual aks ettirishi va ko'rish qobiliyati materialni to'liq idrok etishiga yordam beradi. Natijada ular nazariy va vizual materiallarni birlashtira oladilar. Vizual ma'lumotlardan foydalanilganda, tasavvur va og'zaki ta'riflarga qaraganda o'rtacha 5-6 marta tezroq natijaga erishadi. Insonning vizual ma'lumotlarga ta'siri og'zaki ma'lumotlarga qaraganda ancha yuqori. Ko'p hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Vizual ma'lumotni takrorlash osonroq va aniqroq. Shaxsning vizual ma'lumotlarga ishonchi og'zaki ma'lumotlardan yuqori. Binobarin, "Yuzlab eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", deb bejiz aytilmagan.

Dars jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari (loyiha), interfaol texnikalar (aqliy hujum, tushunchalarni tushunish, ketma-ket mantiqiy zanjirlar) va B-B-B klasteridan ("Nima uchun" grafik organayzerlari, masalan, "Qanday" diagrammasi va turkumlashtirish jadvallari) samarali qo'llanilishi mumkin. Talabalarning pedagogik intellekt va kasbiy malaka darajasini aniqlashga qaratilgan turli nostandart testlardan foydalanish kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, test topshiriqlari faqat so'zlar bilan emas, balki jonlantirilgan sahifalar ko'rinishida paydo bo'ladi. Kompyuter texnologiyasidan foydalanish qiziqarli va yoqimli bo'lib, talabalar shaxsiy fazilatlarini tarbiyalaydigan jiddiy ijodiy faoliyatga jalb qilinadi. Tasviriy san'at ijobiy muhitni yaratadi va asta-sekin o'quvchilarda dunyoqarashini oshiradigan ma'lum madaniy va axloqiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Kompyuterda ma'lumot almashish tamoyillari an'anaviy darsni qayta tuzish uchun imkoniyatlar yaratadi. Darslar quyidagilarga asoslangan bo'lsa samaraliroq bo'ladi:

- Tezaurus - tushunchalar tizimi o'qituvchi va talabalarga bir xil ma'noni beradi;
- Maftunkorlik – taqdim etilayotgan materialning jozibadorligi o'rganilayotgan fanga qiziqishni oshiradi;
- Mayevtika - o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda ishlash, chuqur bilim olish, tasviriy san'atni idrok etish, badiiy asar yaratish jarayonini tushunish va olingan ma'lumotlarni qo'llash qobiliyatini shakllantiradi;
- Multimediali taqdimotlar, masalan, hikoyalar, yangi materialni reproduksiya shaklida taqdim etish bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
- Sinf, kutubxona yoki uy kompyuteridan foydalangan holda darsga tayyorgarlik ko'rish, uy vazifalarini bajarish – ma'lumot to'plash, matn ustida ishlash, multimedia yaratish;
- Talabalar uchun kompyuterda ishlash, kichik guruhlarda ishlash va mustaqil ishlarni tashkil etish; bu ta'limga yanada shaxsiy yondashish imkonini beradi;

- O'quv jarayonining eng maqbul variantini tanlash, uning samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilar zimmasiga tushadigan ortiqcha yuklarni bartaraf etish fanlararo aloqadorlik tasviriy san'at asarlari idrokini samarali shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tasviriy san'atni yanada kengroq va yaxlit tushunish imkonini beruvchi faoliyatga katta e'tibor qaratamiz. Tasviriy san'atni kompyuterlar orqali tahlil qilish, turli xil audio matnlar, musiqa va animatsiyalardan foydalanib, muzeylar bo'ylab virtual sayohatlar tashkil etish o'quvchilarni tasviriy san'at, adabiyot, musiqa, san'at va innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqlikda o'rganishga undaydi. Ta'limning o'zaro ta'siri o'quvchilarning bilim va san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quv materiali va yangi o'qitish usullari ta'sirida o'quvchilarda fikrlash, izlanish, kashf qilish, asoslash, amalga oshirish, kompyuterda ishlash ko'nikmalari hamda mustaqil ijodkorlik ko'nikmalari shakllanadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol talabalarning badiiy asar haqidagi tasavvurlari tezroq shakllanadi. Tasviriy san'at darslarida innovatsion texnologiyalardan faol foydalanish o'quvchilarda tasviriy san'atni idrok etish, kompyuterda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari ta'limning yangi mazmuniga va shaxsni rivojlantirishga muvofiq bilimlarni uzatishning asosiy vositasidir. Bu vosita o'quvchida mustaqill o'rganish, ma'lumot manbalarini topish, yangi bilimlarni egallash va intellektual intizomni rivojlantirishda mas'uliyat hissini sezishni o'rgatadi.

Demak, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustahkam nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ijodiy faolligini rivojlantirish maqsadida o'quv jarayonida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy zarurat sifatida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi kadrlar tayyorlashning umumiy jarayoni mazmunini sifat jihatidan o'zgartirishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayoni yangi pedagogik texnologiya g'oyalarini qo'llashga asoslangan bo'lib, u har tomonlama rivojlangan shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash bo'yicha ijtimoiy buyurtmaning sifatli bajarilishidan dalolat beradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida barkamol shaxs va malakali mutaxassislar faoliyatining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashishiga olib keladi. Buni anglagan ko'plab pedagoglar tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda kompyuterdan unumli foydalanmoqda. Bu vositalar orqali ular mavzuli mahorat darslari, jahon muzeylariga sayohatlar, buyuk rassomlar asarlarining video namoyishi, grafik organayzerlar, nostandart testlardan foydalanadilar. Xususan, o'qituvchi mashg'ulotni qiziqarli qiladigan ijodkorlik jarayonini shaxsan namoyish etadi. Tasviriy san'at va o'qitish metodikasi kafedrasida kompyuter texnikasini amaliy qo'llash va tasviriy san'at darslarida ulardan foydalanish bo'yicha quyidagi umumiy xulosalar berildi:

1. Kompyuter o'qituvchi va o'quvchilar muloqotini yaxshilashda ijobiy natijalarga erishish uchun qulay va keng imkoniyatlarga ega.

2. Ta'limda ko'rgazmali tushuntirishlar va reproduktiv usullardan foydalanishning yangi va sifatli darajasini ta'minlaydi.

3. Darsda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar bilimini oshiruvchi, diqqatini jamlovchi va ijodiy qobiliyatlarini oshiradigan ta'lim shaklidir.

4. Pedagogik maslahatlar bilan o'quv dasturidan mustaqil foydalanish orqali rassomlik va kompozitsiya san'atini egallash imkoniyatini beradi.

5. Proyektorlardan foydalanish matnlar bilan ishlashni, o'quv videolarini taqdim etishni, ko'rinishni oshirishni va vaqtni tejashni osonlashtiradi.

6. Elektron ensiklopediyalar, dunyo muzeylari va ko'rgazma zallari bo'ylab virtual sayohatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

7. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning Internet orqali ma'lumotlarni qidirish, topish, tanlash va saqlash kabi mustaqil ishlash qobiliyatini

oshiradi.

8. Testlardan foydalanish nafaqat vaqt orttirish, moddiy xarajatlarni kamaytirish, balki bilim va imkoniyatlaringizni xolisona baholash imkonini beradi.

9. Darslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning tasviriy san'atga qiziqishini, ta'lim sifatini oshiradi.

10. Rasmlar, chizmalar, sxemalarni vizual va rangli vizual kuzatish, fotosuratlar va videolar yordamida obyektlarni vizualizatsiya qilish, mavzu bo'yicha materialni to'g'ri idrok etish tanlangan materialni qiziqarli tarzda tasvirlashga yordam beradi. Shunday qilib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vaqtini tejashga, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishga va psixopedagogik bilimlarga asoslangan faoliyatni tashkil etishga yordam beradi. Bundan tashqari tasviriy san'at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- O'quvchilarning bilish faolligini rivojlantiradi va o'quv jarayonini faollashtiradi;
- Qisqa vaqt ichida ko'p ish bajariladi;
- Talabalarning nazariy bilimlarini tekshirish jarayonini tezlashtirish;
- Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi;
- O'quvchilarni sinfdan tashqarida ijodkorlikka yetaklaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdirasilov S.F., Nurtoev O'.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish texnologiyasi. – T.: TDPU, 2015.

2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: «Moliya», 2003.

3. Istamovna, I. N., & Aysha, I. (2020). PSYCHOLOGY OF ART. International Engineering Journal For Research & Development, 5, 3-3.

4. Boymetov B. Qalam tasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 1997.

5. Vishnyakova N.F. Kreativnaya psixopedagogika. Psixologiya tvorcheskogo obucheniya. – Minsk: Izd. NIOB «Poli Big», 1995. –S. 129.

6. Bakaev, S., Ramazonov, S., Batirov, J., Ibatova, N., & Avezov, S. CONTENT OF INNOVATION AND INNOVATIVE ACTIVITY OF THE TEACHER International Journal of psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Special Issue 1, 2020.

7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi», 2004.

8. Rajabov R.K., Sultonov H.E. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. – T., 2008.

9. Slastenin A.A. Professionalizm uchitelya kak yavleniye pedagogicheskoy kultury. «Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka», 2004, №5.

10. Slastenin V.A., Isayev I.F., Miщенko A.I., Shiyonov Ye.N. Pedagogika. Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix uchebnyx zavedeniy. – M.: «ShkolaPres».

11. Istamovna, I. N., & Rakhimovich, R. S. (2019). THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE CREATIVE POTENTIAL OF THE STUDENTS IN THE FINE ARTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

12. Mamurova, D. I., Ibatova, N. I., & Badieva, D. M. (2020). The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes. Scientific reports of Bukhara State University, 4(1), 335-338.

13. Abdumalikovna, K. G., Rajabovna, T. V., & Istamovna, I. N. GENERAL INFORMATION ABOUT THE TYPES OF UZBEK FOLK ARTS.



TA'LIM OLUVCHILARDA O'QUV-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

*Uzokova Gulnoza Saydullayevna,
Qarshi Davlat Universiteti, Umumiy fizika kafedrasida dotsenti*

*Xujamberdiyeva Jamila Norqobilovna,
Qarshi Davlat Universiteti, Umumiy fizika kafedrasida o'qituvchisi
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori, P.f.d. (DSc) Q.SH. Tursunov
taqrizi ostida*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish masalasi bayon etilgan. "O'quv-tadqiqot faoliyati" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar tahlil qilingan, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish usullari, texnologiyalari, o'quv jarayonini tashkil etishga oid loyihalash modellari ilmiy metodik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: O'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati, empirik va nazariy usullar, faoliyatli yondashuv, shakllanganlik darajasi, nazariy modellashtirish, loyihalashtirish.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

*Узокова Гулноза Сайдуллаевна,
Доцент кафедры общей физики Каршинского государственного университета.*

*Худжамбердиева Джамила Норгобиловна,
Преподаватель кафедры общей физики Каршинского государственного университета. Под рецензией профессора Каршинского инженерно-экономического института, доктора педагогических наук (DSc) К. Ш. Турсунова.*

Аннотация: В данной статье освещается проблема формирования учебно-исследовательской деятельности у студентов. Проанализированы различные подходы к понятию «образовательная и исследовательская деятельность». Научно методически основаны методы и технологии формирования учебной и исследовательской деятельности, проектные модели связанные с организацией образовательного процесса.

Ключевые слова: Образовательная и исследовательская деятельность, эмпирические и теоретические методы, деятельностный подход, степень формирования, теоретическое моделирование, проектирование.

PROBLEMS OF THE FORMATION OF EDUCATIONAL AND RESEARCH ACTIVITIES IN EDUCATORS

*Uzokova Gulnoza Saydullayevna,
Karshi State University, associate professor of the Department of General Physics*

*Khujamberdiyeva Jamila Norkobilovna,
Karshi State University, Teacher of the Department of General Physics.
Professor of the Karshi Engineering Institute of Economics, doctor of Pedagogical Sciences (DSc) under the review of Q. SH. Tursunov.*

Abstract: This article highlights the problem of the formation of educational and

research activities among students. Various approaches to the concept of «educational and research activities» are analyzed. Methods and technologies for the formation of educational and research activities, project models related to the organization of the educational process are scientifically and methodically based

Key words: Educational and research activities, empirical and theoretical methods, activity-based, approach degree of formation, theoretical modeling, designing.

Kirish. Dunyo hozirgi vaqtda hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan jadal texnologik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish barcha darajadagi yuqori malakali, doimiy texnologik taraqqiyotga tayyor, bilim va ko'nikmalarini davriy ravishda yangilab turish, o'z kasbiy faoliyatida tadqiqot muammolarini hal qilishni talab qiladi. Zamon talablariga ko'ra, ta'lim oluvchilarda ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablar ham o'zgarmoqda, ulardan biri o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshira olish qobiliyatidir.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari (DTS) ta'lim oluvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyati tajribasini shakllantirishga qo'yiladigan talablar:

- umumiy ta'lim darajasida ilmiy-tadqiqot faoliyati madaniyati asoslarini shakllantirish;

- o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish usullari, texnologiyalari va shakllarini qo'llash bo'yicha tizimli g'oyalar va tajriba-larni shakllantirish ya'ni - ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish va tashhislash faoliyatini tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonda pedagoglar tomonidan ularga hamrohlik qilish, yo'nalishlar berish, ularning individual loyihasini amalga oshirishda ko'maklashish talabi qo'yilgan.

Ushbu pedagogik vazifa muhim yangilikka ega bo'lib, u fizika ta'limida yangi nazariy yondashuvlarni, o'quv jarayonini loyihalash modellari va algoritmlarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bir qator tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini tarkiblashtirish va tashkil etishning pedagogik shartlari asoslab berilgan (T. V. Avgusmanova, D. I. Zaxarova, E. Y. Kravsova, M. M. Novojilova, O. N. Prokazova, P. Y. Stepanenko va boshqalar).

Fizika o'qitish metodikasida ta'lim oluvchilar tafakkurini rivojlantirish, bilim olishning empirik va nazariy usullarini o'rgatish masalalari ko'rib chiqilgan (G.M.Anoxina, R.V.Gurina, D.SH.Shodiyev, B.Mirzaaxmedov).

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik adabiyotlarda "o'quv-tadqiqot faoliyati" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, mazkur tushunchaning o'quv jarayonidagi o'rni va maqsadlari turlicha talqin qilingan. Ba'zan "o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish" va "ta'limda tadqiqot metodlaridan foydalanish", "o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish" kabi tavsiflashlar kuzatiladi.

Bizning fikrimizcha, "ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati" tushunchasining ta'rifiga nisbatan qo'llaniladigan yondashuvlarni tahlil etish va mazkur tushunchaning asl mohiyatini oydinlashtirish muhimdir.

Avvalo, "tadqiqot" atamasining ta'rifiga aniqlik kiritish hamda fanda keng qo'llanish sohasiga ega bo'lgan mavjud ta'rifni ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz. Bu ta'rif quyidagichadir: "Ilmiy tadqiqot – bilish faoliyatining ko'rinishlaridan biri bo'lib, yangi bilimlar hosil qilishga qaratilgan jarayon. Tadqiqot obyektivligi, takrorlanuvchanlik, isbotlanish va aniqlik kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi" [7, 26-b].

Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan tadqiqot faoliyatning alohida maxsus bir turi sifatida qaraladi. M.D.Dammer tomonidan "tadqiqot faoliyati" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Tadqiqot faoliyati – bu insonning ongi va faolligi vositasida boshqariladigan va intellektual - bilish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladigan

o'ziga xos faoliyati bo'lib, uning mahsuloti yangi bilimdir" [2, 24-b].

P. V Seredenko tadqiqotli o'qitishning metodologiyasini asoslashda, tadqiqot faoliyati izlanish faolligi natijasida yuzaga chiqadigan tadqiqotchilik hatti-harakatlari negizida amalga oshirilishini qayd etadi. Tadqiqotchilik xatti-harakatlari – mutaxassisning nazarida – “yangi axbo-rotini axtarish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan hatti-harakatlar; atrof-borliq bilan uni bilishga qaratilgan o'zaro fundamental ta'sirlashuv shakli; inson faoliyatining muhim qirrasidir” [6].

Ilmiy va o'quv tadqiqot faoliyatining mohiyatan, umumiy jihatlari bo'lganidek, ayrim o'zaro tafovutlari ham yo'q emas. O'quv va ilmiy tadqiqot faoliyatini taqqoslab o'rganish - bu ikki tadqiqot turi o'rtasidagi umumiylik ularning aynan bir xil bosqichlarda amalga oshirilishidadir, tabiiy fanlar doirasidagi o'quv tadqiqotlarining maqsadiga ko'ra, uchta turi ko'rsatib o'tiladi:

- hodisa yoki predmetning muhim jihatlarini oydinlashtirish (aniqlovchi tadqiqot);
- sabab-oqibatli aloqalarni yuzaga chiqarish (xulosali tadqiqot);
- hodisalar va jarayonlar zamiridagi qonuniyatlarni tushunish (umumlashtiruvchi tadqiqot). [3,45-b].

O'quv tadqiqotchilik faoliyati deyilganda biz ta'lim oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy bilishning mantiqiy-uslubiy meyorlariga muvofiq ma'lum bir fan sohasiga xos samarali metodlar yordamida o'zi uchun subyektiv yangi bilimlar olishga qaratilgan o'quv faoliyatini tushunamiz. Ilmiy va o'quv tadqiqotlarining olib borilish metodlari aynan bir xil – nazariy (ideallashtirish, modellashtirish, fikran tajriba, analogiya) va empirik metodlar (kuzatish, tajriba o'tkazish)

O'quv tadqiqot faoliyati - “ta'lim oluvchilarning nazariy va tajriba-viy bilimlardan o'zi uchun subyektiv yangilik kashf etish yo'lida amalga oshiradigan ijodiy faoliyatini nazarda tutuvchi intellektual-evristik faoliyati turidir” [1,34-b].

Tahlil va natijalar. O'quv tadqiqotchilik faoliyati bu – “Ta'lim oluvchi pedagog rahbarligi ostida ilmiy metodlardan foydalangan holda fizik hodisa va jarayonlar haqida o'zi uchun yangilik hisoblangan bilim-larni olish yo'lida amalga oshiradigan va buning natijasida tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi va tadqiqotchilik tajribasi shakllanadigan faol ongli ijodiy jarayondir” [1,56-b].

Biz aynan ushbu ta'rifni tadqiqot mavzumiz uchun asos qilib oldik, negaki, o'quv tadqiqot faoliyatini o'quv faoliyatining namoyon bo'lish shakli sifatida o'rganar ekanmiz, mazkur faoliyatni ta'lim mazmuni doirasida loyihalashtirganimizda tizimli-faoliyatli yondashuvni qo'llaymiz,

O'quv fanining o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida o'quv tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishni mufassalroq tushunish uchun tizimli-faoliyatli yondashuvda joriy etilgan asosiy qoidalarni ko'rib chiqamiz.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarining Davlat ta'lim standart-lari tizimli - faoliyatli yondashuvda qabul qilingan qoidalarga asoslanadi Mazkur qoidalarga muvofiq, o'quv tadqiqot faoliyati ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga orqali amalga oshiriladi va uning bir ko'rinishi sifatida qaraladi. Psixologiyadan ma'lumki, insonning ta'lim va tarbiya jarayoni-dagi rivojlanishi faqat faoliyat doirasida kechadi. Faoliyat o'z navbatida jarayonli harakatli majmualar (harakat – maqsadli jarayon – psixo-fiziologik funksiyalar) va motivatsiyaviy majmua-larni(harakatga rag'bat uyg'otuvchi omil-maqsad -shart-sharoitlar) mujassam etgan tuzilma orqali amalga oshadi. Majmualar “ko'pqavatli” o'zaro aloqalar bilan xarakterlanadi. Masalan, harakatga rag'bat uyg'otuvchi omil faoliyatga undaydi; harakatni amalga oshirish uchun maqsad zarur; jarayonga kirishish uchun uni amalga oshirish usuli lozim bo'ladi va shu kabilar.

Qayd etish joizki, har qanday o'quv jarayonini ham o'quv faoliyati deb ayta olmaymiz. “Allaqachon shakllangan va ularga tayyor holda taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtirish talabi qo'yilgan “o'quv jarayoni”da ta'lim oluvchilar “o'quv ishlari”ni amalga oshirishadi, ammo bu “o'quv faoliyati” emas”. O'quv faoliyati ta'lim jarayoni subyekti darajasidagi ta'lim oluvchilar tomonidan amalga oshiriladi, ular ta'lim

jarayoni subyekt sifatida boshqa subyektlar va o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv faoliyatining asosiy harakatlantiruvchilaridir. [5. 57-b].

Fikrlashning ikki turi mavjud: empirik va nazariy (ya'ni tizimli). Bu ikki tur fikrlash asnosida amalga oshiriladigan faoliyat turi va jarayon natijasida hal etiladigan masala xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Fan asoslarini o'rganish imkoniyatlari bo'yicha fikrlashning nazariy (tizimli) turi empirik fikrlashga nisbatan ko'proq afzalliklarga ega. Ta'lim oluvchilarda nazariy fikrlash qobiliyatini rivojlanishining dastlabki bosqichlari- ehtiyoj, o'quv vazifasi, o'quv harakatlari va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatlarni kiritadi. Ta'lim oluvchi bilimlarni o'zlashtirishi uchun, eng avvalo, ehtiyojmand (astoydil xohishga ega) bo'lishi lozim. Mazkur ehtiyojni esa o'quv vazifalarini bajarish asnosida qondirish mumkin bo'ladi. O'quv vazifasi uni hal etishning alohida cheklangan usulini emas, balki xususiylik jihatdan umumiylik jihatiga ega bo'lgan muammolarning yaxlit majmuasini hal qilishning umumiy usulini topish imkonini taqdim etadi.

Ta'lim oluvchilarda o'quv tadqiqotchilik faoliyatini shakllanishi uning tegishli tushunchalarni o'zlashtirib borish jarayonida sodir bo'la boradi. O'quv tadqiqotchilik faoliyati turli o'quv amaliyotlari orqali amalga oshirib boriladi. O'quv tadqiqotchilik harakatlarini amalga oshirish usullarini o'zlashtirish dastlabki bosqichda mazkur harakatlar tarkibiga kiruvchi kengaytirilgan amaliy harakatlarni "Moddiy-Moddiylashtiril-gan - minimallashtirilgan" ko'rinishda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Fizika o'qitishning tadqiqotchilik faoliyatli yondashuvga asoslangan tajribaviy-faoliyatli modelida "umumiy o'rta ta'lim maktabida fizika o'qitishda o'quv tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda fizikaviy tajribalar tizimiga asoslangan holda erishish mumkin. Bu tizim o'qituvchi ko'rsatgan tajribalar va ta'lim oluvchilarning uyda hamda sinfda o'tkazgan tajribalari, shuningdek, fakultativ kurslar bo'yicha bajargan tajriba-topshiriqlarini o'z ichiga oladi". natijada ta'lim oluvchilarda tajribaviy, faoliyatli, muammoli va axborotli mahoratlar shakllana boradi. Ular quyidagilar:

- topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha mahorat;
- guruhda vazifalarni to'g'ri taqsimlay olish mahorati;
- boshqalarning ham fikrni eshitish va yagona to'g'ri xulosaga kela olish mahorati;
- natijalarni taqdim etish mahorati;
- guruhda ishni tashkil etishda qiyinchiliklarni ko'ra bilish mahorati" [8, 67-b].

Biz metodik faoliyatning bunday ketma-ketlik va izchillikda tashkil etilishini to'g'ri deb hisoblaymiz hamda mazkur model o'qituvchilar tomonidan o'quv tadqiqotchilik faoliyati meyor sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir..

O'quv-tadqiqotchilik faoliyati turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilik faoliyatini shakllanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagilarni asos qilib olish tavsiya etiladi:

- ta'lim oluvchilarning tadqiqot o'tkazish jarayonida mustaqillik darajasi;
- tadqiqot masalasining murakkablik darajasi va yangiligi;

O'quv - tadqiqotchilik faoliyatini shakllanganlik darajasi turli mezonlar asosida, to'rtta darajada belgilagan:

1-daraja – boshlang'ich (reproduktiv) darajada dastur talab qilgan alohida ma'lumot va bilimlarni bevosita yodda saqlab qolish nazarda tutiladi. Tadqiqotchilik faoliyatida ushbu shakllanganlik darajasidagi reproduktiv faoliyat talab etuvchi topshiriqlardan foydalaniladi, mazkur topshiriqlarni bajarishda asosan xotiraga tayaniladi.

2-daraja – anglab olish darajasi bo'lib, unda qisman tadqiqotchilik faolligi namoyon bo'ladi, ya'ni ta'lim oluvchilar tadqiqot doirasidagi asosiy ishlarni faqat xotirasiga tayanib emas, balki o'qituvchining qisman yordami bilan mantiqan anglab olish orqali bajaradi;

3-daraja – mustaqillik darajasi: unga ega bo'lgan ta'lim oluvchi tadqiqot

doirasidagi barcha vazifalarni mustaqil, ongli ravishda amalga oshiradi, bu esa tadqiqotning aynan o'zidir.

Hozirgi kunda o'quv tadqiqotining alohida bosqichlarida ta'lim oluvchilarning mustaqil, ongli harakatlariga asoslangan uchta daraja ko'proq tavsiya etilmoqda. Bular:

1. Ta'lim oluvchilar tadqiqot masalasining muayyan qismini hal etish yo'llarini axtaradilar va yechimni topishga harakat qiladilar.

2. Ta'lim oluvchilar taqdim etilgan tadqiqot masalasini mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

3. O'quvchilar tadqiqotning barcha bosqichlarini to'liq, mustaqil ravishda olib boradilar, amaliyotda qo'llaydilar. Ta'lim jarayonida mana shu natijaga erishish-o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini turli darajalarda namoyon bo'lishi, tadqiqotchilik faoliyatini shakllanganlik darajasini belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish metodini tahlil qilar ekanmiz, taklif etilayotgan ketma-ketlikni asos sifatida qabul qilishni taklif qilamiz. Bu ketma-ketlik quyidagi ko'rinishdadir:

- nazariy modellashtirish – loyihalashtirish – ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish.

1. Ta'lim oluvchilarning fizika fanini o'rganishdagi o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish algoritmini ishlab chiqish;

- ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini nazariy modellashtirish;

- ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish;

- shakllantirilgan loyiha asosida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish.

2. Fizika fanini o'qitishda ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini loyihalashtirish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining mezonlarini ishlab chiqish;

Mezon talablari sifatida ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini loyihalashtirish va loyihani amaliyotga tatbiq etish bosqichlari fizika fani o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, fizika fani o'qituvchisi bu faoliyatga yetarli darajada tayyor bo'lishi lozim. Zero umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlarida o'qituvchining asosiy kompetensiyalari sifatida "ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va kuzatib borish hamda ularning o'zlari individual loyiha ishlab chiqarish" qobiliyati ko'rsatib o'tilgan [9].

Shunday qilib: Jamiyatning yuqori darajadagi tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lgan bitiruvchilariga bo'lgan talabi va ko'pchilik bitiruvchilarda shu ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi. Bu jarayonni loyihalashtirish va amalga oshirishda fizika o'qituvchisi uchun muhim metodik tavsiyalar tayyorlandi.

Ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish bo'yicha ta'lim samaradorligi tavsiya etilayotgan metodikadan oqilona foydalanish hamda erishilgan natija sifati bilan aniqlanadi, natijaning sifati esa ta'lim oluvchilarda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Анохина Г.М. Дидактические условия развития личности в системе школьного естественнонаучного образования. Дис.... док. пед.наук:Москва-2008

2. Даммер М.Д., Щербакова О.Е. Методология педагогики: аксиологический подход, ценностно-смысловые аспекты постижения и реализации образования. Учеб. пособие. - Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2010. 313с

3. Китайгородская, Г.И. Теоретические основы подготовки учителя физики к системному проектированию образовательного процесса. Монография. - Сыктывкар. Коми Педагогический институт, 2011. - 156 с.

4. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. Пособие для учителя / - М.: Просвещение, 1983. - 196 с.

5. Масленникова Ю.В. Формирование умений учащихся использовать научный метод познания в системе основного и дополнительного физического образования : Дис. ... док. Пед. наук : 13.00.02.- 2019

6. Середенко П.В. Теоретические основы подготовки студентов к исследовательской работе со школьниками. – М.: МПГУ, 2006. – 110 с.

7. Середенко П. В. Формирование готовности будущих педагогов к обучению учащихся исследовательским умениям и навыкам. – М.: МПГУ, 2007. – 186 с.

8. Усова, А.В. Формирование учебных умений и навыков учащихся на уроках физики . - М.: Просвещение, 1988. - 112 с

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзлуксиз таълим тизими учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва амалда жорий этиш тўғрисида» 187-сон қарори. 2017 йил 6 апрель

O‘ZBEK XALQ MILLIY O‘YINLARI – QADRIYATLAR TIMSOLI

Mansurov Sherzod Shuxratovich

“Sport faoliyati” kafedrası o‘qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada mustaqillik yillarida xalq milliy o‘yinlari shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan qator harakatli o‘yinlar va sportga xos o‘yinlar milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy meroslar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, o‘yin, o‘quvchi, xalq, milliy, qadriyat, meros, ijtimoiy, jismoniy.

Аннотация. В статье в качестве научного наследия рассматриваются национальные игры народа в годы независимости, а также ряд подвижных игр, доставшихся в наследство от предков, и спортивно-специфических игр, связанных с национальными ценностями.

Ключевые слова: Независимость, игра, учащийся, народ, национальное, ценность, наследие, социальное, физическое.

Annotation. In the article, the national games of the people in the years of independence, as well as a number of action games inherited from ancestors and sports-specific games, related to the national values, are considered as scientific heritages.

Keywords: Independence, play, student, people, national, value, heritage, social, physical

Xalq milliy o‘yinlari milliy kadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ommaviy ma’naviy tadbirlaridan biridir. “Navro‘z”, hayit, to‘ylar va turli xil an’anaviy marosimlar, udumlar qadimdan kurashsiz, ko‘pkarisiz (uloq), poygasiz va boshqa ko‘p milliy o‘yinlarisiz o‘tmagan. Bunday tadbirlar xalq og‘zaki ijodining barcha turlarida, dostonlarda ifoda etilgan. Ular ulug‘ allomalar Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va undan keyingi o‘tgan adiblar, shoirlarning asarlarida qiziqarli hamda to‘la bayon etilgan.

Yaqin o‘tmishda va ayniqsa, mustaqillik yillari davrida xalq milliy o‘yinlarini o‘rganish va ularni qayta tiklash bilan o‘quvchi yoshlarning ma’naviy hamda jismoniy kamolotlarini tarbiyalashda ulardan maqsadli foydalanish amalga oshirildi. Bu yilda madaniyat va san’at arboblari, taniqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboyev, T.S.Usmonxo‘jayev, A.Q.Atoev, J.Toshpo‘latov, R.Q.Qudratov, F.N.Nasriddinov kabilarning xizmatlari g‘oyat katta bo‘ldi.

Xalq milliy o‘yinlari bir necha yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko‘p janrlardagi san’at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan qator harakatli o‘yinlar va sportga xos o‘yinlar ham juda ko‘p. Ularni qo‘yidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin, ya’ni:

1. Kurashchilar (Buxoroga, Farg‘onaga, Xorazmga va h.k.).
2. Ot o‘yinlari (ko‘pkari-uloq, poyga (yayov), qiz quvmoq, otdan ag‘darish, chovg‘on va h.k.).
3. Dorboz (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar).
4. Tosh (gir) ko‘tarish.
5. Arqon tortishish.
6. Bilak kuchini sinash.
7. Harakatli o‘yinlar (quloq cho‘zma, eshak mindi, yelkada kurash, xo‘rozlar jangi, chillik, poda to‘p va h.k.).

Bunday o‘yinlarning deyarli barchasi hozirgi davrdagi ommaviy bayramlar,

musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanmoqda. Ularning mazmunlari xalqqa ma'lum. Shuningdek, ular ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar ilmiy ommabop risolalarga ham kiritilgan.

Ba'zi bir tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan harakatli o'yinlar umumta'lim maktablarning "Jismoniy tarbiya" dasturiga ham kiritilib, ular o'quvchi yoshlar orasida ommalashmoqda. Qolaversa, T.S.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev va boshqa bir qator mualliflar tomonidan "Harakatli o'yinlar" (1963-1981) 1001 o'yin (1991) kabi to'plamlar yaratilgan.

Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va boshqa viloyatlarning tog'li hududlari va yangi o'zlashtirilgan joylarida bo'layotgana katta to'ylarda kurash, ko'pkari-uloq, poyga va turli xil harakatli o'yinlar doimiy ravishda qo'llanilmoqda. Bu o'yinlar to'ylarga fayz, baraka kiritish bilan birgalikda tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lmoqda, ayniqsa o'quvchi yoshlarning milliy o'yinlar, zamonaviy sport turiga qaziqishini tobora oshirmoqda.

Boshda ta'kidlanganidek xalq milliy o'yinlarini o'rganish va amalda qo'llash borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. U.Qoraboyev tashabbusi bilan 1991 yil 25 aprelda Farish tumanida (Jizzax viloyati) ilk bor xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqasi tashkil etildi. Bunda Respublika Davlat sport qo'mitasi, Jizzax viloyati hokimligi, Jizzax DPI jamoasi katta faoliyat ko'rsatib, moddiy, moliyaviy va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirdi. Bunday o'yinlar har yili aprel, may oylarida yana Forishda takrorlandi. 1994-1996 yillarda o'tkazilgan bu o'yinlar "Xalq milliy o'yinlari Respublika olimpiadasi" nomi bilan yuritildi.

1996 yil may oyida. Forish tumani markazi Yangiqishloq yaqinidagi Qizilqir sayilgohida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan II respublika xalq o'yinlari olimpiadasi katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Unda 11 jamoa 9 tur hamda umumiy hisobda g'oliblikni qo'lga kiritish uchun maydonga tushdi. Musobaqani minglab jizzaxliklar qatori mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan kelgan, shuningdek, AQSh, Norvegiya, Qozig'istondan tashrif buyurgan mehmonlar ham kuzatishdi. Olimpiadaning tantanali ochilish marosimida qatnashchilarni O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Shavkat To'laganov, Jizzax viloyat hokimi o'rinbosari Shirin Chilg'ashev, Forish tumani hokimi Bostanqul Saidqulov tabrikladi. So'ngra Vatanimiz madhiyasi yangrab musobaqa bayrog'i ko'tarildi.

Tantanali ochilish marosimida jamoalar maydondan saf-saf bo'lib jamoalar o'tadi.

O'yin dasturida 1991-1994 yildagi turlar o'z o'rnini egalladi.

Respublika olimpiadasida peshqadam jamoalar oxirgi tur oldidan quyidagicha ochko to'plashgan: Jizzax-157, Surxandaryo-103, Qashqadaryo-87, Samarqand-80, Farg'ona-68 ochko. Ko'rinib turibdiki, sovrindor jamoalar muddatidan ilgari ma'lum edi.

Jizzax sharafini himoya qilgan Forish jamoasi viloyat birinchiligidagi chavandoz turida 9-o'rindan joy olgan edi. Respublika olimpiadasida esa hych bir qiyinchiliksi g'olib bo'ldi. Forishliklar bir tayoq o'yinida viloyatda 5-o'rin bilan kifoyalanishgan edi. Respublika olimpiadasida ular barcha raqiblarini yirik hisobda mag'lub etdi. Final uchrashuvida ular samarqandliklarni eng yirik hisobda (7:0) mag'lubiyatga uchratishdi.

Musobaqa davomida turlar bo'yicha 1-3 o'rinlarni egallagan jamoalarga O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi diplomlari va chiroyli ishlangan oltin, kumush, bronza medallari tantanali suratda topshirib borildi. Olimpiada so'nggida sovrindor jamoalarning har bir a'zosiga qo'mitamizning qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

Respublika hukumatining roziligiga va sport tashkilotlarining taklifi bilan

alpomish o'yinlari olimpiadasini har ikki yilda o'tkazishga kelishildi.

“Alpomish” dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlashga bag'ishlab Termizda “Alpomish vatani” xalq milliy o'yinlari, “Alpomish o'yinlari Respublika Festivali” o'tkazildi. 2000 yildagi o'yinlar. Farg'ona shahrida tashkil etildi. Uchinchi Festival esa Guliston shahrida 2002 yil iyul oyida o'tkazildi.

Xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqalari (1991-1996), va “Alpomish” o'yinlari Respublika festivallari (1998) dasturlarida kurash, otda poyga, ko'pkari (uloq), “Bo'ron”, Arqon tortishish, bilak kuchini sinash, “Mindi”, qirq tosh (qizlar o'yini) va boshqa harakatli o'yinlar bor edi. O'yinlar va festivallarning ochilishi va yakunlarida mahalliy havaskor san'atkorlar, Respublikaning taniqli san'atkorlari, shoirlar, madaniyat arboblari, turli sohadagi adiblar ishtirok etib, u katta bayram tariqasida o'tkazildi. Bu tadbirlar teleradio kompaniyasi va “O'zbektelefilm” ijodkorlari tomonidan maxsus video va kinofilmlar qilib yaratildi. 1998 yil (Termiz) va 2000 yil (Farg'ona)da o'tkazilgan festivallar televideniya orqali olib ko'rsatildi. Video tasvirga yozib olib, bir necha bor takror namoyish etildi. Bunday umumxalq milliy bayramlar va o'yinlar milliy qadriyatimizning naqadar boy, mazmunli va tarbiyaviy jihatdan yuksak darajadagi mohiyatini namoyish etish bilan manzur bo'lib qoldi.

Milliy qadriyatlarni qayta tiklash yo'lida Respublika Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifiyat» jamoatchilik markazini tuzishga qaratilgan farmoni (1993 yil) va Respublika hukumatini bu sohadagi maxsus qarorlari (1993-1995) asosida “Ayollar yili” (1999 yil), “Sog'lom avlod yili” (2000 yil), “Onalar va bolalar yili”, “Qariyalarni qadrlash yili” (2002 yil) kabi muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, ijtimoiy turmush va madaniy hayotimizda ayollarning o'rni beqiyos katta ahamiyat kasb etmoqda. Qadimgi ajdodlar madaniyatini eslash, o'tgan ulug'zodlar ruhini shod etish maqsadida 1999 yil Jizzaxda Ayollar yiliga bag'ishlab “To'maris o'yinlari Respublika festivali” tashkil etildi. Bu tadbir ham o'ta ko'tarinkilik ruhida o'tkazilib bayramona tus oldi. Respublikaning barcha viloyatlaridan xotin-qizlar jamoalari yig'ilib, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va boshqa sport turlari bo'yicha masobaqalar o'tkazishdi. Bunday festival yana 2001 yil Shahrisabzda (Qashqadaryo viloyati) tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, xalq milliy o'yinlari (Jizzax, Termiz, 1992 yil), “Alpomish o'yinlari” Respublika festivallari (1998, 2000, 2002), “To'maris o'yinlari Respublika festivallari” (1999, 2001, 2003)ga bag'ishlanib Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari ham o'tkazildi. Ularda xalq milliy o'yinlarining mazmunlari yoritildi. Shuningdek, milliy qadriyatlar mazmunida xalq milliy o'yinlarining o'rni, ularning tarbiyaviy ahamiyatlariga qaratilgan juda ko'p ma'ruzalar jamlandi. Ularning qisqacha mazmunlari anjumanning ilmiy to'plamlariga kiritildi.

Shunga qaramasdan ko'pkari-uloq, otda poyga va boshqa o'yinlarni yoshlarga o'rgatish masalalari ancha orqada qolmoqda. Qishloq yoshlari o'rtasida ot sporti klublari tashkil etilib, kichik yoshdan boshlab ot o'yinlariga o'rgatish yo'lga qo'yilsa, chaqiriq yoshidagi yigitlarga esa otda bajariladigan harbiy-jismoniy mashqlar o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. E'tirof etish kerakki, 2000 yilda ishlab chiqilgan ikki qismli “Alpomish” kino-filmi (rejissyor Usmon Azimov) milliy qadriyatlar mazmunini to'la ifodalab bergan. “Alpomish” va «Barchinoy»ning kurash, otda poyga, merganlikdagi amaliy faoliyatlarini yaxshi tasvirlagan. Bundan yoshlar yaxshi xulosa qilishlari lozim.

Turli xil sakrashlar, yugurishlar va bajarish qiyin bo'lgan gimnastika mashqlari o'rniga qizlarga milliy harakatli o'yinlarni darslarda o'rgatib borilsa, ularning jismoniy kamolotini o'stirishda muhim tadbirlardan biri bo'lish mumkin.

Shuningdek, oila va bolalar bog'chalarida sevimli harakatli o'yinlar va mashg'ulotlar tarkibida milliy harakatli o'yinlardan foydalanishni yo'lga qo'yilsa yaxshi bo'ladi.

Xulosa shundaki, xalq milliy o'yinlari inson kamoloti va yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan o'quvchi yoshlarga xalq milliy o'yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq singdirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A.A., Xonkeldiyev Sh.H., jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, darslik, Farg'ona, 2001.

2. Abdumalikov R., Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, monog., T., O'zDJTI nashr, 1994, 162 bet.

3. Abdumalikov R., Qudratov R.Q., Yarashev K.D., Ko'pkari, ilmiy-ommabop kitob, T., O'zDJTI nashr, 1997, 117 bet.

4. Abdumalikov R., Xoldorov T.X., turizm, o'quv qo'llanma, T., O'qituvchi, 1988.

5. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E., Ajdodlar jismoniy madaniyat tarixini o'rganish masalalari, o'quv qo'llanma, T., Matbuot, 1993.

6. Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi, o'quv qo'llanma, T., O'zDJTI nashr, 1997.

7. Alpomish dostoni 1-2 qismlar, T., «O'zbekiston», 1992-1993.

8. Axmedov B.A., Amir Temur, tarixiy roman, T., 1995.

**TARBIYAVIY ISHLARDA ARTPEDAGOGIKADAN
FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Haqqulov Toxir Raxmatovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti.*

Annotatsiya: San'at odamlarni pragmatik maqsadlar chegarasidan tashqariga olib chiqib, insoniyatni hayotga qaytarish, borliqni eng yuksak qadriyatlari orqali haqiqatni o'zlashtirishga yordam beradi. Aynan san'at orqali – shaxsning axloqiga, shuningdek, tafakkur, tasavvur, histuyg'ulari va hissiyotlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Ushbu maqolada tarbiyaviy ishlarda artpedagogikadan foydalanishning nazariy asoslari haqida so'z borgan va taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: san'at, tarbiyaviy ishlar, go'zallikka murojaat qilish, qalbni zabt etish, go'zallikni his qilish, insonning his-tuyg'ulari, o'qitish jarayonlari, badiiy va tarbiyaviy faoliyat, artpedagogika, korreksiya, bilim, ko'nikma va malaka, badiiy did.

**FROM ARTPEDAGOGY IN EDUCATIONAL WORK THEORETICAL
FOUNDATIONS OF USE**

*Haqqulov Tokhir Rakhmatovich,
Jizzakh State Pedagogical University.*

Abstract: Art takes people beyond the limits of pragmatic goals, brings humanity back to life, helps them master the truth through the highest values of existence. It is through art that it is possible to influence the morals of a person, as well as the formation of thinking, imagination, feelings and emotions. This article discusses and analyzes the theoretical foundations of using art pedagogy in educational work.

Key words: art, educational works, appeal to beauty, conquering the heart, feeling beauty, human emotions, teaching processes, artistic and educational activities, art pedagogy, correction, knowledge, skill and competence, artistic taste.

**ИЗ АРТПЕДАГОГИКИ В ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

*Хаққулов Тохир Рахматович,
Джизакский государственный педагогический университет.*

Аннотация: Искусство выводит человека за пределы прагматических целей, возвращает человечество к жизни, помогает ему овладеть истиной через высшие ценности существования. Именно через искусство можно воздействовать на нравы человека, а также на формирование мышления, воображения, чувств и эмоций. В данной статье рассматриваются и анализируются теоретические основы использования артпедагогика в воспитательной работе.

Ключевые слова: искусство, воспитательные работы, обращение к красоте, покорение сердца, чувство прекрасного, эмоции человека, процессы обучения, художественно-воспитательная деятельность, артпедагогика, коррекция, знание, умение и компетентность, художественный вкус.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan. Bu talablarni bajarish esa ko'p jihatdan bugungi kunda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahoratlariga bog'liqdir. Shuning uchun bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy ish uslubiyotiga doir bo'lgan bilimlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borishimiz, bu borada malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berishimiz lozim. Tarbiyaviy ishlarga oid bo'lgan tushunchalarning talabalar ongida aks etishi

o'qish jaryonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarga oid ta'lim jarayonining mohiyati esa - tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy sharoitda pedagogika oliy o'quv muassasalarida tarbiyaviy ishlar metodikasi fani doirasida artpedagogikadan foydalanish cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lib, u orqali talabalar maxsus ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Shuningdek, talabalarda turli xil badiiy vositalari va usullari ta'minlovchi muhim madaniy va ma'rifiy manbalar tarbiyaviy ishlarni olib borish imkoniyatini kengaytiradi. Art-pedagogikaning mazmun-mohiyati oliy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayonida badiiy faoliyatning turli ko'rinishlari, shuningdek, talabalarining san'at vositalari orqali rivojlanishida, ularda badiiy-madaniy va amaliy bilim, ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladi. Bu jarayon bir qancha olimlar tomonidan nazariy asoslangan. Talabalarda artpedagogik faoliyat vositalarini o'zlashtirish, ularning malakasini oshirish jarayonida badiiy texnologiyalar amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga doir G.I.Klepikova va O.A.Tomashevskayalar o'zlarining tadqiqot ishlarini olib borishgan. E.V.Taranov art-pedagogikaning tushunchasini zamonaviy yondashuvlar bo'yicha milliy nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida bir qancha fundamental yondashuvlarini aniqlagan. Bular:

Artpedagogik bilimlar: ilmiy, tarbiyalovchi, vijdonlilik va faollik, ko'rgazmalilik, muntazamlik va izchillik, mavjudlik, individualilik tamoyillariga asoslanadi. Tarbiyaviy ishlarda artpedagogikadan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muxim omil hisoblanadi.

Art-pedagogika – bu turli xil toifadagi insonlarga badiiy bilim va ko'nikma beruvchi mutaxassisning kasbiy faoliyati sanaladi. Art-pedagogikaning bunday talqin etilishi xorijiy tadqiqot ishlardan art-terapiya tarjimasidan kelib chiqqan degan qarashlar mavjud. Masalan, L.D.Lebedevaning yozishicha, “art-pedagog bolalarni badiiy tarbiyalash va tasviriy san'at masalalarini hal qiladi. Bu kabi yondashuvlar asosida tarbiyaviy ishlar metodikasida artpedagogikadan foydalanish modelini ishlab chiqishimizda esa S.S. Garmashova, S.A. Tyaglova, M.Quronov, SH.Mustafoyevlar tomonidan yaratilgan o'quv modellarida keltirilgan qoidalar biz uchun muhim manba bo'lib hizmat qiladi.

Pedagogik jarayon va artpedagogik tayyorgarlik vazifalari bo'lajak o'qituvchining malakasini oshirishga qaratilgan. Umumiy sifatida pedagogik jarayonning maqsadi konseptual ravishda ishlab chiqilgan va tuzilgan. Biz o'z izlanishlarimizda bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy badiiy va tarbiyaviy ishlarga tayyorlash va ularni ma'nan shakllantirishga qaratganmiz. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida artpedagogikadan foydalanishning maqsadli komponenti ma'naviy-ma'rifiy qoidalarga asoslanadi. Bloom taksonomiyasi, unga ko'ra talaba ta'lim maqsadlari toifalari:

bilim,
tushunish,
qo'llash,
tahlil qilish,
sintez va baholashni o'rganadi.

Tarbiyaviy ishlarda artpedagogikadan foydalanish uchun biz Bloomning kengaytirilgan taksonomiyasidan keng foydalanish ham maqsadga muvofiq deb bildik. Unga ko'ra art-pedagogikadan tarbiyaviy ishlarda foydalanishda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

1. Idrok. Talabada ma'lumot olish istagining mavjudligi. Masalan, talaba bilim olish majburiyatini anglaydi, boshqalarni diqqat bilan tinglaydi, ijtimoiy faolligini ko'rsatadi.

2. Javob berish. Bu jarayon talabadan ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok

etishni anglatadi. Masalan, individual ravishda o'z bilimni sinab ko'rish istagi doimiy ravishda yuqori bo'ladi.

3. Qadriyatli yo'nalish. Bunda talaba demokratik jarayonlarga ishonishini namoyish etadi, bilimning o'rnini yuqori baholaydi.

4. Tashkiliy. Bunda tarbiya jarayoni nazarda tutiladi. Talabalar turli xil qadriy yo'nalishlar asosida axloqiy qadriyatlar tizimiga moslashadi.

5. Targ'ib qilish. Bunda, talabalar o'ziga ishonch, sadoqatni namoyish etadi. Ijtimoiy va psixologik moslashuvchanlik, sog'lom turmush tarzini olib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'pincha tadqiqotlar jarayonida art-pedagogika korreksion (tuzatish) ish sifatida qaraladi. Art-pedagogikaning predmeti – bu rivojlanishida muammosi bor bo'lgan bolalarga san'at yordamida pedagogik ta'sir etish hisoblanadi. Shuni alohida qayd etishimiz lozimki, art-pedagogikaning korreksion yo'nalishi fan sifatida Rossiyalik olimlar E.A. Medvedeva, I.Yu. Levchenko va b.lar tomonidan “Maxsus ta'limda art-pedagogika va art-terapiya” tadqiqot ishi sifatida o'rganilgan bo'lib, “Art-pedagogika – bu ikki ilmiy bilim (san'at va pedagogika) sintezi sanalib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni san'at orqali rivojlantirish hamda badiiy madaniyat ko'nikmalarini tarkib toptirish”, deyiladi. Tadqiqotlar doirasida nafaqat korreksion balik, rivojlantiruvchi tarbiyaviy ish faoliyatida art-pedagogikadan keng foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. San'at odamlarni pragmatik maqsadlar chegarasidan tashqariga olib chiqib, insoniyatni hayotga qaytarish, borliqni eng yuksak qadriyatlari orqali haqiqatni o'zlashtirishiga yordam beradi. V.A.Suxomlinskiy “O'g'ilga maktublar” da shunday yozadi: “Gimnastika tanani to'g'rilaganidek, san'at ham inson ruhini “to'g'rilaydi”. V. A. Suxomlinskiy “Tarbiya to'g'risida”gi kitobida “... har xil yo'llar bilan ruhning sezgirligini rivojlantirish, vijdonni uyg'otish, ma'naviyatni qo'llab-quvvatlash kerak», deydi. “Bunday tarbiya vositalari orasida, birinchi navbatda, go'zallik bilan tarbiya berish birinchi o'rinda turadi. Aynan, go'zallikka murojaat qilish, qalbni zabt etish, go'zallikni his qilish, insonning his-tuyg'ularini shu qadar yaxshiyadiki, u so'zni qabul qila boshlaydi, demak u tarbiyali bo'la boshlaydi”. Shu sababdan ham biz o'z qarashlarimizda artpedagogikadan foydalanish insonni ijobiy tomonga tarbiyalashning asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Tahlil va natijalar

Tarbiyaviy ishlar jarayonida artpedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini kreativ tashkil etishda samarali usul sanaladi. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, “Art-pedagogika – bu san'atning har xil turlarini shaxs tarbiyasiga integrasiyalashgan holda qo'llashga asoslangan pedagogik texnologiya” hisoblanadi. Ushbu yondashuv zamonaviy san'atning barcha imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi va uni pedagogik jihatdan keng amalga oshishiga imkon yaratadi. An'anaga ko'ra, san'at - bu ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, dunyoni o'ziga xos ma'naviy egallash turi hamda voqelikni badiiy va xayoliy qayta ishlab chiqarish usuli sanaladi. “San'at – shaxsning axloqiga, shuningdek, tafakkur, tasavvur, histuyg'ulari va hissiyotlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ta'lim vositasi”, ekanligi e'tirof etiladi. P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqa olimlar esa, “San'at – bu insonni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitishda samarali omil”, deya ta'rif berishadi.

Haqiqatdan ham san'at – shaxsning axloqiga, shuningdek, tafakkur, tasavvur, histuyg'ulari va hissiyotlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ta'lim vositasi sanaladi. Bu haqida P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqa olimlar shunday deyishadi: “San'at – bu insonni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitishda samarali omil”, deya ta'rif berishadi. San'at insonlarni pragmatik maqsadlar chegarasidan tashqariga olib chiqib, insoniyatni hayotga qaytarish, borliqni eng yuksak qadriyatlari orqali haqiqatni o'zlashtirishiga yordam beradi. Shunga ko'ra biz tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishimizda albatta san'at va pedagogikani bir butunlikda

o'rgatib borishimiz muhim sanaladi.

Ko'rib chiqilayotgan muammo doirasida art-pedagogika oliy ta'lim muassasi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- ta'lim-tarbiya jarayonida tasviriy san'at vositalaridan keng foydalanish;
- ta'lim jarayonida pedagog va talaba o'rtasidagi muloqotning ustunligi;
- pedagog va talaba hamkorligida badiiy ijodiyot, auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlardagi turli xil bir-biriga bog'liq mashg'ulotlar (ustaqil ish, mustaqil ta'lim);
- turli mavzularni mohiyatini o'rganishda badiiy adabiyotdan, xalq ogzaki ijodi hamda san'at asarlaridan keng foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbga tayyorlash muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda rag'batlantirish.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayoning samaradorligi, fan mazmunini artpedagogik vositalar yordamida singdirish, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish madaniyati, kerakli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari, ijodiy muloqot qobiliyatning shakllanganligiga bog'liqdir. Shuni alohida aytish muhimki, bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashimizda ularda axloqiy immunitetni hosil qilish birinchi vazifalardan sanaladi. Ya'ni, salbiy holatlarga va muammolarga axloqan yondashib, san'at orqali go'zallikni his qilib, turli vaziyatlarga ijodiy yondashib o'z "men"ini shakllantirishlari juda muhimdir.

Xulosa

San'atning tarbiyaviy ta'siri uning shaxsga ijtimoiy-psixologik darajadata'sir etishga bog'liq bo'ladi. V. A. Suxomlinский "Tarbiya to'g'risida"gi kitobida "... har xil yo'llar bilan ruhning sezgirligini rivojlantirish, vijdonni uyg'otish, ma'naviyatni qo'llab-quvvatlash kerak», deydi. "Bunday tarbiya vositalari orasida, birinchi navbatda, go'zallik bilan tarbiya berish birinchi o'rinda turadi. Aynan, go'zallikka murojaat qilish, qalbni zabt etish, go'zallikni his qilish, odamning histuyg'ularini shu qadar yaxshiyadiki, u so'zni qabul qila boshlaydi, demak u tarbiyali bo'la boshlaydi" degan edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, haqiqatdan ham tarbiyaning eng birinchi vositasi estetik tarbiya sanalib, biz har bir jarayonni go'zal tushunchalar, chiroyli so'zlar bilan tarbiyaviy jarayonga boshlasak, o'ylagan natijalarimizga albatta yetishamiz.

Adabiyotlar.

1. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asrsida dars o'tish yo'llari. O'quv uslubiy ishlanmalar to'plami. – T.: TDIU. 2005.

2. Сухомлинский В.А. О воспитании [Электронный ресурс]. URL:<http://pedagogic.ru/books/item/ro0/s00/z0000009/index.html> (дата обращения: 08.12.2013 г.).

3. Клепикова Г.И., Томашевская О.А. Артпедагогика в системе подготовки будущих педагогов // Художественно-эстетическое образование в современных условиях: Материалы заочной конференции, посвященной 45-летию Художественно - графического отделения КГБОУ СПО «Енисейский педагогический колледж», 2013. -С.21-23

4.ЕралинК.Е.ИзобразительноеискусствоКазахстанавсистемехудожественно-профессиональной подготовки будущих учителей изобразительного искусства и художественного труда в педагогических институтах: автореф. дис. докт. пед. наук.- М., 1992.- 29с.

5. Небесайева Ж.О. Артпедагогический подход в подготовке усчителя/ Материалы ХВИ ежегодной международной наусчно-практической конференции студентов, магистрантов, аспирантов и соискателей «Потенциал молодежи в Йевразийской интегратсии:- Экономика, Право, Политика».- Випуск

“AVESTO”, “ALPOMISH”, “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARI VA BOSHQA MANBALARDA JISMONIY TARBIYA HAQIDAGI MA‘LUMOTLAR

Yuldashev Alisher Axrorovich,

“Sport faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy meroslar, xalq og‘zaki ijodiyotining durdonalari, badiiy, diniy manbalarni chuqur o‘rganish va ularning ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarini ommaga, ayniqsa o‘quvchi yoshlarga singdirish masalalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, o‘quvchi, xalq, milliy, badiiy, meros, ijtimoiy, jismoniy.

Аннотация. В статье в годы независимости выдвигаются на суд общественности, особенно учащейся молодежи научные наследия, связанные с национальными ценностями, шедеврами народного творчества, углубленным изучением художественных и религиозных источников и их общественно-образовательных процессов.

Ключевые слова: Ценность, учащийся, народ, национальное, художественное, наследие, социальное, физическое.

Annotation. In the article, in the years of independence, scientific heritages related to national values, masterpieces of folk art, in-depth study of artistic and religious sources and their socio-educational processes are put forward to the public, especially to young students.

Key words: Value, student, people, national, artistic, heritage, social, physical.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy meroslar, xalq og‘zaki ijodiyotining durdonalari, badiiy, diniy manbalarni chuqur o‘rganish va ularning ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarini ommaga, ayniqsa o‘quvchi yoshlarga singdirish masalalari oldinga surilmoqda.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Alpomish” dostonining yaratilishiga 1000 yil, “Avesto” kitobining 3000 yilligi va b.q. haqidagi munozaralari, mulohazalari va farmonlari bunga dalildir.

“Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh ta’ririya tomonidan madaniyatimiz tarixida ilk bor “Avesto” kitobi mukammal suratda nashr etildi. Umuman olganda qadimgi ajdodlar ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, sihat-salomatlik, jismonan chiniqish, mexnat hamda uzoq umr ko‘rib yashash uchun yaratgan ta’lim-tarbiya jarayonlari «Avesto»da chuqur ma’no va o‘rin egallagan.

Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og‘zaki ijodida ayniqsa, ko‘proq ifodalanadi. Bularni «Alpomish» dostoni misolida tan olishga to‘g‘ri keladi. «Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o‘q otish va merganlik kabi jismoniy sifatlar Vatanparvar va xalq uchun, sevikli yori uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug‘ insoniy fazilatlar madh etilgan. «Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar mavjud bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa yigit va qizlarining bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o‘ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan. «Go‘ro‘g‘li» o‘nlab katta dostonlar mavjud. Ular Markaziy Osiyo, Kavkaz va boshqa xududlarda ham mashhurdir. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, yigit va qizning muhabbatlari orqali xalq irodasi, an’analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichlashish, tog‘, daryo, chakalakzorlarda quvlanib o‘tish, kurash, kamondan o‘q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. «Qirq qiz» dostonida hozirgi Qoraqalpog‘iston xududidagi janglar o‘z ifodasini topgan. Bunda o‘z ota-onalari, qavm-qarindoshlari uchun uch olishda

dushmanlar bilan mardonavor jang qilishgan qizlar timsoli tasvirlanadi: «Rustam», «Toxir va Zuhra» kabi xalq og'zaki dostonlarida ham xalq irodasi, yovuz kuchlar va yigit-qizlarining sevgi-muhabbat yo'lida qurbon bo'lganliklari bayon etilishi bilan birgalikda, jasur, botir, pahlavon, chavondozi kabi sifatlar ham o'z ifodasini topgan. Qadimgi davrlar jismoniy tarbiyasi haqida yana fikr yuritilganda Ibn Sino haqida mulohazalar bildirishga to'g'ri keladi.

Jahon tibbiyot olamining buyuk sultonlaridan biri Abu Ali ibn Sinodir (980-1036). U falsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko'p sohalarni ham mukammal bilgan donishmanddir.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos ko'p. Ular ichida «Tib qonunlari» alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarni deyarlik barcha xalqlar o'z tillariga tarjima qilishgan. O'zbek tiliga ilk bor 1153 yilda, keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etildi.

Ibn Sinoning ijodiy faoliyati, «Tib qonunlari» va boshqa asarlarini ilmiy jihatdan o'rgangan, tahlil qilgan va ularning mohiyatini ochib bergan taniqli olimlar juda ko'p. Birgina O'zbekiston sharoitida ularning soni 100 dan oshib ketadi.

Buyuk allomaning ilmiy-pedagogik meroslarini chuqur o'rganishda taniqli pedagog S.R.Raximov (Samarqand DU), Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor O.A.Rixsiyeva (O'zDJTU) va boshqalarning xizmati kattadir.

Ibn Sinoning ta'biri bilan aytganda «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri – badan tarbiya»dir. Mutafakkir adibning 30 dan ortiq tibbiy asarlari shu kungacha yetib kelganligi ma'lum. Ularning hammasida ham, muallifning jismoniy mashqlarga oid ilg'or fikrlari va amaliy mashqlar mazmuni uchraydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuy tadbirlarda berib boradi. Bu esa har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beruvchi ta'limdir. Masalaga shunday yondashish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

«Tib qonunlari» haqida mulohaza qilinadigan bo'lsa, kitobning birinchi qismi (tomi) deyarli inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Eng muhim tomoni shundaki, kitobda inson tanasi va uning a'zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan. Bu holatlarni bilish, shu asosda insonlar o'z-o'zini tarbiyalashdek muhim bo'lgan ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarni hayotda qo'llash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Ibn Sinoning jismoniy mashg'ulot kishining yoshiga, jinsiga, sog'-solamatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o'tkazish kerakligi haqidagi g'oyalari juda o'rinlidir. Shuningdek, bolalik, o'smirlilik, yigitlik va qarilik g'oyalari kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalalarini alohida uqtiradi. Bu ilmiy-pedagogik ta'lim merosi jahon xalqlari jismoniy madaniyati tarkibiga singib ketgan ijtimoiy turmush voqeealigidir, desa bo'ladi. Bu holatlarni barcha oilalar, ayniqsa mahalliy millat vakillari, shuningdek, barcha tarbiyaviy maskanlar, o'quv yurtlarida qayta-qayta o'rganishlari lozimdir.

Ibn Sino ta'limining eng yuksak va hayotiy jihatlardan biri shundaki, «Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakat» mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaganligini bashorat qilib bergan.

Ibn Sinoning turli xil kasalliklarni oldini olish va uni davolashda badantarbiya mashqlaridan foydalanish tajribalarini Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi tibbiyot fanlari doktori professor O.A.Rixsiyeva (16-12) ham ma'qullaydi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan

kishi ingichka og'riq (a'zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning a'zolari zaiflashadi.

U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga bo'ladi:

1. Odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari.
2. Maxsus badantarbiya harakatlari.

Buyuk olim badantarbiya deganda asosan maxsus badantarbiya harakatlarini nazarda tutadi. Shu sababdan badantarbiya turlari juda ko'p bo'lib, ular tez, nozik, yengil, kuchli va hokazo tarzlarda bajarilishini eslatadi. Bu albatta ilmiy nuqtai nazardan olganda har bir shug'ullanuvchi uchun asosiy ta'limdir.

Ibn Sino tortishish, mushtlashish, yoydan o'q otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik, nayzabozlik va otda yurishlar badantarbiyaning tez bajariladigan turlariga kirishini aytadi. Nozik va yengil turiga arg'imchoq uchish, belanchakda tik yoki yotib uchish, qayiq va kemalarda sayr qilish va boshqa harakatlardir, deydi u.

Badantarbiya kuchli turiga, kishining o'z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kabilarni kiritadi.

Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, shuningdek, ma'lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublarini uqdiradi.

Tan olish kerakki, bundan ming yillar oldin amaliy tajribada sinalgan va ilmiy jihatdan asoslangan bu jismoniy (badan) tarbiya Xalqaro sport harakatining muhim mezonlariga aylanganligi barcha sport turlari bo'yicha murabbiylarni lol qoldiradi. Yana e'tiborli tomonlardan biri shundaki, turli kasalliklarni davolashda ruhiy oziqa berish (xursandchilik) yo'llarini, ya'ni turli xil sayrlar, sayohatlar, kemalarda suzish, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish omillarini ishlatishni tavsiya etgan.

Ibn Sino har bir a'zoning kasalini tuzatish uchun maxsus harakatlar – jismoniy mashqlar borligini eslatadi. Bunda uqalash (massaj) mashqlarini ko'zda tutadi va ularni quyidagi turlarga bo'ladi:

1. Gavdani baquvvat qiluvchi – kuchli uqalash.
2. Gavdani yumshatuvchi kuchsiz uqalash.
3. Ozdiruvchi – davomli uqalash.
4. Gavdani o'stiruvchi – mo'tadil uqalash.

Olim ta'kidlashicha uqalash dag'al yoki yengil bo'ladi. Dag'al uqalash dag'al latta bilan amalga oshiriladi. Yengil uqalashni karb yoki yengil (yuqa) latta bilan bajariladi. Uqalashlar asosan bo'shashgan a'zolari zichlatish, yumshoqlarini qotirish, dag'alini mayin qilish va qattiqlarini yumshatish maqsadida qilinishini bildiradi.

Bundan tashqari badantarbiya bilan bog'liq uqalashlar to'g'risida ham ta'lim beradi:

1. Badantariyaga tayyorlovchi deb atalgan uqalash (sport trenirovkalari, musobaqalari oldidan hozirgi davrda qo'llaniladi).

2. Badantariyadan keyin qilinadigan uqalash. Buni badanning o'z holiga keltiruvchi uqalash yoki tinchlantuvchi uqalash deyish mumkin. Bu hol ortiqcha toliqqan, o'ta ko'p og'ir mashqlar (trenirovka, musobaqa) bajargandan keyin qo'llaniladi. Ayniqsa ko'pkari (uloq), poyga, kurashdan keyin uqalash mashqlari hayotda ko'p qo'llaniladi.

Uqalash mashqlarining qon aylanish tizimini tezlatish (maromiga yetkazish), nafas olishni yaxshilash, xazm qilish a'zolarining ish faoliyatlarini to'g'ri yo'lga solishda muhim ahamiyat kasb etishi allomaning ilmiy-amaliy ta'limida to'la mazmun topganligining shohid bo'lish mumkin.

Shuni ham eslatish zarurki, Ibn Sino salomatlikni saqlash va uni mustaqamlashda dam olish, uyqu va me'yorida ovqatlanish hayotiy zaruriyatligini eng asosiy omillardan deb biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A.A., Xonkeldiyev Sh.H., jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, darslik, Farg'ona, 2001.
2. Abdumalikov R., Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, monog., T., O'zDJTI nashr, 1994, 162 bet.
3. Abdumalikov R., Qudratov R.Q., Yarashev K.D., Ko'pkari, ilmiy-ommabop kitob, T., O'zDJTI nashr, 1997, 117 bet.
4. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E., Ajdodlar jismoniy madaniyat tarixini o'rganish masalalari, o'quv qo'llanma, T., Matbuot, 1993.
5. Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi, o'quv qo'llanma, T., O'zDJTI nashr, 1997.
6. Alpomish dostoni 1-2 qismlar, T., «O'zbekiston», 1992-1993.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLARNING PEDAGOGIK TA'SIR XUSUSIYATLARI

*Eshmatov G'ayrat Egamberdievich,
Qarshi davlat universiteti, jismoniy tarbiya va sport turlari kafedrası
o'qituvchisi*

Maqolada jismoniy tarbiya va ta'lim jarayoniga harakatli (milliy) o'yin vositasining pedagogik ta'siri jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o'yinlar o'ta samarali vosita ekanligi bolalarni harakatli o'yinlar orqali sog'lom, serharakatchan qilib tarbiyalash haqida fikr yuritilgan

Tayanch tushunchalar: Bolalar, jismoniy tarbiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, ta'lim, ijtimoiy, ilmiy

ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА АКТИВНЫХ ИГР НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

*Эшматов Гайрат Эгамбердиевич,
преподаватель кафедры физического воспитания и спорта Каршинского
государственного университета*

Аннотация. В статье утверждается, что педагогическое влияние подвижным (национальной) игры на физическое воспитание и процесс обучения заключается в том, что подвижные игры являются очень эффективным инструментом в процессе физического воспитания для воспитания детей здоровым, активным образом с помощью подвижных игр.

Ключевые слова: дети, физическое воспитание, педагогика, психология, анатомия, физиология, образование, социальная, научная.

CHARACTERISTICS OF THE PEDAGOGICAL EFFECT OF ACTION GAMES IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS

*Eshmatov Gayrat Egamberdievich,
teacher of the Department of Physical Education and Sports, Karshi State
University*

The article argues that the pedagogical impact of mobile (national) play on physical education and learning process is that mobile games are a very effective tool in the process of physical education to bring up children in a healthy, active way through mobile games

Key words: Children, physical education, pedagogy, psychology, anatomy, physiology, education, social, scientific

Jismoniy tarbiya oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda barcha o'quv yurlari ta'lim tizimdagı yosh avlodni jismoniy baquvvat, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruxida tarbiyalab voyaga etkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini «Ta'lim to'g'risidagi» qonuni Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi hamda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002 yil 24 oktyabrdagi PF-31-54 sonli «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish» to'g'risidagi farmoni va uni bajarish tadbirlariga suyangan holda yangi usullar bilan tashkil qilish va o'tkazish maqsadida muvofiqdir. Ushbu ishlar samarali bajarilishi uchun bolalarning eng kichik yoshdan boshlab milliy harakatli o'yillar vositasi bilan jismoniy salomatlik «poydevorini qurish»ni amalga oshirish mumkin.

Maktab davridan boshlab o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va funkstional shakllanishida harakatli o'yinlarining o'rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa,

ko'rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin, shunday harakatlarni milliy o'yinlari asosida, ijro etish odamning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. O'yinlar o'zining hammabopligi (universalligi), ko'p funkstional-ligi va keng ta'sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo'linadi. Jumladan, jismoniy sifatlarni, nuqtani, talaffuzni, merganlikni, tadbirkorlikni, hisobni va hokazo xislatlarni rivojlantiruvchi o'yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o'yin bo'lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, harakatli o'yinlar turli xalq va elatlarning rasm-rusumi, udumi, an'analari hamda etnogenetik xususiyatlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham bunday harakatli o'yinlarni ko'pincha xalq o'yinlari deb yuritiladi.

Qadimgi mutafakkir-olimlar va pedagoglar insonda sahiylik, rostgo'ylik, vatanparvarlik hissiyoti, raqibga nisbatan hypmat va tabiatni e'zozlash kabi xislatlarni aynan milliy o'yinlar ta'sirida tarbiyalash imkoni yuqori ekanligini e'tirof etganlar. Bu borada, ayniqsa, o'zbek xalq harakatli o'yinlari turli hayotiy muhim odatlarni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish qudratiga egadir. Xalq o'yinlari shu xalqning kashfiyotidir. Shuning uchun ushbu o'yinlar uning ongida, ro'zg'or ishlarida, oila va mahalla tarbiyasida faol o'rin egallaydi.

Harakatli o'yinlar, shu jumladan xalq milliy o'yinlari noyob qadriyat sifatida faqatgina mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgandan keyingina qayta tiklanib, hozirgi kunda aholi, ayniqsa o'quvchi yoshlar o'rtasida keng va jadal ommalashib bormoqda.

Xalq harakatli o'yinlari ilmiy ob'ekt sifatida borgan sari tadqiqotchi olimlar e'tiboridan mustahkam o'rin egallamoqda.

Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malakalari va jismoniy sifatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlar o'ta samarali vosita ekanligini isbotlovchi talaygina ilmiy adabiyotlar nashr etilgan (L.V. Byleeva, I.M. Korotkov, 1982; I.M. Korotkov, 1988; M.S. Bril', 1980; T.S. Usmanxo'djaev, F.X. Xo'jaev, 1990, 1992; A.I. Lisista 1991; T.S. Usmanxodjaev, X.A. Meliev, 2000; V.V. Kuzin, S.A. Polievskiy, 2000; F. Kerimov, N. YUsupov, 200Z).

I.M. Korotkov (1982) larning fikricha, zamonaviy sport o'yinlarida jismoniy sifatlarni, texnik va taktik mahoratni shakllantirish uchun o'yin uslublaridan qanchalik ko'p va mohirona foydalanilsa, shunchalik sportchilarning qobiliyatlari va mahorati yuqori saviyada o'sishi mumkin. To'g'ri bir qaraganda sport o'yinlari o'zi o'yinlardan iborat bo'lib, yana turli o'yinlardan foydalanish «ortiqcha yukday» ko'rinadi. Lekin, bunday tushuncha batamon noto'g'ri. Chunki, pedagogika, fiziologiya va psixologiya fanlariga oid ilmiy ma'lumotlarga asosan jismoniy sifatlarni, texnik-taktik malakalar va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishda an'anaviy ixtisoslashtirilgan va standart mashqlarni qo'llash, ayniqsa dastlabki o'rgatish jarayonida yosh shug'yllanuvchilarni tez charchashiga, qiziqishni susayishiga olib keladi. Harakatli o'yinlar esa, aksincha, bolaning emostional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, charchash alomatlarining vujudga kelishi «orqaga» suriladi, eng asosiysi bolaning irsiy (genetik) qobiliyatlari hamda yangi harakat malakalari paydo bo'lishi mumkin (I.M. Korotkov, 1971; 1979; A.I. Lisistina, T. S. Usmanxo'djaev, 1985; M.N. Jukov, 2003; I. Vlasyuk, 2005 va boshqalar). Agar, voleybol o'yiniga mos harakatli o'yinlar saralab olinsa va bu o'yinlar voleybol to'pi bilan ijro etilsa samara yanada yuksakroq bo'ladi (M.A. Kurbanova, 2003).

Bunday o'yinlarga masalan, «To'p uzat - o'tir», «To'p uzatib estafeta yugurish», «To'pga to'siq qo'y» va boshqa shunga o'xshash o'yinlarni kiritish mumkin.

Sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini shakllantirish-da harakatli o'yinlarning ahamiyati va ularning afzalligi qator ilmiy-uslubiy adabiyotlarda qayd etilgan [20].

A.I. Lisista (1991) ning fikricha harakatli o'yinlar nafaqat jismoniy sifatlarni

muvaffaqiyatli shakllantirishga qodir, balki aniq mo'ljalga olish, aniq harakat, diqqat kabi xislatlarni ham samarali rivojlantirishi mumkin.

Shunday ixtisoslashgan o'yinlar borki, ularni muntazam qo'llash natijasida yosh sportchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligining taraqqiy etishi sezilarli darajada ancha oson kechadi.

Harakatli o'yinlar bo'yicha O'zbekistonda etakchi mutaxassis-olimlar T. Usmanxodjaev va F. Xo'jaevlar (1992) turli yo'nalishdagi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish masalalariga oid qator tavsiyalar berib o'tishgan. Jumladan, ularning fikricha harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda bir qator masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. O'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish;

2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish;

3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish;

4. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash;

5. Jasurlik, topqirlik, zukkolik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Mualliflar turli sinf o'quvchilariga mos o'yinlar, yilning turli fasllarida, kunduzgi va kechkurun o'ynaydigan o'yinlarni saralab berishgan va ularning mohiyatini yoritishga muvaffaq bo'lishgan. Eng asosiysi, mutaxassislar maktab sport sekstiyalarida, jumladan sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi bolalarga «Mushuk va sichqon», «Bo'sh joy», «Qoziq», «Bo'ri zovur ichida» kabi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydilar.

Yuqorida tahlil etilgan ilmiy va uslubiy adabiyotlar yoshlikdan boshlab jismoniy tayyorgarlikni rivojlantira borish, nafaqat bolalarni chiniqtirishda, ularning sog'ligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab beryapti, balki ularni sport bo'lgan qiziqishi ortishiga, sport mashg'ulotlarida o'rnatiladigan texnik-taktik malakalarni tezroq o'zlashtirishlariga imkon yaratishni ko'rsatib berdi. O'z navbatida yosh bolalar jismoniy sifatlarini samarali shakllanishida harakatli o'yinlarni o'ta samarali vosita ekanligini ochib berdi. Lekin ushbu adabiyotlar sharhidan ko'rinish turibdiki, qaysi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qanday harakatli o'yinlardan foydalanish ma'qulligini yoritib beruvchi ma'lumotlar nihoyatda kam o'rnatilgan.

Yosh avlodning jismoniy jixatdan to'kis, sog'lom, Vatan ximoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o'sib-ulg'ayishidan, xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy harakatli o'yinlardan foydalanish maxoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh valod tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini xis etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liq tarzda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kunidanoq mehnatga muxabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga etkazish sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkonini yaratadi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari juda ko'p keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma'naviy jixatdan tarbiyalashning barcha jixatlarini ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan kelajagi sog'lom, etuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustaxkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Milliy xalq harakatli o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgartirani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun-qoidalari va o'zining muayan izini qoldirgani halqiga yuqorida to'xtalgan edik. Bazi o'yinlarni nomi va qoidalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy tarbiyadan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni ham zarardan soqid qilmaslik, ularni ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, «Uloq» o'yini deganda odatda ot bilan o'ynalanadigan, chavandozlar haqiqiy uloq

uchun kurashadigan qadimiy ko'pkari o'yini tushuniladi. Bolalarga mo'jallangan « Uloq» o'yini otsiz o'tkaziladi, o'yinchilar bir parcha echki terisi yopishtirilgan to'ldirma to'pni olish uchun kurashadilar. O'yin qoidalarining ba'zi jihatlari qolganlarinikiga o'xshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu o'yin katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, bunda bir-birini hurmat qilish, samimiy munosabat, qo'pollik qilmaslikka e'tibor beriladi.

Xalq milliy harakatli o'yinlarni bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirida muxim rol o'ynaydi. O'g'il bolalarning qiziqishini oshiradi, unga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatini tezroq tiklanishini taminlaydi. O'yin bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishiga xarakat qiladilar. Xalq milliy harakatli o'yilarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi mashq sifatiga qarash lozim. Birorta o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantirovchi mashq bo'lib hisoblanmasin. Masalan, «Do'ppi kiyishida kim g'olib?» milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya tizimidagi barcha soxa va bosqichlarning biridan birva yagana maqsadi – insonni sog'lom va to'g'ri yashashga tayyorlashdir. Maktab maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyaning vazifalarini bolalarni yoshiga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, leki bunda jismoniy tarbiyaning umumiy maqsadi ko'zdan qochirilmaydi.

Maktabda o'quvchilarni jismoniy tarbiyasida sog'lamlashtirishni, ta'lim berishi va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirishi ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan harakatli o'yinlarga xos nazariy mulohazalar ularning jismoniy tarbiya va sport borasidagi salohiyatini belgilab beradi. Demak, yosh sportchilarni tayyorlashda harakatli o'yinlarni, jumladan xalq milliy o'yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy xalq harakatli o'yinlari o'quvchilarda xalqning madaniy boyliklari halqidagi tasavurini malum darajada kengaytiradi, ularni hozirgi hayotga singdirishga yordam beradi. Chunki milliy harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan bo'lib, o'quvchilarni aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvafaqiyatli amalga oshirishda muxim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, harakteri, ishtirokchilarning hatti-harakatlariga kabi jihatlarga e'ibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. 2000 й. Тошкент.
2. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. 2001й. Тошкент.
3. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. 2002 й. Тошкент.
4. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва ҳаракатли ўйинлар. 2005 й.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘ZLIKNI ANGLASHNING KOGNITIV ASOSLARI

*Tursunov Lutfulla Sayfullayevich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pyedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida dosenti v.b., psixologiya fanlari nomzodi*

Annotasiya: Mazkur maqolada shaxs ontogenezining murakkab bosqichlaridan biri – o‘smirlik davrining kognitiv psixologiyada tahliliga e‘tibor qaratilgan. Unda o‘smirlik davrining o‘ziga xos va ijtimoiy muhitga oid qirralarini izohlashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: kognitiv, sosial kognitiv, kognitiv rivojlanish, bola shaxsi, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, fikrda yechimlarni shakllantirish, muammolarni hal qilish, nutq, diqqatning yo‘nalishi, tasavvur.

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ САМОПОЗНАНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

*Турсунов Лутфулла Сайфуллаевич,
и.о. доцента кафедры “Психология” Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

Аннотация: В данной статье уделяется внимание анализу в когнитивной психологии подросткового периода – одного из основных этапов онтогенеза личности. В ней были предприняты попытки объяснить особенности подросткового периода и ее социальные аспекты.

Ключевые слова: когнитивное, социальное когнитивное, когнитивное развитие, личность ребенка, интуиция, восприятие, память, мышление, решение проблем, речь, направление внимания, представление.

COGNITIVE FOUNDATIONS OF SELF-KNOWLEDGE IN ADOLESCENCE

*Tursunov Lutfulla Sayfullaevich,
a.d. associate Professor of the Department of Psychology of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Abstract: This article focuses on the analysis in cognitive psychology of adolescence - one of the main stages of personality ontogenesis. It attempted to explain the features of adolescence and its social aspects.

Key words: cognitive, social cognitive, cognitive development, child’s personality, intuition, perception, memory, thinking, problem solving, speech, direction of attention, presentation.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan 2023 yilni yurtimizda “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim” degan nom bilan tarixga kirishini e‘lon qilishlari ta‘lim va ta‘lim tizimiga aloqador barcha soha vakillarini mas‘uliyatiga yana mas‘ullik hissini qo‘shdi desak, xato bo‘lmaydi. Ta‘lim tizimini ruhiy ustunini mustahkamlovchi psixologlar o‘zlarini amaliy va nazariy tadqiqotlari bilan sifatli ta‘limni takomillashuviga hissalarini qo‘shishga hamma vaqt tayyorliklarini ta‘kidlashimiz lozim.

Har bir faslni o‘z o‘rni va o‘z zavqi bor deganlaridek, inson ontogenezini har

bir bosqichining ham o'ziga xosligi mavjud. Ana shu har bir bosqichni xosligi o'ziga mos ravishda o'tishi aksar hollarda katta yoshdagi jamiyat a'zolariga bog'liq bo'ladi.

XXI asrning birinchi choragi yakunlanishi arafasiga kelib hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli o'g'il bolalarni (10-15) va qiz bolalarni (11-14) yoshigacha o'smirlik yoshi deb hisoblanadi.

O'zbekiston psixologiya fani darg'alaridan professor E.G'. G'oziyev ta'kidlaganlaridek "Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur".

Yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqib bilvosita aytish mumkinki mazkur davrda o'smir o'zning "men"ligini namoyon etishga harakat qilishi bilan birga ijtimoiy muhitda shakllanayotgan mavqeini ham bildirib qo'yishga intiladi. Mazkur ijtimoiy xususiyatlarning muvaffaqiyatli egallashi uchun kognitiv jarayonlar o'z ta'sirini namoyon etishi tabiiy hol hisoblanadi.

"Kognitiv" so'zi lotincha kognoscyere – "bilmoq" fe'lidan kelib chiqqan. Ushbu yondashuv atrofida to'plangan psixologlarning ta'kidlashicha, inson tashqi dunyodagi voqye'likni, ichki omillar yoki hodisalarga ko'r-ko'rona va mexanik ravishda javob beradigan texnik qurilma emas, aksincha, inson ongida ko'proq mavjud: voqelik haqidagi ma'lumotlarni mantiqiy tahlil qilish, taqqoslash, mushohada qilish, qarorlar, har daqiqada duch keladigan muammolarni hal qilishda "men"ligi asosida munosabatda bo'lishi tushuniladi desak xato bo'lmaydi. Demak, kognitiv psixologiya odam farzandini o'zligini anglash asnosida dunyoni anglashi jarayonida ishtirok etadigan barcha psixik jarayonlarni bir butun jamlanmasini (kompleks) amaliy va nazariy tomondan tahlil etadi.

Bola shaxsining kognitiv rivojlanishi – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, fikrda yechimlarni shakllantirish, muammolarni hal qilish, nutq, diqqat yo'nalishi, tasavvur va mantiq kabi fikrlash jarayonlarining barcha turlarining takomillashuvi qonuniyatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Aksari bola o'zligini anglashining rivojlanishga bilish jarayonlari asosida yondashadigan psixologlar asosiy e'tiborni tafakkur jarayonlarining takomillashuviga diqqatlarini yo'naltiradilar. Haqiqat ham bolaning tafakkur jarayoni uni ongli faoliyati va aqliy tanqidiy mushohadani fikran ochib beradi.

Shuni unutmazlik lozimki, tafakkurning mustaqilligi o'smir uchun juda katta ahamiyatga ega. Kattalar tomonidan har qanday og'ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan o'smir tafakkurini mustaqilligini qo'llab-quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi maqsadga muvofiqdir. Shuni ham esdan chiqarmazlik lozimki, dastlabki davrda o'smirning nuqtai-nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarini yomonlash, uni izza qilish, izzat-nafsiga tegish, masxaralash mutlaqo mumkin emas. Agar shunday yo'l tutilsa, o'smir aqlining ajoyib sifati barbod bo'lib jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qolishi tabiiy hol hisoblanadi.

Shu sababli kattalar o'smirning aql-zakovatini to'g'ri rivojlantirish uchun quyidagi ikki imkoniyatni amalda qo'llay olishlari kerak bo'ladi:

1. o'smirlarga to'g'ri ta'riflashni, tahlil qilishni, taqqoslashni, materiallarni mavhumlashtirish va umumlashtirishni o'rgatishi;
2. o'smirlarga o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tushuntirib berishi;
3. o'smirlarga xatti-xarakatni to'g'ri yo'naltirish uchun ong oldi faoliyatini to'g'ri

yo'naltirishni o'rgatish lozim bo'ladi.

O'smir tomonidan mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi aqlning turli shakllaridan foydalanish o'smirlarda aqliy va ongli faoliyat ko'nikma natijada jadal rivojlanish o'z-o'zidan amalga oshadi. Umumiy psixologiya va ontogenez psixologiyasi yondashuvidan tashqari sosial-psixologik yondashuv ham mavjud bo'lib, mazkur yondashuvning asoschilari ingliz psixologlaridan J. Bruner va V. Rivers hisoblanishadi.

Kognitiv psixologiyaning ijtimoiy qoidalariga asoslangan va ma'lum bir o'quv guruhidagi o'quvchilarga xos bo'lgan turli xil kognitiv uslublarni va ular qo'llaydigan o'quv strategiyalarini hisobga olgan holda ong tamoyiliga asoslangan o'quv jarayoni guruhiyligini ta'minlaydigan ta'limga yondashuvga ko'ra, o'quvchi nafaqat o'qituvchining o'quv faoliyatining ob'yekti, balki, avvalo, o'quv jarayonidagi guruhning faol ishtirokchisidir. Kognitiv psixologiyaning sosial asoslari quyidagi qoidalariga asoslanadi:

1. o'smirlar tafakkurning takomillashuvida tilni o'zlashtirish jarayoni guruhiy faoliyatsiz amalga oshmaydi. O'quvchilar o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini o'rganishining faol ongli jarayoniga guruhiy mulohaza jalb qilinishi kerak;

2. o'quvchilar (o'smir) o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi kerak, ularning individual va guruhiy qiziqishlari hamda xususiyatlarini hisobga olish kerak;

3. o'quv jarayoni nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va guruhiy jihatdan ham shartlanganligini hisobga olish shart.

4. o'quvchilar va o'qituvchilar o'quv davrida o'zaro bilim va bir-birini tushunish, hamkorlik qilish jarayonida guruxiy ishtirok etishlari kerak.

Cosial kognitiv psixologiya nazariyasi tarafdorlarining fikricha, bolaning rivojlanishida asosiy rol ni ijtimoiy muhit o'ynaydi, bola esa ijtimoiy muhitdagi berilgan vazifasini muvaffaqiyatli bajarsa bo'ldi. Mazkur yo'nalish vakillari ilgari surgan nazariya asosida jamoaviy va guruhiy faoliyatda bola atrofida qilarni faoliyatiga taqlid qilib, o'z faoliyatidagi kamchiliklarni ham bartaraf etib boradi.

Biz yuqorida qayd etgan kognitiv psixologiyaning ko'zga ko'ringan ikki nazariya vakillari o'smirlik davrida o'zlikni anglashni o'z yo'nalishlari asosida izohlashga harakat qiladilar. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, kognitiv psixologiya tarixida o'smirlik davri takomillashuvi xususiyatlariga qanday yondashuvlar bo'lishidan qat'iy nazar yangi nazariyalarni yuzaga kelishiga ma'lum darajada turtki vazifasini bajardilar desak, xato bo'lmaydi.

O'smirlar fikr yuritish faoliyatining xususiyatlaridan: yaqqol-obrazli, ko'rsatmali tafakkur tarkibining muhim dominantlik rolini kiritish mumkin. Ularda mavhum tafakkur o'sishi bilan yaqqol-obrazli tafakkurning tarkibiy qismi mutlaqo yo'qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasi muhim rol o'ynaydi.

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, o'smirlik davrining eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. By esa kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli o'laroq, o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

Ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki otanoning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Aksari hollarda ustozining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o'z fikrida turib, ayrim nazariyalarga qat'iy e'tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyilligi yuqori bo'ladi.

Professor E.G. G'oziyev urg'u berib o'tganlaridek "O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning

uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi". Mazkur fikrdan ham aniq ko'rish mumkinki, o'smir fikrini tinglash va uni e'tibordan chetda qoldirmaslik zamonaviy pedagogning eng to'g'ri metodologiyasi hisoblanadi.

O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri o'z "men"ligini boshqalar tomonidan tan olishlarini istashlari hisoblanadi. Shu sababli ham o'smirni fikridan qaytarish murakkab kechadi. Diqqatga sazovor tomoni "mening fikrim", "fikrimni o'zgartirmayman" degan tasdiqlarni tez-tez ishlatish orqali o'zlarini kattalar bilan teng xuquqliklarini eslatib turishga harakat qiladilar.

O'smirlarning "men" likni namoyish etish bilan bir qatorda o'zlarini ijtimoiy muhitdagi mavqelariga urg'u berishlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun o'smirlar bilan faoliyat olib borayotgan pedagog zamonaviy metodologiyalar bilan qurollangan bo'lishi lozim bo'ladi. Pedagog har bir darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi bilan bir qatorda ko'rgazmalilikka alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Biz yuqorida takidlaganimizdek, bu davr vakillarida obrazlarni bo'rttirib idrok etish yuqori bo'lishi bilan bir qatorda tafakkurni kreativligi ortgan davri hisoblanadi.

Davlatimiz yetakchisi Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek, "Ta'lim sifati bizning ertangi kunimizni belgilab beradi". Ta'lim sifatini mukammallashtirish uchun yoshlarni ruhiy holatlari haqidagi bilimlar bilan pedagoglarni qurollantirib borish biz psixologlarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.: "Noshir", 2010.
2. G'oziyev E. G'. Psixologiya metodologiyasi – T.: "Noshir", 2013.



**ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАР ТОМОНИДАН СОДИР
ЭТИЛАЁТГАН НОҚОНУНИЙ ХАТТИ-ҲАРАКАТЛАРНИНГ
ПСИХОЛОГИК САБАБЛАРИ**

Элов Зиёдулло Сатторович,

Бухоро давлат университети, Тарих ва юридик факультети Психология ва социология кафедраси доценти, Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мақолада ўсмир шахси ва унинг шахс тараққиётидаги муҳим жараён эканлигига алоҳида тўхталиб, ушбу даврда девиант хулқ-атвор шаклланишига сабаб бўлувчи сабабларлар ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, ушбу даврда ўсмир шахси шаклланишида оила ва унинг унинг ўрни, ота-она ва ўсмир муносабатлари очиб берилган. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар томонидан содир этилаётган ноқонуний ҳатти-ҳаракатларнинг психологик сабабларига баҳо берилган.

Калит сўзлар: оила, ўсмир, девиант, хулқ-атвор, тарбия, ижтимоий муаммо, характер, ҳиссиёт, қўзғатувчи, муҳит, жиноят, ахлоқ, асабий, қўрқоқ, дезадаптация, хулқ огиши, эмоция.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ НЕЗАКОННОГО ПОВЕДЕНИЯ
- ДЕЙСТВИЯ, СОВЕРШАЕМЫЕ ПОДРОСТКАМИ С ДЕВИАНТНЫМ
ПОВЕДЕНИЕМ**

Элов Зиёдулло Сатторович

Доцент кафедры психологии и социологии историко-правового факультета Бухарского государственного университета, доктор философских наук (PhD) в области психологии

Аннотация: В статье акцентируется внимание на личности подростка и на том, что это важный процесс в развитии личности, а также рассматриваются причины, вызывающие формирование девиантного поведения в этот период. Также в этот период раскрывается семья и ее роль в формировании личности подростка, родительско-подростковые отношения. Оцениваются психологические причины противоправного поведения, совершаемого девиантными подростками.

Ключевые слова: семья, подросток, девиант, поведение, воспитание, социальная проблема, характер, эмоция, триггер, среда, преступление, нравственность, нервозность, трусость, дезадаптация, девиантность, эмоция.

**PSYCHOLOGICAL CAUSES OF ILLEGAL BEHAVIOR - ACTIONS
COMMITTED BY ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR**

Elov Ziyodullo Sattorovich,

Associate Professor, Department of Psychology and Sociology, Faculty of History and Law, Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Abstract: The article focuses on the adolescent personality and the fact that it is an important process in the development of personality, and thinks about the reasons that cause the formation of deviant behavior in this period. Also, in this period, the family and its role in the formation of the adolescent's personality, parent-adolescent relations are revealed. Psychological causes of illegal behavior committed by deviant adolescents are assessed.

Key words: family, adolescent, deviant, behavior, upbringing, social problem,

character, emotion, trigger, environment, crime, morality, nervous, coward, maladaptation, deviance, emotion.

Маълумки, оилавий тарбия инсон камолотида муҳим ўрин тутди. Оиланинг болаларга тарбиявий таъсир доираси ижтимоий таъсир доираси сингари ўта кенгдир. Оила Ватанга муҳаббат, ота-она ва атрофдагиларга садоқат каби юксак ахлоқий ва маънавий сифатларни шакллантиришда, турмушга, ижтимоий фаолиятга нисбатан психологик ва амалий жиҳатдан тайёрлашда катта имкониятларга эгадир.

Бироқ кейинги йилларда оилада фарзандларимизни тарбиялашда, уларни камол топтиришда бир қатор муаммолар, нуқсонларга дуч келинмоқда. Табиийки, ушбу муаммолар болалар ва ўсмирлар хулқ-атворида, шахс сифатида шаклланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Кузатишларга қараганда, кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга кўра, хусусан кишиларда кундалик турмуш ташвишларига барҳам бериш, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қараш лаёқатининг етишмаслиги ва шу қабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг биров сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандлари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда.

Шахснинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан баркамоллиги ижтимоий турмушда вужудга келган турли хил низоли вазиятлардан чиқиб кетишига ёрдам беради.

Маънавий-ахлоқий жиҳатдан суёт ривожланганлик ва шахсдаги ўзига хос хусусиятлар (ўзгарувчан характерлилик, кўзгалувчанлик, беқарорлик, ҳиссиётга берилувчанлик, тобелик, журъатсизлик ва бошқалар) эса болалар ва ўсмирларда девиант хулқнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала ва муносабатлари кўринишлари болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Оилада қаҳр-ғазаб асосидаги ота-она муносабати болаларни уйдан бездиради. Уйдан бегиш, оила муҳитини тан олмаслик ўсмирларда оилавий муҳитга нисбатан деформациялашувни келтириб чиқаради. Натижада ўсмир оиладан ташқари кўча муҳитини ўзига маъқул кўради. Кўча муҳити эса баъзан криминал мазмунга эга бўлиши мумкин. Натижада ноахлоқий ва ғайриқонуний хулқ-атвор муҳитига тушиб қолган ўсмирда хулқ оғишининг келиб чиқиши учун имконият яратилади.

Ота-оналарнинг қаҳр-ғазаб асосидаги муносабати болалар ва ўсмирларда салбий характер хислатларининг хусусан, кўрқоқлик, тобелик, асабийлик, ҳиссиётларга берилувчанлик ва мустақил тафаккурнинг суэтлиги қабиларнинг шаклланишига олиб келади. Кўрқоқ, тобе болалар ва ўсмирлардаги асабийлик, кўзгалувчанлик ва ҳиссиётларга берилувчанлик вазиятларнинг чигаллашувига, муаммоли вазиятлардан чиқиб кетиш йўллари нотўғри қўллашга олиб келади.

Ота-оналарнинг фарзандлари ҳаёти ва фаолияти билан қизиқмасликлари, уларни назоратсиз қолдиришлари ҳам ўсмирни ғайриқонуний хулқ-атворга олиб келади. Шунинг учун ота-оналар фарзандларининг айниқса, ўсмирлик ёши давридаги фаолиятларини, бўш вақтларида нималар билан шуғулланаётганликларини домий равишда назорат қилиб боришлари мақсадга мувофиқдир.

Вояга етмаганларда девиант феъл-атворнинг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий тарбияга боғлиқ бўлган омилардан яна бири оилавий тарбияда ўта қаттиққўллик, авторитар ёндашув, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмасликдир. Бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақдан етук ёшлардир. Ёшлар билан ҳисоблашиш, уларнинг фикр ва мулоҳазаларини эшитиш, керакли жойларда маслаҳат бериш яхши натижалар беради.

Оилавий тарбияда кўполлик, андишасизлик, ҳақорат, дўк- пўписа ва жисмоний жазолаш сингари усуллардан фойдаланиш кўпинча болалар ва ўсмирларнинг уйдан қочишига олиб келади.

Бундай болалар оила муҳитига нисбатан ижтимоий психологик дезадаптацияланиш жараёнига дуч келадилар. Оқибатда бола ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қилади. Бу муҳит ўзининг характерига

кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин.

Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларга кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

Вояга етмаганларда девиант ахлоқ, хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқишига таъсир этувчи яна бир омил ота-оналарда фарзандлар тарбиясига доир билимларнинг етарли эмаслигидир. Ота-оналар баъзан фарзандларига ўта даражада меҳр қўядилар. Уларни асраб авайлайдилар, эъзозлайдилар. Айтган ёки истаган нарсаларни муҳайё қилишга интиладилар. Ота-онаси томонидан кўрсатилаётган бундай муносабат натижасида болада манманлик, бировларни менсимаслик, меҳнатнинг қадрига етмаслик, сабрсизлик каби салбий хислатлар пайдо бўлади. Бундай хислатларга эга бўлган болаларда ўзбек халқига хос бўлган шукроналик, меҳнатсеварлик, олийжаноблик, ўзгаларга ҳурмат хислатлари шаклланимайди.

Бугунги кунда ўзбек оилаларида мавжуд бўлган тарбиядаги нуқсонлардан яна бири ота-оналарнинг чеклаш, рад этиш, тақиқлаш, руҳсат етмаслик асосидаги тарбиялаш усулидир. Бу хилдаги тарбия усулида болаларнинг иродаси, хоҳиш-истаги, ўй-хаёллари, орзу ва интилишлари, фикр ва мулоҳазалари инобатга олинмайди.

Шунингдек, бундай тарбия усулида болаларга ўз фикр мулоҳазаларини очикча баён этиш, мустақил қарорларга келиш ва муайян вазиятларга ўз нуқтаи назарини билдириш имконияти чекланади. Боланинг тафаккури, қизиқиши, эркинлигини ҳурмат қилмаслик мустақил фикр юритиш қобилиятининг суст ривожланиши, тортинчоқлик, ўз фикр-мулоҳазаларини баён эта олмаслик, тобелик, кўрқоқлик ва журъатсизлик каби салбий хислатларни келтириб чиқаради. Журъатсиз, тобе, тортинчоқ болада фаоллик ва ўз-ўзига ишонч ҳисси етишмайди. Шунингдек, уларда нутқнинг суст ривожланиши ҳолати ҳам кузатилади. Бундай болалар бутун умр давомида бировларга тобе бўлиб яшайдилар. Уларда раҳбарлик, бошқарувчанлик қобилиятлари ўта паст ривожланган бўлади.

Ҳозирда ўзбек оилаларида берилаётган тарбия нуқсонларидан яна бири оилавий тарбияда миллий қадриятларимиздан, яъни мифология, эртак, мақол, ривоят ва ҳадис илмидан етарлича фойдаланилмаётганлигидир. Миллий қадриятларимиз, халқ оғзаки ижоди дурдоналари, ривоятлар ва ҳадис илми болаларда яхшилик, олийжаноблик, ҳуш хулқилик хислатларининг шаклланишига хизмат қилишлиги ҳаммага аён. Маънавий- ахлоқий жиҳатдан суст ривожланганлик ва шахс типидаги ўзига хос хусусиятлар (ўзгарувчан характерлилик, кўзгалувчанлик, беқарорлик, ҳиссиётга берилувчанлик, тобелик, журъатсизлик ва бошқалар) эса болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Таълим муассасаларида хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирлар ўртасида олиб бориладиган тарбиявий тадбирларнинг самарадорлиги уларда фаол ҳаётий позицияни шакллантириш, ўқувчи ва ўқитувчи ўртасида ўзаро яқинлик ва соғлом муносабатни ўрнатишга боғлиқдир. Шунинг учун ўқитувчининг бераётган эътиборини, уларни ўзларига яқин олаётганлигини ва ёрдам бермоқчи бўлаётганлигини ўсмир ҳар доим ҳис қилиб туриши муҳим ҳисобланади.

Болаларга профилактик таъсир кўрсатишда ўсмирнинг шахс сифатидаги шаклланиши жараёнини, унинг ўзига хос хусусиятларини, характер хислатлари ва психологиясини ҳисобга олган ҳолда иш тутиш яхши натижа беришини унутмаслик лозим. Бунда қуйидаги омилларга эътибор бериш зарур.

Болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг олдини олиш нинг муҳим шартларидан бири тарбиявий жараёнда таълим муассасаси ва оила ҳамкорлигини тўғри йўлга қўйишдир. Кўпинча оила ва муассаса ҳамкорлиги, ота-она ва ўқитувчи ўртасидаги ўзаро алоқанинг узилиши туфайли болалар ва ўсмирлар тарбиясини, айниқса, улар хулқидаги ўзгаришларни тузатиш анча қийин кечади.

Ёшлар билан олиб бориладиган таълим-тарбия ишларининг муваффақияти уларнинг ёшга оид ва психологик хусусиятларини билиш ҳамда ҳисобга олишга боғлиқдир.

Бу ҳолат энг нозик давр ҳисобланган ўсмирлик даврининг алоҳида хусусияти бўлиб, у кўпроқ шу даврга тааллуқлидир. Ўсмирлик даврини ўтиш даври, деб юритадилар, чунки ана шу даврда болалиқдан катталиқ ҳолатига ўзига хос ўтиш даври юзага келади. Бу жараёнлар бола руҳий фаолиятининг жиддий равишда қайта қурилиши билан боғлиқдир.

Болаларнинг экспрессив-эмоционал хусусиятларини билиш ҳам уларни тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга. Ёшлар билан индивидуал муносабатда уларнинг қанчалик эмоционаллиги, ҳиссиётга берилувчанлигини, аффе́ктга мойил ёки мойил эмаслигини, ўз ҳиссиётини тута олишолмаслигини ва шунингдек, унда қандай ҳислар устун эканлигини билиш жуда муҳимдир.

Катталар ҳар бир боланинг қанчалик тўғрисиўзлигини, меҳнатсеварлигини, виждонлилигини, дўстлик ва ҳамкорликни қанчалик ҳис қилишини кузатиб, билиб бориши зарур.

Салбий ахлоқий сифатларга эга бўлган ёшларда тажанглик, кўполлик, ёлғончилик, безорилик, эгоизм, қайсарлик, ўжарлик, интизомсизлик, қоидаларга риоя қилмаслик, ўзбилармончилик кабилар кузатилади ва бундай хислатларга эга бўлган ёшларни тарбиялашда индивидуал ёндашув лозим. Чунки улар жамоа ёки кўпчилик орасида ўзларининг айбларини ошкор бўлишини ёки тарбия, танбеҳ бераётган кишининг насиҳат

ёки кўрсатмаларига бўйсунини ёқтирмайдилар, улар билан муомалада ниҳоятда эҳтиёткорлик, самимийлик, дўстона муносабатда бўлиш талаб қилинади.

Ёшлар билан ишлашда уларнинг характери, қизиқишлари, шахсий хусусиятлари эътиборга олинини лозим. Кўп насиҳат қилмаслик, уришмаслик, овозини баланд кўтармаслик, кўп гапирмаслик мақсадга мувофиқ. Ўзаро самимий муносабат, шахсий намуна, оила ва муассасадаги кишиларнинг ишга ижобий муносабатигина ёшларда шундай бўлишга ҳавас туғдиради.

Ўсмирларнинг хатти-ҳаракатларини ижобий йўналишга буриб юбориш учун уларда масъулият, ғурур, жавобгарлик, ишонч каби юксак ҳисларни таркиб топтириш лозим. Бунинг учун уларга ёши, кучи, қобилияти ва қизиқишларини ҳисобга олиб, топшириқлар бериш айтиш муддаодир.

Уларни ўзлари қизиққан тўғарақларга жалб қилиш яхши натижалар беради.

Энг муҳими шундаки, тарбияланувчиларга ишонини керак. Уларнинг қўлидан келадиган ишларга эътиборли бўлиб, уни бажарганидан кейин рағбатлантириш, уни ишни яна ҳам яхши бажаришда ўз фикрларини баён қилиш ҳам муҳимдир.

Ёшларни беъмани ҳордиқ чиқариш ва кўча-кўйда мақсадсиз юришларига йўл қўймаслик лозим. Бунинг учун мактаб, маҳалла, жамоатчилик ва оила ҳамкорлигини мустаҳкамлаш, болаларни иложи борича мактабдан ташқари муассасаларга жалб этиш чора-тадбирларини қўллаш керак.

Ушбу жараёнларда маҳалла фаоллари, таълим муассасаси психологлари, педагоглар ва кенг жамоатчиликнинг иштирок этишини таъминлаш керак.

Таълим муассасасида педагоглар психологлар билан ҳамкорликда ўқувчиларда энг яхши инсоний фазилатларни ривожлантириш, уларда ўзига ишонч, ўз хулқини яхшилаш мотивларини қуйидаги йўналишларда шакллантиришлари зарур:

- болаларни ўз хулқ-атворини ўзи баҳолашга ўргатиш;
- ўқувчиларнинг ижобий хатти-ҳаракат қилишларини мунтазам назоратга олиш ва уларга ишониш;
- оилада, муассасада болаларнинг олдида қўйилган вазифаларни бажаришда эришган ютуқларини рағбатлантириш;
- тарбия беришнинг оптимал стратегиясини аниқлаш;
- ўқувчиларга индивидуал ёндашув ҳар бирига аниқ махсус педагогик таъсир ўтказиш;
- тарбиявий таъсирнинг болани ҳар томонлама ривожлантиришга йўналтириш;
- дарсдан ташқари фаолиятларда болаларга мустақил фаолият (ўқиш, ўйин, меҳнат, хобби ва қизиқишлари)ни танлаш учун имконият бериш;
- ҳар бир бола учун уларни ақлан ҳамда ахлоқан ривожланишига йўналтирилган тарбиявий ишларни ташкил этиш;
- ота-оналар билан ишлаш жараёнида ҳудудий “Оила марказ”лари, маҳалла фуқаролар йиғини ва шифокорлар билан ҳамкорлик қилиш жуда муҳим ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. М., 1983
2. Амбрумова А.Г., Шир Е., Brooksbank D.J. Психология девиантного поведения М., 1985.
3. Z.S.Elov. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Psixologiya ilmiy jurnal. (1)2022. 27-29
4. Z.M.Maxmudova, Z.S.Elov, L.Ya.Olimov, Deviant xulq-atvor psixologiyasi. В., 2022.
5. З.С.Элов. Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences 1 (2(2021): EJLFAS), 26-28
6. З.С.Элов Девиант хулқ-атворли ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларнинг ёш билан боғлиқ хусусиятлари (Вояга етмаганларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида). PEDAGOGIK MANORAT. 2022, №6
7. Z.S.Elov. Suitsidal xulq motivatsiyasi: nazariya va amaliyot. Monografiya. 2022., 275-b
8. Z.S.Elov. Suicide among adolescents with deviant behavior as a social psychological problem. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. Ярославль., 2022 Выпуск 26.
9. З.С.Элов. Причины и анализ суицидальных мыслей среди подростков. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. Ярославль., 2021 Выпуск 23. 390-392

MILLIY TARBIYA IJTIMOY-PSIXOLOGIK JARAYON SIFATIDA*Jabborov Hazrat Xuseynovich,**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish hamda milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida uning nazariy metodologik asoslari va tarbiya masalasi bo'yicha davlatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan tanishishingiz mumkin.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g'oya, mafkura, ijtimoiy jarayonlar, individual psixologik xususiyatlar, kognitiv sifatlar, shaxs yo'nalganligi.

НАЦИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС*Жабборов Хазрат Хусейнович,**Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
Доцент кафедры психологии, доктор философии в области психологии (PhD)*

Аннотация: В этой статье вы можете ознакомиться с новым, системным подходом к национальному образованию, изучением его психологических механизмов в гарантированном формировании базовых качеств у ребенка, полном раскрытии социально-педагогических возможностей семьи, дошкольного образования, общего среднего, средне-специального профессионального, высших учебных заведений, соседства в этом вопросе и повышение научной и методологической преемственности между ними.

Основные понятия: воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология, социальные процессы, индивидуально-психологические характеристики, когнитивные качества, ориентация личности.

NATIONAL EDUCATION AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROCESS*Jabborov Hazrat Xuseynovich,**Associate professor of the University of public safety of the Republic of Uzbekistan,
doctor of philosophy in Psychological Sciences*

Abstract: In this article, you can familiarize yourself with the new, systematic approach to national education, the study of its psychological mechanisms in the guaranteed formation of basic qualities in a child, the full emergence of socio-pedagogical capabilities of the family, preschool education, general secondary, secondary special vocational, higher educational institutions, neighborhoods in this issue, and raising scientific and methodological continuity between them.

Basic concepts: education, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology, social processes, individual psychological characteristics, cognitive qualities, personality orientation.

Mavzuning dolzarbligi. Har bir ishning ilmi bor, deydilar muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika. Ayniqsa go'dak tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo'lishi - millatimiz uchun

hayot-mamot masalasi. Zero bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo'lishi hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yil 14 fevral kuni maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida bolalarimizni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi, dedi.

Biz tarbiya haqida buyuk allomalarimiz aytgan yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savolga buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq boshlash lozim, deb javob bergan. Chunki bolaning ma'naviyatiga ham aynan shu paytdan asos solinadi.

Bugungi yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini uringanish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

O'zbek xalqi tarbiya an'analarida yaqinlik va masofaning muayyan nisbati belgilangan. Go'dakka kerakli bo'lgan darajadagi yaqinlik aksariyat bobolar va buvilar tomonidan ko'rsatilgan. Chunki bobo va buvilar bola bilan ko'proq muloqotda bo'lib, mehr-muhabbat bilan ularni tarbiyalaganlar.

Tarbiyaning ta'siri ostida bola uch yoshga kirganda o'zini tuta bilishni o'rganadi. Mavjud odatlarga ko'ra, farzand bu paytda butun oilaning e'tibor ob'ektiga aylanadi. Shuning uchun ham "bola uchga kirsa – butun oila gapirishni o'rganadi" [2], degan ibora mashhurdir.

Ko'p ijtimoiy psixologlar va jamoat arboblari ham go'daklik davridagi tarbiyaning shaxs shakllanishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatib o'tganlar. Aksariyat olimlarning xulosalariga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan go'dak o'zining rivojlanishida shuncha ko'p narsani egallaydiki, u yana shuncha bilimni o'n sakkiz yoshga qadar egallashi mumkin bo'ladi [3].

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Aniqlanishicha, inson xarakteri asosan go'daklik paytida shakllanadi va bu davrda unda qanday xarakter xislatlari shakllansa – uning ikkinchi tabiati sifatida mustahkam o'rnashadi. Keyingi o'zlashtiriladigan narsalar ular kabi chuqur o'rnashmaydi [4]. Demak, har ota-ona milliy tarbiya an'alarida go'daklikdagi tarbiyaga katta e'tibor qaratishlari zarur.

Go'dak va bolalarga xulq-atvor qoidalari bir xil tarzda o'rgatib borilgan. Garchi tarbiyadagi faollik darajalari bilan ajralib tursada, lekin oilaning barcha a'zolari tarbiyada ishtirok etgan.

Ota-ona bilan bo'ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari va keyin ichki sifatleri; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo'lgan munosabatlarni taqlid qiladilar va o'zlashtiradilar.

Amerikalik olim M.Midning fikricha, taqlid o'yin, o'qish va mehnat orqali shakllanadi. Bu jarayon boshqalar rolini qabul qilish, ularga o'xshashga intilishning ko'rinishidir [5].

Taqlid bolaning ye shiga, idrokiga bog'liq ravishda ongli ye ki ongsiz tarzda yuz berishi mumkin. Bola go'dak yoshida kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladi.

Fransuz olimi E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ildi, o'smir yoshiga yetganda esa taqlid qilish faqat tanlov asosidagina amalga oshib, ijtimoiy tajribani keng ma'noda egallay boshlashi, natijada bolaning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanadi. Demak, bola o'sgan sari, taqlid jarayoni mazmunan o'zgaradi va ongli xarakter kasb etadi[6].

Kanadalik psixolog A.Bandura taqlidni bola sotsializatsiyasi mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, kattalarga taqlid qilish asosida bolalarning axloq sohasidagi ijobiy fikrlari mustahkamlanishi yoki, aksincha, ularda tajovuzkorona xislatlar ham rivojlanishi mumkin [7].

Kattalar bilan bo'ladigan har kungi muloqot orqali bolalar dastlab, kattalarning xatti-harakatlari, odatlari, ichki sifatleri; fikrlash tarzlari, ijtimoiy burchini bajarishga va boshqa shu kabilarga bo'lgan munosabatlariga taqlid qiladilar va o'zlashtiradilar.

Avlodlar ota-onalar va tengqurlardan taqlid orqali muayyan ma'naviy-axloqiy stereotiplarni qabul qiladi. Har bir bola go'daklik chog'idayoq ixtiyorsiz ravishda o'zi dunyoga kelgan oila muhitidagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida o'z xalqining mentalitetini o'zlashtira boshlaydi. Bu bola ona tilini o'rganib alla, ertaklarni eshitganda, maishiy hayot sharoitga qo'shilganda yuz beradi[8].

Go'daklarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi ertak va dostonlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, bolalarni intizomga o'rgatish, uning yoshi bilan uzviy aloqador. Bu sohada har bir xalqning o'ziga xos usuli bo'lib, intizomga o'rgatish va ularga nisbatan qattiqqo'llik darajasi yosh bosqichlari bilan bog'liq. Tadqiqotchilar shu prinsipda jamiyatlarni to'rt tipga ajratadilar:

go'daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab kuchsiz;

go'daklikda ham va bolalikning keyingi davrida ham intizomga talab qattiq;

go'daklikda intizomga talab qattiq, keyingi davrda esa talab va nazoratning kuchsizlanishi;

go'daklikda bolani erkinroq qo'yilishi, ya'ni talabning kuchsizligi va keyingi davrda talabchanlik va qattiqqo'llikning kuchaytirilishi.

O'zbek xalqining bola tarbiyalash an'anasidagi usul to'rtinchi tipga tegishli bo'lgan. Ya'ni, go'daklik va ilk bolalik paytida (5-6 yosh) ular e'zozlanib, erkin qo'yilgan, 6-7 yoshdan bolaning tarbiyasiga bo'lgan talab kuchaytirib borilgan. Keyingi yillarda ota-onalarning bolaning yoshiga qarab intizomga o'rgatish bo'yicha qarashlari ularning dunyoqarashlariga bog'liq bo'lib bormoqda.

Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, o'zbek xalqi tarbiya usuli go'daklarni e'zozlash, kichik yoshlarida bolalarni erkin qo'yish, ularga qattiq intizom talabi qo'yilmasligi bilan ifodalangan. Tartib-intizomga bo'lgan talabning kuchayishi bolaning keyingi yosh bosqichlarida (5–6 yoshdan so'ng) amalga oshirilgan.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish/ko'rsatish/o'rgatish/namuna bo'lish kabi ta'sirsan usullarni isloh qilish va shu orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi.

Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lutolar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy tarbiyaga e'tiborsizlik illati bir qator qararlarda jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3-maydagi PQ- 4307-sonli, 2021 yil 26 martdagi PQ- 5040-sonli Qarorlari[1] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrda 1059-sonli qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilingani va mazkur holatni bartaraf qilish bo'yicha bir qator vazifalar belgilanganligi bizga ma'lum.

Shu o'rinda biz mazkur tadqiqotda yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini bugungi kundagi ahamiyati, milliy tarbiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, mazkur jarayonni bugungi ijtimoiy hayotimizdagi dolzarbligini yoritishga harakat qilamiz.

Antropologlarning ilmiy xulosalari, odamzodning tashqi ko'rinishi kechki paleolit - kromanonlar davri- bundan 40000 yildan buyon o'zgarmasdan kelmoqda. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyusiyasi tugallangan, degan xulosani berdi.

Odamdagi evolyusion rivojlanishning yakunlanishi undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo'lgan emotsional-instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv(sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go'daklikdan boshlab insoniylashuv, madaniylashuv tomonga o'zgartira boradi.

Har bir zamon va makondagi insoniyat avlodlari o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va ijtimoiy normalarni ishlab chiqish jarayonida o'z ajdodlarining milliy xarakter va milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchilik xususiyatini namoyon qilib boradi. Har bir avlodning ana shunday ijtimoiy reproduktiv burchlarini amalga oshirilishi ijtimoiy barhayotlikni va insoniyat taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai-nazardan har bir avlod vakillari tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi milliy tarbiyaning mahsulidir.

Mazkur masaladagi izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, barcha davrlarda milliy xarakter va milliy tarbiyani o'rganishda tadqiqotchilar turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlari e'tibor berilgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyoxlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar, jumladan, Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayxon Beruniy, Mikluxo

Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, H.Vamberi va boshqalar qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o'rganish yo'nalishi mavjudligi bizga ma'lum.

Professor M.Quronovning "Milliy tarbiya" nomli monografiyasida qayd qilinishicha XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "Boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

"Boshqa dunyo kishisi"ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U "Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?", "U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?", "U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?", "U o'z hatti harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?" kabi savollarga javob berish kerak edi. Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari bu muammoga qiziqish orta bordi. Ayniqsa, Yevropada bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllana borishi va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa mustamlakachilik davri milliy xususiyatlarni o'rganishga kuchli turtki bo'ldi. Chunki mustamlakachi, missioner, plantatorlar uchun o'z mustamlakalari - mahalliy xalqlar haqida hech bo'lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo'lish foydali edi. Qolaversa, bu masala mustamlakachilikning kelajagi - mahalliy xalqlarni "madaniy-oqartuv" orqali inglizlashtirish, fransuzlashtirish, ruslashtirish, ya'ni madaniy-ma'naviy mustamlakalarga aylantirishning samaradorlagini oshirishlari uchun kerak edi.

O'zga xalqlarning milliy xarakterini o'rganish faqat mo'may foyda orttirish maqsadi bilan cheklanib qolmadi. Chunki mustamlakachilar va mahalliy xalqlar milliy qadriyatlarini orasidagi tafovutni yechish ilmiy muammoga ham aylanib ulgurgan edi. Zero, ovrupolikning boshqa millatlar haqidagi tasavvurida noovrupoliklar shaxs emas, balki qandaydir aqlga zid afsonalar, mistika ta'sirida yashovchi individlar, deb idrok qilinardi (N.S.Trubeskoy, N.A.Berdyaev). Chunki Osiyoliklar va Afrikaliklar o'zlari uchun milliy, ovrupoliklar uchun g'alati, axloq-odob, urf-odat, an'analarga rioya qilar edilar. Ikkinchi tomondan mahalliy xalqlar uchun ovrupoliklarning hatti-harakatlari, odob-axloqi, urf-odatlarini g'alati ko'rinar edi. Shu tariqa XIX asrda madaniy antropologiya asosida "noyevrupa jamiyatida madaniyat va shaxs", "etnopsixologiya" ilmiy yo'nalishlarini yuqoridagi o'zaro milliy-madaniy tushunmovchiliklar, ziddiyatlarni yechish, bir-birini tushunish ehtiyojlarini yuzaga keltirdi. Natijada "fe'l-atvorning milliyliigi" ilk bor ijtimoiy-siyosiy, keyinchalik esa ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik ilmiy tushunchalarga aylana bordi.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip(odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig'indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip(o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi)ning shakllanishiga ham turtki bo'ldi. Zero M.Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan "Coming on' age Samoa" (Samoadi ulg'ayish) kitobi tarbiyaning milliyliigi isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi. Biz uchun ushbu tadqiqotning ijtimoiy-psixologik jihati muhim.

M.Mid har bir kishining ma'lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta'sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta'sirini qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe'l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib keluvchi an'analar, marosim, udum, ishlab-chikarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o'smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o'ziga xosligi katta rol o'ynashini M.Mid alohida qayd etadi.

Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omili - inson xarakterining milliyliigidir. Milliy xarakter konsepsiyasi amerika etnopsixologiya maktabida yaratilgan bo'lib, turli etnoslarda ularning o'zlarigagina xos milliy xarakter mavjud: shaxsning milliy xarakteri

ustivor psixologik hodisa bo'lib, bu uning milliy xulq-atvorida namoyon bo'ladi; ana shu ko'rsatkichlarga asoslanib, u yoki bu xalqqa, millatga mansub kishilar xarakterining modelini - o'rtacha milliy xarakter namunasini yaratish mumkin, degan xulosalarni asoslaydi.

Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo'lgan fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siyмосi mavjudligini birinchi bo'lib A.Kardiner qayd qiladi. U «milliy shaxs»ning shakllanishida eng avvalo oilaning milliy tarbiyaviy ta'sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining yetakchi rolini alohida qayd qildi.

AKSh etnopsixologlari ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya va g'arbiy Germaniya aholisining mentalitetini o'rganib, millat uning qadriyatlar tizimi, muloqat shakllari va boshqa ko'rsatkichlari milliy madaniyat ta'sirida shakllanishini asosladilar. Turli mintaqalarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarining umumlashirilishi: muayyan xalqqa xos dunyoqarash, turmush tarzining mavjudligi-xalqlarning turli «namunalari»ni xosil qiladi: turli «namunalar»ning mavjudligi esa bolalarni tarbiyalashda o'ziga xoslikning mavjudligiga, qadriyatlar tizimining kattalar xulq-atvorida aks etishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Biroq, o'tkazilgan etnografik va etnopsixologik tadqiqotlar bir xalqning milliy xarakterini o'rganayotgan olimning boshqa madaniyatga mansubligi, o'rganayotgan millat madaniyatidan yaxshi xabardor emasligi natijasida tadqiqot ma'lumotlarini talqin qilishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishini ko'rsatdi. 50-yillarda amerika etnopsixologiyasining milliy xarakter konsepsiyasiga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarining bosh sababi ham shunda edi. Bu tanqid milliy xarakter konsepsiyasiga xos ob'ektiv mohiyatni o'zgartirmadi, aksincha, tadqiqot uslubiyatini takomillashtirishga turtki bo'ldi, xolos.

Bizningcha har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog'i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlarga bir xil qimmatlidir.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga rahna solib turgan mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, erta turmush, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, yoshlar orasidagi jinoyatchilik va korrupsiya kabi ichki tahdidlar, terrorism, ekstremizm, separatizm, radikalizm, kosmopoltizm, giyohvanlik, odam savdosi va «ommaviy madaniyat» kabi tashqi tahdidlarni «milliy tarbiya fazilatlarini kuchaytirish orqali mustahkam mafkuraviy immunitet»ga erishmay turib bartaraf qilish qiyindir.

Etnopsixologlarning bergan xulosalariga ko'ra, milliy psixologiyani aynan o'sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlari orqali o'rganish mumkin. Bizningcha, milliy tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun ham aynan shu yo'ldan bormoq samaralidir. Zero milliy tarbiya (ichki) milliy va millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatiladi.

Shunday qilib, faqat shu millatgagina xos bo'lgan o'ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini ta'minlaydi. Shu o'rinda bugungi ijtimoiy psixologiyada har bir millat yoki har bir avlodni milliy tarbiya fazilatlariga odatlantirishda psixodiagnostik metodlar orqali uni monitoring qilib borish, yangi avlod vakillarida milliy tarbiya fazilatlarini singdirish ishlarida qo'l keladi degan umidamiz.

Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan,


ya'ni bugungi ijtimoiy psixologik tushunchalar bilan aytganda ijtimoiy norma, ijtimoiy qoida, ijtimoiy qonuniyat va ijtimoiy talablar asosida o'zi yashab turgan jamiyatida shakllanadi. Ana shu urf-odat, me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a'zosiga aylantiradi. Bu jarayonni boshqacha tarzda chaqaloqning yo fransuz, yo hind, yo o'zbek bolasiga, o'smirga aylanish jarayoni deb ham ifodalash mumkin. Chaqaloqning (milliy tarbiya ob'ekti sifatida) o'zbek sifatida shakllanishi o'zbeklar uchun an'anaviy bo'lganligi tufayli ko'zga tashlanmaydi, tadqiqotlar shuni qayd qilmoqdaki, shaxs madaniylasha (ukrainlasha, arablasha, o'zbeklasha...) borar ekan, bu milliylik jarayoni milliy-ijtimoiy rollar talablaridan kelib chiqib, jamiyatning uzluksiz nazorati ostida amalga oshadi. "Milliy-ijtimoiy rol" tushunchasi, zamonaviy ijtimoiy rollar sotsiologik konsepsiyasi va I.S.Konning (132) ijtimoiy rolga bergan ta'rifidan foydalangan holda milliy rolni muayyan milliy birlik ichida an'anaviy ma'qullangan, shu millatga mansub a'zolaridan ularning yoshi, jinsi va muayyan vaziyatdan kelib chiqib kutiladigan xulq-atvor namunasi» deb ta'riflash mumkin.

Metodika. Talabalarda harakatni amalga oshirishda holatga va harakatga yo'nalganligi. Tadqiqotimizda talabalar holatga yoki harakatga yo'naltirilganligini aniqlash uchun mazkur metodikadan foydalandik. Olingan natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

"Rejalashtirishda harakat nazorati shkalasi" metodikasi natijalari

Yo'nalish (fakultet) nomi	Holatga yo'nalganlik	Harakatga yo'nalganlik
Talabalar barcha tanlamasidagi natijalar (841 kishi)	33,7 %	66,3 %
Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi	40 %	60 %
Pedagogika	30 %	70 %
Mexanika-matematika	35 %	65 %
Jismoniy tarbiya	30 %	70 %



Tadqiqotimizda ishtirok etgan talabalar umumiy tanlanmasida rejalashtirishda


harakat nazorati shakli metodikasi bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, 34 % ga yaqin talabalarda holatga yo'nalganlik ustun bo'lib, qolgan 66 % talabalarda harakatga yo'nalganlik yetakchilik qiladi. Demak, talabalarining aksariyatida maqsadga erishish oldida uchrovchi to'siq va qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan, omadsizlik va noxushliklarga e'tiborsizlik, muddaoga erishish ustunlik qiladi. Talabalarining uchdan biridagina oxiriga yetkazilmagan va yakunlanmagan intilishlar, uchragan omadsizliklar to'g'risidagi takroriy xayol va fikrlar tufayli salbiy emotsional kechinmalar yetakchilik qilib, bu talabalaridagi qat'iyatsizlik, pessimizm, tashabbusizlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Bunday talabalar harakatni amalga oshirishga qaraganda o'tmish tajribasi haqidagi qayg'urishlari ko'proq vaqt egallaydi. Jismoniy tarbiya va pedagogika fakulteti talabalarida harakatga yo'nalganlik (70%) va holatga yo'nalganlik (30%) nisbati bir xil bo'lib, mazkur ta'lim yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalarining aksariyati sobitqadamligi, harakatni oxirigacha yakunlashga moyilligi bilan ajralib turadi. Talabalarining uchdan bir qismi esa asosan emotsional kechinmalarga yo'nalganligi bilan tavsiflanadi. Mexanika-matematika yo'nalishi talabalarining 35 % ida holatga yo'nalganlik, 65 % ida esa harakatga yo'nalganlik yetakchilik qiladi. Turli talabalar guruhi ichida ijodiy yo'nalish talabalarida rejalashtirishda holatga yo'nalganlikning (40%) eng yuqori ko'rsatkichi aniqlandi. Yuqoridagi natijalarni pedagogika va jismoniy tarbiya fakultetiga o'qishga kirishga shaylangan yoshlarning kasbi haqida aniq tasavvurlari bo'lganligi, shu tufayli kutilmalarining oqlanmasligi bilan bog'liq salbiy emotsional kechinmalar nisbatan quyi ko'rsatkichga egaligini ta'kidlash mumkin. Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi yo'nalishi va mexanika-matematika fakulteti talabalarining kasbiy ta'lim haqidagi noaniq tasavvurlari ularning kutilmalarini to'liq oqlamasligi ma'lum pessimistik kayfiyatlarga sabab bo'ladi.

Quyida 2-jadvalda talabalarining yosh xususiyatiga ko'ra rejalashtirishda holat va harakat nazorati yo'nalganligiga oid natijalar keltirilgan.

2-jadval

“Rejalashtirishda harakat nazorati shkalasi” metodikasi bo'yicha yosh xususiyatlari tahlili

Talabalar yoshidagi farqlar ($p=0,01$)	Holatga yo'nalganlik	Harakatga yo'nalganlik
19-20 yosh	35 %	65 %
21-22 yosh	20 %	80 %
23-24 yosh	11 %	89 %



Tadqiqotimizda olingan natijaga muvofiq shuni ta'kidlash mumkinki, talabalar ulg'ayib borgan sari holatga yo'nalganlik koeffitsienti quyilashib boradi. Agar boshlang'ich kurslarda bu ko'rsatkich 35 % ni tashkil etsa, oxirgi kurslarga borib bu koeffitsient uch barobar (11%) qisqaradi. Mazkur voqelikni hayotiy va oliy o'quv yurtida tajribasizligi tufayli emotsional holatlarini yaxshi boshqara olmaydigan talabalar vaqt o'tib ham hayotiy tajribaga, ham stressga bardoshlilik kabi sifatarni orttiradilar, natijada talabalarda harakatga yo'nalganlik (89%) ko'rsatkichi yuqorilashib boradi. Talabalar yoshi kattalashib borgan sari ularda ma'lum ta'lim va kasbiy muammolarni hal etishga taalluqli ko'nikma va malakalar ortib boradi, o'tmishdagi emotsional kechinmalarini qayta eslab, qayg'urganga qaraganda, ularni tahlil qilib, salbiy tusini neytrallashtirish, shuningdek, vaziyatni o'zgartirish, harakat qilish muhimroqligini anglab yetadilar. Demak, yuqoridagi tahlillarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, talabalarning rejalashtirishda harakat nazorat shakli vaqt o'tishi bilan o'zgarish ehtimoli yuqoriroq. Avval holatga yo'nalganlik kuzatilgan talabalar vaqt o'tib harakatga yo'nalgan tipga aylanishi mumkin.

“O'quvchining milliy roli” tushunchasi milliy tarbiyani tahlil qilish uchun sotsiologik kalit vazifasini o'taydi. Chunki bu tushunchaning ko'pqirraligi milliy-zamonaviy hayot jabhalarini, milliy tarbiya yo'nalishlarini ilg'ab olish imkonini beradi. Milliy tarbiya tizimini «milliy rol» tushunchasi orqali o'rganish har bir o'zbek o'g'il-qizining ilk yoshlaridan «yaxshi bola», «yaxshi aka, uka, singil, opa» yaxshi jiyan, tog'a, bo'la...»; «yaxshi mehmon, mezbon»; «yaxshi do'st», «odoblil bola» kabi «unvonli» munosabatga tayyorlash mexanizmini ochib beradi. Keng ma'noda esa o'quvchining milliy rolini o'zlashtirishga o'z ichiga milliy fazilatlarini, milliy axloq me'yorlarini singdirish, milliy-ijtimoiy hayotga tayyorgarlik jarayonlarini ham anglatadi[9].

Milliy ijtimoiy rollarni tasniflash, ularning kundalik hayotda, munosabatlarda bajarilishini ilmiy-pedagogik kuzatish - eng zamonaviy va istiqbolli usuldir. U bolaning «qarshisida» turib emas, balki milliy-ilmiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotning ob'ektiv natijalariga ega bo'lishining asosiy shartlaridan biridir.

Zamonaviy fanlar ijtimoiy rollarning quyidagi tasnifiga ega: tug'ma, mavqeli ijtimoiy rollar - sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari odam tug'ilgandanoq yoki hayotning u yoki bu bosqichida kirishadigan «meros qilib olinuvchi» rolli(jinsiy, diniy, milliy, davlat fuqarosi, go'daklik, o'smirlik, yigitlik, muysafidlik); o'zgaruvchan, ijtimoiy rollar - doimiy bo'lmagan, o'zgarishi mumkin bo'lgan rollardir. Masalan, u yoki bu kasbni egallash biror uyushmaga, jamiyatga a'zo bo'lish va undan chiqish, o'zgartirish, xatto fuqarolikni o'zgartirish mumkin. Biroq tug'ma milliy rollar (o'zbeklik, fransuzlik va h.k.)dan chiqib bo'lmaydi. Muayyan vaziyatdagi ijtimoiy rollar-yo'lovchilik, xaridorlik, mehmonlik, mezbonlik va h.k. Bu guruh rollari o'egaruvchan rollar bilan kamroq, tug'ma rollar bilan ko'proq aloqada bo'ladi. Muayyan vaziyatdagi rollar maxsus va shaxsiy ahamiyatga egaligi tufayli kishini yo'llovchi, xaridor, mexmon, mezbonga «aylantirsa», shaxsiy fazilatlarini mohiyatidan kelib chiqib shaxsni «do'st», «dushman». «mehribon kishi», taqvodor kishi», «fidoyi odam» va boshqalarga aylantiradi. Demak, shaxs tashqi muhit (tabiat, jamiyat, shaxslar) bilan munosabatga kirishganida milliy xususiyat (o'ziga xos bo'lgan «ukraincha», «xakascha», «gruzincha» yondashuv) kasb etadi. Bu fikr ilk bor nemis sotsiologi U.Gerxard tomonidan tug'ma ijtimoiy rol sifatida taklif qilingan, keyinchalik Yu.A.Sorokin, Ye.A.Tarasov, N.V.Ufimsevalar tomonidan ijtimoiy fanlar istifodasiga kiritishga harakat qilingan edi. Lekin nazariy jihatdan asoslanganligiga qaramasdan milliy rolning tug'ma meros, vorislik xususiyatini o'rganish, rivojlantirish sotsialistik internatsionalizm tamoyillariga mos kelmasligi tufayli rivojlantirilmadi.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir!. «Millat», «milliylik», «milliy g'urur», «milliy odob», «millatlararo muloqat madaniyati» tushunchalarining o'zagini arabcha «mil» so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada «o'zak», «tub mohiyat»,

«negiz» ma'nolarini anglatadi. «Millat» so'zi esa bir necha ma'noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq ma'nolarini anglatadi. «Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zbeklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovrupo xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa Islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib singdi.

«Tarbiya» so'zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta'rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so'zlari 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish: ko'z-quloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'pqirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» so'zi esa shu ko'pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini «yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin.

Ijtimoiylashuv va milliy tarbiya ta'sirlari orasidagi uygunlik yoki ziddiyat milliy-ma'naviy taraqqiyotga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tiborga bog'liqdir. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat o'zbek davlatchiligi, an'analari va milliy, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilishga, inson qadrini eng oliy darajaga chiqarishga asoslanadi; iqtisodiyot milliy xususiyatga ega; O'zbekiston xalqining umumiy davlat manfaatlarini ifodalovchi milliy bosh milliy g'oyasi mavjud: xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tili - Davlat tilidir va h.k.

«Milliy tarbiya, milliylashuv esa rivojlanayotgan bola shaxsiga ilk yoshlardan oq bevosita ta'sir qilish orqali samaradorlik, tabiiylik, ustivorlik kasb etadi. Dastlab birinchi, keyinchalik ikkinchi signallar sistemasi mazmunini belgilovchi milliy muhit, milliy ruh, oila, mahalla, qishloq muhiti shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi nazariy manbalarga asoslanib ko'tarilgan masala yuzasidan, quyidagi nazariy xulosalarni ilgari surish mumkin, jumladan,

- milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya - ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir: shaxsning milliyliги va zamonaviyligi - uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir;

- har bir milliy madaniyat - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko'rinishidir. Chunki insoniyat - bu xalqlar, millatlardir. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya - har bir insonni o'z milliy madaniyati manbaida, ya'ni muayyan umuminsoniy qadriyat asosida shakllantirishdir;

- har bir inson o'z Hayoti davomida turli ijtimoiy rollarni o'taydi. Bu rollar mazmuni, ko'lami, namoyon bo'lish jabhalari ilk yoshlardan boshlab ko'payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. Ana shunday tug'ma va ilk o'zlashtiriluvchi ijtimoiy rollardan biri - shaxsning milliy rolidir;

- xalqlar, millatlar mavjud ekan, milliy tarbiya jarayoni bizning xoxishimizdan tashqari ravishda, madaniy determinizm asosida davom etaveradi. Shuning uchun bu jarayonni davlatning manfaatlariga mos ravishda maqsadga yo'naltirilsa, milliy tarbiya ulkan yaratuvchan taraqqiyatparvar ma'naviy kuchga aylanadi;

- har bir zamonda shakllanayotgan avlod bilan oldingi avlod vakllari orasidagi milliy fazilatlar, milliy qadriyatlar, milliy xarakter xususiyatlaridagi o'zgarish va tendensiyalarni kuzatib borish, ular orasidagi bog'liqliklarni psxodiagnostik metodlar orqali doimiy ravishda tekshirib, ahamiyatga molik jihatlarni monitoringini olib borish maqsadga muvofiq;

- oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi

uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi;

- farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilishimiz va qo'lga kiritilgan tahliliy malumotlar asosida maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqib uni amaliyotga tabiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son va 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarorlari.

2. Тоштемуров У. Современная семья и тенденции ее развития. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 71.

4. Измайлов А.Э. Народная педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика, 1991. – С. 144.

5. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. литературы, 1988. – С. 179.

6. Дюркгейм Э. Ценностные реальные суждения // Социологические исследования. – М.: издво "Рефл-бут", 1991, № 2. – С. 109–110.

7. Bandura A., Walters R. H. Social learning and personality development. – N.Y., 1963. – P. 329.

8. Маматов М. Миллий психологик қиёфа ва унинг хусусиятлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980. – Б. 36.

9. Жабборов Хазрат Хусенович. "Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINING RIVOJLANISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O'RNI

*Olimov Laziz Yarashovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentligi va emotsional intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, sotsial-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ekspert shaxsi, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

*Олимов Лазиз Ярашович,
доцент Бухарского государственного университета*

Аннотация: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

THE ROLE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF A FORENSIC PSYCHOLOGIST-EXPERT

*Olimov Laziz Yarashovich,
Associate Professor, Bukhara State University*

Abstract: This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

KIRISH

Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Butun dunyoda o'ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida sud psixolog ekspertlari faoliyatiga qo'yiladigan talablar ularning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini psixologik jihatdan takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga zarurat borligidan dalolat beradi.

Dunyo miqyosida sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, sotsial psixologik kompetentlikni rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sotsial-psixologik kompetentlik va emotsional intellekti ko'rsatkichlarini baholash sotsial-psixologik kompetentlikni takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixolog ekspertlarining psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash, sud psixolog ekspertlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda sud psixologik ekspertizasi ekspertlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixologik ekspertizasi ekspertlari psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy fazilatlarini ro'yobga chiqarish, psixokorreksion usullar orqali faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi sotsial-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu izlanish natijasi muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Sotsial-psixologik kompetentlik bilan bog'liq manbalarni tadqiq qilganimizda unga aloqador bo'lgan tahlillar tadqiqotimizda sud psixolog ekspertining sotsial-psixologik kompetentligi ularning kasbiy kamoloti jarayoniga bog'liqligini yana bir jabhadan yoritishga undadi. Bu esa sotsial-psixologik kompetentlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanmish emotsional intellektning sud psixolog eksperti faoliyatida o'zaro aloqadorlikda rivojlanish jarayonini alohida tadqiq qilishni talab qiladi.

Zamonaviy psixologiyada «emotsional intellekt» tushunchasi keng qo'llanilib, ushbu tushunchani fanga P. Selov va Dj. Meyerlar olib kirdilar.

Mualliflarning fikricha, emotsional intellekt – emotsiyani ifoda etish va baholash qobiliyati; emotsiyani tushunish va emotsional bilimlarga egalik; qolaversa, shaxsning emotsional va intellektual kamolotini o'zaro birlashtiruvchi emotsional boshqaruv qobiliyati hisoblanadi. "Emotsional intellekt" terminini fanga kiritilishi bilan emotsional va bilish jarayonlarining nisbati nuqtai nazaridan tadrijiy o'zgarish yuz berdi.

Emotsiyalarni tadqiq qilish ko'pincha intellekt tadqiqotlaridan alohida tarzda amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, affektiv va kognitiv (bilish) jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarni tizimli tahlil qilishning dastlabki urinishlari amalga

oshirilmoqda. Nemis psixologi va faylasufi G.Mayerning “Psychologie des emotionalen Denkens”(1908) nomli kitobida tafakkur turlarining mukammal tasnifi keltirib o‘tilgan. G.Mayer “hukm qiluvchi” tafakkur turi bilan birga emotsional tafakkurni ajratib ko‘rsatadi, unda amaliy ehtiyojlar – iroda va his-tuyg‘u birinchi o‘rinda turadi. Bu tafakkur turlarini bir-biriga taqqoslagan G.Mayer ular o‘rtasidagi bir qancha umumiyliklarni, xususan: o‘xshash mantiqiy jarayonlar kuzatish mumkinligini ta’kidlaydi (sharhlash, ob’ektivlashtirish, kategorial apparat faoliyati). Shunga qaramasdan, emotsional tafakkur harakatlarida mantiqiy tafakkurdan farqli tendensiya mavjud bo‘lib: unda bilish jarayoni “ko‘lankali, orqa fonga surilgan, diqqat markazi amaliy maqsadga qaratilgan bo‘lib, unda bilish shunchaki qo‘shimcha vosita sanaladi”.

G.Mayer emotsional tafakkurni affektiv (estetik va diniy) va irodaviy turlarga ajratadi. Estetik tafakkur deyilganda, “yoqadi - yoqmaydi” ko‘rinishidagi mulohazasini o‘z ichiga oladigan estetik kechinmalar tushuniladi. Diniy tafakkurda esa fantaziyaning emotsional tasavvurlari, e’tiqod fikrlari (irratsional, affektiv hamda irodaviy istak bilan yuzaga keladigan “Olloh mavjud” mulohazasi namuna bo‘ladi) ga kiritiladi. G.Mayerning tadqiqotlari go‘yoki tafakkurda bilishga bo‘lgan qiziqish ikkinchi darajali hisoblanishi haqidagi “intellektual xurofotlar”ni tarqatadi va “emotsional tafakkur” insonning aqliy faoliyatida ahamiyatli rol o‘ynashini ta’kidlab o‘tadi.

1970-1980 yillarning oxirlariga kelib emotsiya va tafakkurning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga doir qiziqish ortib bordi. Bu davrda emotsional va kognitiv jarayonlarning o‘zaro samarali ta’siri haqidagi qarashlar ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z isbotini topdi. Masalan: tafakkur realligiga depressiyaning ta’sirini o‘rganish inson kayfiyatining o‘zgaruvchanligi va kreativlikka moyillikning o‘zaro bog‘liqligi shuningdek, emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish imkoniyatlarini o‘rganish, kayfiyat va fikr-mulohazani birlashtiruvchi “kognitiv halqa” mavjudligi haqidagi gipoteza ilgari surilgan edi. Bunday qarashning mohiyati shundaki, salbiy his-tuyg‘ular negativ fikrlarga olib keladi va o‘z navbatida emotsional kechinmalarning tezligini kuchaytirib yuboradi. Qolaversa, ijobiy emotsiyalar pozitiv fikrlarni faollashtiradi. R.Lazarusning kognitiv konsepsiyasida emotsiyalarning bilish determinatsiyasi haqidagi g‘oya markaziy hisoblanadi.

Kognitiv bivosita ifodalanish emotsiyalarning paydo bo‘lishidagi zarur sharti sifatida baholanadi. R.Lazarusning konsepsiyasida asosan ikki ta holat muhim hisoblanadi:

1) mohiyatidan qat’i nazar har bir emotsional reaksiya o‘ziga xos turdagi kognitiv yoki baho funksiyasi;

2) emotsional javob reaksiyasi qandaydir sindromni o‘zida ifodalaydi, uning har bir alohida qismi umumiy reaksiyadagi qandaydir muhim lahzani o‘zida aks ettiradi.

Intellektning ko‘plab turdagi kategoryalarining imkoniyatini aniqlagan X.Gardner 1983 yilda “intropsixik qobiliyatlar” (introspeksiya – o‘zini-o‘zi kuzatish qobiliyati) va “shaxsiy qobiliyatlar” deb ataluvchi turli intellektual qobiliyatlar mavjud bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikr bildirdi. Gardner dastlab intellektning yetti turini ajratib ko‘rsatadi: vizual-makonli, verbal-lingvistik, mantiqiy-matematik, tana-harakatli, musiqali-ritmik, shaxslararo va ichki shaxsiy; 1998 yilda tabiiy va mavjudlik turlari qo‘shildi.

Har bir intellektual qobiliyat hayot faoliyatining muayyan sohasida muvaffaqiyatga erishishda muhim hisoblanadi. Intellektning har bir komponenti qimmatli muayyan intellektual qobiliyatlarining rivojlanishiga rag‘batlantiruvchi va rag‘batlantirmaydigan umumiy mezonlar orqali aniqlanadi.

Gardner har bir yangi aniqlanadigan intellekt turi (shakl)ga mos keladigan mezonlarni taklif qildi. Avvalo, har bir intellekt shakli o‘zining belgilar tizimiga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, u o‘zining asosiy operatsiyalari yoki funksiyalari

tizimiga tayangan holda dalillarni olish kerak. Gardnerning modeli yanada integrallashgan, shu bilan birga, intellekt tabiati va paydo bo'lish shakllariga bo'lgan farqli qarashni amalga oshirishga imkon berdi. E.Doll, D.Veksler va R.Liperlar tomonidan boshlangan tadqiqotni R.Sternberg davom ettirdi. Natijada "real hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarga moslashish, o'zgartirish yoki tuzatish qobiliyati" sifatida belgilangan "amaliy intellekt" konsepsiyasi paydo bo'ldi.

R.Sternbergning nazariyasida intellekt shaxsning atrof-muhitga moslashishiga xizmat qiluvchi informasion tizim sifatida qaraladi. Triarxik nazariyaning asosiy mazmuni quyidagicha: "Intellektni aqliy o'z-o'zini boshqarish, butun hayotni konstruktiv maqsadga yo'naltirilgan usul yordamida aqliy boshqarish sifatida belgilash mumkin". Aqliy o'z-o'zini boshqarish uch asosiy elementni o'z ichiga oladi: atrof-muhitga moslashish, yangi atrof-muhit ta'sirini tanlash yoki shaxs bilan mosmuhitni tanlash va atrof-muhitni shakllantirish.

Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kamolotida sotsial-psixologik kompetentlikni rivojlanishida emotsional intellekt orasidagi uyg'unlikni baholashda N. Xoll tomonidan yaratilgan "Emotsional intellektni o'rganish" metodikasini tanladik.. Test natijalarining dastlab umumiy natijalari xususida to'xtalsak, so'ngra uning sotsial intellekt bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishga harakat qilamiz. A.Adler emotsional intellekt haqida to'xtalar ekan, shaxsning muomalaga qobiliyatini IQ emas, balki uning emotsional ekvalenti emotsioanal intellekt(YeQ) eng muhim ko'rsatkichi sifatida belgilaydi, degan edi.

NATIJALAR. Bugungi kunda emotsional intellektni xarakterlovchi beshta asosiy elementini keltirib o'tamiz:

- o'z emotsiyasini bilish;
- o'z emotsiyasini boshqarish;
- shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish;
- boshqa insonlarning emotsiyasini aniqlash;
- o'zaro munosabatlar bilan boshqarish.

Endi asosiy natijalar sharhiga murojaat etaylik. Agar emotsional intellektning tabiatiga e'tibor qaratilsa, unda sotsial-psixologik kompetentlikni to'ldiradigan tomoni borligining guvohi bo'lamiz.

Sud psixolog ekspertlarining emotsional intellektini tatbiq etilgan usulning beshta shkalasiga asoslanib amalga oshiramiz.

Sud psixolog ekspertlari emotsional intellektning umumiy ko'rsatkichlari N=102

	Shkalalar	M	S
Emotsional intellektni o'rganish testi	Emotsional bilimdonlik	13,73	2,748
	O'z emotsiyasini boshqarish	12,02	1,41
	O'z-o'zini rag'batlantirish	12,29	1,86
	Empatiya	13,09	2,19
	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish	12,11	2,21

Sud psixolog ekspertlarining emotsional intellektning umumiy natijalari uchta shkalasi bo'yicha yuqori va ikkita shkalasi bo'yicha o'rta natijani qayd etmoqda. Ulardagi emotsional bilimdonlik (13,73 ball) yuqori darajadan o'rin egallaganligi shaxs kechinmalarining chegaralari, shaxslararo munosabatlardagi his-tuyg'ularni anglash, emotsional intellektning ikki tomoni, ya'ni o'zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida kreativ impulslar va intuisiyalarni ta'minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, inson emotsiyasining vazifalari haqidagi tushunchalarga, faoliyat jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, stressli holat, depressiya va ularni yengib o'tish yo'llarini qidirish haqidagi psixologik va hayotiy tajribadan xabardor ekanligini ko'rsatmoqda. Aynan emotsional sovaixonlik YeQning muhim jihati sifatida shaxs xususiyatlari va

individuelligiga singib boradi. O‘ylaymizki, Sud psixolog ekspertlarining emotsional savodxonligining bu darajasi sudga oid psixologik ekspertizai jarayonida vujudga keladigan psixologik buzilishlar, emotsional zo‘riqishlar, Sud psixolog ekspertlarining o‘zaro munosabatlarini hissiy tushunishiga nazariy jihatdan yetarlicha tayyorligini anglatadi.

YeQ ning ikkinchi ko‘rsatkichi “o‘z emotsiyasini boshqarish”. Bu shkala bo‘yicha Sud psixolog ekspertlari o‘rtacha qiymatni namoyon etgan bo‘lib, unda Sud psixolog ekspertlarining emotsiya to‘g‘risidagi nazariy bilimlarini amaliyotda joriy etishda bir oz ortda qolayotganliklar, qiyin vaziyatlarga duch kelganda emotsional zo‘riqishlarga berilishi, atrofdagilarni tushunishda asabiylashishlari mumkinligidan dalolat bermoqda (12,02 ball). Bu holatni ushbu kasbining mashaqqali mehnati oqibatidir deb baholashimiz mumkin.

Emotsional intellektning yana bir muhim funksiyasi bu shaxsning psixik ko‘tarinkiligini quvvatlash, unda o‘ziga ishonch tuyg‘usi va rag‘batni ta‘minlashdan iboratdir. Sud psixolog ekspertlarining mazkur yo‘nalishdagi emotsional jihatlarni “o‘z-o‘zini rag‘batlantirish” shkalasi qiymatlari bilan izohlashga to‘g‘ri keladi. “O‘z-o‘zini rag‘batlantirish” shkalasidagi ko‘rsatkichlar o‘rtacha daraja bilan cheklangan (12,29 ball). Sud psixolog ekspert emotsional intellektining ushbu shkalasida ham sud psixolog ekspertlar bo‘yicha ular emotsiyasining muhim funksilari va imkoniyatidan foydalanish yo‘l va usullarini ko‘rsatish lozim bo‘lar ekan. Tahlil etilayotgan natijalar umumiy bo‘lganligi bois sud psixolog ekspertlarining vazifalari bo‘yicha sotsial psixologik kompetentlik bilan bog‘liq holati tahlil etilayotganda yangi ma‘lumotlar bilan taqdim etish imkoniyati tug‘ilar. Agar “o‘z-o‘zini rag‘batlantirish” shkalasi natijalariga ko‘ra, sud psixolog ekspertlarining emotsional imkoniyatini o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, tushkunliklar, ruhiy zuriqishlar va kezi kelganda yutuqlarga erishganda hamundan yetarlicha qoniqish olishning psixologik usullarini bilishi kerak.

Ammo, keyingi “empatiya” shkalasi qiymatlari ancha ijobiydir (13, 09 ball). Empatiya sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatini ta‘minlashning muhim shartidir. Sud psixolog ekspertlarining hamkasblarini va atrofdagilarni tushunishida empatiya muhimdir. Amaliyotda empatiyaning yetishmasligi turli darajadagi nizolarga va o‘zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatdan Sud psixolog ekspertlari anchagina yiroq deya olamiz.

“O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish” shkalasi natijalari ham aynan empatiyaniki singari yuqori qiymatlidir (12,11 ball). Sud psixolog ekspertarining kasbiy kamolotiga ko‘ra shaxslararo munosabatlarda o‘zaro tushunish, o‘zga insonlarni kechinmalarini his etish, ularga o‘z munosabatini bildira olishi, verbal va noverbal xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni baholashga qobiliyatliklari emotsional intellekt natijalarida o‘z aksini topmoqda.. Natijalarda umumiy qiymatlarni yoritgan singari o‘rtacha qiymat nuqtai nazardan emas, balki intellektlar orasidagi ichki munosabatni korrelyatsion tahliliga tayanildi.

XULOSA. Tadqiqotimiz davomida sud psixolog ekspertlari sotsial-psixologik kompetentligi omillarini har biri o‘ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi qayd etildi va bu uslub, o‘z navbatida, ijtimoiy psixologiya fanidagi sotsial-psixologik kompetentlik samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlanishida emotsional intellektning o‘rni beqiyos. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan talablarning o‘sib borganligi hamda ijtimoiy tajribalarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentlik omillari ko‘rsatkichlarining oshishi bevosita ularning kasbiy faoliyatida tajribaning oshishi bilan bir qatorda ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni shakllanishi bilan ham bog‘liq.

Sud psixolog ekspertlari kamolotida sotsial-psixologik kompetentlikning roli

faoliyat davomiyligining oshishi bilan bir qatorda shaxs ijtimoiylashuviga ham bog'liqdir.

Umuman, sud psixolog ekspertlari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi sotsial-psixologik kompetentlikni ko'rsatkichlariga baho berishda, ularning adekvat muloqotmandligi, adekvat emotsional munosabati kabi omillarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

8. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

9. Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.

10. Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 ст.

11. Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 23, 2021 г. С 237-241.

12. Олимов Л.Я., Жумаев Н.З. Педагогическое общение педагога со студентами. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2017 год, Выпуск 15. 198-203 ст.

13. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика Управленческих Способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.

14. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. -С. 125-127.

15. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулк-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya. Учредители: Бухарский государственный университет, 31-38.

16. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулк-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 йил, 4 сон 109-115 б.

17. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик химоя механизмлارينинг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 йил, 4 сон 103-112 б.

18. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулк-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 йил, 3 сон 98-106 б.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ НА ИННОВАЦИОННУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

*Назаров Акмал Мардонович,
Бухоро давлат университети, Психология кафедраси доценти, психология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
<https://orcid.org/0000-0001-5570-6519>*

Аннотация. В статье рассмотрены представление о методах формирования отношения к инновационной деятельности у студентов через формирование черт психологической устойчивости. Это связано с развитием инновационного потенциала личности студента, профессиональных навыков, знаний, профессионально важных качеств, отношения к образовательной деятельности путем улучшения психологического состояния студентов, обучающихся в системе высшего образования, и их внедрением и оптимизацией системы формирования подготовки к инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационная активность, толерантность к неопределённости, рефлексия деятельности, инновативность, психологическая устойчивость, личность, образовательная система, эмоционально-эмоциональные качества, когнитивные процессы, рефлексия, обожание, позитивное, негативное.

ТАЛАБАЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Назаров Акмаль Мардонович,
Бухарский государственный университет, Доцент кафедры психологии,
доктор философии в области психологии (PhD)*

Аннотация. Мақолада талабалардаги психологик барқарорлик хусусиятларини шакллантириш орқали уларда инновацион фаолиятга бўлган муносабатни ривожлантириш усуллари ҳақида фикр боради. Бундан Олий таълим тизимида таҳсил олаётган талабаларни психологик ҳолатини яхшилаш ҳамда уларни инновацион фаолиятга тайёргарликни шакллантириш тизимини жорий этиш ва оптималлаштириш орқали талаба шахсининг инновацион салоҳиятини, касбий маҳоратини, билимини, касбий муҳим фазилатларини, ўқув фаолиятга муносабатларини ривожлантиришдан ҳақида сўз боради.

har bir xizmat jamoasida yiliga ikki marotaba (olti oyda bir marotaba) xodimlarning ma'naviy-ruhiy barqarorligi va ular o'rtasidagi munosabatlar o'rganilib, tekshiruv natijalariga ko'ra, muhit nosog'lom deb topilgan jamoalardagi salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli shora-tadbirlar belgilab chiqiladi.

Mutaxassis-psixologlar tomonidan xodimlar bilan amalga oshirilgan (psixologik suhbat, psixologik maslaxat, qurol bilan xizmat olib boradigan xodimlar bilan suhbat) bo'yisha har bir xodimga mazkur suhbat varaqasi yuritiladi.

Xotin-qizlar masalalari bo'yisha inspektorlar bilan hamkorlikda "xodim psixolog huzuriga emas — psixolog xodim huzurga" tamoyili asosida:

mutaxassis-psixologlar tomonidan xodimlarning oilasida aniqlangan muammolar; "xodimbay" ishlash tizimi asosida aniqlangan oilaviy kelishmovshiliklar; oilasidagi muhit nosog'lom va oilaviy janjalkashligi bo'yisha xavf gypuhiga kiritilgan har bir xodim hamda uning oila a'zolari bilan alohida "xodimbay" ishlash tizimi joriy etiladi.

"Xodimbay" ishlash tizimi asosida har bir xodimning yashash sharoiti, shuningdek, turmush o'rtog'i va farzandlari bilan psixologik suhbatlar o'tkazilib, ularning psixologik holati hamda oiladagi ruhiy muhit, shu bilan birga, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi.

Xodim oila a'zolarining har biri bilan alohida yakka tartibdagi psixologik suhbat o'tkaziladi.

Xodimning har bir oila a'zosining individual-psixologik xususiyatlari inobatga olinib, ular bilan amaliy profilaktik ishlar (psixologik maslahat hamda trening mashg'ulotlari) olib boriladi.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot yuritiladi.

Mutaxassis-psixologlar "xaftalik ish yuklama"ga asosan xizmat olib boradi.

har chorak yakuni bo'yisha Vazirlik tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlarining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati bo'limlari boshliqlari huzurida mutaxassis-psixologlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamshiliklar muhokama qilib boriladi.

Mutaxassis-psixologlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha oylik hamda choraklik hisobotlar yuritiladi.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlar har oyning 28-sanasiga qadar Ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmatiga taqdim etiladi.

Har chorak so'nggi oyining 28-sanasiga qadar esa, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot, ma'lumotnoma (o'tkazilgan tadbirlarining fotosuratlari bilan) hamda yig'ilish bayonnomasi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentiga takdim etiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentiga hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki xato to'ldirib yuborgan mutaxassis-psixologlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llash bo'yisha Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'iga taklif kiritiladi.

Xodimlarga sifatli psixologik xizmat ko'rsatish, ularning ruhiy holatini doimiy ravishda nazorat va monitoringini olib borish, salbiy o'zgarishlari o'z vaqtida aniqlash va korreksiya qilib borish maqsadida mutaxassis-psixologlar tomonidan har bir xodimga alohida "Psixologik yig'majild" yuritiladi.

"Psixologik yig'majild"ni yuritish tartibi

“Psixologik yig‘majild” mutaxassis-psixologlar tomonidan har bir xodimga alohida ishki ishlar organlari xizmatiga yoki vazirlik oliy ta‘lim muassasasiga qabul qilingan kundan boshlab, xizmatdan bo‘shatilgunga qadar yuritiladi.

Psixologik yig‘majildlar birinshi navbatda “Istiqbolli va Rahbar kadrlar zahirasi”ga hamda “xavf guruhi”ga kiritilgan xodimlarga nisbatan yuritiladi.

Yig‘majildda quyidagi hujjatlar bo‘lishi shart:

xodimning o‘zi va oila-a‘zolari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma (ob‘ektivka); xodimning psixologik test natijalari;

xodim bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari (suhbat varaqalari);

xodim ishtirok etgan trening, davra suhbatlari va boshqa psixologik tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumotnomalar (fotosuratlar bilan);

xodimning o‘zi hamda oila-a‘zolari ishtirokida o‘tkazilgan suhbatlar qayd etilgan suhbat varaqasi yoki dalolatnoma (fotosuratlar bilan);

xodimning psixologik tavsifnomasi; xodimning psixologik portreti;

Psixologik portretlar quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ishiga qamrab oladi:

ijtimoiy-demografik belgilar (jinsi, yoshi, ma‘lumoti, faoliyatining turi),

individual-psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat, yo‘nalganlik, intellekt, motivatsiya, qiziqishlar doirasi),

hissiy-irodaviy sifatleri (hissiy holati, irodaviy fazilatleri, o‘zini o‘zi baholash va nazorat qilish darajasi);

shaxslararo munosabatlari (muloqotga kirishuvshanlik, jamoada ishlay olish, hamkorlik qila olish qobiliyatlari).

Shuningdek, suhbat, kuzatuv va psixodiagnostik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra psixologik portret yaratiladi.

Bundan tashqari, mutaxassis-psixolog tomonidan qo‘shimcha tarzda boshqa metodikalardan ham foydalanishi mumkin.

Psixologik portret yaratish davomida mutaxassis-psixolog o‘z vakolati doirasida faoliyat olib borishi, muomala madaniyatiga rioya etishi, shaxsning qadr-qimmatini va sha‘niga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi shart.

Mutaxassis-psixologlar tomonidan xodimning shaxsi va xulqi-atvoridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uning psixologik portretiga muntazam ravishda ma‘lumotlar kiritib boriladi.

Xodim boshqa lavozimga tayinlanganida uning “Psixologik yig‘majildi” boshliqning imzosi bilan xodim tayinlangan organga yuboriladi.

Xodim qo‘riqlash xizmatidan boshlaganidan uning psixologik yig‘majildi Kadrlar bilan ta‘minlash bo‘linmalariga shaxsiy yig‘majildiga birlashtirish ushuni beriladi.

Poligrafdan foydalangan holda maxsus psixofiziologik tekshiruv o‘tkazish tartibi

Qo‘riqlash xizmati faoliyatida maxsus psixofiziologik tekshiruv (keyingi o‘rinlarda - MPFT) o‘tkazish bo‘yicha mutaxassis (keyingi o‘rinlarda — poligrafolog) xalqaro standartlarga muvofiq sertifikat (diplom, guvohnoma)ga ega, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan psixolog bo‘lishi kerak.

qo‘riqlash xizmatida o‘rganiluvshi tomonidan berilgan ma‘lumotlarning ishonshililigini baholash hamda xavf omillarini aniqlash maqsadida MPFT o‘tkaziladi.

Xavf omiliga quyidagilar kiradi:

xizmatga kirish ushuni salbiy sabablar mavjudligi;

alkogol, narkotik moddalar, totalizator va qimor o‘yinlariga moyillik;

qo‘riqlash xizmatiga kirish uchun to‘sqinlik qiluvshi tibbiy xarakterdagi ma‘lumotlar;

qo‘riqlash xizmatiga kirish jarayonida anketa ma‘lumotlari qasddan noto‘g‘ri ko‘rsatish hamda ma‘lumotlarni yashirish;

jinoiy o‘tmishi, jinoiy uyushmalar bilan aloqalarning mavjudligi;

diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlar hamda g‘ayriqonuniy tashkilotlarga aloqadorligi;

xizmat mavqeini suiste‘mol qilish.

qo'llaniladigan asosiy tushunshalar:

poligraf — har xil turdagi stimullar (savollar, fotosuratlar va hokazolar) ketma-ketlikda taqdim etilganda odam organizmidagi fiziologik ko'rsatkishlar (parametrlar) ni qayd etishga mo'ljallangan psixofiziologik qurilma;

poligrafolog — tekshiruv davomida zarur bo'lgan hujjatlarni yig'ish, tekshiruvni o'tkazish, tekshiruvdan keyin xulosa berish imkoniga ega mas'ul shaxs;

o'rganiluvchi — o'ziga nisbatan MPFT o'tkazilishga ixtiyoriy yozma rozilik bergan, muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs;

MPFT tashabbuskori — Vazirlik tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalari, ta'lim muassasalari boshliqlari hamda ularning o'rinbosarlari;

MPFTdan bosh tortish — o'rganiluvshining tilxat asosida tekshiruvdan o'tmaslik haqidagi munosabati;

MPFT materiallari — so'rov davomida berilgan savollar natijasi hamda unda qayd etilgan o'rganiluvshining fiziologik reaksiyalari, shuningdek, tekshiruvdan oldin o'tkazilgan suhbatlarda, poligrafda tekshirish va (yoki) testdan keyingi suhbat shog'ida olingan audio-video yozuvlar hamda Markaziy harbiy-tibbiy komissiyaning psixofiziologik tekshiruvi va psixiatr xulosalari;

profayler — insonning imo-ishorasi hamda gapirish usullari asosida yolg'onni aniqlaydigan mutaxassis.

Shaxsni tekshiruvdan o'tishi uning yozma roziligi (ariza, bildirgi)ga ko'ra, MPFT tashabbuskori taklifiga asosan, fuqaroning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan burj va erkinliklariga rioya etgan holda qonuniylik, insonparvarlik, ilmiylik va maxfiylik prinsiplariga muvofiq o'tkaziladi.

Og'ir jinoyat sodir etishda gumonlanuvchi chet el fuqarolari ham MPFT tashabbuskori taklifiga asosan inson huquqlarini buzmaganda holda tekshiruvdan o'tkazish mumkin.

MPFT tashabbuskori shaxsni tekshiruvdan ko'zlangan maqsad hamda MPFTda aniqlanishi lozim bo'lgan masalalarni ko'rsatgan holda Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti rahbariyati nomiga so'rov xati bilan murojaat qiladi.

MPFT quyidagi hollarda o'tkaziladi:

davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olish va uni tasdiqlashda, tezkor-qidiruv faoliyatida ishtirok etish yoki uni o'tkazish natijasida olingan materiallar bilan tanishish ushuni ruxsatnoma berishda (olishda);

fuqarolarni qo'riqlash xizmatiga qabul qilishda; xodimni boshqa yoki yuqori lavozimga tayinlashda.

Xizmat tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda irodaviy xizmatlar tomonidan berilgan so'rov xatiga asosan xavf omillari yoki sodir etilgan holatga aniqlik kiritilishi mumkin.

O'rganiluvshidan MPFT o'tkazilishiga rozilik olingan maqsadida taxdid, zo'ravonlik yoki boshqa g'ayriqonuniy ta'sir shoralari qo'llanilishiga va uning qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

MPFTdan bosh tortish (tektiruvga ko'nmaslik) o'rganiluvining belgilangan axloq (xulq) qoidalarini buzganligini tasdiqlamaydi va tekshiruv jarayonida aniqlangan ma'lumotlarni yashirish dalili deb baholanishi mumkin emas.

MPFT materiallarida mavjud bo'lgan o'rganiluvchidan olingan ma'lumotlar (tekshiruv tashabbuskoridan tashqari) boshqa shaxslarga uning rozilgisiz oshkor etilishi mumkin emas.

MPFT soat 09.00 — 20.00 gasha bo'lgan vaqt oraligida o'tkaziladi.

Tungi vaqtda, ya'ni keyin soat 20.00 dan ertalab soat 09.00 gasha bo'lgan vaqt oralig'ida MPFT o'tkazish tasdiqlanadi.

Keshiktirib bo'lmaydigan holatlarda, Vazirlik (hududiy bo'linmalarning birinchi rahbarlari) rahbariyatining topshirig'iga asosan istisno tariqasida MPFT o'tkazilishi

mumkin.

Istisno tariqasida, o'tkazilgan psixologik test hamda suhbat natijalarida aniqlangan ma'lumotlarni tekshirish maqsadida poligrafolog ravishda MPFT o'tkazish huquqiga ega.

O'tkazilgan MPFT natijalari ko'ra Vazirlik rahbariyatiga yozma ma'lumotnoma taqdim etiladi.

MPFT natijasi bo'yisha xulosa tuzilib, poligrafolog tomonidan tashabbuskorga taqdim etiladi.

MPFT tashabbuskorining majburiyatlari:

tekshiruv o'tkazish ushuni zarur bo'lgan shaxs haqidagi materiallarni poligrafologga taqdim etish;

tekshirilayotgan shaxsni tekshiruv ushuni yetib kelinganini ta'minlaydi; tekshirilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxatini so'rov xatida ko'rsatib o'tish.

Hududiy bo'inmalarda MPFT o'tkazish jarayonida tashabbuskor tomonidan quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi shart:

MPFT ushuni mo'ljallangan tekshirilayotgan shaxs sog'ligining xavfsizligini kafolatlash hamda salbiy tashqi omillar ta'sirining eng kam darajada bo'lishini ta'minlashi;

shovqindan ajratilgan xonaning maydoni kamida 12 m², balandligi kamida 2 m, havoni kondisioverlash va namlash tizimi haroratning +24-260S va namlikning 30-60 % atrofida bo'lishini ta'minlash;

xonada kamida ushta elektr rozetkasi, tekshirilayotgan shaxs ushuni mo'ljallanran tirsak qo'ygishli kreslo, 3 ta stul, poligraf ushuni stol bo'lishi shart;

xona devorlari va shifti oq rangda, devorlarga surat yoki boshqa narsalar osilishiga yo'l qo'ymaslik, mayin parda yoki jalyuzilar o'rnatilgan bo'lib, shu bilan birga, MPFT ushuni mo'ljallangan xonaga yaqin joyda hojatxona bo'lishi zarur;

MPFT o'tkaziladigan shaxsga bu haqida kamida bir sutka avval xabar berish;

MPFTdan o'tishi kerak bo'lgan shaxsga rejalashtirilayotgan so'rovning sabablarini ma'lum qilish;

MPFTning barsha bosqishlarida poligrafolog va tekshiruv ishtirokshilarining xavfsizligini ta'minlash;

poligrafologdan olingan ko'rsatmalarga (yo'l-yo'riqlarga) qat'iy amal qilishi va poligrafologning harakatlariga aralashmaslik, unga tanbeh bermaslik yoki arz qilmaslik.

Tashabbuskor quyidagi burchlarga ega:

tekshiruv texnologiyasi va uni tashkil qilish bo'yisha izoh (tushuntirish)lar olish;

MPFT materiallarini (testdan oldingi suhbat, tekshiruv jarayonida olingan video lavhalarni) ko'rib, o'ganishib shiqish;

MPFT natijalari bo'yisha tuzilgan xulosaning oshkor etilmasligiga bevosita javobgar hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot ishimiz davomida olingan natijalarni tahlil qilish vaqtida qo'riqlash xizmati psixologlaridagi kasbiy kompetentlik omillarining namoyon bo'lishi va rivojlanganlik darajasi bilan «rahbar-psixolog», «xodim-psixolog» munosabatlaridagi ijtimoiy kutuvlarni mazkur omillarni namoyon bo'lishiga ta'siri natijasida differensial farqlar aniqlandi. «rahbar-psixolog», «xodim-psixolog» munosabatlarida muloqotdagi refleksiya, ya'ni o'z-o'zini tahlil qilish, anglash konstruktiv muloqotni o'rnatishga zamin hozirlaydi. Bizning izlanishlarimizda aniqlangan holatlardan biri – bu konstruktiv muloqotning hissiy-baholovshi xususiyatini sotsial-perseptiv kompetentlik rivojlantirishda qo'llanilishidir. Konstruktiv muloqotning hissiy-baholovshi xususiyati shaxslararo munosabatlarda o'zini va suhbatdoshini «ijtimoiy biz» negizida emotsional qabul qilish, empativiy baholashni nazarda tutadi. Konstruktiv muloqotning hissiy-baholovshi xususiyatini muvaffaqiyatga erishish

motivi bilan uyg'un holda kushaytirishni ego hamda autopsixologik kompetentlik orasidagi to'g'ri proporsional bog'liqlik ta'minlaydi. Ego hamda autopsixologik kompetentlik orasidagi ijobiy bog'liqlik tarbiyashilarning o'z-o'zini boshqarishi orqali qo'yilgan maqsadlariga erishishi ushun zarur ichki imkoniyatlarini anglashidan, muvaffaqiyatga erishish texnikalarni samarali qo'llash orqali professional imidjini yaratish ko'nikmasidan, shaxslararo munosabatlarda suxbatdoshini ego identifikatsiya orqali tushunishidan dalolat beradi. Mazkur holatlar esa albatta qo'riqlash xizmati psixologlarining kasbiy muvaffaqiyatga erishish motivini namoyon bo'lishini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
- Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
- Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
- Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
- Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
- Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
- Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
- Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
- Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.
- Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 ст.
- Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 23, 2021 г. С 237-241.
- Олимов Л.Я., Жумаев Н.З. Педагогическое общение педагога со студентами. Вестник интегративной психологии. (журнал для психологов). 2017 год, Выпуск 15. 198-203 ст.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика Управленческих Способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. -С. 125-127.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоеън бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya. Учредители: Бухарский государственный университет, 31-38.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоеън бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 йил, 4 сон 109-115 б.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик химоя механизмлارينинг намоеън бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 йил, 4 сон 103-112 б.
- Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоеън бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 йил, 3 сон 98-106 б.

MENTAL ARIFMETIKA MASHG'ULOTLARI - BOLALARDA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

*Ashurov Ramzidin Ramazonovich,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mental arifmetika mashg'ulotlarining bolalarda intellektual rivojlanishni ta'minlashning muhim omili ekanligi haqida fikr yuritilgan. Intellektual rivojlanish masalasi hamma zamonlarda ham jamiyat a'zolarining oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. O'quvchilarning intellektual rivojlanishida mental arifmetika mashg'ulotlarining tutgan o'rni va bu mashg'ulotlarning paydo bo'lish, hozirgi davrdagi holati haqida bayon qilingan. Intellektual jihatdan har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazish ta'lim tizimimiz oldidagi eng katta vazifa ekanligi va buni amalga oshirishda yuqori salohiyatli pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Maqolada o'rganilayotgan muammoning intellektual rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati haqidafikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mental arifmetika, bilish jaroyonlari, maktabgacha yoshi, intellektual rivojlanish, individual psixologik xususiyatlar, muloqot faoliyati, obrazli xotira.

УПРАЖНЕНИЯ В МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКЕ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

*Ашуров Рамзидин Рамазонович,
Независимый научный сотрудник Бухарского института психологии и иностранных языков*

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что обучение ментальной арифметике является важным фактором обеспечения интеллектуального развития детей. Вопрос интеллектуального развития всегда был одним из актуальных вопросов, стоящих перед членами общества. Описана роль ментальных арифметических упражнений в интеллектуальном развитии учащихся, возникновение этих упражнений и их современное состояние. Важно отметить, что воспитание интеллектуально зрелого поколения является важнейшей задачей нашей образовательной системы, а подготовка и повышение квалификации педагогов с высоким потенциалом для этого остается актуальной задачей современности. В статье обсуждается роль и значение изучаемой проблемы в интеллектуальном развитии.

Ключевые слова: ментальная арифметика, познавательные процессы, дошкольный возраст, интеллектуальное развитие, индивидуально-психологические особенности, коммуникативная деятельность, образная память.

MENTAL ARITHMETIC EXERCISES AS AN IMPORTANT FACTOR OF ENSURING INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN CHILDREN

*Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Independent researcher of Bukhara Institute of psychology and foreign languages*

Abstract: This article discusses the fact that mental arithmetic training is an important factor in ensuring intellectual development in children. The issue of intellectual development has always been one of the urgent issues facing society members. The role of mental arithmetic exercises in the intellectual development of students, the emergence of these exercises, and their current status are described. The fact that bringing up an intellectually mature generation is the biggest task before our educational system, and training and improving the skills of high-potential pedagogues in order to do this remains an urgent task of the present day. The role and importance of the studied problem in intellectual development is discussed in the article.

Key words: mental arithmetic, cognitive processes, preschool age, intellectual

development, individual psychological characteristics, communicative activity, figurative memory.

KIRISH. Jamiyat a'zolarini aqliy rivojlantirish masalalari ming yillar davomida bir qancha olimlarning ilmiy muhokamalariga asos bo'lib kelmoqda. Insoniyat yaralibditki, aqliy rivojlanish masalasi yillar davomida o'rganilsa ham tugamaydigan va yangilanib boradigan dolzarb mavzuligicha qoladi. Biz amalga oshirayotgan tadqiqot ishimizda ham bolalarning intellektual rivojlantirish masalasini asosiy predmet sifatida oldik. Mental arifmetika mashg'ulotlari ikki yarim sharning sinxron ishini rivojlantiradi, bu diqqatni jamlash va eslab qolish qobiliyatiga ibobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek bolalarda bir vaqtning o'zida ko'plab vazifalarni bajarish ko'nikmasini paydo qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillar mobaynida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha qabul qilingan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish hamda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etish bo'yicha vazifalar belgilangan. Shuningdek, globallashuv davrida maktabgacha ta'lim sohasidagi muhim vazifalarni quyidagicha talqin qilish mumkin: – rivojlangan davlatlar darajasidagi ta'limni joriy etish; – ta'lim muassasalari va ta'limiy xizmat iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish; – iste'molchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish; – bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash; – bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchilikni jalb etish vazifasi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yuqorida keltirilgan vazifalarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutilgan [1].

Maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar berish lozim, rangli kiyimlar berish, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar orqali bolalarda rang-tasvirni yaxshi eslab qolish, tanish xususiyatlari paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning turli narsalarni idrok qilishida ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining faoliyati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Maktabgacha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin faoliyati juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari

asosida takomillasha boradi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar [5]. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Aynan shu yoshdagi bolalarga mental arifmetika mashg'ulotlarining o'rgatilishi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan birga, bolalarning har bir masalaga mas'uliyat bilan yondashadigan, muammolarga kreativlik bilan qarashni boshlaydilar. Tadqiqot davomida bolalarning aqliy rivojlanish masalalari maxsus psixologik metodikalar orqali o'rganildi. Bilamizki, mental arifmetika mashg'ulotlari bolalarda aytilgan misollarni miyada hisoblab tezkorlik bilan javob berish malakasini paydo qiladi [4].

METODOLOGIYA. Ushbu metodika yordami bilan bolaning arifmetik amallarni va turli xil kasr sonlar ya'ni, oddiy, o'nli, butun kasrlarni tezlik bilan ishlay olish qobiliyatini psixodiagnostika qilish mumkin. Agar bolaga sanoq maktab yoshiga qadar o'rgatilgan bo'lsa, unda berilgan metodikani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab qo'llash mumkin. Asosan, bu metodika maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning qobiliyatlarini baholashga xizmat qiladi. Jadvalda berilgan misollar namunasini bolaga tartib bilan oddiydan murakkabga qarab o'qib eshittiriladi. Bola tezlik bilan o'qilgan misollarni miyasida ishlab, og'zaki javob berishi lozim. Jadvalning o'ng va chap tomoniga to'g'ri ishlangan arifmetik misolning ballari keltirilgan. Jadvaldagi keltirilgan barcha namunalar guruhlarga ajratilgan. Agar berilgan guruhlardagi 3 misoldan, 2 tadan kam bo'lmagan misolni echa olmasa, unda bolaga aniq bali yozib qo'yiladi. Jadvaldagi namunada ballar miqdoriga mos keluvchi baholar bir-biridan gorizontal yo'nalishdagi chiziqlar bilan ajratilgan. Ular orasida bolaning berilgan misollarga to'g'ri javobi uchun oladigan ballari joylashgan. Topshiriqni to'la bajarishga ketgan umumiy vaqt 5 daqiqaga teng. Topshiriq mohiyati bola shu vaqt ichida qancha ko'p misol ishlashi bilan belgilanadi. Namunada berilgan to'g'ri javoblar faqatgina tadqiqotchiga ma'lum bo'lishi kerak, bu unga bolaning javoblarini tekshirib borishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

«Miyada hisoblay olish» metodikasiga misollar

Baholar ballda		Misollar	Baholar ballda	
00,8	0 0,1	1. $5+2=7$ 25. $0,83+0,12=0,95$ 2. $4+5=9$ 26. $0,47+0,35=0,82$ 3. $6-2=4$ 27. $0,22-0,13=0,09$	0 0,7	3,2
	00,2	4. $9-6=3$ 28. $0,87-0,43=0,44$ 5. $3*2=6$ 29. $0,22 \cdot 0,1=0,022$ 6. $2*4=8$ 30. $0,15*0,02=0,03$	0 0,8	
	00,2	7. $9/3=3$ 31. $0,21:0,1=2,1$ 8. $6/2=3$ 32. $0,48:0,24=2,0$ 9. $10+6=16$ 33. $2/8+1/4=1/2$	00,8	
	00,3	10. $12+4=16$ 34. $1/4+2/4=3/4$ 11. $16-4=12$ 35. $3/5+1/8=29/40$ 12. $19-7=12$ 36. $9/6-5/16=1/4$	00,9	
11,6	00,3	13. $4*3=12$ 37. $1/3*1/3=1/9$ 14. $6*3=18$ 38. $2/8*3/8=3/32$ 15. $18/3=6$ 39. $4/5:2/5=2,0$	00,9	2,0
	00,4	16. $15/5=3$ 40. $5/16:3/16=5/3$ 17. $25+32=57$ 41. $1/2+2/4=1,0$ 18. $41+23=64$ 42. $8/32+3/4=1,0$	11,1	
	00,4	19. $43-17=26$ 43. $9/10-2/5=1/2$ 20. $67-21=46$ 44. $9/16-3/4=3/16$ 21. $16*5=80$ 45. $2/6:1/2=1/6$	11,1	2,4
	00,5	22. $22*4=88$ 46. $3/16: U_4=9/64$ 23. $48/12=4$ 47. $4/12:2/3=1/2$ 24. $84/14=6$ 48. $8/32:4/16=1$	11,3	

Bola tomonidan 5 daqiqa vaqt ichida to'plagan ballarning yig'indisi keyinchalik 10

ballik shkala asosida standartlashtirilgan ballarga o'tkaziladi. Metodikaning mohiyatida o'quvchilarning tez fikrlay olish qobiliyatlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

7,7 ball va undap ko'p – juda Yuqori;

5,7-7,6 ball – Yuqori;

2,5-5,6 ball – o'rtacha;

0,9 -2,4 ball – past;

0,8 ball dan kam – juda past.

Bunda 7,7 – 10.0 gacha oraliqdagi ballar yig'indisi juda yaxshi natijani ko'rsatib, bolaning matematik qobiliyati kuchli ekanligidan dalolatdir.

5,7-7,6 gacha oraliqdagi ballar ko'rsatkichi yaxshi natijani bildirib, bolaning matematik qobiliyati o'rtacha ekanligini ko'rsatadi.

2,5-5,6 gacha oraliqdagi ballar bolaning matematik qobiliyatlarini kuchsiz ekanligini ko'rsatadi.

0,9-2,4 gacha oraliqdagi ballar natijasi bolaning matematikani o'zlashtirish uchun qobiliyatsizligidan dalolat beradi.

0,8 dan oz natija ko'rsatkichi bolaning matematik tafakkuri rivojlanishdan orqada qolganini bildiradi.

NATIJA VA XULOSALAR. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi va ana shu jarayonlarda bolalarda mental arifmetika mashg'ulotlarining samarasini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 taga yetadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi, bilish jarayonlari ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq, sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmashliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги ПҚ-4312-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 22.12.2020 йилдаги 802-сон «Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиqlаш тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/docs/5179335>

3. Қодиров К. Мактаб таълимига етукликнинг психофизиологик жиҳатлари. Услужий қўлланма. - Т.: Мирзо Улуғбек номли ЎзМУ, 2009. 112-б.

4. Хурвалиева Т.Л. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психик ривожланишига оид назариялар. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2019, 7(80). 23-30 Б.

5. Ashurov R.R. Mental arifmetika mashg'ulotlari orqali bolalarda intellektual rivojlanishni ta'minlashning psixologik determinantlari Xalqaro ilmiy forum-2023

6. Ashurov R.R. Kichik maktab yoshidagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda mental arifmetika mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari Ilmiy tadqiqot va innovatsiya(6), 79-84 bet

REPRODUKTIV YOSHDAGI PEDAGOG AYOLLARNI RUHIY SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

*Nabiyeva Odina Rafikjonovna,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatimizda faolyat olib borayotgan reproduktiv yoshdagi ayol pedagoglarni o'rne, reproduktiv yoshdagi pedagog ayollarni ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar, ushbu o'zgarishlarga sababchi bo'luvchi vositalar, ruhiy salomatlikga ta'sir etuvchi omillar bayon etiladi va ularni bartaraf etish, ruhiy salomatlikni mustahkamlash uchun psixologik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: reproduktiv yosh, ruhiy salomatlik, ayol, pedagog, ta'lim, tarbiya, aql, idrok

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

*Набиева Одина Рафикжоновна,
Базовый докторант Наманганского государственного университета*

Аннотация. В данной статье описывается роль женщин-воспитателей репродуктивного возраста в нашем обществе, негативные изменения в психике женщин репродуктивного возраста, средства, вызывающие эти изменения, факторы, влияющие на психическое здоровье и их устранение, даются психологические рекомендации по охране психического здоровья. укреплять.

Ключевые слова: репродуктивный возраст, психическое здоровье, женщина, педагог, образование, воспитание, интеллект, познание.

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE MENTAL HEALTH OF WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

*Nabiyeva Odina Rafikjonovna,
Basic doctoral student of Namangan State University*

Abstract. This article describes the role of female educators of reproductive age in our society, the negative changes in the psyche of women of reproductive age, the means that cause these changes, the factors affecting mental health and their elimination, mental health psychological recommendations are given to strengthen.

Keywords: reproductive age, mental health, woman, educator, education, upbringing, intelligence, cognition

Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rligi bilan belgilanadi. Xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar: "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz", deb bejiz ta'kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo'lib, jamiyatda hamda o'z oilasida munosib o'rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Bu borada, avvalo, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan. Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturini qabul qilamiz. Ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet

va joylarda uning texnikumlarini tashkil etiladi. Barcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinadi. Ushbu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo'shib kelayotgan olim ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz. Ma'lumki, bugungi kunda opa-singillarimiz orasida o'nlab akademik va professorlar, fan doktorlari va fan nomzodlari, yuzlab iste'dodli tadqiqotchilar bor. Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish – bu igna bilan quduq qazishga barobar deb ta'kidladi Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev. Ayollarni ta'lim olishi, ilm-ma'rifat, pedagoglik kasbi bilan shug'ullanishlari asoson reproduktiv yosh davriga to'g'ri keladi.[4]. Reproaktiv davr– ayol hayotining bir davri bo'lib, 16 yoshdan 49 yoshgacha davom etadi.[2.29.b] Bu davrda ayol kayfiyati, kasbiy faoliyatida, ruhiyatida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Ayol - oilaviy hayot imoratining asosiy ustunlaridan biri. Ayol oilada - yor, ona, farzandlar tarbiyachisi, kelin, opa, singil, amma, xola va buvi vazifalarini bajaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ayollari pok, tarbiya ko'rgan millatni hech qachon yengib bo'lmaydi. Chunki farzandlarga, dastlabki tarbiyani o'z suti, mehri bilan beradi. Ayol farzandlarini vatanni sevishga, uni ardoqlashga, himoya qilishga o'rgatadi.[1.10.b] Hozirgi jamiyatimizda pedagog eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoyi bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoluvchi kasb sohibi sifatida namoyon bo'ladi. XXI asrda jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi pedagogga bog'liqdir. Zamonaviy pedagog qator vazifalarni bajaradi. Pedagog – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Pedagog o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik pedagoglar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayonini tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy pedagog ijtimoiy psixolog bo'lishi kerak. O'quvchilar to'g'risidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy – psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi lozimdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.[5] 2021 yildagi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jami 664 ming 771 nafar pedagog faoliyat yuritmoqda. Berilgan xabarda qayd etilishicha, respublikamizda ayol pedagoglarning soni erkaklarnikiga nisbatan 290 ming 779 nafarga ko'p. Xususan, ayol pedagoglar soni 477 ming 775 nafar, erkak pedagoglar soni esa 186 ming 996 nafarni tashkil qiladi.[6] Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga qaraganda ayol pedagoglar ta'lim –tarbiya jarayoning asosiy qismini tashkil qilomoqda. Reproaktiv yoshdagi o'zbek ayollarini oilada, farzandlari oldida bajaradiga burchlari bisyor. Bunday yumushlarga qarmasdan ma'lum bir faoliyat bilan ham shug'ullandi ayollar. Oila tashvishlari, kasbiy faoliyat bilan band reproduktiv yoshdagi ayollarni surunkali charchashi oqibatida ruhiy salomatliklari yomonlashmoqda. Ruhiy salomatlik yomonlashgandan so'ng jismoniy salomatlikni yo'qotish hech gap emas. Surunkali charchash patologiya chegarasida turadi, ba'zan esa asl nerv buzilishlari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, elektroentsefalografik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, surunkali charchash ta'siri ostida bir yil EEG (Elektroansefalogramma asab tizimining ishlashini o'rganish uchun ishlatiladigan fiziologik baholash texnikasi) ko'rsatkichlari dinamikasi ularning yosh sur'atlarida o'zgarishga teskari, ya'ni ayrim miya funktsiyalarining tabiiy taraqqiyoti ma'lum darajada to'xtab turadi.[3.43.b] Bugun bizning zamonaviy hayotimizni stresslarsiz tasavvur qilish qiyin va xuddi shunday stress holatlarini o'zida o'tkazmagan insonni topa olmaymiz. Ayniqsa pedagoglik kasbi stresslarga boy kasbdir. Stress muammolari o'tgan asrning 30 yillaridan beri o'rganilayotgan bo'lsada, unga bo'lgan qiziqish kamaymayapti, chunki javoblarga qaraganda savollar ko'payib bormoqda.

Nima uchundir insonning stress omillari bilan munosabatlari vrachlar, psixologlar, psixoterapevtlar diqqat markazidan ketmayapti va borgan sari dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Pedagoglarning kasbiy faoliyati emotsional kuyunish holatlarga olib keladigan omillar bilan to'la: yuqori emotsional yuklanishlar, emotsiogen omillarning ko'pligi, har soatda hamdardlik va qayg'ura olishga ehtiyoj, bolalarning hayoti va sog'lig'i uchun mas'uliyat hissi. Bundan tashqari, pedagogik jamoalar, odatda, bir jinsli, asosan ayollar bu esa, o'z navbatida, nizolarning qo'shimcha manbasidir. Natijada pedagog emotsional kuyunish vaziyati, emotsional qoliplar va kasbiy xulq-atvor tarzi asiriga aylanadi. Biz bilamizki, stress ikki o'ziga xos omil tufayli erkaklar va ayollarga turlicha ta'sir qiladi. Ayol pedagoglar stress bilan bog'liq bo'lgan ko'plab alomatlarni boshdan kechirishadi, masalan: Uyqusizlik, soch to'kilishi, husnbuzarlar, noqonuniy hayz davrlari, metabolizmdagi o'zgarishlar, vazn yo'qotish yoki vazn ortishi, tug'ilish muammolari, yurak kasalligi yoki qon tomir xavfi, achchiq ichak sindromi kabi ovqat hazm qilish muammolari, immunitet tizimi zaif, kam jinsiy aloqa kabilar.[7] Michigan universiteti psixologiya kafedrasidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, pedagog ayollarda depressiyadan aziyat chekish xavfi yuqori. Bir qarashda pedagogik faoliyat unchalik qiyin emasdek tuyiladi. Bu kasb inson ruhiy va jismoniy salomatligiga zararliligi bo'yicha reytingda deyarli birinchi o'rinlarni egallaydi. Pedagoglarning salomatligi doimiy ravishda sinovdan o'tkaziladi, chunki unga turli omillar, vositalar ta'sir qiladi: Noto'g'ri kun tartibi, ijtimoiy tadbirlar va ko'p stavkadagi ish tufayli yuqori jismoniy faollik kabilar. Pedagoglarda ko'p tarqalgan kasalliklaridan biri nevrozlaridir. Semestr oxirida pedagog sinfga bo'r yoki doska tozalovchi mato yo'qligi uchun baqirishi yoki butunlay yig'lashi mumkin. Gap shundaki, o'quv yili davomida hissiy taranglik kuchayadi va bir nuqtada his-tuyg'ular nazoratsiz ravishda to'kilishi mumkin. Bunday holatga asab tizimini haddan tashqari kuchlanishi sababdir, ya'ni shifokorga murojaat qilishingiz kerak. Ayol pedagoglar o'z his-tuyg'ularini qanday boshqarishni va stressga berilmaslikni o'rganishlari lozim. Reproktiv yoshdagi pedagoglarning kasbiy kasalliklaridan qochishga imkon beradigan proflaktik usullar: pedagog ayollar siz kamida sakkiz soat uxlashingiz kerak, agar siz daftar to'plamini tekshirishingiz lozim bo'lsa, erta yotish va ertalab tekshirishni boshlash yaxshidir. Suv balansini nazorat qiling. Ko'pgina pedagoglar kun davomida uch stakandan ko'proq qahva yoki choy ichishadi va toza suvni unutishadi. Shu bilan birga, kamida 1,5-2 litr suv iste'mol qilish tavsiya etiladi. Mevalar minerallar va vitaminlar zaxirasini to'ldirishga yordam beradi, shuning uchun ularni uyda va ishda muntazam ravishda iste'mol qilish kerak. Stressga qarshi bo'yash kitobini sotib olish yoki boshqa tinchlantiruvchi faoliyatni tanlash orqali stress bilan qanday kurashishni o'rganish muhimdir. Mavsumiy epidemiyalar davrida reaktiv yoshdagi pedagoglarga immunitetni mustahkamlash uchun vitamin komplekslarini qabul qilish tavsiya etiladi. [8] Faqat ongli pedagog ongli ravishda ta'lim bera oladi. Pedagoglar kelajak avlodlarni tarbiyalashning muhim vazifasini amalga oshirganligi sababli jamiyatda asosiy rol o'ynaydigan shaxslardir. Uning faoliyati nafaqat nazariy bilimlarni o'rgatishga, balki unga yo'naltirilgan o'quvchilarda jamiyatda rivojlanishi uchun bir qator qadriyatlar va ko'nikmalarni targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar. Pedagog bo'lish har doim ham oson ish emas. Pedagog bo'lish uchun katta talablar qo'yiladi, faoliyati davomida surunkali stress, hissiy charchoq va o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar bilan munosabatlarda muammolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatli vaziyatlar ham uchrab turishi mumkin. Bilimlilik, zehnilik muammoli vaziyatlardan chiqib ketishning eng samarali usuli ekanligi isbotlandi. Masalan, zehnilik pedagogning stressini, kasallik ta'tilini, depressiyani, tashvish yoki boshqa holatlardan chiqishning samarali usulidir. Aql-idrokning muntazam amaliyoti pedagoglarni muammoli vaziyatlarga duch kelishga imkon beradigan va ularning hayoti va farovonligini yaxshilashga yordam beradigan vositalar bilan jihozlaydi. Bu, o'z navbatida, ularning faoliyati va

o'quvchilari bilan munosabatlariga ta'sir qiladi, natijada o'rganish uchun maqbul ta'lim muhiti yaratiladi. Aql-idrokni pedagoglarga beradigan ba'zi afzalliklari quyidagilar: Diqqat va xabardorlikni yaxshilaydi, talabalar ehtiyojlariga javob berishni oshiradi, hissiy muvozanatni rivojlantiradi, stressni boshqarish va kamaytirishni qo'llab-quvvatlaydi, ishdagi shaxsiy munosabatlarda ruhiy va jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, sinf havosini yaxshilaydi va o'rganish uchun maqbul muhitni yaratadi, umumiy farovonlik va o'zini o'zi qadrlashni qo'llab-quvvatlaydi [9]

Xulosa qilib aytganimizda reproduktiv yoshdagi pedagog ayollar ruhiyatingizni asrash o'z qo'lingizda. Hayotingizni bir maromga soling. Kun tartibiga amal qiling. Uyqu – asabga orom beruvchi eng zo'r omil ekanligini unutmang, uyqu 7-8 soatdan kam bo'lmasligi kerak. Jismoniy harakat – sizni ruhiy zo'riqishdan asraydi. Suvda suzish – eng yaxshi tinchlantiruvchi vositadir. Ruhiyatni omon – saqlovchi omillardan eng samarali usul sayrga chiqish, tabiatdan zavq olish hisoblanadi. Do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan doimo muloqatda bo'ling. Hayotga yangicha yondoshing. Noxushliklarga berilmang, ular haqida tezda unuting. Kayfiyatni oshiradigan narsalar haqida fikr yuriting. Hayotga yaxshi umid, ishonch bilan ijobiy yondoshing. Sog'lom tana, sog'lom aql, sog'lom idrok, sog'lom ruh – har bir insonda mushtarak bo'lishi shart. Ruhiiy salomatligi mustahkam reproduktiv yoshdagi pedagog ayollar vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi va har tomanloma barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet materiallari

1. Akramova.F.A, Bilolova.B.Z, Jovliev.S.I Oila ensiklopediyasi «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2019 10 b.
2. Aripova.S.M; Bo'rixo'jayeva H.S. Sog'lom avlodning tibbiy- ijtimoiy asoslari o'quv qo'llanma. «Fan va texnologiya», Toshkent-2016 29 b.
3. Nishanova.Z.T, Xodjakulova.D.I, Alimova.G.Q Psixogigiena “BAYOZ” nashriyoti Toshkent 2013 43.b
4. <https://daryo.uz/2022/03/07shavkar-mirziyoyevning-8-mart-xalqaro-xotin-qizlar-kuni-munosabati-bilan-o'tkazilgan-marosimida-so'zlagan-nutqi/>
5. <https://hozir.org/xalq-talimi-vazirligi.html?page=8>
6. O'zbekistonda qancha pedagog bor? Statqo'm ma'lumot berdi | Qalampir.uz
7. <https://uz.laraform.com/how-does-stress-affect-women->
8. <https://mywordworld.ru/uz/uchitelyu/pochemu-uchitelya-boleyut-i-pogibayut-chem-chashche-vsego-boleyut/>
9. Maktabda ehtiyotkorlik: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun imtiyozlar - Psixologiya - 2022 (warbletoncouncil.org)

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

*Файзуллаева Нилуфар,
доцент кафедры «Инновационное образование»
Ташкентский государственный экономический университет*

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции подготовки кадров высшего профессионального образования для индустрии туризма, выделяются основные задачи модернизации системы образования для сферы туризма. Вопросы качества подготовки специалистов туристической индустрии в республике, которые являются стратегическим направлением развития республики

Ключевые слова. туризм, профессиональная деятельность, психологические особенности, компетенции, специалист туристической индустрии

TURIZM SOHASIDAGI BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORGARLIKDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Fayzullaeva Nilufar,
oshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatsion ta’lim” kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada turizm industriyasi uchun oliy professional ta’limni tayyorlash tendensiyalari ko‘rib chiqilgan, turizm industriyasi uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalari yoritilgan. Respublikani rivojlantirishning strategik yo‘nalishi bo‘lgan turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash sifati masalalari.

Kalit so‘zlar: turizm, professional faoliyat, psixologik xususiyatlar, kompetensiyalar, turistik industriyaning mutaxassisi

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARATION FUTURE PROFESSIONALS IN THE FIELD OF TOURISM

*Fayzullaeva Nilufar,
Associate professor of the department «Innovative education» Tashkent State University of Economics*

Abstract. The article discusses the trends in the training of higher professional education for the tourism industry, highlights the main tasks of modernizing the education system for the tourism industry. Issues of the quality of training of specialists in the tourism industry in the republic, which are a strategic direction for the development of the republic

Keywords: tourism, professional activity, psychological characteristics, competencies, travel industry specialist

Kirish. Turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi. Bu esa turizmni o‘ziga kasb olgan inson doimo talabga ega bo‘lishini anglatadi.

Turizm menejeri tayyorlashga zamonaviy qarash davr talabidan kelib chiqqan. Ulardan eng muhimi, turizm xizmatlari sohasi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mutaxassisi tayyorlash darajasiga qarab, kadrlar tayyorlash sifati hisoblanadi.

Respublikada tizimning rivojlanishiga zamonaviy transport infratuzilmasi, mamlakatlarning globallashuvi, ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi qulaylik bermoqda. Turistlarga ko‘plab yangi bilim va taasurotlarni taqdim etishga qodir bo‘lgan g‘ayrioddiy va qiziqarli turlari ko‘lami kengayib bermoqda.

Foydalanilgan metodlar. Zamonaviy turizm ta’lim amaliyoti turizm sohasida

mutaxassislarni nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalarni, balki maxsus kasbiy qobiliyatlarni ham shakllantirishni, olingan bilimlarni amaliyotda, kasbiy faoliyatda qo'llashni taqozo etadi. Zamonaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda, universitetning ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassis shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanishini kafolatlash mumkin.

Mehmondo'stlik sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan birinchi maktab 19-asr oxirida Shveysariyada ochilgan - Ecole hoteliere de Lausanne. Bu mamlakat turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi bo'lib qoldi. Undan so'ng, XX-asrning boshlarida boshqa mamlakatlarda Ispaniya, Irlandiyada, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliyada kabi ochila boshladi.

Ular nafaqat mehmonxona boshqaruvi bilan cheklanib qolmasdan, dastur ko'lamini kengaytirdilar g' "Sayohat va turizm" ixtisosligi paydo bo'ldi. Hozirgacha ushbu ikki dastur (mehmonxona va turizm boshqaruvi) asosiy bo'lib qolmoqda va o'quv yurtlar tomonidan ba'zan alohida, ba'zan esa birgalikda taklif etiladi.

Turizm ham biznes boshqa biznes kabi. Va bu sohada turli darajadagi professional xodimlar kerak – yordamchidan tortib to menejergacha. Turizm sohasi odamlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, barcha xodimlarning yagona bir butun, bir jamoani tashkil etishi, mijozga do'stona munosabatda bo'lishi va bir-birini almashtira olishi juda muhimdir.

Asosiy qism. Bugungi kunda kelib turizm jahon iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu borada O'zbekistonda turizm sohasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va yuksaltirish, milliy an'ana va urf-odatlarini tiklash, respublikamiz diqqatga sazovor joylarini tartibga keltirish barobarida bu muhim yutuq amalga oshirildi. 2019 yil 18 yilda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi qonun asosida mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilgani turizmning milliy modelini shakllantirishdagi muhim qadam bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining say-harakatlari, xususan, Prezidentimizning 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarning hayotga izchil atbiq etilishi samarasida, shuningdek, aholi farovonligi yuksalib, ichki turizm ham keng rivojlanmoqda. Biroq xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar, malakali gidlar yetishmasligi keskin sezilmoqda.

Shuningdek, 2019-yil 5-yanvardagi "Turizm sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4095-son qarorining qabul qilinishi turizmni jadal rivojlantirish, qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar va milliy mahsulotni yaratish, jahonga tanitishda xizmat qilganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasiga iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida qaralmoqda, chunki turizm har qanday davlat iqtisodiyotida lokomotiv rolini uynashga qodir, chunki u milliy iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, inson bilimining turli sohalari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir.

Turizm industriyasi uchun oliy professional ta'limni tayyorlash ushbu sohada mutaxassislar tayyorlaydigan bir qancha oliy o'quv yurtlari tomonidan amalga oshiriladi: Samarqand "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro va Urganch davlat universitetlari, shuningdek, Toshkent shahridagi Singapur menejmenti rivojlantirish instituti.

Turizm ta'limining o'ziga xosligi uning ko'p qirraliligidadir. Turli yo'nalish va mutaxassislklar bo'yicha boshqaruv, iqtisodiy, texnologik, texnik, ilmiy va boshqa xarakterdagi bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlaydi. Shu sababli, turizm

ta'limi – bu kadrlar tayyorlash bo'yicha innovatsion dasturlarni, shu jumladan xorijiy tajribadan foydalanishni faol amalga oshirish imkonini beruvchi murakkab, doimiy takomillashtiruvchi mexanizmdir. Zamonaviy sharoitda turizm sohasidagi bo'lajak mutaxassislarda asosiy professional kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shartlarini ilmiy-pedagogik asoslash muammosi juda dolzarbdir.

Turizm industriyasiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir: turistik oqimlar asosida shakllangan mehnat bozori va uning ehtiyojlari; xorijiy mamlakatlarning turizm sanoati va boshqalar. Ularning ta'siri asosida tehnat bozorining mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bo'lgan talablari shakllanadi.

Turizm – xalqaro xodisadir.

Turizm xalqaro hodisadir. Demak, ushbu soha mutaxassisi xorijda ushbu soha mutaxassislarni tayyorlashning hozirgi tendensiyalari va usullarini bilmasdan turib, zamonaviy turizm muammolari bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar bilan bilim almashmasdan turib, to'liq ishlay olmaydi. Chet elda kadrlar tayyorlash masalasi juda dolzarb.

Turizm industriyasi uchun kasbiy tayyorgarlikning Yevropa modellarining afzalligi shundaki: o'qish vaqtining katta qismi sanoat korxonalarida amaliy mashg'ulotlar, amaliyotlarda aniq ko'nikmalarga ega bo'lishga mo'ljallangan; talabalar o'rtasida mijozlarga xizmat ko'rsatish psixologiyasini shakllantirishga e'tibor berish; ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan yaqin hamkorligi; talabalarning yuqori mobilligi.

Yevropadagi turizm va tehmundo'stlik maktablarining aksariyati mehmonxonalar faoliyatiga asoslangan, talabalar u yerda yashaydi, bu ularga haqiqatga yaqin muhitda amaliy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi. Bunday tajriba O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda shubhasiz qiziqarli va istiqbolga ega.

Kadrlar tayyorlashning Amerika modelining afzalligi turizm sanoati korxonalari bilan yagona axborot tizimi orqali bog'langan, mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish, yosh mutaxassislarni ish bilan ta'minlash va ularni korreksiyasi bilan shug'ullanadigan ixtisoslashtirilgan bo'limlar, ishga qabul qilish agentliklarini shakllantirishdir, ixtisoslashtirilgan mutaxassisliklarga abituriyentlarni ishga qabul qilishdan iborat. Ta'lim muassasalari ma'lum bir profil va malaka darajasidagi kadrlarga sanoatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda javob berish vobiliyatiga ega.

O'zbekistonda turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan professional turizm ta'limining zamonaviy modelini amalga oshirishga qator sabablarga ko'ra to'sqinlik qilmoqda. Turizm sohasi uchun malakali kadrlar yetishmasligi sharoitida ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining amaliy ko'nikmalari va aniq mutaxassisliklar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmaganligi sababli ularga talab yetishmaydi.

Xorijiy tajribani hisobga olish respublikada turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash tizimining konseptual modelini yaratish;
- mehnat bozorining ushbu segmentida ta'lim xizmatlari monitoringi tizimini yaratish;
- turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ta'lim muassasalarining sanoat korxonalari bilan aloqalarini mustahkamlash;
- ta'limning turli shakllardan foydalanish, malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha intensiv kurslarni o'tkazish.

Ta'limdagi zamonaviy biznes amaliyoti malakaga asoslangan yondashuvdan foydalanishga asoslanadi, bu esa xodimning muayyan faoliyatdagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan fazilatlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda turizm sohasida ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonida ushbu

muammolar mavjud. Talabalarga o'quv amaliyotlari va treninglar orqali berilishi mumkin bo'lgan amaliy ko'nikmalar juda yetishmayapti. Bizning fikrimizcha, universitetdagi o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti bugungi kunda o'quv jarayonining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Talabalarning bo'lajak raqobatbardosh mutaxassislar sifatida professional o'sishni o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti turizm sohasidagi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashni tashkil etish, mazmuni, shakl va usullarining samaradorligi va uning barcha darajalarining izchilligiga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash, bitiruvchilarga mehnat bozorida talabga ega bo'lish, munosib haq to'lanadigan ishga joylashtirish va o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish imkonini berishdan iborat.

Bitiruvchilarning turizm sohasidagi kasbiy tayyorgarligi va ta'lim muassasasida olgan bilimlari quyidagi majburiy komponentlarni o'z ichiga olishi kerak:

- turizm sohasidagi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlarni, xalqaro standartlarni bilish;
- inson resurslarini boshqarish qobiliyatlari, yetakchilik, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, jamoada rivojlanish strategiyasini shakllantirish;
- turizm industriyasi, rivojlanish tendensiyalari, turistik oqimlar geografiyasi, tarixi, madaniyati, iqtisodini bilish;
- bir yoki nechta xorijiy tillarni bilish, kompyuter savodxonligi;
- shaxsiy rivojlanish qobiliyatlari, samarali muloqot qobiliyatlari, taqdimotlarni yaratishni bilish.

Yuqorida aytilganlar asosida shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ta'limni, hatto amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun maksimal imkoniyatlarni o'z ichiga olgan taqdir ham, ta'lim muassasalarida kasb-hunar ta'limi oldingidan ham ko'proq darajada yakunlab bo'lmaydi.

Haqiqiy menejer ham yaxshi psixolog, ham malakali iqtisodchi bo'lishi kerak. Sayyohlik agentligidagi ish vaqtining 70% mijozlar bilan muloqot qilishga sarflanadi.

Turizm menejeri yaxshi xotiraga ega bo'lishi, mamlakatlar haqida tom ma'noda hamma narsani bilishi kerak. Siz turli aviakompaniyalarning parvoz kunlari va vaqtlarini, aniq narxlarni, bir so'z bilan aytganda, ko'plab ma'lumotlarni xotirangizda saqlashingiz va hatto uni tezda boshqarishga qodir bo'lishingiz kerak.

Turizm ta'limi uchun mos texnologiyalarni tanlashda, asosiysi, talaba o'quv o'quv jarayonining markaziy shaxsi bo'lishi kerakligini tushunishdir -uning motivlari, institutlari, ta'lim ehtiyojlari va maqsadlari, uning qobiliyatlari, munosabati, qobiliyatini yaxshi bilishi kerak.

Xulosa. Innovatsion pedagogik texnologiyalar universitetning o'quv jarayonida talabalarning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi, bunda sayohat industriyasi mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtiriladi.

Kompetensiyalar universitetning o'quv jarayonida talabalarni bilimlarni izlash va boshqarishga jalb etishga, turli muammolarni mustaqil hal etish tajribasini egallashga yordam beradigan texnologiyalar orqali eng amarali shakllantiriladi. Ushbu texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- modullardan tashkil topgan fan bo'yicha o'quv rejasi asosida amalga oshiriladigan muammoli modulli o'qitish texnologiyalari. O'quv modullari soni o'quv materialining miqdoriga bog'liq.

- guruhda ishlash, hamkorlikni tashkil etishga qaratilgan kommun katsiya texnologiyalari (aqliy hujum, munozara, matbuot anjumnai, munozara, dialog, tarbiyaviy bahslar va boshqa faol shakl va usullar).

- amaliy, fanlararo xarakterdagi loyihalar, ularning mazmuni va amalga oshirish usullari talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati mazmuni va texnologiyalariga mos keladi.

- uyin texnologiyalari, ular doirasida talabalar biznes, rolli o‘yinlar, simulyatsiya o‘yinlarida ishtirok etadilar, ular kasbiy muammolar va vazifalarni taqlid qiladilar, kelajakdagi kasbning ijtimoiy kontekstiga mos keladigan rollar va funksiyalarini bajaradilar.

- keys texnologiyalar (real vaziyatlarni tahlil qilish). Ushbu texnologiya o‘quv jarayonining muammoli-izlanish xarakterini, shuningdek, ta‘lim jarayonining amaliy va kasbiy yo‘nalishini ta‘minlaydi.

Turizmni rivojlantirish bosqichma-bosqich ustuvor umummilliy vazifaga aylanib, bu boradagi davlat siyosati faoliyati yangilanayotgan bugungi kunda yangi paradigma bitiruvchilarning mazmun-mohiyatini kengaytirishga asoslanadi. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash faqat shu sohasi uchun kadrlar tayyorlash bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Kadrlar tayyorlash va o‘qitish – bu pul va vaqt sarmoyasi bo‘lib, undan oqilona foydalanish kerak, shuning uchun turizm xizmatlari bozori talablarini hisobga olgan holda turizm korxonalarini uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va amaliyotga yaxshi tayyorlangan universitetlarni bitirish kerak

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зарукина, Ye.B. Активные методы обучения: рекомендации по разработке и применению: учеб.-метод. пособие / E.B. Зарукина, H.A. Логинова, M.M. Новик. – СПб.: СПбГИЭУ, 2010. – 59 с.

2. Nilufar Fayzullaeva, Muborak Makhkamova. Methods Of Enhancing The Perception Of Educational Material In The Process Of Teaching Economic Disciplines. International journal of scientific & technology research. Volume 9, ISSUE 02, February 2020 <https://scholar.google.com/citations?view>

3. Очилова X.Ф. Образовательная модель подготовки квалифицированных кадров для отрасли туризма. Иктисодиёт ва таълим / 2020 № 1 198-202 с. file:///C:/Users/User/Downloads/2020+1

4. Очилова X.Ф. Жалоллидинова X. Информационные технологии – важный источник развития гостиничного бизнеса. Журнал «Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования» https://elibrary.ru/download/elibrary_36929076_78809792.pdf

5. Фрейнкина, И.А. Теория и методика преподавания профессиональных дисциплин в сфере туризма: учебное пособие / – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019.

DAVLAT ULUSHI ISHTIROKIDAGI JAMIYATLARDAGI MHXS (MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI) ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH TARTIBI

*Abdusoliev Asilbek Ilxomjon o'g'li,
Bank-moliya akademiyasi,*

Davlat moliyaviy nazorati va auditi, (DMHA1-22), tinglovchi.

Annotatsiya: Maqolada davlat ulushi ishtirokidagi jamiyatlarda mhxs (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi haqida gap borgan.

Kalit so'zlar: moliya, marketing, hisobot, buxgalteriya, moliyaviy tahlil, moliyaviy hisobot, bank tizimi.

ПОРЯДОК УЧЕТ И ПОДГОТОВКИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ГОСХОЛДИНГАХ НА ОСНОВЕ МСФО (МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ)

Абдусолиева Асилбек Ильхомжон Угли,

Академия банковского дела и финансов, Государственный финансовый контроль и аудит, (DMHA1-22), аудитор.

Аннотация: В статье рассматривается порядок ведения бухгалтерского учета и составления бухгалтерской отчетности на основе МСФО (международных стандартов финансовой отчетности) в обществах с государственной долей участия.

Ключевые слова: финансы, маркетинг, отчетность, Бухгалтерский учет, финансовый анализ, финансовая отчетность, банковская система.

THE PROCEDURE OF ACCOUNTING AND PREPARATION OF FINANCIAL STATEMENTS IN STATE-HOLDING COMPANIES ON THE BASIS OF IFRS (INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING)

Abdusoliev Asilbek Ilxomjon o'g'li,


Academy of Banking and Finance, Public financial control and audit, (DMHA1-22), auditor.

Annotation: the article deals with the procedure for maintaining accounting and compiling financial statements on the basis of IFRS (International Financial Reporting Standards) in societies with the participation of the state share.

Keywords: Finance, marketing, reporting, accounting, financial analysis, financial reporting, banking system.

KIRISH. Bugungi kunda nazariy-amaliy tadqiqotlar, ilmiy-iqtisodiy adabiyotlar va rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning erkin talab-taklif muvozanatiga aralashmagan holda iqtisodiyot boshqaruvini aynan bozor va halol raqobatga asosan tashkil etilishi, iqtisodiyot sohaslarida yuqori raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi vaqt o'tishi bilan o'z tasdig'ini topmoqda. Shu munosabat bilan yildan-yilga davlat korxonalarini sonini xususiyashtirish orqali kamaytirish, mavjudlarining faoliyatini ochiqlik va shaffoflik asosida tashkil etilishini ta'minlash borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat ulushi mavjud va davlat korxonalarini faoliyatining raqobatbardoshligini ta'minlash va xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni rasmiylashtirish masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri etib belgilandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat korxonalarini reestri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2340 nafar turli mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ulardan 732 nafari Toshkent shahrida ro'yhatdan o'tgan bo'lsa, 107 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasidagi faoliyat yuritadi[6]. Agentlik ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda respublika miqyosida yilni kamomad bilan tugatgan yirik 10 ta davlat korxonalarining umumiy zarur hajmi 6040,3 mlrd. so'mni tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. 2020 yilda zarar ko'rgan davlat ishtirokidagi korxonalar (mlrd.so'm) Shu munosabat bilan davlat-xususiy sheriklik asosida ishlashni yo'lga qo'yish, davlat korxonalarida moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarining ochiq va shaffof shakllantirilishini tashkil etish hamda xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish ushbu sohadagi ustuvor masalalardan biridir.

Respublikadagi davlat ulushi ishtirokidagi korxonalar faoliyatini boshqarishning me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi qonunchilik nuqtai nazaridan takomillashtirilgan bo'lib, hozirga vaqtda qadar 13 ta asosiy kontekst bo'yicha qonunchilik hujjatlari mavjud (1-jadval).

1-jadval.

Davlat ulushi ishtirokidagi korxonalarini boshqarishning me'yoriy huquqiy hujjatlar tizimi[1]

1	O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun	https://lex.uz/docs/2382409
2	O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyati jamiyatlari to'g'risida"gi Qonun	https://lex.uz/docs/22525
3	O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun	https://lex.uz/docs/2662539
4	O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun	https://lex.uz/docs/64290#66375
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni	https://lex.uz/docs/4160392
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi PQ-4112-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/4143554
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/4746047
8	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktabrdagi 215-son "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/1072916
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyundagi 207-son "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/2712352
10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda 1013-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/4106617
11	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 maydagi 404-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/4338823
12	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 oktabrdagi 674-son "Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat umit korxonalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori	https://lex.uz/docs/5073659
13	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 dekabrda 775-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi	https://lex.uz/docs/5149408

Davlat korxonalari faoliyatini olib borishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, ish yuritishda byurokratik holatlarni bartaraf etish hamda milliy hisobchilik tizimini xalqaro tajriba asosida xorijiy standartlar bo'yicha integratsiyani yo'lga qo'yish maqsadida 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli Prezident Qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra:

aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

TAHLIL VA NATIJALAR. 2021 yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlaridan (keyingi o'rinlarda — xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020 yildan boshlab, ushbu bandda ko'rsatilmagan davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1 iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. Xo'sh, aslini olganda MHXSning mohiyati nimadan iborat? Nima uchun so'nggi yillarda davlat va hukumat tomonidan MHXS ga o'tishga katta e'tibor qaratilmoqda?

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ommaviy kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini izchil, shaffof va butun dunyo bo'ylab oson taqqoslanadigan qilish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi qoidalari to'plamidir[2]. Hozirgi vaqtda IFRS 167 ta malaka me'yorlari (yurisdiksiya)ga ega, shu jumladan Yevropa Ittifoqidagi kompaniya va firmalar faoliyati uchun to'liq qamrovga ega. Qo'shma Shtatlar boshqa tizimdan, umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillaridan (GAAP) foydalanadi[3].

IFRS standart talablari quyidagilardan iborat:

- IFRS buxgalteriya hisobi faoliyatining keng doirasini qamrab oladi. IFRS majburiy qoidalarni belgilaydigan biznes amaliyotining ayrim jihatlari mavjud.

- Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot: Bu buxgalteriya balansi. IFRS balansning tarkibiy qismlari haqida hisobot berish usullariga ta'sir qiladi.

- Umumiy daromad to'g'risidagi hisobot: Bu bitta hisobot shaklida bo'lishi mumkin yoki foyda va zarar to'g'risidagi hisobotga va boshqa daromadlar to'g'risidagi hisobotga, shu jumladan mulk va asbob-uskunalarga bo'linishi mumkin.

- Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot: Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot sifatida ham tanilgan, bu kompaniyaning ma'lum moliyaviy davr uchun daromad yoki foyda o'zgarishini hujjatlashtiradi.

- Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot: Ushbu hisobot kompaniyaning ma'lum davrdagi moliyaviy operatsiyalarini umumlashtiradi, pul oqimlarini operatsiyalarga, investitsiyalarga va moliyalashtirishga ajratadi.

Ushbu asosiy hisobotlarga qo'shimcha ravishda, kompaniya buxgalteriya siyosati haqida qisqacha ma'lumot berishi kerak. To'liq hisobot ko'pincha foyda va zarardagi o'zgarishlarni ko'rsatish uchun oldingi hisobot bilan yonma-yon ko'riladi. IFRS Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan chiqarilgan. IFRS tizimi ba'zan Xalqaro Buxgalteriya Standartlari (IAS) bilan chalkashib ketadi, ular 2001 yilda IFRS almashtirilgan eski standartlardir. Qayta ko'rib chiqilgan

moliyaviy hisobotning konseptual asosi IASB tomonidan 2018 yil mart oyida e'lon qilingan va IASB va IFRS sharhlash qo'mitasi uchun darhol kuchga kiradi. Muayyan operatsiyaga IFRS Buxgalteriya hisobi standarti qo'llanilmasa, hisob siyosatini ishlab chiqishda Konseptual asosdan foydalanadigan kompaniyalar uchun qayta ko'rib chiqilgan Konseptual asos 2020 yil 1 yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan yillik hisobot davrlari uchun amal qiladi, bundan oldinroq qo'llashga ruxsat beriladi. Yuqorida aytganimizdek, MHXS standartlari asosida tayyorlanuvchi moliyaviy hisobotlar va an'anaviy buxgalteriya hisoboti[4] ning o'rtasidagi asosiy farq ularning oxirgi iste'molchilariga berilgan targetlar bilan farqlanadi. O'zbekiston uchun fiskal hisobot qoidalari moliyaviy hisobotdan ko'ra ko'proqdir, ya'ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari mamlakat statistika va soliq muassasalari hisoblanadi. Holbuki, MHXSga muvofiq hisobot berish eng maqbul, optimal iqtisodiy qarorni qabul qilish uchun investorlar va menejrlarni tijorat korxonaning haqiqiy holati to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan[5]. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida MHXS ning 60 dan ziyod standartlari va sharhlari Moliya vazirligining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i[3] ga asosan tan olingan bo'lib, ular asosida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tashkillashtirish yo'lga qo'yilgan. Moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun foydalaniladigan buxgalteriya tamoyillarini xalqaro miqyosida bir shaklga keltirish maqsadida Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mitasi (MHXSQ) tuzilgan. Ushbu Qo'mita tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ishlab chiqilib chop etilgan va barcha tadbirkorlik sub'ektlari hamda korxonalarda tadbiriq etish va rioya qilish uchun tavsiya etilgandir. Moliyaviy hisobotni taqdim etish kabi MHXSning asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagilar belgilanishi kerak

- vazifalarni yechish uchun talab yetiladigan moliyaviy ma'lumot;
- axborot tizimini tuzish tamoyillari;
- moliyaviy hisobot elementlari.

Moliyaviy hisobotning maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot taqdim etishdan iboratdir. Ushbu ma'lumot keng doiradagi foydalanuvchilarga qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, korxonani pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko'paytirish, shuningdek bu jarayonni barqarorligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini baholashni talab etadi. XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyati sohasida axborotga bo'lgan konstitutsion huquqni ta'minlagan holda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy makon va bozor birligining kafolatidan biri hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzishni tartibga solish O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish tizimini rivojlantirishning maqsadga muvofiqligini ta'minlab berishi, ko'plab manfaatdor foydalanuvchilar qiziqishlarini hisobga olishi hamda izchillikni ta'minlashi lozim. Ushbu jarayonda davlat hokimiyati va hukumat organlari zimmasiga yuklatiladigan vazifalarni atroflicha tahlil qilish davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining moliyaviy hisobotlarini tuzishda yaratiladigan yengilliklar va tashqi kuzatuvchilar uchun xalqaro standartlar asosida rasmiylashtirishning afzalliklarida namoyon bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlarining jamiyat uchun ahamiyatini e'tiborga olgan holda, birinchi navbatda standartlarning adekvatligi va sifatiga qat'iy ishonch hamda ularga to'liq ishonish mumkinligiga asoslangan holda ularni har taraflama e'tirof etish, ularni qabul qilish jarayoniga kasbiy hamjamiyatni jalb qilish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://davaktiv.uz/uz/corporate/meyoriy-huquqiy-hujjatlar>
2. <https://www.ifrs.org/about-us/who-we-are/>
3. <https://www.investopedia.com/terms/i/ifrs.asp>
4. 13.04.2016 йилдаги ЎРҚ-404-сон «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида» ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни <https://lex.uz/docs/2931253>
5. М.С. Тулаев МҲХС бўйича молиявий ҳисобот: тайёрлаш ва автоматлаштириш// «рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш масалалари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Тошкент -2020.345-бет.
6. Список предприятий с государственным участием (egov.uz)

Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва кадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 20.12.2023. Буюртма №2347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)



